

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA‘LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMA LINGVISTIKASI
fanidan

O‘QUV – USLUBIY
MAJMU‘A

2025/2026-o‘quv yili kunduzgi ta‘lim shakli, 3-kurslari uchun

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi:	120000 - Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5A120201 - Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari bo‘yicha)

Namangan-2025/2026

Ushbu o'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 1-martdagi 107-sonli buyrug'i asosida tayyorlandi. Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli kengashida tasdiqlandi.

Tuzuvchi: A.Kenjayev - Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar: N. Jakbarova Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi, (PhD)
M. Yuldasheva - Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat chet tillari instituti Filologiya fakulteti ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

2024-yil 29-avgust 1 -sonli majlis bayoni.

Fakultet dekani



S.Misirov

MUNDARIJA

Ma'ruza matni	4
Mavzu №1. “Qiyosiy tilshunoslik va tarjima lingvistikasi” fanining mazmun mohiyati.....	4
Mavzu №2. Tilshunoslik tarixi.....	6
Mavzu №3. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi.....	14
Mavzu №4. Til oilalarini qiyosiy-tarixiy o‘rganish.....	20
Mavzu №5. Oltoy tillari nazariyasi.....	25
Mavzu №6. Tillarning morfologik tasnifi	29
Mavzu №7. Qiyosiy tilshunoslikning tahlil metodlari.....	32
Mavzu №8. Tipologik tilshunoslik.....	35
Mavzu №9. Lingvistik universalialar	37
Mavzu №10. Tillarning fonetik tipologiyasi	39
Mavzu №11. Tillarning morfologik tipologiyasi.....	43
Mavzu №12. Tillarning leksik tipologiyasi	54
Mavzu №13. Tillarning sintaktik tipologiyasi	58
Mavzu №14. Chog‘ishtirma tilshunoslik.....	64
Mavzu №15. Kontrastiv lingvistika.....	67
Mavzu №16. Kontrastiv lingvistikaning tushunchalari va tamoyillari.....	70
Mavzu №17. Qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslikning o‘zaro munosabati.....	73
Mavzu №18. Qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikning farqlari.....	78
Amaliy mashg‘ulotlar	83
Mavzu №1.“Qiyosiy tilshunoslik va tarjima lingvistikasi” fanining obyeksi, predmeti, maqsadi va vazifalari.....	83
Mavzu №2. Qadimgi asrlar tilshunosligi.....	86
Mavzu №3. Komparativistik tilshunoslikning nazariy asoslari.....	90
Mavzu №4. Nemis tilshunoslari.....	92
Mavzu №5. Vilgelm fon Gumboldt.....	94
Mavzu №6. Tillar tasnifi.....	98
Mavzu №7. Hind-Yevropa tillari oilasi.....	100
Mavzu №8. Oltoy tillari oilasi.....	102
Mavzu №9. Agglyutinativ tillar.....	104
Mavzu №10. Flektiv tillar.....	108
Mavzu №11. Ihtalangan tillar (amorfi tillar).....	110
Mavzu №12. Polisintetik tillar.....	113
Mavzu №13. Qiyosiy tilshunoslik metodlari.....	114
Mavzu №14. Tipologik tadqiqot turlari.....	117
Mavzu №15. Sharq tillarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	120
Mavzu №16. Chog‘ishtirma tilshunoslikning asosiy prinsiplari va yo‘nalishlari.....	123
Mavzu №17. Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasi.....	125
Mavzu №18. Tarjimaning lingvistik aspektlari	128
Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari	132
Kurs ishi mavzulari	133
Glossariy	134

O'QUV MATERIALLARI

MA'RUZA MATNI

1-MAVZU

“QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMA LINGVISTIKASI”

FANING MAZMUN MOHIYATI

(2 soat)

Reja:

1. Qiyosiy tilshunoslik
2. Tarjima lingvistikasi

Tayanch soʻz va iboralar: *qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik, chogʻishtirma (kontrastiv) tilshunoslik, umumiy tilshunoslik, tarjima lingvistikasi.*

1.1. Qiyosiy tilshunoslik

Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining *predmeti* ikki yoki bir necha qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillardagi lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash, chogʻishtirish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini oʻrganishdir. Shuningdek, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik oʻzaro aloqasini belgilash, bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda oʻzga tildagi muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratishning yoʻl va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat oʻzgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratishdir.

Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining *obyekti* turli til sistemalari va nutqiy asarlardir. Asl nusxadagi matn asosida oʻzga tilda boshqa bir nutqiy asar (tarjima matni) yaratiladi. Demak, qiyosiy tilshunoslik turli til oilasiga mansub lisoniy materiallar, tarjima lingvistikasi esa bir tilga mansub boʻlgan til vositalari yordamida yaratilgan matnni tarjima tili qonuniyatlari asosida yangi bir matnni yaratish nazariyalari bilan shugʻullanadi.

Qiyosiy tilshunoslikning *maqsadi* qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillarni sinxron va diaxron kontekstda tasvirlash; qiyosga olingan tillarning struktur-tipologik xususiyatlarini aniqlash; tillarning genetik-tipologik xarakteristikasini amalga oshirishdan iborat. Tarjima lingvistikasining *maqsadi* u yoki bu chet til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratish nazariyalarini takomillashtirishdan iboratdir. Qiyosiy tilshunoslik va tarjima lingvistikasi ana shu ikki maqsadni oʻzida birlashtiradi.

Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining *vazifasi* qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillardagi leksik, grammatik, sintaktik va stilistik hodisalari oʻrtasidagi oʻxshash hamda farqlarni aniqlash; bu umumiy xususiyat va tafovutlarni hisobga olgan holda asl nusxaning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdagi tarjimaviy muammolarni hal qilishdan iboratdir.

Qiyosiy tilshunoslik – qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillar sistemalarini diaxronik va sinxronik nuqtayi nazardan oʻrganishdir. Qiyosiy tilshunoslik deganda a) qiyosiy-tarixiy tilshunoslik; b) tipologik tilshunoslik; v) chogʻishtirma (kontrastiv) tilshunoslik tushuniladi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning obyekti qarindosh tillar hisoblanadi. Maqsadi – qarindosh tillar evolyutsiyasini sinxron va diaxron kontekstda tasvirlash; oʻzaro qarindoshlik munosabatidagi tillar va ularning birliklari orasidagi genetik va gipotetik mosliklar va qonuniyatlari (fonetik, leksik-semantik, grammatik va h.k.)ni, til birliklarining rivojlanishini aniqlash; bobo til (prayazik) va uning rivojlanish bosqichlarini rekonstruksiya qiladi; tillar genealogik tasnifining umumiy sxemasida til oilalari va makrooilalar tarkibini belgilashdan iborat. Qiyosiy tahlilga cheklanmagan miqdorda tillar tortiladi.

Tipologik tilshunoslikning obyekti qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Tipologik tilshunoslikning maqsadi – tillar o'rtasidagi struktur o'xshashlik va farqlarni tasvirlash hamda mazkur tasvir metodologiyasini ishlab chiqish; tillarni turlariga ko'ra tasniflash; qiyosga olingan tillarning struktur-tipologik xususiyatlarini aniqlash; tillarning genetik-tipologik xarakteristikasini amalga oshirishdan iborat.

Chog'ishtirma tilshunoslikning obyekti qarindosh yoki qarindosh emasligi va tipologik xarakteristikasiga qaramay tillarni o'rganish hisoblanadi. Chog'ishtirma tilshunoslikning maqsadi – ikki yoki bir qancha tillarni uning butun darajalari (fonologik, morfologik, sintaktik va semantik darajalari)dagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash uchun chog'ishtirib o'rganadi.

1. 2. Tarjima lingvistikasi

Tarjima lingvistikasining *predmeti* ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash orqali bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda o'zga tildagi muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratishning yo'l va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat o'zgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratishdir.

Tarjima lingvistikasining *obyekti* mavhum tarzda tasavvur qilinadigan til sistemasi emas, balki konkret nutqiy asardir (asl nusxadagi matn). Asl nusxadagi matn asosida o'zga tilda boshqa bir nutqiy asar (tarjima matni) yaratiladi. Demak, tarjima lingvistikasi bir tilga mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan matnni tarjima tili qonuniyatlari asosida yangi bir matnni yaratish bilan nazariyalari bilan shug'ullanadi.

Tarjima lingvistikasining *maqsadi* u yoki bu chet til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratish nazariyalarini takomillashtirishdan iboratdir.

Tarjima lingvistikasining *vazifasi* asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi o'xshash hamda farqlarni hisobga olgan holda asl nusxaning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdagi tarjimaviy muammolarni hal qilishdan iboratdir.

Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta filologik bilim va tegishli nazariy tayyorgarlikni talab qiladi.

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsada, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz bir necha asrlar mobaynida qabul qilingan va rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar.

Tarjima lingvistikasining ahamiyati shundan iboratki, u tarjima amaliyotida tarjimonning matn tarjimasiga "intuisiya" yo'li bilan yondashishiga yo'l qo'ymaydi. Tarjima turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi vositadir.

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-birlariga bo'ladigan ta'sir jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g'oyalar va tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima turli xalqlar madaniyati va ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etadi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omilidir.

Tarjima lingvistikasi o'z tadqiqotlarini boshqa qator an'anaviy filologik, ayniqsa, lingvistik tadqiqot metodlaridan o'rni bilan foydalangani holda ko'proq chog'ishtirma tilshunoslik metodi bilan olib boradi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batafsil tahlil qilish zaruriyati komponent tahlil metodidan foydalanishni taqozo etadi.

2-MAVZU
TILSHUNOSLIK TARIXI
(8 soat)

Reja:

1. Qadimgi hind tilshunosligi
2. Qadimgi yunon tilshunosligi
3. Qadimgi Rim tilshunosligi
4. Qadimgi Xitoy tilshunosligi

Tayanch soʻz va iboralar: *hind tilshunosligi, yunon tilshunosligi, Rim tilshunosligi, Xitoy tilshunosligi, Vedalar tili, sanskrit tili, Panini grammatikasi, Yaski, falsafiy davr, grammatik davr, Geraklit, Demokrit, anomalistlar, Anaksimenes, Prodik, Protogor, Platon, Aristotel, Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol, Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian, iyeroglif, Syuy Shen, Van Nyan-Sun, Van In-Chji.*

2.1. Qadimgi hind tilshunosligi

Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan eʼtirof etiladi. Bu – mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga boʻlgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shugʻullanish ilk bor Hindistonda – hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega boʻldi. Aniqrogʻi, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida – sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari – Vedalar tili davrlar oʻtishi bilan mamlakat aholisining soʻzlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Yaʼni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan soʻzlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yoʻqotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini oʻrganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida eʼtiborga, hurmatga sazovor boʻlgan Vedalardagi maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlarni aniqlab, ularning maʼnosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lugʻatlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi soʻz va jumlar maʼnosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga boʻlgan qatʼiy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab boʻldi.

Hindlar qadimiy davrda eng buyuk fonetikachi va grammatikachi sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida Yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farq-laganlar, portlovchi va sirgʻaluvchi, jarangli va jarangsiz to-vushlarni, tovush birikmalarini, boʻgʻin, urgʻu, intonatsiya, choʻziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan mukammal maʼlumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida ham muayyan tushunchalar boʻlgan.

Qadimgi hindlar soʻzlarning faqat maʼno tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham oʻzgarishlar boʻlishini bilganlar. Shunga koʻra ular soʻzlarning tovush jihatiga alohida eʼtibor berganlar. Tovush haqida, tovushlarning oʻzgarishi haqida tadqiqot ishlarini olib berganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik-artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush taʼsiri bilan oʻzgarishi (kombinator oʻzgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham eʼtibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq aʼzolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga taʼsiridan, yaʼni tegishidan undoshlar hosil boʻlishini qayd etganlar.

Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan boʻlsalar, hind tilshunoslari bu jarayonga alohida eʼtibor berganlar, tadqiqot olib berganlar, ayni jarayonning oʻziga xosliklarini aniqlab berganlar. Qiyoslang: sanskrit tiliga oid soʻzlarda, masalan, vidma soʻzi «biz bilamiz» maʼnosini bersa, veda «men bilaman» tushunchasini, vaidyas soʻzi esa «olim», «ilimli» maʼnosini berishini koʻrsatib berganlar. Qayd etilgan maʼno (tushuncha) oʻzgarishlari esa i

– e – ai unli tovushlarning almashinuvi natijasi ekanligi haqida ishonarli, asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Qadimgi hind tilshunoslari grammatika-morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular bu yo‘nalishda ham grek tilshunoslaridan ancha o‘tib ketdilar. Aniqrog‘i, hind tilshunosi Guru morfologiyaning uch bo‘limdan tashkil topishini aniq ko‘rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So‘zlar tasnifi (so‘z turkumlari). 2. So‘z yasalishi. 3. So‘z o‘zgarishi.

Hindlar to‘rtta so‘z turkumini farqlaganlar: ot, fe‘l, old ko‘makchi va yuklama.

Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe‘l esa harakat, holat ifodalovchi so‘z sifatida beriladi. Old ko‘makchilar esa otlarning, asosan, fe‘llarning ma‘nosini belgilaydi. Yuklamalar esa ma‘nolariga ko‘ra 1) bog‘lovchi va 2) qiyoslovchi kabi turlarga ajratiladi. Olmosh va ravishlar esa ot va fe‘l turkumlariga qo‘shib yuborilgan, alohida ajratilmagan.

Yunonlardan farqli holda hindlar so‘z turkumlarini gap bo‘laklaridan farqlaganlar, ya‘ni ular bilan qorishtirma-ganlar, adashtirmaganlar. Shunga ko‘ra hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe‘llarni harakat ifodalovchi so‘z sifatida «baholaganlar».

Qadimgi hindlar so‘zlarni tahlil qilish, tarkibini o‘rganish jarayonida ularni quyidagi bo‘laklarga ajratganlar: 1) o‘zak, 2) suffiks, 3) qo‘shimcha (turlovchi qo‘shimcha). Shuningdek, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi morfemalar farqlangan.

Ovrupo olimlari hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so‘zlardan o‘zak, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgar-tiruvchi morfemalarni ajratishga «kirishganlar».

Hindlar otlarda yettita kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qaratqich kelishigi, 3) jo‘nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o‘rin kelishigi.

Hind tilshunoslari qo‘shma so‘zlarning o‘ttizga yaqin turini farqlaganlar. Ular qo‘shma so‘zlarning tuzilishida komponentlar orasidagi munosabatlarga e‘tibor berganlar. Masalan: ot+ot//fe‘l; sifat// sifatdosh //ravish+ot // sifat//fe‘l; son+ot va boshqalar.

Hind grammatikachilari fe‘l turkumining morfologik kategoriyalarini mukammal ishlagan edilar. Ular fe‘lning uch zamonga birlashadigan yetti xil zamon formasini: hozirgi zamon, o‘tgan zamonning tugallangan, tugallanmagan, uzoq o‘tgan zamon turlarini, kelasi zamon, odatdagi kelasi zamon va juda kam qo‘llaniladigan shart fe‘li shaklini ajratganlar.

Hindlar qadimgi davrlardayoq fe‘lning to‘rtta maylini – aniqlik, istak, buyruq va shart mayllarini bilganlar. Fe‘lning aniq, o‘rta va majhullik nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta‘riflangan, tavsiflangan. Hindlar sanskrit tilida fe‘lning uchta shaxs va uchta son: birlik, juftlik va ko‘pliklarga ko‘ra tuslanishni ko‘rsatganlar.

Hind tilshunoslari fikr ifodalash birligi bo‘lgan gapning muhimligini inkor qilmagan bo‘lsalar-da, sintaksis masalalari bilan maxsus shug‘ullanmaganlar. Ular sintaksisda so‘zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon va mayl formalarining birikishi kabi masalalarni o‘rganish bilan chegaralanganlar. So‘z fikr ifodalash imkoniyatiga ega emas, ya‘ni so‘z gapdan tashqari mavjud emas deb, gapni tilning asosiy birligi hisoblaganlar.

Xullas, qadimgi hindlar fonetika va morfologiyaga nisbatan sintaksis masalalarida ancha bo‘sh bo‘lganlar.

Panini grammatikasi. Qadimgi hindlarning eng mashhur tilshunosi Paninidir. U bizning eramizgacha bo‘lgan IV asrda yashab ijod etdi. Panini o‘zigacha bo‘lgan davr tilshunoslarining qo‘lga kiritgan yutuqlarini umumlashtirib, ulardan foydalangan holda klassik sanskritning (qadimgi hind adabiy tilining) eng mashhur grammatikasini yaratdi. Uning ushbu asari «Ashtadxyan» nomi bilan ataladi. Panini grammatikasi to‘rt mingga yaqin (3996 ta) qisqa va lo‘nda she‘riy usulda yozilgan, osonlik bilan esda qoladigan qoidalarni (sutr) o‘z ichiga oladi.

Panini grammatikasi sof empirik va tasviriy xarakterga ega bo‘lib, unda sanskrit (qisman Veda) tilining fonetikasiga, morfologiyasiga, so‘z yasalishi va sintaksisiga oid fikrlar jamlangan.

Ushbu tadqiqot tili – undagi qoidalar nihoyatda ixcham va qisqa bo‘lganligi, asar tili o‘ziga xos terminologiyaga egaligi sababli Panini tadqiqoti uzoq vaqtgacha ovrupolik olimlarga tushunarli bo‘lmadi. Birinchi bo‘lib, asar mazmunini, undagi g‘oyani rus tilshunos olimi O.Byotling izohlab berdi.

Panini o'z davridayoq tilni sistema sifatida tushundi, so'z turkumlarini farqladi, so'z tarkibini o'rgandi, o'zak, qo'shimcha, urg'u, intonatsiya va boshqa hodisalar haqida ma'lumot berdi.

Panining sakkiz bo'limdan iborat klassik sanskrit masalalariga oid grammatikasi Hindistonda deyarli ikki ming yil davomida eng asosiy va eng muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Eramizning XIII asrlaridagina sanskritning hind olimi Vopadeva tuzgan yangi grammatikasi maydonga keldi.

Yaski (eramizdan avvalgi V asr). Yaski (Yaska) Hindistonning mashhur tilshunosidir. U so'z hamda so'zning morfologik tarkibi, ma'nosi, vazifasi haqida fikrlarini yozib qoldirgan. Yaski so'zning predmetni bevosita aks ettirmasligini, so'z bilan, ya'ni uning tovush tomoni bilan predmet o'rtasida ma'noning mavjudligini to'g'ri ta'kidlaydi. So'z ma'no tufayli predmetni nomlash imkoniyatiga egaligini qayd etadi.

Tilshunos Vedalar tilini keng izohlab, tushuntirib beruvchi asar yaratadi va bunda o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilar ishlarini, umumlashtiradi.

Xullas, qadimgi Hindistonning tilshunoslik sohasidagi yutuqlari ulkan bo'lib, ular o'z muvaffaqiyatlari bilan jahon tilshunosligi faniga katta hissa qo'shdilar. Ularning ta'limotlari, g'oyalari yunon va arab tilshunosligiga jiddiy ta'sir qildi. Hind tilshunosligi Ovrupoga XVIII asrning o'rtalarida yetib keldi.

O'rta Osiyoda esa hind tilshunoslarining ta'limotlari ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Jumladan, buyuk bobokalonimiz xorazimlik Abu Rayhon Beruniy (X – XI asr) sanskritni yaxshi bilgan, Hindistonga maxsus bag'ishlangan «Hindiston» nomli asar ham yaratgan.

Eng muhimi shundaki, hind tilshunoslarining jahon tilshunosligiga qo'shgan beqiyos hissasi sanskrit bilan belgilanadi. Tilshunos olimlarning sanskrit bilan yaqindan tanishuvi jahon fanida qiyosiy - tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

2.2. Qadimgi yunon tilshunosligi

Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi. Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Yunon faylasuflari til masalalarini o'rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo'nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo'nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy-falsafiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining yetakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug'ullanishga, shu yo'nalishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo'ldi. Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo'linadi:

- 1) Falsafiy davr.
- 2) Grammatik davr.

1) Tilshunoslikning falsafiy davri. Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g'oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo'nalishlar til masalalari bilan faol shug'ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o'ta dolzarb va eng muhim muammolaridan biri so'z muammosi, so'zning tabiiy hodisami? yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo'lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafma-taraf bo'lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog'i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o'rtasida qanday munosabat mavjud? So'zdagi tovush bilan ma'noning bog'lanishi qanday yuz beradi? Bu bog'lanish tabiat tomonidan

beriladimi yoki soʻzlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi? yoki maʼlum qonun-koʻrsatma bilan tayinlanadimi?, «muayyan urf-odat bilan bogʻlanadimi? yoki odamlar tomonidan belgilanadimi. Yaʼni bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi? va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida soʻz bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarafdorlari quyidagi gʻoyani ilgari suradilar. Ular har bir nom oʻzi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bogʻlanishda boʻlib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon boʻladi, «ochiladi». Aniqrogʻi, suvda daraxtlar, koʻzguda oʻzimiz aks etganidek har bir nom oʻzi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anigʻi predmet bilan ularni anglatuvchi soʻzlar orasidagi bogʻlanish tabiat tomonidan berilgan boʻlib, bu bogʻlanish tabiiy, zaruriy bogʻlanish hisoblanadi.

Xulosa shuki, olamda mavjud boʻlgan barcha narsa-predmetlarning tabiat tomonidan berilgan, oʻziga mos va xos nomlari, «toʻgʻri» nomlari bor. Soʻzlar tabiat tomonidan yara-tilgan. Tabiat har bir predmet uchun alohida nom belgilagan, nom bergan.

Demokrit va uning tarafdorlari esa soʻz va predmet munosabati masalasida Geraklit va uning tarafdorlariga qarshi quyidagi gʻoyani ilgari suradilar. Ular aytadi: narsa, predmetlarning nomlari, soʻzlar ularning tabiatiga qarab, mohiyatiga muvofiq holda qoʻyilmaydi, balki nomlash jarayoni odatga koʻra, odamlarning oʻzaro kelishuviga, ular tomonidan belgilanishiga koʻra amalga oshadi. Demak, predmetlarga nomlar tabiat tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan beriladi.

Demokrit va uning tarafdorlari oʻz gʻoyalarining toʻgʻriligini isbotlash uchun yana quyidagi fikrlarni ham bayon qiladilar: 1) koʻp soʻzlar bir necha maʼnoga ega boʻlib, shunga muvofiq ular turlicha predmetlarni ifoda etadi; 2) koʻpgina tushunchalar bir qancha nomga, atamaga ega boʻladi; 3) tilning tabiiyligi gʻoyasidan kelib chiqadigan boʻlsak, u holda koʻpgina predmetlarning bir nechta nomga ega boʻlishi mumkin emas; 4) vaqt oʻtishi bilan bir soʻz oʻrniga boshqasi yuzaga keladi. Yaʼni muayyan predmet nomi oʻzgarib, boshqa nomga, atamaga ega boʻladi; 5) koʻpgina tushunchalar soʻz ifodasiga, nomga ega emas. Demak, - deydi Demokrit va uning tarafdorlari, bir vaziyatda soʻzlar yetishmasa, boshqa vaziyatda ular ortiqcha, koʻp. Yana boshqa bir holatda soʻzlar qatʼiy emas, yana boshqa bir vaziyatda esa soʻzlar kamlik qiladi. Demokrit fikricha, bunday holat, asosan, odamlar faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, ular tomonidan yuzaga keladi, tabiat tomonidan emas.

Shunday qilib, Demokrit va uning tarafdorlari narsa, predmet nomlari tabiat tomonidan, tabiiy berilgan emas, degan gʻoyani ilgari suradilar va ayni fikrning toʻgʻriligini tilda mavjud boʻlgan omonim va sinonim soʻzlar bilan isbotlaydilar. Haqiqatan, bir-biridan farq qiladigan turli narsalarning nomlari (soʻzlar) qanday qilib bir xil (omonim: ot, yosh, qirq, koʻk, son, koʻr, til, ter, qoʻy, quv) yoki bir narsaning qanday qilib birdan ortiq nomi (sinonim: bosh, kalla; janjal, gʻavgʻo, toʻpalon, gʻalva, mashmasha; boʻkmoq, ivimoq; kulmoq, iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq) boʻlishini Geraklit tarafdorlarining taʼlimoti-moslik, «toʻgʻrilik» taʼlimoti asosida izohlab boʻlmaydi. Chunki sinonimlar tovush tomonidan farqli boʻladi; agar soʻzning tovush tomoni predmetning mohiyati, xususiyati bilan bevosita bogʻlangan boʻlsa, demak, sinonimlar turli xil xususiyatni ifodalovchi soʻzlar sifatida bitta predmetni anglatishlari mumkin emas. Qolaversa, tabiatdagi hamma predmetlar ham oʻz nomlariga ega emas.

Tilshunoslikning falsafiy davrida eng dolzarb muammo boʻlgan predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi Platonning «Kratil» nomli asarida ham mukammal bayon qilinadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida til masalalari bilan jiddiy va barakali shugʻullangan oqimlardan biri stoicism hisoblanadi. Stoicism taʼlimotining vakillari boʻlgan stoiklar: Xrisipp, Krates va boshqalar oʻz taʼlimotlarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq boʻlishini qarama-qarshi qoʻyadilar. Shunga koʻra ular tilni kishilarning ruhida tabiat talabiga koʻra paydo boʻlgan deyish bilan birga soʻz predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb aytganlar. Stoiklar soʻzlovchi gapirganida soʻz orqali u predmetning tabiati haqida qanday taassurotda boʻlsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tugʻiladi, deb oʻylaganlar. Stoiklar predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasida Geraklit va uning tarafdorlari taʼlimotini quvvatladilar. Yaʼni ular ham predmet va uning nomi (soʻz) oʻrtasida moslik, muvofiqlik mavjud deb hisoblar edilar.

Ayni vaqtda stoiklarning muxolifi bo'lgan Epikur va uning ta'limoti tarafdorlari esa Demokritning fikrini quvvatlab, so'zlar va predmetlar orasidagi aloqa, bog'lanish tabiiy bo'lishi mumkin emas. Chunki narsalarning mohiyati bilan ularning nomi orasida qarama-qarshiliklar juda ko'p, degan fikrni ilgari surganlar. Epikurchilar predmet bilan uning nomi orasidagi aloqa tasodifiy, bu aloqani dastlab tilni o'zaro kelishuvchilik asosida ijod qilgan kishilar yaratgan. Ana shunday tasodifiylik bo'lmaganida edi, barcha xalqlar bir-birlarining tillariga tushungan bo'lar edi, deyishadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida o'zaro qizg'in kurash olib borgan yetakchi oqimlardan, yo'nalishlardan yana biri analogistlar va anomalistlar – qarama-qarshi g'oyadagi faylasuflar guruhi edi. Ular til hodisalarida analogiya mavjudmi? yoki anomaliami?, qonuniyat mavjudmi yoki qonuniyat yo'qmi?, degan fikr bilan qurollanib, til bilan ob'ektiv borliq, so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishga kirishadilar.

Mashhur yunon grammatikachisi Aristarx boshchiligidagi analogistlar oqimi tilning grammatik qurilishi va lug'at tarkibi bilan borliq orasida moslik, muvofiqlik-o'xshashlik mavjud, degan g'oyani ilgari surishadi. Ular yunon va lotin tillarida otning uch xil grammatik jinsi (rod): erkaklar jinsi, ayollar jinsi va har ikki jinsga ham tegishli bo'lmagan oraliq jins mavjudligini aytishadi. Shunga ko'ra ular predmetlar erkaklar jinsiga, ayollar jinsiga yoki oraliq jinsga tegishli bo'ladi, deyishadi.

Anomalistlar oqimining yetakchisi stoik Krates va uning tarafdorlari esa ushbu g'oyaga zid fikrni, zid g'oyani ilgari surishadi. Ya'ni ular aytadi: tilning tarkibi va grammatik qurilishi bilan borliq orasida to'la moslik, o'xshashlik yo'q; biz doim turli tengsizlikka, moslik meyoridan chetga chiqish-larga duch kelamiz. Masalan, tildagi uch grammatik jins atrofimizdagi narsalarga real ravishda to'g'ri keladi, deb hisoblash be'manilikdir. Haqiqatan ham, masalan, rus tilidagi cherepaxa (toshbaqa), belka (olmaxon) so'zlari shakliga qaraganda grammatik jihatdan ayollar jinsiga mansub bo'lishi kerak edi. Amalda esa o'sha hayvonlarning erkagi ham, urg'ochisi ham bir xilda cherepaxa, belka deyiladi. Shuningdek, rus tilidagi dyatel (qizilishton) so'zi o'z shakliga ko'ra faqat erkaklar jinsiga nisbatan qo'llanaveradi. Demak, bu yerda til anomaliasi mavjud bo'lib, shakl bilan mazmun orasida moslik yo'qdir.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi yunon faylasuflari Anaksimenes, Prodik, Protogor, Platon, Aristotellar til masalalariga oid asarlar yaratganlar va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Anaksimenes (bizning eramizgacha bo'lgan 560-502y). U «Riktorika» asari bilan stilistika fanining asosini yaratdi.

Prodik (bizning eramizgacha bo'lgan V asr). Prodik sinonimika masalalarini ishlab chiqdi. U ma'no jihatdan har bir ma'nodosh so'zning o'ziga xos xususiyatlarini, ma'no ottenkalarini, qirralarini farqlashga o'rgatdi.

Protogor (bizning eramizgacha bo'lgan 480-410 y). Protogor otlarning rodlarini (jinsini), fe'l zamonlarini va gaplarning turlarini farqladi. Shuningdek, ayni davr faylasuflari ot va fe'llarni farqlab, gapning ot bilan fe'lning bog'lanishidan hosil bo'lishini ta'kidladilar.

Platon (bizning eramizgacha bo'lgan 427-347 y). O'z davrining dastlabki yirik faylasufi Platon etimologika fanining asoschisi sifatida e'tirof qilinadi. U mantiqliq nutqda ikki turdagi so'zlarni: otlarni va fe'llarni farqladi. Gapda ega vazifasida kelgan so'zni ot deb, kesim vazifasida kelgan so'zni fe'l deb, atadi. Fe'lning ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan so'z ekanligini qayd etdi.

Aristotel (bizning eramizgacha bo'lgan 348-322 y). O'z davrining ikkinchi buyuk qomusiy olimi-faylasufi Aristotel tilga oid masalalarni mantiq bilan bog'liq holda o'rgandi va u birinchi bo'lib, grammatikani mantiqdan ajratdi. Aristotel ham, Platon kabi, ot-egani va fe'l-kesimni tan oldi. Bu guruhga qo'shimcha ko'makchi so'zlarni – bog'lovchilarni ham kiritdi. Ya'ni so'zlarni uch turkumga: ot, fe'l, bog'lovchi hamda yuklama kabilarga bo'ldi. Ot va fe'llarni mustaqil ma'noga ega so'zlar sifatida, bog'lovchi, yuklamani esa faqat grammatik vazifa bajaruvchi so'z sifatida qayd etdi. Aristotel o'z davridayoq gapni fikr ifodalovchi nutq birligi deb, ta'rifladi. Shuningdek, u

kelishiklar, tovushlar haqida ham ma'lumot berdi. Masalan, u fonetikada unli va undosh tovushlarni ajratdi.

Yuqorida aytilganlardan bir muncha farqli holda tilshunoslikning falsafiy davrida stoiklar nutqda so'zlarni besh guruhga: fe'l, bog'lovchi, artikl, atoqli otlar va turdosh otlarga ajratdilar. Shuningdek, ular ushbu so'zlarning barchasi ham ma'nolidir, deyishdi. Stoiklar otlarda beshta kelishikni farqladilar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, jo'nalish kelishigi, tushum kelishigi va chaqirish (zvatelniy; chiqish) kelishigi.

Stoiklar o'sha davrdayoq nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa b'lib, o'rgandilar. Ular yunon tilida 24 ta tovush borligini aytib, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar.

Xullas, tilshunoslikning falsafiy davridan hozirgi tilshunoslik uchun muhim bo'lgan ikki ta'limot qoldi:

Tilning elementlari, birliklari (so'z va gap) – ishora, belgi.

Til birliklari ma'no, fikr bilan shartli bog'langan.

2) Tilshunoslikning grammatik davri. Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi bo'lgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog'liq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining ta'siri natijasida yunon madaniyati, Sharq madaniyati bilan qo'shib ketib, aralash madaniyat – ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha bo'lgan III asrdan boshlab, birorta ham shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz bo'lgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilolmas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida – yunon-sharq davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 334-31y) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakillari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar.

Zenodot (taxminan bizning eramizgacha bo'lgan 250 y). U 800.000 dan ortiq qo'lyozma manbalarga ega bo'lgan mashhur Iskandariya kutubxonasining birinchi rahbari. Zenodot va boshqa yunon filologlari Gomer, Esxil, Sofokl va boshqalarning asarlari ustida faol tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular ushbu asarlarning lug'at tarkibi va grammatikasiga oid sharhlar ustida mehnat qildilar. Zenodot artiklni, olmoshlarni farqladi.

Aristarx (bizning eramizgacha bo'lgan 215-143 y). Iskandariya maktabining eng mashhur va yetakchi olimi samofrakiyalik Aristarx uzoq yillar davomida Iskandariya kutubxonasini boshqardi. U o'zining 40 ga yaqin shogirdlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular Gomer asarlarini mukammal o'rganib, tekshirib chiqilgan to'liq matnini yaratishdi. Aristarx so'z turkumi haqidagi ta'limotni mukammal ishlab chiqdi va sakkizta so'z turkumini ajratdi. Bular: ot, fe'l, sifatosh, artikl yoki ko'rsatkich, olmosh, old ko'makchi, ravish va bog'lovchi.

Dionisiy (bizning eramizgacha bo'lgan 170-90 y). Aristarxning shogirdi frakiyalik Dionisiy o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilarning ishlari va tajribalarini o'rganib, ulardan foydalanib, rimliklar uchun «Grammatika san'ati» nomli sistemalashtirilgan dastlabki yunon grammatikasini yaratdi. Dionisiy ta'limotiga ko'ra so'z so'zlashuv nutqining (bog'langan nutqning) eng kichik bo'lagi (qismi)dir. Gap (yoki nutq) esa so'zlarning o'zaro munosabatidan, bog'lanishidan hosil bo'lib, tugal fikr ifodalaydi. Dionisiy grammatikasida ot turkumi haqida quyidagi fikr beriladi: ot kelishik va songa ko'ra o'zgaruvchi turkumdir. U sifatlarni ham otga kiritadi.

Dionisiy fe'l haqida fikr yuritib, fe'lning kelishiksiz so'z turkumi bo'lib, zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, tuslanish va boshqalarga ega ekanligini aytadi. Fe'lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va noaniqlik mayllarini; fe'lning uchta: harakat, o'zlik va o'rta nisbatlarini; fe'lning uchta: birlik, juftlik va ko'plik sonlarini; fe'lning uchta: birinchi – nutqni so'zlagan, ikkinchi – nutq yo'naltirilgan va uchinchi – so'z yuritilgan (o'zga) shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o'tgan va kelasi zamon kabi turlarga bo'linadi. Sifatdoshlar esa fe'l va otlarga xos bo'lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Artikl, Dionisiy fikricha, turlanuvchi soʻz turkumi boʻlib, u turlangan otdan oldin ham, keyin ham kela oladi. Olmosh ot oʻrnida qoʻllaniladigan soʻz boʻlib, maʼlum shaxslarni koʻrsatadi. Ravish turlanmaydigan soʻz turkumidir, feʼl haqida maʼlumot beradi va feʼlga birikadi. Bogʻlovchi fikrni maʼlum tartibda bogʻlaydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni koʻrsatadigan soʻzdir. Old koʻmakchi soʻz turkumi boʻlib, barcha soʻz turkumlari oldidan soʻz tarkibida ham, gap tarkibida ham keladi. Yaʼni u sintaksisda ham, soʻz yasashida ham qoʻllaniladi.

Apolloniy Diskol (bizning eramizning II asrining birinchi yarmi). Apolloniy Diskol bizgacha yetib kelgan yunon tili sintaksisini yaratdi. U «Sintaksis haqida» asarida yunon tili sintaksisiga oid maʼlumotlarni berdi.

Iskandariya maktabi vakillari tilning tovush tomoniga ham katta eʼtibor berishdi. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tasvirladilar, tovush va harflarni aynan bir narsa hisoblab, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar. Shunga koʻra harflarni unli tovushlar va undosh tovushlar nomi bilan tasvirladilar. Unli harflarni (tovushlarni) oʻz holicha talaf-fuz qilinadigan va oʻzini alohida eshitish mumkin boʻlgan tovushlar sifatida, undosh harflarni (tovushlarni) esa unli bilan talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, ular boʻgʻin, urgʻu haqida ham maʼlumot berishdi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi boʻyicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. Yunon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan boʻlib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari boʻsh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari grammatikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi. Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda oʻz davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) taʼsir qildi.

2.3. Qadimgi Rim tilshunosligi

Qadimgi Rim filologlarining tilshunoslik faniga qoʻshgan hissasi katta emas. Rim grammatikasi yunon grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga keldi. Iskandariya maktabida yaratilgan yunon tili grammatikasi qadimgi rimliklar tomonidan lotin tiliga tatbiq qilindi. Yunon tilidagi deyarli barcha grammatik terminlar lotin tiliga oʻgirildi. Yunon tilshunosligidagi analogiya va anomaliya maktab-laridagi munozaralar ham Rim tilshunosligida davom ettirildi.

Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian va boshqalardir.

Yuliy Sezar (eramizdan ilgarigi 100-44 y). Qadimgi Rimning taniqli davlat arbobi, lashkarboshisi va notigʻi Yuliy Sezar «Analogiya haqida» nomli grammatik asarini yozdi. U soʻz va predmet munosabati masalasida analogiya tarafdori sifatida tanildi.

Mark Terensiy Varron (eramizdan ilgarigi 116-27 y). Mark Varron 25 kitobdan iborat «Lotin tili haqida» asarini yaratdi. Shu kungacha bu asarning 6 tasi yetib keldi. Kitobda analogistlar va anomalistlar orasidagi nazariy tortishuv, munozara mukammal bayon qilinadi. U ham Yuliy Sezar kabi analogiya tarafdori edi. Varron soʻz oʻzgarishini analogiyaga, soʻz yasashini esa anomaliyaga kiritadi.

Eliya Donata (bizning eramizgacha IV asrning oʻrtalari). Eliya Donata grammatikaga oid keng qamrovli mashhur asarini yozadi va uni «Grammatika sanʼati» deb nomlaydi. Ushbu asar toʻliq va qisqartirilgan variantlarda bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Verriy Flakk (bizning eramizning boshlari). Rim tilshunosi Verriy Flakk leksikologiya sohasida oʻzigacha boʻlgan tadqiqotlarni, tajribalarni va fikrlarni umumlashtirib, katta hajmdagi «Feʼlning maʼnosi» asarini yozdi.

Prissian (VI asr. boshlari). Rim grammatikachisi Prissian lotin tili boʻyicha oʻz davrining eng katta tadqiqoti hisoblangan «Grammatika sanʼati haqida taʼlimot» kitobini yaratdi. Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Prissianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal bayoni sifatida juda koʻp asrlar davomida - oʻrta asrlar davri uchun namuna boʻlib xizmat qildi.

Shunday qilib, rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili haqida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo'yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo'lsa-da, ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar uchrab turadi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda Rim grammatikasiga alohida stilistikani (uslubshunoslikni) kiritdilar. Rim grammatikachilari so'z turkumiga undovlarni ham kiritdi. Ammo yunon tiliga xos bo'lgan artiklni chiqarib tashladilar. Chunki lotin tilida artikl yo'q edi. Demak, lotin tili uchun ham 8 ta so'z turkumi xos bo'lib qoldi. Rim tilshunoslari son turkumini ikkiga: tub son va tartib songa bo'lib o'rganishdi. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud bo'lmagan ablativ (ajratish) kelishigini kiritdi va kelishiklar sonini oltitaga yetkazdi.

Rim filologlari grammatikaga oid terminlarni ham yunon tilidagi terminlar asosida yaratdilar. Jumladan, yunon va rim grammatikasiga oid ayrim terminlar ruscha va o'zbekcha tarjimalari bilan quyidagilar: onoma, nomenimya, ot; rema, verbum – glagol, fe'l (qadimgi rus tilida nutq); antonomia, pronomen – mestoimenie, olmosh; nomen adjektivum – imya priglagatelnoe, sifat; epirryoma, adverbium – narechie, ravish; artron, artikulum – artikl; prodesis, praepositio – predlog, old ko'makchi, old qo'shimcha; syndesmos, conjunction – soyuz, bog'lovchi; interjectio – mejdometie, undov; soneenta, vokales – glasnie, unlilar; symfona, consonantes – soglasnie, undoshlar va boshqalar.

Xullas, antik davr tilshunoslik maktablarining ahamiyati jahon tilshunosligi nuqtai nazaridan yuksakdir. Ushbu davr Ovrupo madaniyatining beshigi bo'lib maydonga chikdi. Qadimgi yunon va Rim tilshunosliklari keyingi davr tilshunosligining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Iskandariya tilshunoslik maktablari vakillari grammatikani mustaqil fanga aylantirdilar. Ular juda katta grammatik «xom-ashyo» (material) to'plab, ot va fe'l turkumlarining asosiy kategoriyalarini aniqlab berishdi. Yunon tilshunoslari fonetika, morfologiya, sintaksis va etimologiya fanlarining asoslarini yaratdilar. Ular so'z va gap kabi muhim va murakkab lisoniy birliklarni aniqlab, izohladilar, so'z turkumlarini ajratib berdilar.

Shuningdek, antik (qadimgi) davr tilshunosligining – yunon va Rim tilshunoslik maktablarining jiddiy kamchiliklari ham bor edi. Bu davr tilshunosligi ta'limotida tilga tarixiy yondashish prinsipi yo'q edi. Ya'ni ushbu davr tilshunosligi, hind tilshunosligi kabi, tilning tarixiy taraqqiyotini tushunmas edilar. Ular yunon va Rim tillaridan boshqa tillarni tadqiq qilmadilar. Ya'ni bir til (yunon yoki Rim tillari) doirasida qoldilar, boshqa barcha tillarni esa yovvoyi, qo'pol til deb hisobladilar. Shuningdek, ular ko'pgina grammatik kategoriyalarni mantiq kategoriyalari bilan qorishtirdilar. Aytilganlarga qaramasdan, Ovrupo grammatik ta'limoti deyarli XIX asrgacha qadimgi yunon va Rim filologlarining ta'limotlariga asoslanib keldi.

2.4. Qadimgi Xitoy tilshunosligi

Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bizning kunlarimizgacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimiy yozma yodgorliklari eramizgacha bo'lgan XIII-XI asrlarga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qo'y) suyaklari va toshbaqa qalqonlari bo'lib, ularda fol ochish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Bu qadimgi «manbalar» Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy iyeroglifi muayyan so'z sifatida, so'zni anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan. Ya'ni Xitoy iyeroglifi logogramma hisoblangan.

Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta'siri natijasida (ya'ni Xitoyga Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli) hind tilshunosligining ta'siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik-prosodemik hodisasi – intonatsiyaning to'rtta turini, ko'rinishini ishlab chiqdilar.

Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 206 y. – bizning eramizning 220 y.) leksikologiya, leksikografiya, ieroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi Syuy Shen «Elementlar va murakkab belgilar haqida» asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunosligida shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII-XIX asrlarda keng quloqch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi. Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ota bola Van Nyan – Sun (1744-1832) va Van In-Chji (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi.

Xitoy tilshunoslari so'z masalasida mustaqil so'zlarni va yordamchi so'zlarni farqlaganlar. Mustaqil so'zlarni ot, sifat va fe'l turkumiga ajratganlar.

Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869-1936) bo'lib, u Xitoy tilining meyoriy va tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi.

Umuman olganda, Xitoy tilshunosligining asosiy yo'nalishi, ayniqsa, o'rta asrlarda fonetika (yoki fonologiya) hisoblangan. Xitoy yozuvi-ideografik yozuv bo'lib, har bir belgi so'zga yoki o'zakka muvofiq keladi. Fonetik jihatdan esa har bir belgi bo'g'inga to'g'ri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha o'zaklar bir bo'g'inlidir.

XVII-XVIII asrlarda Xitoyda fan-tarixiy fonetika katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog'langan bo'lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug'ullandi.

Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining qo'lga kiritgan muhim yutuq'i hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yo'nalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan bo'lib, o'z oldiga bevosita kuzatishda berilmagan tilning o'tmish «shakli», holati bilan bog'liq hodisalarni, faktlarni tiklash maqsadini qo'yadi. Ayni jarayonning metodlaridan va qo'lga kiritgan natijalari, yutuqlaridan hozirgi kunlarda ham foydalanilmoqda.

3-MAVZU

QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

(6 soat)

Reja:

1. Qiyosiy metodning shakllanishi
2. Frans Bopp
3. Rasmus Rask
4. Yakob Grimm
5. Vilgelm fon Gumboldt

Tayanch so'z va iboralar: *qiyosiy metod, komparativ tilshunoslik, Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Vilgelm fon Gumboldt, Fridrix Shlegel, hind-Evropaning tillari, yosh grammatikachilar, germanistika, til falsafasi, til antinomiya, ijtimoiylik va alohidalik, til va tafakkur, til va nutq, nutq va tushunish, til holati va taraqqiyoti, tildagi obyektivlik va subyektivlik, fikrni obyektivlashtirish, fikrni rag'batlantirish til shakli.*

3.1. Qiyosiy metodning shakllanishi

XVIII asrgacha til o'zgarish hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o'zgaradi. Ya'ni XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o'zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog'i, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monbodo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini qo'llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qat'iy tus oldi. Ya'ni XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig'ish, ularga e'tibor berish g'oyasidan qiyosiy-tarixiy g'oyaga-nuqtayi nazarga burilish, o'tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtayi nazarlarning o'zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo'ldi. Aniqrog'i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi aniqlansada, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o'xshashlikning

sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o'xshashlik sabablarini tushuntirib bera olmadi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan – bir umumiy qadimiy bobo tildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g'oyalarining ta'siri, ya'ni jonli tillarning o'tmishini o'rganishga undash g'oyasi bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o'rtasidagi o'xshashlikni ularning qarindoshligiga ko'ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi Vilyam Djons (1746-1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o'rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma'lumotlarni qat'iy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) esa o'zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining na faqat lug'at tarkibida, balki grammatik munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko'ra umumiy asosga egaligini qayd etadi.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi.

Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, qiyoslash tillarni o'rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g'oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo'ldi.

Takidlash shart, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o'rin egallashiga olib keldi. Chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g'oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'ldi.

Eslatish joizki, Mahmud Koshg'ariy, Vilyam Djons, Fridrix Shlegel kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo'lib, o'z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o'rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o'zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo'yadi.

Hind-Evropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish tarixi to'rt davrni o'z ichiga oladi:

1) Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo'lgan davr (XIX asrning birinchi choragi-1870 y).

2) Yosh grammatikachilar davri (1870-1890 y).

3) Yosh grammatikachilar davridan to F. de Sossyurning «Umumiy tilshunoslik kursi» asari va xet yozma yodgorliklarini o'qib, ma'nosini ochib berishgacha bo'lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o'n yilligi).

4) F. de Sossyur g'oyalaridan bizning davrimizgacha bo'lgan davr.

3.2. Frans Bopp

Frans Bopp (1781-1867) buyuk nemis tilshunosi – sanskrit mutaxassisi, Berlin universiteti professori. U 1816-yilda «Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash» asarini yozdi.

F.Bopp qayd etilgan tillarda mavjud grammatik shakllarni – tuslanish formalarini qiyoslash asosida ushbu tillar oʻrtasidagi umumiylikni, oʻxshashlikni ochib berdi. U qiyoslash metodi bilan qiyoslanayotgan tillarning dastlabki holatini, koʻrinishini tiklash mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Shunga koʻra 1816-yil toʻliq maʼnoda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tugʻilish-yaratilish yili deb eʼtirof qilinadi.

F.Boppning kashfiyoti, yangiligi nimada? Yuqorida aytilganidek, koʻpgina olimlar V.Djons, Fr.Shlegel kabilar hind-Evropa tillari bir bobotildan kelib chiqqan, qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi, degan fikrni aytishgan.

F.Boppning xizmati shundaki, u qarindosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani qurib berdi. U feʼllarning qoʻshimchalarini qiyoslab, hayratlanarli darajaga keldi. Yani, maʼlum boʻldiki, hind-Evropa tillarida nafaqat alohida oʻxshash hodisalar mavjud, balki ushbu tillarda oʻzaro oʻxshashlikning, oʻzaro muvofiqlikning butun bir sistemasi-grammatik sistemalarning umumiyligi, oʻxshashligi mavjudligi aniqlandi. F.Bopp uchun tillar oʻrtasidagi oʻzaro muvofiqlik faqat vosita edi, xolos. Maqsad esa boshqa. Yaʼni qiyoslanayotgan tillardagi grammatik shakllarning eng qadimiy, dastlabki koʻrinishini-shaklini ochib berish jarayonida bir tilga xos hodisani boshqa til faktlari yordamida yoritish, tushuntirish edi. Anigʻi muayyan tilga oid shakllarni (soʻz formalarini) boshqa tildagi shakllar (soʻz formalari) orqali tushuntirish, izohlash edi. Ushbu nuqtayi nazar F.Bopp tadqiqotlarining yangiligidir. U shu bilan qiyosiy-tarixiy metodning asosini yaratdi.

F.Bopp 1833-1852-yillarda uch tomdan iborat boʻlgan «Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi» nomli asosiy asarini eʼlon qildi. Bu asarda sanskrit tiliga asoslangan holda ayrim grammatik formalarning taraqqiyotini va ularning dastlabki manbalarini aniqlash mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

F.Bopp oʻz taʼlimoti, asarlari bilan oʻsha davrda maʼlum boʻlgan barcha hind-Evropa tillarining qarindoshligini isbotlab berishga erishdi. Uning izlanishlaridan hali u davrda ochilmagan, nomaʼlum boʻlgan xet, toxar kabi tillargina chetda qoldi. F.Bopp tilshunoslikka hind-Evropa tillari degan termini ham olib kirdi. U oʻz tadqiqotlarida, asosan, morfologiya bilan shugʻullandi, fonetika, sintaksis-gap shakllari, qoʻllanishi, gap tuzilishi kabi masalalarga eʼtibor bermadi. F.Bopp tillarning qarindoshligi masalasida ham jiddiy xatolarga yoʻl qoʻydi. Yaʼni u kichik Polineziya va janubiy Kavkaz tillarini ham asossiz ravishda hind-Evropa tillariga kiritdi.

3.3. Rasmus Rask

F.Bopp bilan deyarli bir vaqtda, ammo unga mutlaqo bogʻliq boʻlmagan holda hind-Evropa tillarining qiyosiy-tarixiy tadqiqi bilan daniyalik buyuk tilshunos prof. Rasmus Xristian Rask ham shugʻullandi.

R.Rask 1811-yilda «Island tili boʻyicha qoʻllanma» nomli birinchi ishini eʼlon qildi. Ushbu tadqiqotidayoq F.Boppdan ham oldin grammatik koʻrsatkichlarni, ayniqsa, qoʻshimchalarni qiyoslashning muhimligini aytib oʻtdi. Ayni vaqtda u, Bopp gʻoyalarini toʻldirgan holda, leksik qiyoslashga ham katta ahamiyat berdi va bu jarayonda dastavval eng zaruriy tushunchalar, hodisalar va predmetlar bilan bogʻlangan leksikani hisobga olinishini toʻgʻri taʼkidladi.

1818-yilda R.Raskning «Qadimgi shimol tili sohasidagi tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi» nomli asosiy asari eʼlon qilindi. U tadqiqotda german, litva, slavyan, lotin va grek tillarining qarindoshligini isbotlab berdi. Ushbu asarning 2-qismi «Frakiy tili haqida» nomi bilan 1822 yilda nashrdan chiqdi. Ishda island tilining oʻrnini belgilagan holda uning got tillari guruhiga va frakiy (grek va lotin) tillariga boʻlgan munosabatini oʻrganadi.

R.Rask asarlarida soʻzlarning oʻz maʼnolarini oʻzgartirishi mumkinligiga eʼtibor beradi. Shuningdek, tub va oʻzlashgan soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlarini qayd etadi, lisoniy hodisalarni tadqiq qilishda soʻzni mukammal morfologik tahlil qilish lozimligini tavsiya qiladi.

U boltiq tillari slavyan tillari bilan ma'lum bog'liqlikka ega bo'lsa-da, ammo ayni tillar hind-Evropa tillarining mustaqil shahobchasi, tarmog'i hisoblanadi, degan haqqoniy fikrni birinchi bo'lib ilgari suradi.

R.Rask, F.Boppdan farqli, hind-Evropa tillarini boshqa til oilalari (masalan, kavkaz-yafetik tillari va Indoneziya tillari) bilan qorishtirmaydi. Shuningdek, u o'z tadqiqot-larida sanskrit tiliga murojaat qilmaydi.

Xullas, R.Rask tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy metodning va germanistika fanining asoschilaridan biri sifatida faxrli o'rinni egallaydi.

3.4. Yakob Grimm

Mashhur nemis tilshunosi Yakob Grimm (1785-1863) qiyosiy-tarixiy metod yordami bilan german tillarini tadqiq qildi. Ya.Grimmning to'rt tomdan iborat «Nemis grammatikasi» asari tilshunoslik tarixida muhim o'rin tutadi. U ushbu salmoqli asarida nemis tili tarixiy grammatikasini boshqa barcha german tillari bilan qiyoslagan holda beradi.

Asar 1-tomining birinchi nashri 1819-yilda, mazkur tomning butunlay, tubdan o'zgargan ikkinchi nashri 1822-yilda chop etiladi. Ayni tomdan german tillarining tarixiy fonetikasi hamda german tillaridagi undoshlarning siljishi, «ko'chish» qonuni o'rin olgan. Ya'ni Ya.Grimm (R.Rask, Ya.Bredsdorflar kabi) undoshlarning siljishini isbotlab beradi. Masalan, hind-Evropa tillarining nafas tovushlari (yoki nafas bilan aytiladigan tovushlar) yoki portlovchi undoshlar *bh, dh, gh* – german tillaridagi *b, d, g* tovushlariga o'zgargan – siljigan, ko'chgan yoki hind-Evropa tillariga oid *b, d, g* – german tillarida *r, t, k* ga; hind-evropacha *r, t, k* – germancha *f, th, h* ga siljigan, ko'chgan, o'tgan. Ushbu jarayon fonetik qonunlarning tan olingan dastlabki, birinchi namunasi edi. «Nemis grammatikasi» asarining barcha tomlari 1837-yilda yakunlandi.

Ya.Grimmning «Nemis tili tarixi» asari esa 1848-yilda e'lon qilinadi. U jamiyat tarixini o'rganishda tilning asosiy, eng muhim manba ekanligini aytadi va tilni u yoki bu xalqning madaniy-tarixiy taraqqiyotining mahsuli deb hisoblaydi. Shunga ko'ra Ya.Grimm «Bizning tilimiz bizning tariximizdir» degan g'oyani ilgari suradi. Haqiqatan ham – shunday Ya.Grimm ushbu asarida «Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va mozorlarga qaraganda jonliroq guvoh bor. Bu tildir», deydi.

Ya.Grimm «Nemis lug'ati» asarida (birinchi tomi 1854-yilda, oxirgi tomi 1960-yilda e'lon qilindi) nemis shoiri Lyuterdan tortib Gyotegacha bo'lgan nemis tili leksikasini qamrab olishga, ko'rsatib berishga harakat qildi.

3.5. Vilgelm fon Gumboldt

Germaniyaning eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan V.Gumboldt (1767-1835) har tomonlama bilim sohibi edi. U tilshunoslik, adabiyot nazariyasi, falsafa, davlat huquqi, siyosat va diplomatik faoliyat bilan shug'ullanadi, Berlin universitetining asoschisi hamda davlat arbobi hisoblanadi.

V.Gumboldtning til bilimi nihoyatda keng bo'lib, ulkan olim nafaqat hind-Evropa tillarini bilar, balki dunyoning boshqa tillari – bask tilidan tortib, Amerikaning kichik Polineziya va mahalliy aholisining (indeeslarning) tillari haqida ham chuqur bilimga, ma'lumotga ega edi.

V.Gumboldt asarlari, g'oyalari, konsepsiyalari bilan umumiy nazariy tilshunoslikka asos soldi. Buyuk olim tilshunoslikning, idealistik ruhda bo'lsada, qator eng muhim va murakkab muammolarini hal qilib berdi, ta'limotlar yaratdi. Shu tufayli u jahon tilshunosligining keyingi taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'lgan F.Bopp uni hurmat bilan tilga olsa, G.Shteyntal, A.Shleyxer, K.Fosler, A.Pott, G.Kursius, A.Potebnya, B.de Kurtene kabi taniqli va mashhur tilshunoslar o'zlarini uning shogirdi deb hisoblaganlar.

Agar F.Bopp umumiy, nazariy g'oyalardan, qarashlardan chetlashib, asosan, faktlar yig'ish, ularni qiyoslash, ular orasidagi munosabatlarni, bog'liqliklarni aniqlash bilan shug'ullangan bo'lsa, V.Gumboldt nazariy, falsafiy g'oyalar bilan, tilning ilmiy nazariyasini yaratish bilan mashg'ul bo'ldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtning tilshunoslikdagi ahamiyatini, o'rmini I.Kant va Gegellarning jahon falsafasi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin.

V.Gumboldtning umumiy tilshunosligini til falsafasi deb aytish mumkinki, bu falsafa eng oliy lisoniy umumlashmalarni va uzoq davrlarda ham tilshunoslik rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan xulosalarni qamrab oladi. V.Gumboldt til falsafasini tiklab, uning obro'-e'tiborini ko'tardi va ayni falsafaga butunlay yangi yo'nalish berdiki, bu yo'nalish qiyosiy-tarixiy metod bilan zich bog'langan holda, uning asosida yuzaga keldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtgacha bo'lgan nazariyalar bo'sh, mustahkam asosga ega bo'lmagan, shunchaki, yuzaki nazariyalar edi. V.Gumboldt esa tilning ilmiy nazariyasini, til falsafasini til hodisalariga qiyosiy-tarixiy metodni qo'llash asosida qurdi, yaratdi. Natijada uning ta'limoti, lisoniy qarashlari tilshunoslik fanining taraqqiyotiga uzoq yillar davomida samarali xizmat qildi.

V.Gumboldt 1820-yilda Berlin akademiyasida «Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o'rganish haqida» degan mavzuda ma'ruza qiladi. Ushbu mavzudagi ma'ruza uning tilga oid dastlabki tadqiqoti bo'lib, muallif unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini o'rta tashlaydi va uni asoslab beradi.

Shuningdek, olim ma'ruzasida qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarning tipologik qiyosiy grammatikasini yaratish tarafdori bo'lib chiqadi. U o'zigacha bo'lgan, ya'ni har bir tilning o'ziga xosligini, mustaqilligini tan olmaydigan, barcha dunyo tillarini tayyor mantiqiy jadvallarga majburan kiritishga intiluvchi deduktiv umumiy grammatikani – Por Royal grammatikasini inkor qiladi. V.Gumboldt turli tillardagi aynan bir tushunchani - fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi.

V.Gumboldt hayotining oxirgi yillarida o'zining eng muhim uch tomli «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli salmoqli asari ustida ish olib boradi. Bu asar uning vafotidan so'ng akasi A.Gumboldt tomonidan 1836-1840-yillarda nashr qilindi.

V.Gumboldtning qayd etilgan tadqiqotlarining bevosita nazariya bilan bog'liq kirish qismi nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Ishning kirish qismi «Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri» deb nomlanib, turli tillarga – 1859-yilda esa rus tiliga tarjima qilinadi. V.Gumboldt aynan mana shu asarida, ayniqsa, uning kirish qismida o'zining tilga bo'lgan nazariy-falsafiy qarashlarini mukammal bayon etadi.

U tadqiqotlarida tilga aloqa vositasi sifatida, predmetlarni anglatish vazifasini bajaruvchi sifatida baho berdi. Ayni vaqtda olim tilning murakkab o'zaro qarama-qarshi xususiyatlardan iborat ko'p jihatli hodisa ekanligini qayd etadi.

V.Gumboldt tilni mukammal o'rganishda, unga xos belgi-xususiyatlarni, boshqa hodisalar bilan aloqasini, o'ziga xosligini aniqlash va ochishda antinomiya metodini, ya'ni o'zaro zid, qarama-qarshi qo'yish usulini qo'llaydi. U ushbu usul orqali tilga xos xususiyatlarni, uning eng muhim jihatlarini bir-mabir bayon etadi. Shuningdek, til nazariyasi haqidagi mukammal ta'limotlarni, g'oyalarni yaratadiki, bu ta'limot va g'oyalar nazariy tilshunoslikning taraqqiyotida yangi-yangi qarashlarni ochishda xizmat qildi. Til va tilga yondash hodisalarning, til bilan bevosita aloqador, bog'liq jarayonlarning o'zaro dialektik munosabatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xullas, V.Gumboldtning tilni o'rganish jarayonida belgilagan, qayd etgan antinomiya – til hodisalariga dialektik zidlik asosida yondashishi jahon tilshunosligilisoniy tafak-kur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

V.Gumboldtning til antinomiya (o'zaro zidligi va bir-ligi) quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. *Ijtimoiylik (sotsiallik) va alohidalik (individuallik) antinomiya*. Ya'ni til bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, sotsial, ham alohida, individual hodisa. Til bir vaqtning o'zida ham yakka, alohida shaxsga, ham ko'p shaxsga, umumga tegishli. Tilning ijtimoiyligi jamiyat bilan, shaxslar bilan - xalq mahsuli sifatida belgilansa, tilning alohidaligi bir shaxs bilan, yakka individ bilan - ayrim shaxs mahsuli sifatida belgilanadi. Alohida shaxslar o'zlarigacha bo'lgan avlodlar, xalqlar tomo-nidan yaratilgan lisoniy mahsulotdan, «hosil»dan foydalanadi.

Demak, yuqorida aytilganlardan tildagi umumiylik va xususiylik dialektikasi, antinomiya namoyon bo'ladi.

2. *Til va tafakkur antinomiya*. Til tafakkursiz, tafakkur esa tilsiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy fa-oliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o'zaro bog'liqlikda «yashaydi»,

insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtda ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik munosabati – o'zaro ajralmasligi, bog'liqligi va shu bilan birga ichki zidligi, qarama-qarshiligi g'oyasi kelib chiqadi. Tilning (tovushning) moddiyligi, tafakkurning esa psixik hodisaligi ma'lum bo'ladi.

Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisiz mavjud emasligida, biri, tabiiy ravishda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo'lishida; ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, «tashqi» hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy, «ichki» hodisaligida ko'rinadi. Ya'ni til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o'zaro ajralmas va ayni vaqtda o'zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

3. *Til va nutq antinomiyasi.* Til muayyan sistemadir, «organik butunlikdir». Shuningdek, u nutqiy faoliyatning alohida aktidir (harakatidir). Boshqacha aytganda, til nutqiy faoliyatning alohida aktlar (harakatlar) ko'rinishidagi voqe bo'lishidir. Til ayrim nutq aktidan farq qiladi va ayni vaqtda u nutq aktida, jonli nutqda mavjud bo'ladi, yashaydi. Til - faoliyat, nutq - faoliyat mahsuli, tilning voqelanishi, namoyon bo'lishidir. Demak, til faoliyati til va nutqdan tashkil topadi. Til faoliyatida til va nutq ajratiladi, farqlanadi. V.Gumboldtning til va nutq antinomiyasi, ularning farqlanishi, til va nutqning dialektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotiga qo'shilgan juda katta hissa bo'ldi.

4. *Nutq va tushunish antinomiyasi.* Til va nutq antinomiyasiga bevosita aloqada bo'lgan ushbu dialektik bog'liqlikda, «birlikda» nutq va uni tushunish, aslida, til faoliyatining turli shakllaridir, nutqiy faoliyatning ikki tomonidir. Ya'ni so'zlar individ nutqidagina – nutq faoliyatidagina muayyan aniqlikka, ma'noga ega bo'ladi. Nutq tashqi, bevosita ta'sir qiluvchi, moddiy faoliyat bo'lsa, nutqni tushunish esa ichki, ruhiy faoliyatdir.

5. *Til holati va taraqqiyoti antinomiyasi.* Tilning statikligi (turg'unligi) va dinamikligi (harakatchanligi) antinomiyasi. Til taraqqiyotining tugallanganligi va til taraqqiyotining to'xtovsizligi antinomiyasi. Til tugal tashkil topgan va ayni vaqtda doimiy rivojlanayotgan hodisa, jarayondir. Har bir avlod tilni tayyor holda oldingi avloddan qabul qiladi. Bu jihatdan til tayyor holdagi – tashkil topishiga ko'ra tugallangan hodisadir. Shuningdek, til doimo ijodiy, taraqqiyotdagi, yangilanishdagi, «o'sishdagi», yangi-yangi birliklarning, shakllarning paydo bo'lishidagi «qaynayotgan» jarayondir.

6. *Tildagi obyektivlik va subyektivlik antinomiyasi.* Til obyektiv, ayni vaqtda subyektivdir. Til o'zining haqiqiy «hayotini» insonlar orasida qo'llanishidagina topsada, ammo uning mavjudligi, «hayotiyli» alohida shaxslarga bog'liq emas. U jamiyatning aloqa quroli sifatida obyektiv mavjud. Til bir vaqtning o'zida insonga ham bog'liq, ham bog'liq emas. Bir tomondan inson tilni an'anaga ko'ra qabul qilsa, o'zlashtirsa – obyektiv ravishda, ikkinchi tomondan, uning o'zi doimo tilni yaratadi, yangidan «quradi», barpo qiladi. Har gal individ nutqida til birliklari, vositalari, til «xom ashyosi» harakatga keladi, jonlanadi – subyektiv ravishda.

7. *Fikrni obyektivlashtirish va fikrni rag'batlantirish antinomiyasi.* Ushbu antinomiyada til tinglovchi fikrini obyektivlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi, yuzaga keltiruvchi kuch, sabab sifatida namoyon bo'ladi. Til subyektida paydo bo'lgan fikrni obyektivlashtiradi, reallashtiradi, umumga yetkazadi – ta'sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni obyektivlashtirish jarayoni fikrni o'zgalarga yetkazish imkoniyatini beradi, yaratadi. Ammo ayni vaqtda har bir nutq, har bir fikrni ifodalash sub'yektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs – tinglovchi nutqni go'yoki qaytadan o'zida yaratadi.

V.Gumboldt asarlarida tilning so'z va grammatik qoidalardan iboratligini, til birligi bo'lgan so'zning esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramz ekanligini to'g'ri qayd etadi. U har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

V.Gumboldt lisoniy ta'limotining eng muhim nuqtalaridan biri til shakli (formasi) haqidagi ta'limot yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir. V.Gumboldt ta'limotiga ko'ra til formadir (shakldir). U til formasining bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini aytadi. Shulardan biri til formasining nutq tovushlaridan tashkil topishidir. Ya'ni nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana biri til formasining sistema sifatida namoyon bo'lishidir.

Ya'ni har bir til elementi, birligi boshqa elementga ko'ra mavjuddir, u bilan o'zaro bog'liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan, bog'liqligidan iboratdir.

Tilning tashqi formasi tilning materiyasi, xom-ashyosidir, uning tovush sistemasidir. Aytilganidek, nutq tovushlari tilning shaklidir. Nutq tovushlari muayyan ma'no ifodalovchi til birliklarini hosil qilishda qo'llanadigan, ishlatiladigan shaklidir¹.

Tilning ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinish, fikrni tilda obyektivlashtirish usulidir, xalq ruhining ifodasidir. V.Gumboldt tilning ikki formasi haqidagi ta'limotida ichki formani xalqning ruhi bilan bog'laydi. Ya'ni ichki forma xalq ruhining qandayligini ko'rsatadi hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt fikricha, xalqning tili uning ruhidir va xalq ruhi uning tilidir. V.Gumboldtning ichki forma haqidagi ta'limotining xatosi shunda ediki, u tilning ichki formasini (shaklini) faqat milliy ruh bilan, xalq ruhi bilan va mutlaq g'oya bilan bog'laydi. Ya'ni u tillarning milliylik xususiyatini alohida tillarning konkret tarixiy taraqqiyotiga bog'liq shart-sharoitlar bilan, xalq tarixi bilan, tilni yaratuvchi, uni o'zida tashuvchi, undan foydalanuvchilar bilan bog'liq holda tushuntirmaydi. Balki tilning ichki formasini, tillarning milliylik xususiyatini mavjud bo'lmagan, yetarli darajada aniqlanmagan, o'rganilmagan ruhiy ibtidoing namoyon bo'lishi bilan tushuntiradi. Aniqrog'i, V.Gumboldt nemis faylasufi I.Kant kabi ongini, ruhni alohida mavjud bo'lgan ibtido deb, biladi va uni ob'ektiv mavjud bo'lgan moddiy tabiatga bog'liq bo'lmagan hodisa deb, izohlaydi. Shu ta'limotdan kelib chiqib, u tilni ruhning butun majmuidan iborat deb, ta'riflaydi va til ruhga xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanadi, deb biladi. Uning fikricha, tilda xalqning ma'naviy qiyofasini aks ettiradigan ma'lum bir dunyoqarash ifodalanadi. Boshqa tilni o'rganish bilan go'yo dunyoqarash ham o'zgaradi. Shu fikr asosida V.Gumboldt tilning «ichki formasi» haqidagi ta'limotini yaratadi. «Ichki forma», uning fikricha, bir tomondan, xalqning ruhi qandayligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, so'z yasalishi, shakllanishi jarayonida ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt nutq tovushlarini til formasi deb, so'zning nutqda qo'llangandagi qiyofasini so'zning grammatik formasi deb, ta'riflaydi. Uning bu fikrlari hamda «ichki forma» haqidagi ta'limoti, ayni ta'limotning idealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu fikrlar umum tilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir.

Aytish mumkinki, XIX asr tilshunoslik tafakkuri, taraqqiyoti V.Gumboldtning lisoniy nazariyalari asosida taraqqiy qildi. Uning ko'pgina lingvistik g'oyalari XIX va XX asr tilshunosligining rivojiga jiddiy ta'sir qildi.

Xullas, F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm, A.Vostokovlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va bu tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot usuli bo'lgan qiyosiy-tarixiy metodga asos solgan bo'lsalar, V.Gumboldt umumiy nazariy tilshunoslik faniga, uning mustaqilligiga, til falsafasiga asos soldi.

4-MAVZU TIL OILALARINI QIYOSIY-TARIXIY O'RGANISH (6 soat)

Reja:

1. Tillarning geneologik tasnifi
2. Til oilalari

Tayanch so'z va iboralar: *geneologik tasnif, til oilalari, hind-Yevropa tillari, xom-som tillari, Kavkaz tillari, Ugor-fin tillari, Oltoy tillari, Xitoy-tibet tillari, dravid tillari, malay-polineziya tillari oilasi.*

¹ Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: History and Method. –New York: Bloomsbury Academic, 2009. –P. 232.

4.1. Tillarning geneologik tasnifi

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning so'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning so'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lolmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganishda material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda so'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror so'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw), tog - tau (tau)**; o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozorbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik qurilishi bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

4.2. Til oilalari

Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori **3000** dan ortiq (yangi manbalarga ko'ra 5000ga yaqin). 200ta tilda – 1mlndan ortiq, 70ta tilning har birida – 5 mlndan ortiq, 13ta tilning har birida – 50 mlndan ortiq, qolgan tillarning har birida 1 mlndan ortiq aholi so'zlashadi. Tillarning barchasi insonlar o'rtasidagi aloqa aralashuvni ta'minlash vazifasini bajaradi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Jamiyatdan uzilgan, insonlarning o'zaro aloqasiga xizmat qilmaydigan til o'lik tildir. Demak, til jamiyatga, ya'ni odamlarning o'zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi, shuning uchun ijtimoiy hodisa sanaladi¹.

Dunyoda yigirmadan ortiq til oilasi bor. Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, qardoshligiga, yaqinligiga ko'ra ajratilgan til oilalari quyidagilardan iborat. Hozirgi tilshunoslik fanida tillar

¹ Richter Borbala. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapest, 2006. –P.42.

o'rtasida genetik aloqadorlikning yangi qirralari ochilmoqda. Taxminan 200 til oilasidan 22tasi Yevrosiyoga, 20ga yaqini Afrikaga, qolganlari Amerika, Avstraliya, Yangi Gvineyaga to'g'ri keladi. XIX asr oxirida, asosan, 4 ta til oilasi ajratilgan: turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur, koreys tillari. XX asrda mazkur tillarning qardosh ekanligi ta'kidlandi va umumlashtirilib *oltoy tillar oilasi* deb nomlandi. Bu kabi an'anaviy til oilalaridan kengroq bo'lgan, bir-biriga qardoshligi to'la asoslanmagan til oilalarini "makro til oilalari" deb nomlash taklif qilingan. V.M.Ilyich-Svitich tadqiqotlarida aks etgan nostratik gipoteza (lotin tilida *noster* "bizniki" ma'nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadi. Nostratik makrotiloilasiga hind-yevropa, ural, oltoy, kartvel, dravid tillari kiritilgan.

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning so'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Bir tilning turli ko'rinishlarga ega bo'lgan dilalektlari yoki ularning alohida tillarga aylanishiga nima sabab bo'lishi haqida savol paydo bo'lishi mumkin. Dialektal farqlarni ajratishdagi chegara chizig'i xuddi alohida tillar o'rtasidagi farqlarni ajratish kabi oson emas. Dialektal farqlar o'xshashliklarning chegaralanishini, yangi, mustaqil tillarning paydo bo'lishini boshqaradi. Bu tillar ular o'rtasida o'zaro farq bo'lishiga qaramasdan, o'zaro o'xshash xarakterga ega ekanligi ham ma'lum. Ular "ajdod" yoki proto-tildan ajralib chiqqandan buyon genetik bog'langan tillar deb ataladi, xuddi bitta onaning (proto-til) singlisi, qizi bo'lgani kabi. Bu kabi "singillar", masalan, Skandinaviya tillari tarkibiga kiruvchi shved, norveg, daniya tillari o'rta asrlarda ajralib chiqqan va hozir ham o'xshashliklar aniq ko'rinib turadi. Skandinaviya tillari German guruhining shimoliy tarmog'idir. Boshqa german tillari ingliz, fransuz, nemis, flemish, afrikan, yeddish va gotik kabi bir necha o'lik tillardir. German tillari til oilasining Hind-Yevropa guruhiga kiruvchi juda ko'p tillar bilan o'zaro aloqador. Hind-Yevropa tillar oilasi quyidagi asosiy tarmoqlarni o'z ichiga oladi:

Alban

Grek

Anatoliya

Toxar

Hind-eron

a) eron

b) hind-aryan

Arman

Bolتيq-Slavyan

a) bolتيq

b) slavyan

German

a) shimol (island, norveg, danya, shved)

b) sharq (got)

c) g'arb (ingliz, flemish, afrikan, nemis)

Kelt (vels, breton, shotland gal, irland gal)

Italyan

Roman tillari (fransuz, ispan, italyan)¹.

¹ Richter Borbala. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapest, 2006. –P.85-86.

Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. *Hind- yevropa tillari oilasi*
2. *Xom-som tillari oilasi*
3. *Kavkaz tillari oilasi*
4. *Ugor-fin tillari oilasi*
5. *Oltoy tillari oilasi*
6. *Xitoy-tibet tillari oilasi*
7. *Dravid tillari oilasi*
8. *Malay-polineziya tillari oilasi*

Geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

I.Hind-Yevropa tillari oilasiga *hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek (yunon), alban, arman tillari* kabi til guruhlariga kiradi.

I.1.Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *hind tili, urdu tili, bengal tili, maratxi tili, panjob tili, rajastoni tili, gujarati tili*. Hind tillari guruhiga *lo'li, sindxi tillari*, shuningdek, o'lik tillardan *sanskrit, pali, prokrit* tillari ham kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo'lib, bu tilda «Mahabxarata» («Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston») hamda «Xito padasha» («Yaxshi nasihat») kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o'zining mashhur «Sanskrit grammatikasi» asarini yaratgan.

I.2. Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *fors tili, pushtu-dari tillari, kurd tili, tojik tili, osetin tili, baluchi tili*.

I.3. Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *rus tili, ukrain tili, belorus tili, bulg'or tili, serb-xorvat tillari, chex tili, slovak tili, polyak tili*. Bundan tashqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi *slavyan, polab, pomor* tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

I.4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *litva tili, latish tili*.

O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

I.5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *ingliz tili, nemis tili, daniya tili, shved tili, norveg tili, golland tili, island tili*. O'lik tillardan vesgot va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

I.6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *fransuz tili, italyan, ispan tili, portugal tili, rumin tili, moldova tili, provansal tili, sardin tili, reto-roman tili*.

O'lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

I.7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi: *irland tili, shotland tili, breton tili, uels (valli) tili*. O'lik tillardan gal va kornoul tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

I.8. Grek (yunon) tili. O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

I.9. Alban tili guruhi.

I.10. Arman tili guruhi.

Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari, *xett, toxar* singari o'lik tillar ham kiradi.

II. Xom-som tillari oilasi. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: som tillari va xom tillari guruhiga bo'linadi.

1. **Som tillari guruhiga** quyidagi tillar kiradi: *arab tili*. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o'lik tillardan assuriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oromiy tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

2. **Xom tillari guruhiga:** *shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari*, o'lik tillardan esa *liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari* kiradi.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1. **G'arbiy guruhga** quyidagi tillar kiradi: *abxaz tili, abazin tili, adigey tili, kabardin-cherkes tili*.

2. **Veynax guruhiga** quyidagi tillar kiradi: *chechen tili, ingush tili, basbi tili*.

3. **Dog'iston guruhiga** Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi: *avar tili, dargin tili, lazgin tili, lak tili, tabassaran tili*.

4. **Janubiy guruhga** *gruzin* tili kiradi. Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga mabsub.

IV. Ugor-fin tillari oilasi ikki guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

1. **Ugor tillariga** quyidagilar kiradi: *venger (major) tili, mansi tili, xanti tili*.

2. **Fin tillariga** quyidagilar kiradi: *fin tili, eston tili, komi-permyak tili, komi-ziryan tili, udmurd tili, mari tili*. Bulardan tashqari, *erzya* va *moksha-ijor* tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. Oltoy tillari oilasiga quyidagi tillar kiradi:

1. **Turkiy tillarga** quyidagilar kiradi: *ozarbayjon tili, turk (usmonli turk) tili, turkman tili, o'zbek tili, qozoq tili, qirg'iz tili, tatar (Qozon tatarlari) tili, uyg'ur tili, chuvash tili, boshqird tili, yoqut tili, qoraqalpoq tili, tuva tili*.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so'zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so'zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so'zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so'zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o'lik tillardan *urxon, pechena, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or* va *xazar* tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

2. **Mo'g'ul tillariga** quyidagilar kiradi: *baoran tili, buryat tili, dagur tili, dunsyan tili, mongor tili, mo'g'ul tili, ordos tili, xalxa tili, shira uyg'ur tili, qalmiq tili*.

3. **Tungus-manjur tillariga** quyidagilar kiradi: *nanay tili, negidal tili, orok tili, oroch tili, solon tili, udey tili, ulcha tili, even tili, evenk tili, jurjen tili, manjur tili*.

4. **Koreys tili**

5. **Yapon tili**

VI. Xitoy-tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlariga kiradi.

1. **Tay-xitoy guruhiga** quyidagi tillar kiradi: *xitoy tili, dungan tili, vetnam tili, tay (siam) tili*.

2. **Tibet tillari:** *birma tili, assam tillari*.

VII. Dravid tillari oilasiga quyidagi tillar kiradi: *tamil tili, malayalam tili, kannara tili, teleut tili, braxun tili*.

VIII. Malay-polineziya tillari oilasiga malay yoki indoneziya tili kiradi.

Shuningdek, keyingi yillarda quyidagi til guruhlariga ham qayd etilmoqda:

XI. Avstraliya guruhi tillari. Bu tillar oilasiga juda ko'p tillar kiradi, lekin ular yaxshi o'rganilmagan.

XII. Papua tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi.

XIII. Sudan tillari. Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlarga bo'linadi: chunonchi: *nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal- gviney guruhlariga* kabi.

XIV. Bantu tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: *teke, songo, suaxeln, konde, makua* va *sotko* kabi bir necha guruhlarga bo'linadi.

XV. Paleofrika tillari. Bu tillarda so'zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga, ya'ni *bushman* va *gottentog* tillari guruhiga bo'linadi.

XVI. Paleoosiyo tillari. Paleoosiyo tillari ikki guruhga: *chukot guruhi va sibir guruhiga* bo'linadi.

XVII. Eskimos tillari guruhi. Bu tillar guruhiga: *eskimos va aleut tili* kiradi.

XVIII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 dan oshiq bo‘lib, ular uch guruhga: 1) *Shimoliy Amerika*; 2) *Markaziy Amerika*; 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo‘linadi.

XIX. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer, bunda, malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

XX. Burjaski tili. Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so‘zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning shimolida yashaydi.

5-MAVZU OLTOY TILLARI NAZARIYASI (2 soat)

Reja:

1. Oltoy tillarining tadqiqi va tasnifi
2. “Rotasizm-zetasizm” dilemmasi

Tayanch so‘z va iboralar: *Oltoy tillari, turkiy tillar, mo‘g‘ul tillari, tungus-manjur tillari, koreys tili, yapon tili, F.I. Stralenberg, Ye.D.Polivanov, G.I.Ramstedt, G.Dyorfer, A.M.Shcherbak, A.Rona-Tash, J.Klason, J.Janxunen, A.Vovin, R.A.Miller, P.Pellio, A.Sovajo, V.Ya.Vladimirsov, N.N.Poppe, V.I.Sinsius, G.D.Sanjeyev, P. Aalto, V.M.Illich-Svitich, T.Tekin, U.Baychura, X.U.Che, Ye.A.Xelimskiy, S.A.Starostin, A.V.Dibo, rotasizm-zetasizm.*

5.1. Oltoy tillarining tadqiqi va tasnifi

Ural-oltoy tillari nazariyasining asoschisi shved ofiseri F.I.Tabbert-Stralenberg bo‘lgan. U uzoq muddat Sibirda asirlikda yashab, mahalliy xalqning hayoti va tilini o‘rgangan. F.I. Stralenberg (Stralenberg, 1730) to‘plagan faktik materiallari asosida ural (ugor-fin, samodiy) va oltoy (turkiy, mo‘g‘ul tungus-manjur) tillarining tasnifini bergan, ularning o‘xshash tomonlari va qarindoshligi masalasiga e‘tibor qaratgan dastlabki olim edi¹. Keyinchalik ural-oltoy tillari nazariyasi ural va oltoy tillari sohasida izlanishlar olib borgan qator tadqiqotchilar tomonidan atroflicha rivojlantirildi (Wiedemann 1838; Schott 1839, 1849; Winkler 1884, 1885; Boller 1859; Bang 1890).

Ural-oltoy tillari nazariyasining vakillari ko‘proq oltoy va ural tillari strukturasi tipologik o‘xshashligiga, shuningdek, grammatika va leksikadagi qator materiallarning bir xilligiga asoslanishadi. Ural-oltoy tillari nazariyasining vakillari quyidagi xususiyatlarni mazkur tillarning asosiy tipologik o‘xshashligi hisoblashadi:

1. *Fonetika sohasida:* a) unli tovushlar ohangdoshligi; b) undosh tovushlar assimilyatsiyasining umumiy qonuniyati; v) jarangli undosh tovushlarning so‘z o‘zagida barqarorligi; g) so‘zlarning bir undosh bilan boshlanishi (biroq hozirgi koreys tilida so‘z boshida qo‘sh undosh kelishini ham ta’kidlash joiz – Sh.U.); d) differensial leksik ma’noli singlarmonik paralellikning mavjudligi; ye) so‘z birikmalarida asosiy urg‘uning aniqlovchiga tushishi.

2. *Morfologiya sohasida:* a) so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi affikslar agglyutinatsiyasining ustunligi; b) predloglar o‘rniga ko‘makchilarning qo‘llanilishi; v) artikllarning yo‘qligi; g) grammatik rod kategoriyasining yo‘qligi; d) egalik kategoriyasining mavjudligi; ye) qiyosiy daraja hosil qilishda chiqish kelishikli konstruksiyaning qo‘llanilishi; j) boshqa tillardagi “ega bo‘lmoq” fe‘lli konstruksiyalarning o‘rnini bosa oladigan qaratqichli konstruksiya; z) egalik qo‘shimchalari olib o‘zgarish; i) birlik va ko‘plikdagi otlarga bir xil affikslarning birikishi; k) fe‘l formalari yasovchi affikslarning ko‘pligi; l) agglyutinatativ so‘roq

¹ Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: History and Method. –New York: Bloomsbury Academic, 2009. –P. 237.

yuklamasining mavjudligi; m) ko‘plik tushunchasining birlik formasi bilan ham berilishi; n) kishilik va ko‘rsatish olmoshlarining genetik aloqasi; o) bosh kelishik funksiyasining turli-tumanligi.

3. *Sintaksis sohasida*: a) gap va so‘z birikmalarida aniqlanmish bilan to‘ldirilmishning aniqlovchi va to‘ldiruvchidan oldin kelishi; v) so‘roq konstruksiyalarning so‘roq yuklamasi vositasida shakllanishi; g) ergash gaplar o‘rnida masdar, sifatdash va ravishdashli obrotlarning kela olishi; d) tushum kelishigida shakllangan ob‘ektning mantiqiy ajralishi; ye) material nomini anglatuvchi otlarning morfologik ko‘rsatkichsiz aniqlovchi vazifasida qo‘llanilishi; j) aniqlovchi funksiyasida keladigan son va sifatning o‘zgarishligi.

Ural-oltoy tillarining keng ko‘lamli leksikasi A.Sauvageotning *Recherches sur la vocabulaire des langues ouralo-altaïques* (Paris, 1930) nomli tadqiqotida o‘rganildi. Unda fin-ugor va oltoy tillaridagi 214 ta mushtarak so‘z birlashtirilib, ayrim tovushlarning tarixiy taraqqiyoti ko‘rsatib berildi. Ural-oltoy tillarining sintaksisi venger tilshunosi D.R.Fokosh-Fuks tomonidan o‘rganildi (Fuchs D.R. *Übereinstimmungen in der Syntax der finnisch-ugrischen und türkischen Sprachen // Finno-ugrische Forschungen*. – Helsinki, 1937. - № 24). Qayd qilingan tillarning morfologik yaqinligi B.Kollinderning “*La parenté linguistique et le calcul des probabilités*” nomli tadqiqotida ko‘rsatib berildi.

Oltoy tillarining qarindoshlik ko‘lami Ye.D.Polivanov va G.I.Ramstedt tomonidan kengaytirilib, mazkur til oilasiga koreys va yapon tillari ham kiritildi. Xususan, Ye.D.Polivanov koreys tilini nafaqat fonetik, balki morfologik jihatdan ham oltoy tillariga tenglashtirishga uringan dastlabki olim edi (Поливанов Е.Д. К вопросу о родственных отношениях корейского и “алтайских” языков // – М.: Изд-во АН СССР, 1927. Сер. 6 - № 15 – С. 1195-1204).

Ye.D.Polivanovdan bir yil keyin G.I.Ramstedt koreys tilini boshqa oltoy tillariga aloqador qilgan “*Remarks on the Korean Language*” nomli maqola e‘lon qilib, unda oltoy tillaridan mo‘g‘ul va turkiy tillarning, koreys tili bilan esa tungus tilining yaqin ekanligini ilgari surdi. Keyinchalik Berlin Fanlar Akademiyasida o‘qigan “*Über die Stellung des Koreanische*” nomli ma‘ruzasida yuqoridagi fikrini o‘zgartirib, mo‘g‘ul tilining turkiy tillar bilan birga tungus tillariga ham yaqinligini, koreys tilining tungus tillariga yaqin bo‘lish bilan birga boshqa tarafdin turkiy tillarga ham yaqinligini ta’kidlagan. G.I.Ramstedning shogirdi N.N.Poppe mo‘g‘ul tili bilan tungus-manjur tillari orasida koreys tiliga nisbatan ko‘proq yaqinlik mavjudligini qayd qilib, chuvash-turk-mo‘g‘ul-tungus-manjur tillari oilasini taklif qilgan (*On Chuvash-Mongolian linguistic contacts // Journal of the American Oriental Society*. – Baltimore, Maryland, 1977. - № XCVII, 2).

Boshqa bir tomondan oltoy tillari nazariyasining muxoliflari hisoblangan J.Kloson, G.Dyorfer, A.M.Shcherbak va A.Rona-Tashlar turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manjur tillari orasidagi ba’zi umumfonetik qoidalarni e’tirof etishgani holda, bu tillardagi mushtarak so‘zlarning aksariyatini o‘zlashmalar deb izohlashgan. Oltoy tillarining qarindoshligi J.Janxunen (1992) va A.Vovin (2005) kabi tadqiqotchilar tarafidan ham inkor etib kelinmoqda. Ayrim olimlar koreys va yapon tillarini oltoy til birligiga kiritishga qarshi chiqadilar. Shunga qaramay, R.A.Miller (*Japanese and the Other Altaic Languages*. - Chicago: University of Chicago Press, 1971) tarafidan ilgari surilgan yapon tilining oltoy tillariga qarindoshligi g‘oyasi S.A.Starostinning (Алтайская проблема и происхождение японского языка. – М.: Наука, 1991)¹ monografik tadqiqotida uzil-kesil isbotini topdi.

Oltoy tillari doirasida keng miqyosda qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, fonetika sohasi atroflicha o‘rganildi. Xususan, G.I.Ramsted, Z.Gombots, P.Pellio, A.Sovajo, V.Ya.Vladimirsov, N.N.Poppe kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida oltoy tillarining fonetik strukturasi shakllantirilib, unli va undosh tovushlarning tavsifi berildi. Keyinchalik V.I.Sinsius, G.D.Sanjeyev, P. Aalto, V.M.Ilich-Svitich, T.Tekin, U.Baychura, X.U.Che, Ye.A.Xelimskiy, S.A.Starostin, A.V.Dibo singari tadqiqotchilar tarafidan oltoy tillarining unli tovushlari labial va

¹ Lyle Campbell, William J. Poser. *Language Classification: History and Method*. –New York: Bloomsbury Academic, 2009. –P. 235-236.

palatal, undosh tovushlari labial, dental, apikal, palatal, lateral, guttural va initial tovushlarga tasniflanib, proto-oltoy tilining tovushlar sistemasi rekonstruksiya qilindi.

Qator tadqiqotlar oltoy tillarining qiyosiy-tarixiy morfologiyasini o'rganishga bag'ishlandi. Oltoy tillarining birinchi qiyosiy-tarixiy grammatikasi nemis tilshunosi V.Shott tomonidan yozildi. Oltoy tillaridagi sonlar B.Laufer, V.Shott, G.I.Ramsted, B.Munkasi, F.Kraelis, V.Kotvich, olmoshlar A.Boller, F.Muller, V.Kotvich, kelishiklar V.Bang, B.Laufer, D.Shinor, N.N.Poppe tomonidan o'rganildi.

Oltoyshunoslikda keyingi yillarda amalga oshirilgan yirik monografik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etdi. G.I.Ramstedtning "Введение в алтайское языкознание" nomli fundamental asari oltoy tillari qiyosiy grammatikasining sintetik tadqiqiga bag'ishlandi. V.Kotvichning "Исследование по алтайским языкам" nomli tipologik tadqiqotida turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarining morfologiya va sintaksisidagi o'xshash va o'ziga xos jihatlar qayd qilinib, ushbu tillarning umumiy rivojlanish jarayonlari ko'rsatib berildi. O.P.Sunikning tahriri ostidagi "Очерки сравнительной морфологии алтайских языков" nomli to'plamda oltoy tillarining qiyosiy morfologiyasiga bag'ishlangan qator maqolalar nashr qilindi. N.A.Baskakovning "Алтайская семья языков и её изучение" asarida oltoy tillarining tasnifi, oltoyshunoslikdagi yo'nalishlar bilan birga, oltoy tillarining yaqinligi va qarindoshligini isbotlovchi morfologik materiallar keltirilgan. X.U.Chening "Türkçe ile Korecenin Karşılaştırmalı Morfolojisi" nomli dissertatsiyasida oltoy tillarining morfologiyasi qiyosiy-tarixiy planda o'rganildi.

Oltoy tillarining qiyosiy-tarixiy leksikologiya sohasidagi dastlabki tadqiqotlar V.Shott, I.Grinsel, Ye.Kallivulis va V.I.Sinsus tarafidan amalga oshirildi. Oltoy tillarining qiyosiy leksikologiyasi va etimologiyasi sohasidagi asosiy fundamental tadqiqot G.I.Ramstedtning "Kalmückisches Wörterbuch" nomli asarida o'z aksini topdi. So'nggi yillarda oltoy tillarining leksikasiga bag'ishlangan leksik-tematik guruhlar bo'yicha alohida tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, qarindoshlik terminlari V.I.Sinsus, Sh.R.Usmanova, somatik terminlari V.D.Kolesnikova, Sh.R.Usmanova, unvon nomlari X.U.Che, hayvon va qushlarning nomlari K.A.Novikova E.F.Ishberdin, G.E.Kornilov, o'simlik nomlari A.V.Dibo, metall nomlari V.I.Sinsus, T.G.Bugayevalarning maqolalarida o'rganildi. A.V.Diboning "Семантическая реконструкция в алтайской этимологии. Соматические термины (Плечевой пояс)" nomli monografiyasida oltoy tillarining semantik rekonstruksiya metodi somatik leksemalar misolida ishlab chiqildi. S.A.Starostinning "Алтайская проблема и происхождение японского языка" nomli monografiyasida oltoy tillaridagi 114 ta tayanch leksema tadqiq qilinib, shulardan 81 tasining umumoltoycho o'zakdan kelib chiqqanligi isbotlandi va yapon tilining oltoy tillari oilasiga kiritish masalasi uzil-kesil hal qilindi. S.A.Starostin, A.V.Dibo va O.A.Mudraklarning salkam yigirma yillik mashaqqatli mehnatlarining mahsuli bo'lgan "An Etymological Dictionary of the Altaic Languages" nomli oltoy tillarining 3 jildlik ulkan etimologik lug'atining nashr qilinishi oltoyshunoslikda katta burilish yasadi. Qiyosiy-tarixiy va rekonstruksiya metodiga asoslangan mazkur lug'atda oltoy tillaridagi 2800 ta leksemaning etimologik tahlili berildi¹.

O'zbek tilshunosligida oltoyshunoslik sohasidagi dastlabki tadqiqot Sh.R.Usmanovanning "Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi" (2011) nomli doktorlik dissertatsiyasida amalga oshirildi². Mazkur tadqiqotda Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika qiyosiy-tarixiy, diaxron hamda sinxron aspektlarda o'rganilib, ularning etimologiyasi belgilangan. Maishiy so'zlarning proto-shakllarini qayta tiklangan. Oltoy tillarining qarindoshlik munosabatlari genezisiga aniqlik kiritilgan va Oltoy tillari oilasiga quyidagi tillar kiritilgan:

¹ Starostin S., Dybo A. and Mudrak O. An Etymological Dictionary of the Altaic Languages. I-III. –Leiden-Boston: Brill, 2003.

² Усманова Ш.Р. Олтой тилларидаги муштарақ маиший лексика тадқиқи. Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 2011.

Turkiy tillar	Mo'g'ul tillari	Tungus-manjur tillari	Koreys tili	Yapon tili
qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, bolqor, boshqird, gagauz, dolgan, yoqut, koybal, lobnor, no'g'oy, ozarbayjon, oyrot, oltoy, sagay, salar, sariq uyg'ur, soyot, tatar, teleut, toba, tofalar, tuva, turk, turkman, uyg'ur, xakas, xalaj, chuvash, shor, o'zbek, qaraim, qirg'iz, qozoq, qorachoy, qorachoy -bolqor, qoraqalpoq, qrimtatar, qo'miq	mo'g'ul yozma yodgorliklari tili, eski mo'g'ul tili, baoan, buryat, dagur, dunsyan, mongor, mo'g'ul, ordos, xalxa, shira uyg'ur, qalmiq	nanay, negidal, orok, oroch, solon, udey, ulcha, even, evenk, jurjen, manjur	eski koreys tili, hozirgi koreys tili	qadimgi yapon tili, eski yapon tili, Tokio dialekti, Kioto dialekti, Kagoshima dialekti

Qayd qilinganlar bilan birga, oltoyshunoslikning rivojlanishida, uning bugungi kundagi dolzarb muammolarini hal etishda, oltoyshunoslikka oid tadqiqotlarning ilmiy jamoatchilik sinovidan o'tishida har yili turli mamlakatlarda o'tkazilib kelinayotgan oltoyshunoslarning doimiy xalqaro anjumani "PIAK"ning faoliyatini ham alohida ta'kidlash lozim.

5. 2. "Rotasizm-zetasizm" dilemmasi

Turkiyshunoslikda "rotasizm-zetasizm" dilemmasi eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan masalalardan biridir. G.I.Ramstedt tomonidan ilgari surilgan "rotasizm-zetasizm" nazariyaga ko'ra, proto-turk tilida *r* undoshi mavjud bo'lib, u chuvash tilida *r*, qadimgi turkiy tilda va hozirgi zamon turkiy tillarida *z* tovushini ifodalaydi.

Biroq qator tadqiqotchilar G.I.Ramstedtning mazkur rekonstruksiyasiga shubha bilan qaradilar. Jumladan, turkiy tillardagi "zetasizm" va "sigmatizm"ning ashaddiy muxoliflaridan biri bo'lgan A.M. Shcherbakning fikricha, go'yoki proto-turkiy tilda dastlabki cho'ziq unilardan keyin keladigan **s* va **š* allafonlari mavjud bo'lgan; bunday holatda har yerda **s* jaranglilashgan bo'lsa, chuvash tilida **s* va **š* > *r* va *l* yumshoq undoshlariga aylangan. A.M. Shcherbakning ushbu iddaosi aniq til faktlariga asoslanmagani uchun ham ko'pchilik oltoyshunoslar tomonidan tanqidga uchradi. G.I.Ramstedtning "rotasizm", "zetasizm", "sigmatizm" va "lambadizm" rekonstruksiyasi esa rad etib bo'lmaydigan kuchli argument sifatida oltoyshunoslikka oid qator tadqiqotlarda o'z isbotini topdi.

Binobarin, Sh.R.Usmanovanning "Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi" (2011) nomli doktorlik dissertatsiyasida turkiy tillardagi *z* undoshining proto-turk tilidagi **r* ga, proto-oltoy tilidagi **r* ga muqobilligini ko'rsatuvchi quyidagi misollar keltirilgan: turk. *kazan*, chuv. *xuran*// *xoran* "qozon", p-turk. **ku'ran* "go'sht pishiriladigan qurilma" < **ku'r-* "qo'yimoq, o'rnatmoq, qurmoq", p-mo'g'. **kura(ŋ)* "halqa", "atrofi o'ralgan halqasimon har qanday joy", "qarorgoh", "hovli", p-t-manj. **kori* "yog'och devorli qurilma", "qafas", "og'il", p-kor. **kori* "halqa", "gardish", p-yap. **kuru-wa* "qal'a devori", "kvartal", p-olt. **ku'ra* "xalq yig'iladigan halqasimon joy"; turk. *keviz*, *kebiz*, *köwüz* "kigiz", p-turk. **keber* "qo'y junidan tayyorlangan palos", p-t-manj. **kuberi* "ayollarning quloqchinli qalpog'i"; turk. *toz* "qayin po'stlog'idan qilingan idish, buyum", p-turk. **tör* "qayin", "qayin po'stlog'idan qilingan idish, buyum", p-mo'g'. **duru-sun* "jo'ka va ba'zi boshqa daraxtlarning po'stlog'i, chipta", "qayin po'stlog'i", p-t-manj. **duri* "qayin po'stlog'idan qilingan belanchak", p-yap. **turu(m)pai* "chelak", p-olt. **törü* "qayin", "qayin po'stlog'idan qilingan idish".

6-MAVZU
TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI
(8 soat)

Reja:

1. Agglyutinativ tillar
2. Flektiv tillar
3. Ihtotalangan tillar (amorftillar)
4. Polisintetik tillar

Tayanch soʻz va iboralar: *tipologik tasnif, soʻzlarning tuzilishi, turlovchi qoʻshimcha, tuslovchi qoʻshimcha, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, ihtotalangan tillar (amorftillar), polisintetik tillar, sintetik tillar, analitik tillar, fleksiya, soʻz yasovchi qoʻshimcha, sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, affiksial morfemalar, oʻzak morfema, old qoʻshimcha, ort qoʻshimcha.*

Tillarning tipologik tasnif qilishda soʻzlarning tuzilishi eng muhim belgi qilib olinadi. Bu usulda soʻzlarning kelib chiqishi eʼtirofqa olinmaydi. U eng avvalo har bir tilning grammatik qurilishini nazarda tutadi, yaʼni nutqdagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishidagi soʻz, turlovchi va tuslovchi qoʻshimchalarning bor-yoʻqligi, ularning xususiyatlari va soʻzning yasalish tomonlarini hisobga oladi. Odatda, tillarning 4 turi ajratiladi: agglyutinativ, flektiv, ihtotalangan va polisintetik tillar.

Tillarni guruhlarga ajratishda bir qancha mezonlar mavjud: soʻzlar tartibi yoki tarixi asos qilib olinishi mumkin. Biz ikki narsani oldindan belgilab olishimiz kerak. Avvalo, tillar qiyosida ikki til elementlari oʻzaro zidlanadi, ikkinchidan, vengr tilidagi bir soʻz ingliz tilidagi bir necha tillarga oʻxshab ketishining sababi. Ingliz tilidagi soʻzlar oʻzaro morfemalarsiz bogʻlanadi. Vengr tilidagi morfologik kompleksli soʻzlar ingliz tilidagi soʻzlarda ajratiladi. Masalan, (15) elallatiasodottsagaban soʻzi. Vengr tili agglyutinativ til boʻlganligi uchun uzun soʻz bir necha morfemalardan iborat boʻladi, ular oʻzaro ajraladi va ularning hammasida sezilarli maʼno boʻladi: el+allat+i+as+od+ott+sag+a+ban va ingliz tilida har bir morfema yangi soʻzga oʻxshab ketadi. Biz buni ingliz tilidagi koʻpgina soʻzlarning morfemalardan tashkil topganidan ham koʻrishimiz mumkin; egiink, evett, enni kabi soʻzlardagi e nimani bildiradi? Bu kabi soʻzlar flektiv tillarga xosdir. Yaʼni e morfemasi moslashuvchan. Flektiv tillarda soʻzlarning qaysi morfema bilan boshlanishi yoki tugashi aniq emas¹.

6. 1. Agglyutinativ tillar

Agglyutinativ tillar (lot. *agglutinate* – ulash, yopishtirish)da soʻz oʻzgarishi va soʻz yasalishi asosan affikslarning qatʼiy ketma-ketligiga koʻra amalga oshiriladi. Agglyutinativ tillar guruhiga oltoy tillari, fin-ugor, dravid, bantu tillari kiradi.

F.F.Fortunatov agglyutinativ tillarning morfologik xususiyatini shunday taʼriflaydi: “Ayrim soʻz formalariga ega boʻlgan til oilalarining aksariyatida bu formalar soʻzlarda negiz va affiksning shunday ajralish vositasi orqali yasaladiki, bunda negiz yo fleksiyaga ega boʻlmaydi, yoki negizda bunday fleksiya yuz bersa ham, u soʻz formasi uchun zarur narsa emas... Bunday tillarni morfologik tasniflashda, garchi noaniq ravishda boʻlsa ham, agglyutinatsiyalashuvchi yoki agglyutinativ, yaʼni yopishtiruvchi tillar termini bilan atash odat boʻlib qolgan. Bunda soʻz formalarida negiz va affiks oʻz maʼnolariga koʻra soʻzning bir-biriga yopishtirilgan ayrim qismlari sifatida kelaveradi”.

Turkiy tillar, jumladan oʻzbek tili affiksial morfemalari tabiatiga koʻra agglyutinativ hisoblanadi. Agglutinatsiya «ketma-ketlik», «yopishtirish» maʼnosidagi soʻz boʻlib, qoʻshimchalarning oʻzakka maʼlum tartib va ketma-ketlikda qoʻshilishidan dalolat beradi. Bunday

¹ Richter Borbala. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapest, 2006. –P. 42.

hollarda o‘zak va qo‘shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglutinatív tillarda so‘z shakllari o‘zgarish holda qo‘shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma‘noni ifodalaydi. Masalan, *-lar* faqat ko‘plik qo‘shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo‘shimchani boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatíq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma‘nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

Ta‘kidlanganidek, turkiy tillarda (o‘zbek tilida) o‘zakka dastavval, so‘z yasovchi qo‘shimchalar (morfemalar), keyin lug‘aviy shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat‘iy qoida morfem tahlilda, ya‘ni so‘zlarni ma‘noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o‘rtoqlarcha, mardlarcha* so‘zlari *o‘rtoq-lar-cha, mard-lar-cha* ko‘rinishida emas, balki *o‘rtoq-larcha, mard-larcha* tarzida ma‘noli qismlarga ajratiladi.

O‘zbek tilidagi affiks morfemlar o‘zak morfemadan keyin qo‘shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo‘shimchalar o‘zbek tili tabiatiga xos emas. Tilimizdagi *ser-(sersuv), no-(nomard), be-(begunoh), ba-(badavlat)*... kabi old qo‘shimchalar fors-tojik tiliga xos bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy omillar ta‘sirida o‘zbek tiliga o‘zlashib ketgan. Old qo‘shimchalar rus-baynalmilal so‘zlarida ham uchraydi.

Bu tillarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Affikslarga boy, gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun asosan ana shu qo‘shimchalardan foydalaniladi.

2. Bir affiks bir grammatik ma‘no ifodalaydi; shu xususiyati bilan agglutinatív tildagi affikslar fleksiyalardan farq qiladi, qiyoslang: *nuuy yoz-yap-m-an*.

O‘zbek tilidan olingan misolda *-yap* – zamon ko‘rsatkichi, *-m* – shaxs ko‘rsatkichi, *-an* – son ko‘rsatkichidir. Rus tilida bu ko‘rsatkichlar hammasi faqat birgina – *u* bilan ifoda etiladi.

3. Affikslar asosan bir xil ko‘rinishga ega bo‘lib, variantlari deyarli yo‘q. Masalan, o‘zbek tilida ko‘plik faqat *-lar* qo‘shilishi orqali yasaladi; kelishik qo‘shimchalarining deyarli hammasi o‘z ko‘rinishiga ega.

4. O‘zak, negiz, grammatik affikslar orasidagi chegara doim aniq, masalan: *ish – chi – lar – dan; dars – lik – lar – ni*.

5. Ko‘pchilik agglutinatív tillarda so‘z tartibi nisbatan qat‘iy. So‘z tartibining buzilishi hamma vaqt ham so‘zning funksiyasini o‘zgarishiga olib kelmaydi; qat‘iy so‘z tartibi ko‘proq til an‘anasi bilan bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilida oddiy gaplardagi so‘z tartibi quyidagicha: E-T-K.

6. So‘zlarga qo‘shiladigan affikslar o‘zakka ma‘lum tartib asosida qo‘shiladi.

7. Agglutinatív tillar affikslarning o‘zakdan oldin yoki keyin turishiga ko‘ra old qo‘shimchali (prefiks) agglutinatív tillar va ort qo‘shimchali (postfiks) agglutinatív tillarga bo‘linadi. Turkiy tillar ort qo‘shimchali (postfiks) agglutinatív tillardir. Afrikadagi suaxili prefiks tildir. Masalan, *anamataka* so‘zida uchta prefiksdan keyin o‘zak o‘rin olgan: *a-na-m-ataka* (u buni xohlaydi).

8. Agglutinatív tillarga singarmonizm hodisasi xosdir.

6. 2. Flektiv tillar

Flektiv tillar (lot. *flexio* – egilmoq, bukilmoq). Flektiv tillar kategoriya ma‘nolarining fleksiyalarda ifodalanishi bilan (masalan, rus tili) xarakterlanadi. Flektiv tillar tipiga hind-Yevropa va xom-som tillar oilasiga mansub bo‘lgan tillar kiradi.

Bu tillarni sintetik flektiv tillar va analitik flektiv tillarga ajratiladi. Sintetik flektiv tillarga nemis, rus tillariga o‘xshagan fleksiyalarga boy tillar kiritiladi. Nutqda so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatlar asosan fleksiyalar asosida amalga oshiriladi. Analitik flektiv tillarda, garchi fleksiyalar bo‘lsa ham ularning miqdori katta emas, gapdagi so‘zlar orasidagi sintaktik munosabat ko‘proq so‘z tarkibi va yordamchi so‘zlar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun analitik tillarda so‘z tartibi qat‘iy, har bir gap bo‘lagi o‘z o‘rnida turishi shart. Analitik flektiv tillarga ingliz, fransuz tillari kabilar kiradi. Bu tillarda odatda gapning egasi birinchi o‘rinda (kesimdan oldingi o‘rinda), kesim ikkinchi o‘rinda (egadan keyingi o‘rinda), agar kesim o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lsa, unda uchinchi o‘rinda (kesimdan keyin) to‘ldiruvchi turadi. Aniqlovchining o‘rnini oldindan belgilab bo‘lmaydi. U doimo ot bilan bog‘langan bo‘ladi; aniqlanmish qaerda

bo'lsa, aniqlovchi ham shu yerda bo'ladi; u ega vazifasini bajarayotgan so'zdan oldin ham, qo'shma ot kesim vazifasida kelgan otdan oldin ham turishi mumkin. Hol esa ma'nosiga ko'ra gapda turli o'rinlarni egallab turishi mumkin. Sintetik flektiv tillarda so'z tartibi nisbatan erkin.

Flektiv tillarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar

1. Bir fleksiya bir necha ma'noni anglatishi mumkin. Masalan, rus tilidagi *вижу*-y so'ziga qo'shilgan -y fleksiyasi bir vaqtning o'zida shaxs, son, zamonni ko'rsatadi.

2. Bir fleksiya bir nechta variantga ega bo'lishi mumkin. Masalan, rus tilida otlarda ko'plik *ы, -и, -а, -я* kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi: *столы, стулья, дома, книги*.

3. O'zakka va negizga fleksiya qo'shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin: *бежать – бегу; писать – пишу*.

4. O'zak va negiz, negiz va grammatik fleksiyalar o'rtasidagi chegarani aniqlash ko'p qiyinchiliklar tug'diradi: *мыться – моюсь; пить – пью*.

5. Ichki fleksiyalarga boy. Masalan, arab tilida:

kitab – китоб

kutub – китоблар

tiktib – у (женский род) ёзипти

jiktib – у (мужской род) ёзипти

uktub – мен ёзипман.

6. 3. Ihtotalangan tillar (amorf tillar)

Ihtotalangan tillar (amorf tillar). Bu tillarga asosan xitoy-tibet tillari (xitoy, tibet, tay, vietnam va boshqalar) kiradi. Ularning xususiyatlari so'zlari ko'proq bir bo'g'iniligi, affikslar, fleksiyalar yo'qligi, gapda so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish asosan so'z tartibi, yordamchi so'zlar va ohang orqali amalga oshirilishidir.

Ihtotalangan tillarda so'zlar izolyatsiyalangan, qo'shimchalarsiz ishtirok etadi. So'zlarning gapda tutgan o'rni uni qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanini ko'rsatadi. Tilshunoslik tarixida bu tillar "amorf", ya'ni "formasiz" tillar nomini olgan. Grammatik forma tillarda bir xil namoyon bo'lmaydi (agglyutinatив, flektiv o'ziga xos). Ihtotalangan tillarning formasi o'ziga xos ravishda yasaladi. Ulardagi so'zlar o'z formalarini gapdagi o'rinlar orqali ifoda etadilar yoki ohang yordamida amalga oshiradilar.

Xitoy tilida so'z o'zgartish qo'shimchalarining yo'qligini quyidagi misol yordamida ko'rsatish mumkin: *Vo syan chjao-syan* (Я хочу сфотографироваться).

Rus tilida eganing ko'plikda o'zgarishi kesimning shaklini o'zgarishiga olib keladi, xitoy tilida esa bunday o'zgarish bo'lmaydi. Qiyoslang: *Мы хотим сфотографироваться. Во-мен syan chjao-syan* (men- – ko'plikni ko'rsatuvchi yordamchi so'z).

Xitoy tilida ohanglar ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'ladi. Ayni bo'g'in ohangga ko'ra turli ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan: ☉shuD (birinchi ohang) – kitob, ☉shuD (ikkinchi ohang) – yetilgan, pishgan, ☉shuD (uchinchi ohang) – sanamoq, ☉shuD (to'rtinchi ohang) – daraxt.

6. 4. Polisintetik tillar

Polisintetik (mujassamlantiruvchi) tillar. Bu tillarga amerikalik hindular va Rossiyadagi chukot, koryak tillari kiradi. Mazkur tillar ko'p jihatdan hali o'rganilmagan. Polisintetik tillarning asosiy xususiyatlari harakatning turli ob'ektlari va holati gapning alohida bo'laklari bilan emas (to'ldiruvchi, hol), balki kesimni ifodalovchi fe'l tarkibiga kirgan turli affikslar vositasida ifodalanadi. Uning tarkibiga ba'zan ega ham kiradi. Bu tillarda so'z tushunchasi nisbiydir. Chunki bu tillardagi so'z tushunchasi boshqa tillardagi ayrim tovushlarga to'g'ri kelib, o'zining uzil-kesil ma'nosini faqat gap tarkibidagina kashf etadi. Bu tillardagi gaplar boshqa tillardagi so'zga to'g'ri keladi. Masalan, chukotlar tilida *timingintorkin* so'zi ruscha *Я вынимаю руки* gapi bir so'z bilan beriladi: ты – мен, минги – руки, нто- выход, ркин– делание.

Yoki chinuk tilida (Shimoliy Amerika hindulari tili) *inialudam* "men buni unga bergani keldim". Bu gapda d – "bermoq" fe'lining o'zagi, i – yaqin o'tgan zamon, n – men, i – bu, a – unga, l – vositasiz to'ldiruvchi, u – gapiruvchi tomonidan bajariladigan ish-harakat, am – kelmoq.

Shunday qilib, mujassamlashtiruvchi tillardagi bir soʻz-gap boshqa tillarda bir nechta soʻzlar orqali ifoda qilinadi.

Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi toʻgʻrisida gap borganda hech bir til oʻz xususiyatlari bilan boshqa tilga mutloq mos kelmasligini aytib oʻtish oʻrinlidir, demak, tipologiya absolyut emas, nisbiydir. Tillar oʻzlarining koʻproq xususiyatlari bilan u yoki bu turga mansub boʻlishi mumkin. Har bir tilda flektiv, agglyutinativ va boshqa elementlar boʻlishi tabiiy. Masalan, oʻzbek tili agglyutinativ til, lekin unda fleksiya uchrashi mumkin: keldik soʻzidagi –k bir vaqtning oʻzida ham shaxsni, ham sonni koʻrsatadi. Ingliz tili analitik flektiv boʻlsa ham shunga oʻxshagan agglyutinativ vositalari bor. Demak, tillarni u yoki bu turga kiritishda ularning qaysi xususiyatlari koʻproqligiga asoslaniladi.

Hozirgi davr tilshunosligida tillarning morfologik tasnifiga yangicha qarashlar yuzaga kelgan. Bunda sinergetikaning qonuniyatlaridan kelib chiqilmoqda. Masalan, anʼanaviy tasnif boʻyicha oʻzbek tili agglyutinativ til hisoblanadi, ammo sinergetik qonuniyatlarga koʻra unda ham fleksiya xususiyatlari borligi aniqlangan. Bugungi kunda ingliz tilida agglyutinatsiya elementlari borligi kuzatilmoqda. Shunga koʻra aytish mumkinki, dunyo tipologik jihatdan sof holdagi biror bir til yoʻq, yaʼni har bir tilda u yoki bu darajada agglyutinatsiya ham, fleksiya ham kuzatilishi mumkin. Faqat bir tilda agglyutinatsiya, bir tilda esa fleksiya yuqori darajada boʻlishi mumkin.

7-MAVZU QIYOSIY TILSHUNOSLIKNING TAHLIL METODLARI

(4 soat)

Reja:

1. Metodologiya va metodlar haqida
2. Qiyosiy tilshunoslik metodlari

Tayanch soʻz va iboralar: metodologiya, *metod tushunchasi, umumiy metodlar, xususiy metodlar, lingvistik tahlil metodlari, qiyosiy-tarixiy metod, tipologik metodi, chogʻishtirma metod.*

7.1. Metodologiya va metodlar haqida

Metodologiya va tadqiqot metodidan xoli birorta ilmiy asar mavjud boʻlmaydi. Shunday ekan, fanda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metod tushunchalari markaziy oʻrinni egallaydi.

Metodologiya bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qoʻllashdir. Metodologiya metodlarning umumiy nazariyasi sifatida insonning bilish faoliyatida qoʻllanilgan metodlarni umumlashtirish zarurati bilan dunyoga keldi. Dialektik metod maxsus ilmiy metodlarga, yaʼni turli fanlarga oid metodlarga taʼsir qiluvchi taʼlimot boʻlgani uchun uni metodologiya, yaʼni ilmiy tadqiqot usuli boʻlgan metodlar haqidagi taʼlimot deb yuritdilar. Dastlab metodologiya muammolari falsafa doirasida koʻrila boshlandi.

Falsafa metodologiyaga tamoyillar hamda usullarni nazariy va amaliy faoliyatlarni tashkil qilish tizimi, shuningdek, mazkur tizimni oʻrganadigan ilm sifatida qaraydi. Metodologiya nazariyadan farqli oʻlaroq, yangi bilim bermaydi, taʼlimotdan farqli oʻlaroq, amaliyotning asosi boʻlib xizmat qilmaydi, biroq fanda shunday unsurlarni rivojlantiradiki, ularsiz mazkur fanning oʻzi rivojlana olmaydi.

Metodologiya – bu fanning rivojlanish taʼlimoti, taʼlimot – bu metodologiyaning nazariyadan amaliyotga oʻtishi. Har qanday fanning metodologiyasi (jumladan, lingvokulturologiyaning ham) uch darajani oʻz ichiga oladi:

Falsafiy metodologiya – eng oliy daraja boʻlib, u uchun Geraklit, Platon, Kant, Fixte, Shelling va h.k. tomonidan shakllantirilgan dialektikaning qonunlari, tamoyillari va kategoriyalari muhimdir. Bular qarama-qarshilikning birligi va kurashi, inkorni inkor etish qonunlari, umumiylik, xususiylik va alohidalik hamda boshqa kategoriyalardir.

Umumfan metodologiyasi – hodisalarni o‘rganish metodlari va tamoyillarini turli fanlar tomonidan rivojlantirilishidir. Ular kuzatish, eksperiment, modellashtirish va talqindan iborat. Umumfan metodologiyasi fanlarning taraqqiy etishi bilan birga o‘zgarib boradi va natijada yangi metodlar shakllanadi, eski metodlar modifikatsiya qilinadi.

Xususiy metodologiya konkret fanlarning, binobarin, qiyosiy tilshunoslikning ham metodlaridir.

Metodologiya va metod o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, u o‘rganilayotgan hodisaga nisbatan muayyan yondashuvni, muayyan usullar majmuyini bildiradi. Shuning uchun ham metod har doim tizim hisoblanadi. Uning xususiyati tadqiqotning obyekti va predmeti bilan belgilanadi. Har qanday metod umumfalsafiy nazariyalarga bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi kunda metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi ma‘lum bir fanda qo‘llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta‘limot emas, balki tadqiqotchining tadqiq manbayini, obyektini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi, tadqiqotchining dunyoqarashini nazarda tutadi.

Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim.

1. Metod obyektiv bo‘lmog‘i kerak. Metodning qo‘llanish vaqti va o‘rnidan qat‘iy nazar, natija bir xil bo‘lishi lozim. Subyektiv yondashuvlar metod qiymatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

2. Metod izchil bo‘lishi, aniq tushunchalarga asoslanishi lozim.

3. Metod universal bo‘lishi, ya‘ni sohaning asosiy bo‘limlanishi (kamida to‘rtta) tahlil qila olishi kerak.

4. Metod foydalanish mumkin bo‘lgan darajada sodda bo‘lishi lozim.

7. 2. Qiyosiy tilshunoslik metodlari

Qiyosiy tilshunoslikda, asosan, qiyosiy-tarixiy metod, tipologik metod va chog‘ishtirma metodlardan foydalaniladi.

Qiyosiy-tarixiy metod yoki tarixiy-genetik metod lingvistik metodlarning eng faoli va eng asosiysi hisoblanadi.

Qiyosiy-tarixiy metod – o‘zaro qarindoshlik munosabatidagi tillarning birliklarini, asosan, tovush, qo‘shimcha va so‘zlarni tarixiy jihatdan qiyoslash natijasida ularning dastlabki shaklini, qiyofasini, ma‘nosini tiklaydi, ular orasidagi o‘xshashlikni aniqlaydi.

Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari hind va qator Yevropa tillari tarixan bitta asos, umumiy tildan, ya‘ni bobo til (prayazik)dan ajralib chiqqan, ushbu tilning bo‘linishi, turli tomonlarga tarqalishi natijasida yuzaga kelgan, shakllangan degan g‘oyani ilgari suradilar.

Qiyosiy-tarixiy metod orqali qarindosh tillarga oid til materiallari asosida dastlab so‘zlarning talaffuzi hamda ma‘nosi qanday bo‘lganligi aniqlanadi, shundan so‘ng ular qiyoslaniladi. Natijada tahlil qilinayotgan so‘zning eng qadimgi shakli (etimologik shakli) va ma‘nosi (etimologik ma‘nosi) haqida ma‘lumot beriladi.

Qiyosiy-tarixiy metodning qo‘llanishi natijasida quyidagilar amallar bajariladi: a) qiyoslash uchun material to‘plash; b) qator qiyoslanadigan birliklarni belgilash va ularni aynan bir narsa deb hisoblash; v) fonetik o‘zgarishlarni nisbiy xronologiyasini belgilash; g) arxetip rekonstruksiyasini aniqlash (so‘z va morfemalarning eng qadimgi shakli va ma‘nolarini tiklash).

Tipologik metod – turli tillar sistemalarini umumlashtirib, qiyoslab o‘rganishdir. *Tipologik metodda* o‘zaro qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar struktur jihatdan qiyosiy o‘rganilib, ularning tuzilishiga xos xususiyatlar, umumiy va farqli tomonlar aniqlanadi. Ushbu xususiyatiga ko‘ra mazkur metod faqat bir til oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy tadqiq qiluvchi, “baholovchi” qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi.

Tipologik metod qiyosiy-tarixiy metod bilan hamkorlikda ish olib boradi, uni to‘ldiradi, chuqurlashtiradi.

Tipologik metod chet tillarni ona tiliga qiyoslab o‘rganish jarayonida ushbu tillardagi fonetik, leksik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini aniqlaydi va ilmiy xulosalar chiqaradi.

Tipologik metodning mohiyati shundan iboratki, bunda tillar genetik jihatdan qaysi til oilalariga mansubligidan qat'iy nazar ular o'z strukturalaridagi o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra qiyoslaniladi, ya'ni o'rganilayotgan, qiyosga olingan tillarning struktur-qurilish xususiyatlari aniqlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi.

“Tipologik metodning paydo bo'lish sababi shundaki, barcha tillar tashqi jihatdan farqli bo'lsada, ammo ichki tuzilishiga ko'ra o'xshashdir, ya'ni ular tuzilishi (strukturas) asosida aynan bir xil prinsip yotadi”.

Tillarni tipologik o'rganish maqsadini belgilashda bir qancha yondashuvlar, qarashlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Klassifikasion yondashuv – tillarga tasnifiy yondashuv, morfologik tasnif sifatida o'zak va qo'shimchalar o'zaro zid holda qiyoslab o'rganiladi.

2. Xarakterologik yondashuv – bunda qiyolanayotgan har bir tilning o'ziga, tuzilishiga xos muhim, xarakterli xususiyatlar ma'lum bo'ladi, aniqlanadi.

3. Belgili yondashuv – tillarga muayyan belgi-xususiyatlar (masalan, fonetik, morfologik va b.) jihatidan yondashuv bo'lib, unda til sathlari tipologiyasi (fonetik, leksik, sintaktik tipologiya kabilar) ham kuzatiladi.

4. Ichki sistem yondashuv – bu holda muayyan tildagi muayyan hodisalar (fonetik, leksik va b.) orasidagi o'zaro munosabatlar, aloqalar o'rganiladi.

Tipologik metodlarning barchasini o'z ichiga olgan lingvistik tipologiya umumiy tipologiya hisoblanadi. Umumiy tipologiya xususi tipologik metodlar erishgan natijalarni umumlashtiradi. Dunyodagi barcha tillar sistemalari umumiy tipologik nuqtayi nazardan yagona bir strukturaning turli panxronik variantlari hisoblanadi. Shu sababli ham tipologik tillar umumiy strukturasi turli elementlari o'rtasidagi aloqasini, umumiy qonunlarini o'rganadi. Umumiy tipologiya barcha tillardagi umumiy tipologik qonunlarni bayon etadi, til universaliasini yaratadi, ma'lum tillar sistemalari asosida universal qonunlarni boshqa tillar sistemasiga induktiv ravishda tatbiq qiladi.

Chog'ishtirish metodi – ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarni o'zaro qiyoslab, chog'ishtirib o'rganadi. Ushbu xususiyatga ko'ra mazkur metod faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o'rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, bir qancha tillarga oid chog'ishtirilayotgan, taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda, tavsiflashda, tillararo o'xshash (analogik) hodisalardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning – chog'ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e'tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.

Chog'ishtirish metodi qayd etilgan o'ziga xos jihatlariga, tomonlariga ko'ra u muayyan bir til tabiatiga, tuzilishiga, tarkibiga xos xususiyatlarni tavsiflash uchun xizmat qiladigan tasviriy metoddan ham farq qiladi.

Tillarni chog'ishtirish metodi asosida o'rganish natijasida ularning fonetik va leksikografik xususiyatlari, tomonlari atroflicha yoritiladi, ma'lum bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida qiyosga asos bo'lgan tillarning tuzilishini, ichki tomonlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Chog'ishtirish metodi, ayniqsa, chet tillarini o'rganishda ham keng qo'llaniladi. Demak, mazkur metod nafaqat nazariy fikr va qoidalarni belgilash uchun, balki amaliy maqsadlar uchun ham faol xizmat qiladi. Shuningdek, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog'ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, chog'ishtirish metodining o'ziga xosliklari quyidagilar bilan ham belgilanadi:

1. So'zlarning turli-tuman qo'shimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so'z va qo'shimchalarni farqlash.

2. Sheva va o'zaro yaqin bo'lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mos kelishlarni tavsiflash.

3. Qat'iy belgilangan adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish hamda o'rgatish metodikasini shakllantirish.

4. Bir tilli (izohli) va ko'p tilli lug'atlarni tuzish.

Umuman, tilshunoslik sohasiga xos eng umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'рни beqiyosdir.

8-MAVZU TIPOLOGIK TILSHUNOSLIK (2 soat)

Reja:

1. Tipologiyaning predmeti va turlari
2. Tipologiyaning til yaruslari bilan aloqasiga ko'ra tarmoqlari

Tayanch so'z va iboralar: *Tipologiya turlari, lingvistik tipologiya, nolingvistik tipologiya, tipologik tilshunoslikning predmeti, tipologik tadqiqot turlari, ontologik, epistemologik, til yaruslari, formal tipologiya, fonologik tipologiya, morfologik tipologiya, sintaktik tipologiya, semantik tipologiya.*

8.1. Tipologiya turlari

Tipologiya so'zi grekcha *tipos*-tip, tur, obraz, shakl, belgi va *logos* so'z, fan so'zlarining qo'shilishidan yasalgan. Tipologiya hozirgi davrda hamma fanlar uchun xosdir. Shu nuqtayi nazardan lingvistik tipologiya tushunchasi tipologik makrokategoriyaning bir qismi hisoblanadi. Tipologiya predmet yoki hodisalarning tasniflanish protsessi bilan bog'liqligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- a) lingvistik tipologiya;
- b) nolingvistik tipologiya.

Lingvistik tipologiya tillar sistemalarini bir-biri bilan qiyoslash, til qonunlari va kategoriyalarini umumlashtirishni, ularni tipologik klassifikatsiyalashni o'rganadi. Lingvistik tipologiya tillarning tipologik tasnifining muhim qonun-qoidalari va usullarini tekshiradi. Shuningdek, tipologiya lisoniy birliklarni biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish jarayonini ham tekshiradi.

XIX asrda tezlik bilan rivojlanish bosqichiga o'tgan tipologiyaning muhim xususiyati shundaki, u turli tillar – qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar doirasida ish ko'radi. Ushbu tillarni o'zaro qiyosiy o'rganadi. Shu jarayonda tipologiya qiyoslanayotgan tillarning tuzilishidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, izohlaydi.

Qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganishga va tushunishga bo'lgan intilish tilshunoslikda alohida soha, yo'nalish bo'lgan lingvistik tipologiyaning maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

Lingvistik tipologiya tillarning genetik aloqasidan qat'iy nazar ularning struktur va funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganadi. Lingvistik tipologiya – turli til oilalariga mansub tillarni o'zaro qiyosiy tadqiq qiladi, ularning umumiy va farqli jihatlariga alohida e'tibor beradi. Lingvistik tipologiya tillar sistemalarini bir-biri bilan qiyoslaydi, til qonunlari va kategoriyalarini umumlashtiradi va ularni tipologik tasniflaydi.

Lingvistik tipologiya – tilni o'rganishning ikki asosiy aspektidan biri bo'lgan qiyosiy-tarixiy (genetik) aspektdan ontologik (tadqiqot predmeti xarakteristikasining mohiyatiga ko'ra) va epistemologik (tadqiqot prinsiplari va usullarining mohiyatiga ko'ra) farq qiladi: tipologiyada moslik tushunchasining ikki jihatli (shakl va mazmunda) bo'lishi shart emas, unda qiyoslanilayotgan birliklar shakl yoki mazmun jihatidan cheklangan bo'lishi mumkin.

Lingvistik tipologiyaning bu turi sof lingvistik tipologiya deyilib, ekstralingvistik tipologiyaga qarama-qarshi qo'yiladi. Ekstralingvistik tipologiya tilni mazkur tilga yaqin boshqa belgi sistemalar, masalan, semiotik, kommunikatsion va boshqa belgi sistemalar (sign, system)

bilan qiyoslaydi va solishtiradi. Semistik sistema inson tili, hayvon tili, mashina "til"i sistemasi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Tipologiyaning predmeti quyidagichadir:

- a) umumiy til qonunlarini yaratadi va ularning sistemalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlaydi,
- b) til universaliasini aniqlaydi,
- d) tipologik sun'iy etalon til yaratadi,
- e) tillar o'rtasidagi o'lchov birligi xizmatini o'taydigan birliklarni aniqlaydi,
- f) tillarning morfologik klassifikatsiyasini tuzadi,
- g) fan tillari tipologiyasini tuzadi.

Nolingvistik tipologiya lingvistikadan boshqa fanlarda ishlatiladi. Nolingvistik tipologiya masshtabi juda keng bo'lib, geologiya, tarix, jamiyatshunoslik, botanika fanlarida san'at va adabiyotda, muzika va umuman fanda turli predmet, hodisa va voqealarning o'xshashliklari va farqiga ko'ra klassifikatsiyasini o'rganadi.

Tipologiya sohasida qilingan ishlar hali umumtipologiya miqyosida ko'tarila olganicha yo'q. Tipologiyani turli konkret tarmoqlarga bo'lish asosan hozirgi davrga xosdir, chunki tipologiya haqidagi fan avval aniq va konkret bo'lmagan. Umumiy tipologiya tillar sistemalarini umumiy kategoriyalar asosida o'rganadi.

8.2. Tipologiyaning til yaruslari bilan aloqasiga ko'ra tarmoqlari

(Branches of Typology According to the Levels of Languages) Tipologiya fani tillar sistemalarining turli ierarxik birliklarini qiyosan umumlashtirib o'rganadi va mazmun planiga muvofiq formal tipologiya, semantik tipologiyaga bo'linadi.

Formal tipologiya. Tipologiyaning bu turi ifoda plani birliklarining tipologik xususiyatlarini o'rganadi. Formal tipologiya fonologik, morfologik va sintaktik tipologiyadan tashkil topadi. Formal tipologiya asosan tilning morfologik va sintaktik yaruslarining formal tomonlariga ko'proq ahamiyat berib, ularning ma'lum formal belgilarini turli tillar sistemasida o'rganadi.

Semantik tipologiya. Semantik tipologiya mazmun plani birliklarini tipologik tadqiq qiladi. Mazmun plani deganda tilning semantik strukturasi tushuniladi. Tipologik qiyoslash semantik qiyoslashni ham o'z ichiga oladi. Semantik qiyoslash semantik tipologiya asosida yuzaga keladi.

Semantik tipologiya semantik kategoriyalarning ifodalanishidagi mushtaraklikni abstraklashtiradi va ma'lum tushunchalarning turli tillar sistemasi ifoda plani birliklari vositasida talqin etilishini o'rganadi. Turli tillar lug'atlarini tuzishda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda semantik tipologiya qonunlarining amaliy ahamiyati katta.

Tillar har xil bo'lsa ham ularning sistemasidagi ma'lum semantik kategoriyalarni ifodalovchi so'zlar muayyan guruhlarini tashkil qiladi. Semantik tipologiya ba'zi kategoriyalar umumiy, ba'zilar esa faqat ayrim tillargagina xos bo'ladi. Semantik tipologiya semantik maydon (Semantic field)ni aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Til yaruslarining o'zaro aloqasiga ko'ra tipologiyaning quyidagi bo'limlari mavjud:

- a) fonologik va fonetik tipologiya,
- b) morfologik tipologiya,
- d) sintaktik tipologiya,
- e) leksik tipologiya.

Fonologik tipologiya. Fonologik tipologiya tillarning fonologik yarusi birliklari sistemasini tashkil etuvchi belgilarni o'rganadi. Fonologik tipologiya umumiy differensial fonologik belgilarni fonemalar xususiyatlarini, ularning so'z strukturasiidagi sintagmatik aloqalarni, tovushlarning fonematik xarakteristikasini, ularni guruhlash usullarini, o'zaro oppozitsiyalarini umumlashtirib o'rganadi. Fonologik xususiyatlariga ko'ra tillarni ma'lum guruhlariga bo'lish ham tipologiyaning shu bo'limiga oid (masalan: tonal va tonal bo'lmagan tillar tone languages and non-tonal languages). Dunyodagi tillarning har birida unli va undoshlar sistemasi bor. Agar ayrim tillarda unli fonema ikkita bo'lsa, undosh fonemalarning soni elliktachaga yetadi. Turli tillardagi fonemalar ularning miqdoridan qat'iy nazar ma'lum tipologik belgilariga ko'ra tavsiflanadi. Qiyosiy

tipologiya ularning differensial belgilari, distributsiyalari, oppozitsiyalariga tayanib ularning fonologik yarus universaliasini tuzadi. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda fonemalarning universaliasini quyidagicha beriladi:

Unlilik-unsizlik
Undoshlik-undosh emaslik
Kompaktlik-kompaktsizlik
Diffuziyalilik-diffuziyasizlik
Nozallik-nozal emaslik
Jaranglilik-jarangsizlik va boshqalar.

Ma'lum fonologik belgilarning umumiylikiga ko'ra tillar tipologik gruppalariga bo'linadi. Fonologik belgilarning ayrimlari faqat ba'zi tillar sistemasini uchraydi, xolos. Masalan, tonallikning mavjudligiga ko'ra serb-xorvat, shved, vietnam tillari bir gruppasi, tonallikning yo'qligiga ko'ra ingliz, rus, arab tillari boshqa bir gruppasi tashkil etadi.

Fonetik tipologiya turli tillarad fonetik yarus birliklarini: unli va undosh tovushlarni talaffuz etishdagi o'xshashlikni yoki farqni konkret fizik jihatdan o'rganuvchi bo'limdir. Ayrim unli labni cho'zib talaffuz etilganida, (h) tovushi (g') tarzda talaffuz etilganida, fonetik tipologiyaga ko'ra innotatsiyada qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda o'zshashlik bo'lishi mumkin. Masalan, qardosh emasligidan qat'iy nazar kavkaz xalqlari uchun muayyan artikulyatsiya yoki aksent xos bo'lsa, O'rta Osiyo respublikalari xalqlari uchun boshqa bir aksent xosdir. Qardosh tillarda ham ma'lum xususiyat yoki umumiylik bo'lmashligi mumkin.

Masalan, R. X. Robins fransuz, nemis, daniya, shved, norvegiya tillarida til oldi unli talaffuz etilganida labning doira shaklida old tomonga cho'zilishini, ingliz tilida esa bu xususiyatning yo'qligini ta'kidlaydi.

Qiyosiy-tarixiy metod olib borgan fonetik tadqiqotni asosan fonetik tipologiyaga kiritish mumkin. Qiyosiy-tarixiy metodda fonologik qonuniyatlar deyarli o'rganilmagan bo'lsa-da, fonetik tipologiya fonologik tipologiyaga qarshi qo'yilmaydi. Aksincha ular bir-biri bilan bog'liqdir.

Fonetik tipologiya tovushlarni eksperimental o'rganish bilan ham shug'ullanadi.

Tipologiya til ierarxiasining barcha yaruslarini o'rganadi. Aytib o'tilganlarga metrikaning umumiy nazariyasini o'rganadigan metrik tipologiyani ham kiritish mumkin. J. Kotsning ko'rsatishicha, metrika uchun fonetik xususiyat har xil tillarda turlicha bo'lishi mumkin.

9-MAVZU LINGVISTIK UNIVERSALIYALAR (2 soat)

Reja:

1. "Lingvistik universalialar" tushunchasi
2. Til universalialari

Tayanch so'z va iboralar: *universalialar, lisoniy hodisa, lisoniy birlik, xususiy jihat, umumiy jihat, tipologik tadqiq, lingvistik tipologiya, universal grammatika, universalizm, til universaliasini, lingvistik kategoriya, deskriptiv, strukturalizm, deduktiv metod, induktiv metod, tarixiy-qiyosiy metod, areal lingvistika, ekstralingvistik hodisa.*

9.1. "Lingvistik universalialar" tushunchasi

Dunyo tillarining deyarli barchasida uchraydigan, barchasi uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlar **universalialar** deb yuritiladi. Universalialar qiyos qilinayotgan qator tillar tuzilishiga xos lisoniy hodisalar, birliklar bilan belgilanadi. Masalan, so'zlarning bir va ko'p ma'noliligi, zamon kategoriasini, omonimlar, so'z turkumlari, unli va undosh tovushlar, terminlar, sinonimlar, urg'u, harakat va holat fe'llari kabilar.

Qayd etilgan ushbu lisoniy hodisalar universalialar sifatida o'nlab, yuzlab tillarga tegishli ekanligi bilan ajralib turad.

Ayni vaqtda qiyos obyektini bo'lgan tillarning faqat o'zigagina xos – xususiy jihatlari – hodisalari borki, bular ham tillarni tipologik tadqiq qilish jarayonida, ya'ni lingvistik tipologiyada aniqlanadi. Masalan, o'zbek tiliga xos *o', q, g', h* kabi unli va undosh tovushlar, urg'uning tilimizda, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishi (istiqlol, tadbirkor, yoshlar), rus tilida esa urg'uning so'z boshida, o'rtasida va oxirida ham kelishi. Shuningdek, rus tilida urg'uning so'z yasash vazifasiga ham egaligi, ya'ni urg'u pozitsiyasining o'zgarishi bilan so'z ma'nosining ham o'zgarishi yuz beradi. Masalan, *мыка (un) – мыка (azob); замоk (qal'a, qo'rg'on) – замоk (qulf)*. Rus tiliga xos *ы, и, у* kabi undoshlar, shuningdek, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan, ammo rus tiliga xos rod va vid kategoriyalar kabilar.

Demak, lingvistik tipologiya tillar o'rtasidagi umumiy jihatlargagina emas, balki farqli, o'ziga xos tomonlarga ham alohida e'tibor beradi.

9.2. Til universalialari

Til universalialari universal grammatika bilan bogliqdir. Bu haqdagi fikr avvaldan mavjud. Ammo hozirgi kunga qadar universallik konkret (tajriba asosida yaratilgan), materiallar yo'qligi sababli ilmiy metod sifatida shakllana olmagan.

XX asrda til analizining konkret metodlari paydo bo'lgan, universalizm yuzaga keldi. Bu sohadagi ayrim maqolalarni hisobga olmaganida, til universaliasini 1948-yil Parijdagi Xalqaro lingvistlarining VI konferensiyasida qisman muhokama qilindi. 1961-aprel oyida esa (Nyu-York) aliyasiga bag'ishlangan konferensiyada bu fanning kelajakdagi rejaları mukammal muhokama qilinib, uning asosiy predmeti memorandum qabul qilindi. Bu memorandum avtorlari J. Grinberg, Ch. Osgut, J.Jenkins birinchi marta til universalialari haqida konkret fikrlar aytib, universalia turlarini bayon etdilar. Keyinchalik til universaliasini o'rganish dunyo tilshunosligida rivoj topa boshladi.

Hozirgi paytda chet el tilshunolaridan J.Grinerberg, S.Sanorta, R.Yakobson, Ch.A.Ferguson, N.S. Trubetskoy, B.Trika, I.F.Xoke, P.Kechmer, I. Kramskiy, V.Skalichka, B.A. Uspenskiy, Yu.V. Rojdestvenskiy, I. F. Vardul, Yu.Ya.Glazov, V.V. Ivanov, V.P. Nedyalkov va boshqalarining ishlari asosida universalianing bir qancha turlari aniqlanib sistemalashtirildi.

Til universalialari barcha tillar sistemalariga xos umumiy lingvistik kategoriyadir. Til universalialari yoki universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni o'rganadi va deskriptiv hamda boshqa metodlarni tilning umumiy qonunlari bilan bog'lash va tipologik umumiylikni aniqlashda qo'llanadi. Universalizm til qonunlarining umumlashtirilishi demakdir.

Strukturalizm deduktiv metod vositasida ish ko'rsa, universalizm induktiv metod asosida ish ko'radi, ya'ni ma'lum umumiylikni barcha tillar sistemalariga tatbiq etadi.

Til universaliasini tomonidan aniqlangan qonun-qoidalar barcha tillarga xos bo'lishi kerak.

Tillardagi umumiylikni o'rganish til universaliasigagina emas, balki tarixiy-qiyosiy metod va areal lingvistikaga ham xosdir. Qiyosiy-tarixiy metod ma'lum geografik territoriyaga joylashgan qardosh tillar gruppasini o'rganadi. Ammo tillarning bu gruppasini til universalialari asosida o'rganilganda ular o'rtasidagi chegara yo'qoladi.

Til universaliasini amaliy lingvistik fanligi, lingvistik va ekstralingvistik hodisalarni talqin etishi, diaxronik va sinxronik tahlil qilishga qodirligi tilni psixolingvistika va etnolingvistika bilan bog'lanishiga ko'ra boshqa metodlardan birmuncha afzaldir. Til universaliasini ma'lum qoida yoki usul vositasida ifoda etiladi.

Universalia ilmiy asarlarda turlicha yozilsa-da, universalia jadvalida qayta ishlab chiqiladi. Rus tilshunosligida B.A.Uspenskiy tuzgan jadvaldan foydalaniladi va universal qoidalar takomillashtiriladi. Jadval to'rt katakdan iborat bo'lib, birinchi katakda universalianing umumiy kvantori. Ikkinchisida maxsus lingvistik fikr, ya'ni universalianing joriy etilishi, uchinchisida lingvistik hodisa, to'rtinchi katakda esa avtor nomi va boshqa izohlar keltiriladi:

Universaliya kvantori	Universaliyaning joriy etilishi	Lingvistik hodisa	Izoh
-----------------------	---------------------------------	-------------------	------

Universaliyani universaliya jadvalisiz ham ifodalash mumkin. Quyida J.Grinberg tomonidan aniqlangan jadvalisiz (J. Grinberg uslubi) va jadvali (B.A.Uspenskiy uslubi) grammatik universaliyalarini keltiramiz.

1) agar tilda uzlukli (discontinuous) morfema bo'lsa, hamma vaqt prefiksatsiya, suffiksatsiya yoki ikkovi ham mavjud bo'ladi;

2) agar til faqat suffiksli bo'lsa poslelog albatta bo'ladi; agar til faqat prefiksli bo'lsa, predlog bo'ladi;

3) ko'p tillarda kelishik kategoriyasi bo'lsa, son kategoriyasi ham bo'ladi;

4) agar tilda rod kategoriyasi bo'lsa, son kategoriyasi ham bo'ladi;

5) agar tilda rod kategoriyasi otlarga xos bo'lsa, olmoshlarda ham rod kategoriyasi bo'ladi;

6) uchlamchi son kategoriyasi bo'lib, ikkilamchi son kategoriyasi bo'lmagan, va ikkilamchi son kategoriyasi bo'lib, ko'plik soni bo'lmagan til yo'q.

Universaliyani boshqacha usullar bilan ham masalan, yoy o'qi yoki qavslar vositasida ham ifoda etiladi.

Tilning turli yaruslarida lingvistik kategoriyalarining ifodalanishiga va boshqa xususiyatlariga ko'ra fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va nuqt universaliyalari bor bo'lib, umumiy xususiyati va ifodalanish doirasiga ko'ra dedukxronik – induktiv, absolyut-statistik, soddamurakkab, sinxronik-diaxronik, til va nuqt, lingvistik ekstralingvistik, simvolik va boshqa universaliyalar mavjud.

10-MAVZU TILLARNING FONETIK TIPOLOGIYASI

(2 soat)

Reja:

1. Fonetika haqida ma'lumot
2. Fonetik tipologiyaning tavsifi va vazifalari
3. Sharq tillarining fonetik tizimi

Tayanch so'z va iboralar: *fonologiya, fonema, tovush, unlilar, undoshlar, fonetik tipologiya, nutq apparati, nutq a'zolari, til, akustik, talaffuz, fiziologiya, farqlovchi belgilar, birlashtiruvchi belgilar, labial, dental, apikal, palatal, lateral, velyar, uvulyar, orqa qator unlilar, ort qator unlilar, lablangan unlilar, lablanmagan unlilar, keng unlilar, tor unlilar.*

10.1.Fonetika haqida ma'lumot

«Fonetika» grekcha so'zdan olingan bo'lib, «tovush» ma'nosini anglatadi, ya'ni «tovush haqidagi bo'lim» demakdir. Nutq tovushlari fonetikada o'rganiladi. Nutq a'zolari harakati jarayonida hosil bo'lgan tovushlar ***nutq tovushlari*** deyiladi.

Nutq a'zolarining jami nutq apparati deyiladi.

Nutq a'zolari nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtirokiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. **Faol (aktiv) nutq a'zolari:** 1) til; 2) ovoz (un, tovush) paychalari; 3) yumshoq tanglay; 4) lablar; 5) pastgi jag'. 2. **Nofaol (passiv) nutq a'zolari:** 1) o'pka; 2) kekirdak; 3) qattiq tanglay; 4) burun bo'shlig'i; 5) tish.

Nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: a) akustik, b) talaffuz (fiziologiya) v) vazifaviy tomonlari. Birinchidan, har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma'lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki

uzunlik) va tembr belgilariga ega bo'ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomoni deyiladi va u fizika fani bilan aloqadorlikda o'rganiladi. Ikkinchidan, nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Uchinchidan, nutq tovushlari ma'lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishi natijasida ma'lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomondan shakllantirish va ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, *so* bilan *sholi* so'zlari birinchi tovushlari bilan, *sot* bilan *soch* so'zlari oxirgi tovushlari bilan, *sot* bilan *sut* so'zlari o'rtasidagi tovushlari bilan farqlanadi. Tovushlarning bunday belgilari ularning vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi. Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu uch tomon e'tiborga olinadi. Masalan, *k* tovushi til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi va havoning bu to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Nutq a'zolarining qayerida va qanday yo'l bilan hosil bo'lishi tovushning talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi. Uning sof shovqindan iborat ekanligi, jarangsizligi akustik belgisi, *k* ning *g* dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi. Tilshunoslik fani uchun tovushning vazifaviy tomoni muhim sanaladi. Shuning uchun vazifaviy belgi *lingvistik (tilshunoslikka oid)* belgi deb ham yuritiladi. Nutq tovushlari akustik va artikulyatsion (talaffuz) belgilariga ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to'la hisobga olgandagina u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi, lekin fonologiya uchun yuqoridagi belgilarning ko'pi muhim sanalmaydi. Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli bo'ladi. Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar *farqlovchi belgilar*, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar *birlashtiruvchi belgilar* sanaladi. Masalan, *t* va *d* tovushlari: birinchi tovush til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilariga; ikkinchisi esa til oldilik, portlovchilik, jaranglilik belgilariga ega. Bu ikki tovushning yuqoridagi belgilarini bir-biriga qiyoslasak, dastlabki ikki belgi (til oldilik, portlovchilik belgilari) har ikkisida takrorlanadi. Uchinchi belgi (jarangli-jarangsizlik belgisi) bilan esa ular bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, birinchi va ikkinchi belgilar ular o'rtasidagi birlashtiruvchi belgilar, uchinchi belgi esa farqlovchi belgi hisoblanadi. Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xshash tovushlarni bir-biriga zidlash, ular o'rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tovush va fonema. Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo'lgan xususiylik va umumiylik munosabatining aks etishidir. *Bilan, tilim, sira* so'zlari tarkibida i bilinar-bilinmas aytiladi. *Qiliq, qiziq* kabi so'zlar tarkibida til orqa tovushi ta'sirida *o'* ga yaqin talaffuz etiladi. Ularning hammasida takrorlanadigan umumiy jihatlar bor. U ham bo'lsa, torlik belgisi va lablanmaganlik belgisi. Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq bo'lagi *tovush* sanaladi. Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish hamda farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi *fonema*dir. Masalan, *tosh* - *tom* so'zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalaridir. Yoki *tosh-tesh* zidligida *o* va *e*; *tosh-qosh* zidligida *t* va *q* ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi. Fonemalarni xilma-xil tartibda joylashtirish orqali cheksiz so'zlar hosil qilinadi: *sut, tus, ust*. Demak, *nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farqlashdir*.

10.2. Fonetik tipologiyaning tavsifi va vazifalari

Fonologik qatlamga oid tipologik tadqiqotlarda e'tiborni qiyoslanayotgan tillarning fonemik tizimidagi o'xshashlik va farqlarga emas, balki bu tillardagi fonologik tizimlarning tashkil topish tamoyillariga qaratish zarur bo'ladi. Bu haqda A. A. Reformatskiy shunday yozadi: «Biz ona tili va o'rganilayotgan tillardagi alohida ajralgan tovushlar emas, balki, tizim tarkibida olingan butun bir fonetik kategoriyalarni solishtirganimizda, xar bir fonetik tizimning butunlay o'ziga xoslikka ega

ekanligini ko‘ramiz. Bu esa har qanday tilga xos bo‘lgan xususiyat – har bir tilning takrorlanmas individualligining namoyon bo‘lishidir» (Reformatskiy 1970: 510).

Haqiqatdan ham tillarning individualligi, ayniqsa, fonetikada yaqqol namoyon bo‘ladi (Lyons 2002: 24-25).

Ingliz tili fonetik tizimi o‘zbek tili fonetik tizimi bilan qiyoslanganda, bir qator umumiy xususiyatlar bilan birgalikda, ko‘pgina farqlovchi belgilarni ham namoyon etadi. Ingliz tiliga yaqqol namoyon bo‘ladigan vokalizm xosdir: unlilar tizimi 21 fonemadan tashkil topgan bo‘lib, ulardan 12 tasi monoftong va 9 tasi diftonglardir.

O‘zbek tili unlilar tizimi esa ancha soddaroq: o‘zbek tilida 6 ta unli fonema bor.

Slavyan tillari fonetik tizimlari borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, slavyan tillarining ba‘zilarida vokal tillar (bu eng avvalo serb-xorvat tili) ham uchraydi. (Dikushina 1952: 17 b.)

Ingliz tilida unlilarning, tilning gorizontol holatda joylashishiga qarab ularning oldingi, orqa va aralash turlari, tilning vertikal joylashishiga qarab, past (ochiq), yuqori (yopiq) va o‘rta balandlikdagi turlari farqlanadi. Bundan tashqari, ingliz tilida unlilar miqdor belgisiga qarab, ya‘ni uzun - qisqaligi va artikulyatsiyaning muqimligiga ko‘ra muqim artikulyatsiyaga ega unlilar – monoftonglar va ularga qarama-qarshi qo‘yiladigan diftonglarga ajratiladi.

Lablangan va lablanmagan unli fonemalarni qiyoslash ingliz tilida past darajada aks etgan (Kim 1979: 377-378).

Yuqorida sanab o‘tilgan taqqoslashlardan birinchi ikkitasi o‘zbek tili fonetik tizimida kuzatiladi. Bunda oldingi qator unlilari orqa qator unlilari bilan taqqoslanadi. O‘rta qator unlilariga kelganda, rus tilida o‘rta qator fonemalari mavjud bo‘lib, ular yasalish usuliga ko‘ra ingliz tilidagi aralash qator fonemalariga yaqin turadi.

Shunday qilib, qator va balandlikka ko‘ra qarama-qarshi qo‘yishni ma‘lum ma‘noda rus va ingliz tillari uchun universal hodisa deb hisoblash mumkin. Buni esa shunga o‘xshash qiyoslanayotgan tillarning yaqqol namoyon bo‘ladigan lingvotipologik ko‘rsatkichlari sifatida ko‘rish mumkin (Lee 2002: 100-101).

Nemis tilidagi vokalizm rus tilidagidan, eng avvalo, miqdor munosabatlariga ko‘ra farqlanadi. Agar rus tilida 5 ta unli bo‘lsa, nemis tilida ular 19 ta. Buni esa nemis tili vokalizmini minimumning yanada kengayishi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Kengayish esa, o‘z navbatida, (qatorlar) yumshoqligi (uzunlik) tarangligi, diftonglik kabi turli farqlovchi belgilar bilan ta‘minlanadi.

Rus va nemis tillari vokalizmlarining tipologik qiyoslanishi muayyan alohida subtizmlarda taranglik va diftonglikning faqatgina ohanglilik belgilari aks etganligini ko‘rsatdi.

Vokalizm tizimida nemis tilidagi [e] va [ə] fonemalarining joylashishida zidlik mavjud bo‘lib, bunda [ə]ning fonemik o‘rni to‘liq emas.

Undoshlar guruhi tarkibi haqidagi masala anchagina murakkab hisoblanadi. Bu guruhda farqlovchi xususiyatlarni ajratishning murakkabligi tillar o‘rtasida undoshlar tarkibi borasida sezilarli nomuvofiqliklar borligini asoslashni qiyinlashtiradi. Kompakt (til orqa qismi) undoshlari, sirg‘aluvchi undoshlari, burun undoshlari, frikativ undoshlari bo‘lmagan tillar ham mavjud.

Shunday qilib, konsonant minimumini faktlarni tushuntirishga yo‘naltirilgan mantiqiy tuzilma sifatida ko‘rish mumkin.

Konsonantlik doirasida absolyut universallik faqat yuqori va quyi undoshlarni taqqoslashga tegishlidir. Yuqori undoshlar tilning uch va old qismi hamda boshqa nutq va og‘iz bo‘shlig‘i organlari ishtirokida talaffuz etiladi. Unlilarda bo‘lganidek, bunday birlamchi farqlash tilning vertikal va gorizontol harakatlari bilan bog‘liq. Nemis va o‘zbek tillari undoshlarini taqqoslash, nemis tili undosh fonemalarini o‘zlashtirish o‘zbek tilida so‘zlovchi o‘quvchida sezilarli qiyinchiliklar tug‘dirmasligini ko‘rsatdi.

Nemis tili talaffuzini o‘rganishda bu narsa undoshlarning allofonik o‘zgarishlari bilan bog‘liq xatolarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Shu qatorga [ts] va [tʃ] affrikatlarining o‘ziga xosligi bilan shartlangan nemis tilidagi [x] va [ç] ni farqlashga doir qiyinchiliklar ham kiradi (Kammbucker 1998: 10-11).

10. 3. Sharq tillarining fonetik tizimi

Oltoy tillarining unli tovushlari. An'anaviy oltoyshunoslikka oid tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, oltoy tillarida doimiy, bir xil unli tovushlar tizimi mavjud bo'lib, ularning soni sakkizta, deb belgilangan. Unlilar ikki fiziologik omil: tanglay (palatal) va lab (labial) assimilyatsiyasiga ko'ra aniqlangan. Birinchisi, alohida so'zdagi barcha unlilarning yo orqa qatorda, yo old qatorda bo'lishini; ikkinchisi alohida so'zlardagi barcha unlilarning lablangan yoki lablanmagan bo'lishini talab qilgan. Shuningdek, unlilar qisqa yoki cho'ziqligiga ko'ra qarama-qarshi qo'yilgan:

orqa qator		old qator	
lablanmagan	lablangan	lablanmagan	lablangan
keng			
a	o	ä (e)	ö
tor			
ï	u	i	ü

S.A.Starostin, A.V.Dibo va O.A.Mudraklar tomonidan amalga oshirilgan proto-oltoy tili unli tovushlarining rekonstruksiyasida beshta unli: **i, *e, *u, *o, *a* va birinchi bo'g'inda keladigan uchta diftong: **ju, *jo, *ja* dan iborat desingarmonik holat tiklangan.

Proto-oltoy tilidagi **ja* diftongi proto-turk tilida **ja*, proto-mo'g'ul tilida **a*, proto-tungus-manjur tilida **ia*, proto-koreys tilida **ä*, proto-yapon tilida **a* ni ifodalaydi: p-olt. **jāgi* “yog’”, p-turk. **jāglik* “ro‘mol, dastro‘mol” < **jāg* “yog’”, p-t-manj. **ijaGđakta* “ayiqning yog‘i”, p-yap. **age* “qovurilgan”, “yog’”. Proto-oltoy tilidagi **ju* diftongi proto-turk tilida **(i)u/(i)o*, proto-mo'g'ul tilida **ü[ö]*, proto-tungus-manjur tilida **i*, proto-koreys tilida **i, (j) ə*, proto-yapon tilida **ə[a]* unlilarini ifodalaydi: p-olt. **jumi* “kiyimning bir turi”, p-turk. **(i)um/(i)om* “ayollar lozimi”, p-mo'g'. **ümü (*ömü)* “ishton”, p-t-manj. **(x)im-* “chopon”.

Proto-oltoy tilidagi **a...o* unlisi proto-mo'g'ul tilida **a*, proto-tungus-manjur tilida **a*, proto-koreys tilida **a*, proto-yapon tilida **a* unlisini ifodalalar ekan, proto-turk tilida **ja* tovushini beradi: p-turk. **jag(k)u* “yomg'irpo'sh” < **jag-* “yog'moq”, p-mo'g'. **agadar* “jala, sharros yomg'ir”, p-t-manj. *aGañGa* “yomg'irdan saqlaydigan”, *aGañGa sara* “soyabon” < **aga* “yomg'ir”, p-kor. **aksu* “jala, sharros yomg'ir”, p-yap. **aki* “kuz”.

Unlilarning desingarmonik holati. Turkiy tillardagi tovushlarni yumshoqlik va qattiqlik xususiyatiga ko'ra ajratish fikri run yozuvlarini aniqlagan daniyalik tilshunos V. Tomsenning nomi bilan bog'liq bo'lib, buni S.E. Malov quyidagicha tasvirlagan: “V.Tomsen uchun ayrim harflarning boshqa harflar bilan yondosh qatorda yaqin qo'shnichilik munosabatida bo'la olishi, boshqalarining esa bunday munosabatda bo'la olmasligi oydinlashadi. Bu V.Tomsenning harflarni old qator va orqa qator tovushlariga ko'ra ikki guruhga ajratish fikriga olib keladi”.

E.A. Umarov turkiy tillarda yumshoqlik va qattiqlik xususiyatining mavjud emasligini ta'kidlab, shunday yozadi: “Turkiyshunoslar Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida qo'llanilgan uch yuzdan ortiq lingvistik atamalarning ma'nosini tadqiq qilmay turib, turkiy tillardagi so'zlarni hind-Yevropa tillariga xos bo'lgan bo'lgan yumshoqlik va qattiqlik xususiyatiga ko'ra transliteratsiya qila boshladilar. “Devonu lug'otit turk”dagi uch yuzdan ortiq lingvistik atamalarning tadqiq etilishi, turkiy tillar uchun yumshoqlik va qattiqlik xususiyatining xos emasligini, binobarin, singlarmonizm hodisasining mavjud emasligini ko'rsatadi”.

Sh.R.Usmanovanning “Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi” (2011) nomli doktorlik dissertatsiyasida proto-oltoy, proto-turk va qadimgi turkiy til davrlarida singlarmonizm hodisasining mavjud emasligi ta'kidlangan. Misollar:

- 1) turk. *börk*, p-turk. **börk* “qalpoq”, “qoplama, peshanabog’”, p-olt. **börk'i* “qoplamoq”, “qoplama”;
- 2) turk. *elek, äläk, elgek, ilgek*, p-turk. **ala*, “g'alvir, elak”, p-olt. **älä* “elak, g'alvir”, “to'r”, “qafas”;

- 3) turk. *etik, etük, ätük*, p-turk. **hātuk* “otda yurganda kiyiladigan, uzun qo‘njli kigiz poyabzal”, p-olt. **p`āt`i* “otda yurganda kiyiladigan etik”, “otda yurganda kiyiladigan shim”;
- 4) turk. *jüzük*, p-turk. **jūrük* “uzuk”, p-olt. **dūri* “halqa”;
- 5) turk. *kōmāč* “o‘choqda cho‘g‘ga ko‘mib pishiriladigan non”, p-turk. **komač* “sopol idish”, p-olt. **k`o`mi* “ko‘mmoq”.

Unlilarning cho‘ziqlik xususiyati. Oltoy tillarida unlilarning qisqalik, cho‘ziqlik va juftlik (diftong) tizimi mavjud. Proto-turk tili davri unlilarning cho‘ziqlik xususiyati bilan xarakterlanadi. XI asrga kelib, tarkibida cho‘ziq unlilar ishtirok etgan ayrim so‘zlar ikki variantda: cho‘ziq va qisqa talaffuz etila boshlagan. Hozirgi turkiy tillarning aksariyatida unlilarning qisqaligini yoki proto-turk tili davriga nisbatan yanada qisqarganligini ko‘rish mumkin. Unlilarning cho‘ziqlik xususiyati hozirgi xalaj, yoqut va chuvash tillarida, shuningdek, oltoy, teleut hamda o‘zbek dostonlarining ijrosida yaxshi saqlanib qolgan.

Cho‘ziq unlilar, asosan, birinchi bo‘g‘inda keladi: **hātuk* “otda yurganda kiyiladigan, uzun qo‘njli kigiz poyabzal”; **jāg-lak* “yolog‘i, cho‘mich”, “tova”; **jāg-lik* “ro‘mol, dastro‘mol”; **jān-čik* “yonga osib yuriladigan xalta, hamyon”; **jūrük* “uzuk”; **kāča* “idish”; **kāp* “qop”; **kōη-ek* “qo‘y terisidan qilingan idish”; **kōη-lak* “qo‘y terisidan tikilgan kiyim”; **kōm* “tuyaning egariga qo‘yiladigan kigiz”; **tōlek* “to‘shak, to‘shama”; **tūr-ba* “ip, qildan to‘qilgan to‘r xalta”; **čēk-men* “jun matodan tikilgan, yengi uzun, yirmochli ustki kiyim”.

Oltoy tillarining undosh tovushlari. Oltoy tillari qiyosiy fonetikasida undosh tovushlar assimilyatsiyasining umumiy qonuniyati; jarangli undosh tovushlarning so‘z o‘zagida barqaror bo‘lishi; so‘zlarning bir undosh bilan boshlanishi (biroq hozirgi koreys tilida so‘z boshida qo‘sh undosh kelishini ham ta‘kidlash joiz) kabi umumiy jihatlar bilan xarakterlanadi. Oltoy tillaridagi undosh tovushlar artikulyatsion o‘rniga ko‘ra: labial (*p*, *p*, *b*, *m*, *w*), dental (*t*, *t*, *d*, *n*), apikal (*s*, *š*, *z*, *-r-*, *ř*), palatal (*č*, *č*, *đ*, *ń*, *j*), lateral (*l*, *l*), velyar (*k*, *g*, *ŋ*, *-γR-*) va uvulyar (*χ*, *G*) tovushlar deb tasniflanadi.

11-MAVZU TILLARNING MORFOLOGIK TIPOLOGIYASI (2 soat)

Reja:

1. Morfologik qatlamning tipologik xususiyatlari
2. Otdan ot yasovchi qo‘shimchalar
3. Fe‘ldan ot yasovchi qo‘shimchalar

Tayanch so‘z va iboralar: *morfologik qatlam, grammatik tizim, so‘z yasovchi affiks, otdan ot yasovchi qo‘shimchalar, fe‘ldan ot yasovchi qo‘shimchalar, etimologiya, oltoyshunoslik, turkiyshunoslik, turkiy tillar, mo‘g‘ul tillari, tungus-manjur tilari, koreys tili, morfologik ko‘rsatkich.*

11.1. Morfologik qatlamning tipologik xususiyatlari

Morfologik qatlamning tipologik xususiyatlari (masalan german tillari) o‘rganilganda, eng avvalo, analitik ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqiladi. Lekin so‘nggi davrda tipologik tahlil metodikasining mukammallashuvi analitizmning bir qatlamli mezonlarni ko‘proq morfologik yoki leksik hodisa sifatida ko‘rishga va uni qatlamlarning til tizimidagi mustahkamligi darajasi bilan aniqlanadigan analitizmning yaxlit tizimdan tashkil topgan mezonlari bilan almashtirilishiga olib keldi (Dijk 1997: 248-249).

Yaxlit tizimli tipologiya ajratiladigan (sintaktik bog‘liqlikning eng past darajasi bilan) va ajratilmaydigan (sintaktik bog‘liqlikning eng yuqori darajasi bilan) tillarni chegaralashga tayanadi. Bunday tiplar u yoki bu tilda so‘zlar o‘rtasidagi ifoda munosabatlari sintaktik vositalarining namoyon bo‘lishi yoki bo‘lmasligi asosida chegaralanadi. Ushbu mezon tipologik nuqtai nazardan

istiqbolli hisoblangan u yoki bu tildagi o'tgan tipologik holat qoldiqlarining buzilish yoki saqlanish ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi. German tillarining asosiy qismida (island tilidan tashqari) ajratiladigan tipga xos taraqqiyotga moyillik kuzatiladi (Davidson, Harman 2005:204-205).

Grammatik hodisalar rivoji dinamikasi tahliliga protsessual yondashuv grammatikadagi an'anaviy yevropasentriзм va morfologizmdan tamoman voz kechish (tilga statistik yondashuv natijasida) va morfologik va sintaktik kategoriyalarni farqlashni ko'zda tutadi.

Morfologizmdan voz kechish yo'llari sifatida quyidagilar belgilanadi:

- a) tilning ierarxik tuzilish dinamikasini hisobga olish;
- b) tilni tasvirlashning universal-statistik tizimini yaratish.

Grammatik tasvirlash doirasida bo'lgan grammatik kategoriyalar tushunchasi shakl va mazmun yaxlitligida tahlil etiladi. Til belgilarining shakl va mazmuni o'rtasida to'liq moslik mavjud emasligi hodisasini absolyutlashtirishga qarama-qarshi muayyan tilning grammatik kategoriyalari va ularning kategorial shakllari (grammemalari) tarkibini tilning uch xususiyatlariga tayangan holda yoritish ma'quldir.

Tilning grammatik tizimidagi tipologik nuqtayi nazardan e'tiborga molik o'zgarishlarga sinkretizm hodisasi kiradi. Bu hodisa bir turdagi grammemalarning birlashish natijasida yiriklashuvi sifatida talqin etiladi.

Sinkretizmning tipologik ahamiyati til taraqqiyoti jarayonida morfologiya va sintaksis munosabatlaridagi o'zgarishlar bilan belgilanadi (Eggins 1994: 19).

Grammatikani tipologik-qiyosiy tasvirlashning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatish joizdir:

a) matnning so'z shakllariga ko'ra ajratilishi (grammatik shakllarning sintagmatik identifikatsiyasi – aniqlashtirilishi);

b) mavjud grammatik shakllar inventarini aniqlash imkonini beradigan grammatik shakllar semantik va formal variantlarining farqlanishi (grammatik shakllarning paradigmatic identifikatsiyasi);

v) shakllarning mavjud tarkibini funksional-semantik mezonlar asosida tasniflash (oppozitiv tahlil) (Goldman-Eisler 2004: 150-154).

Bu turdagi tahlil tilning har bir kategoriyasini tipologik jihatdan alohida-alohida aniqlashtirish imkonini beradi. Masalan, mayl kategoriyasi island va nemis tillarida to'rt a'zoli qarama-qarshilikda (indikativ, kommentativ, imperativ, irrealis) qaralsa, niderland, friz va shved tillarida bu qator uch a'zoli (indikativ, imperativ, irrealis) va nihoyat, ingliz va afrikans tillarida ikki a'zoli oppozitsiyaga ega (indikativ, irrealis). Nemis tilining mayl tizimiga nisbatan eng yaqinlikni island tilida kuzatish mumkin bo'lsa-da, island tili nemis tilida yo'qolib ketgan qator arxaik xususiyatlarni (kondisionalning tugallanmagan morfologik shaklda ifodalanish holatlari) saqlab qolgan. Shved tili to'rt va uch a'zoli oppozitsiyalar o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi. Shved tili mayl tizimining sintagmatik mohiyati indikativ / imperativ qismida nemis tiliga, kommentativ / irrealis qismida esa ingliz tiliga yaqin turadi (Haselager 1997: 176-178).

Barcha german tillariga xos bo'lgan preterit indikativ / flektiv irrealis qarama-qarshilik qatorining qisqarish an'anasi kuzatilmogda. Daniya va norveg tillari (qisman farer tili)ning tipologik xususiyatlari sifatida irrealisning mavjud emasligi, imperativning mahsuldorligi va zamonning yagona fe'l kategoriyasi – maylning mavjudligini ko'rsatish mumkin. Hozirgi ingliz va afrikans tillarida realis shakli maylning ikki xil oppozitsiyasi (realis/irrealis) tarkibida morfologik-sintaktik jarayonlar natijasida hosil bo'lgan sinkretizm mahsuli hisoblanadi. Realis / irrealis oppozitsiyasi maylning to'rt a'zoli qarama-qarshi qatorining ikki a'zoli qatoriga ko'chishida yakunlovchi bosqich sanaladi. Ingliz tilida reallikni ifoda etishning asosiy vositasi sifatida realis namoyon bo'ladi va u indikativ bilan ifodalanadi. Zamonaviy ingliz tilida noreallikni ifoda etishning vositalari nemis tilidagiga qaraganda kamroqdir.

German tilshunosligida german tillaridagi zamon va mayl kategoriyalarining o'zaro munosabat tipologiyasi muammosi muhokamaga qo'yiladi. Bu esa lisoniy tip tushunchasi, zamon kategoriyasining turli xususiyati ko'rsatkichlarining (flektiv, analitik, agglyutinativ) o'zaro

munosabati bilan izohlanadi. Zamon va mayl kategoriyalari munosabatlarini ifodalovchi shakllar katta o'zgarishlarga yuz tutgan va bu o'zgarishlar natijada hatto mayl kategoriyasining vazifalari to'lig'icha zamon kategoriyasi doirasiga o'tgan. Butun mayl tizimining qayta qurilishi va turli formal shakllar tizimining kuchsizlanishi natijasida shart mayli taraqqiyoti yuzaga keldi (Jackendoff 1993: 104-105).

German tillarida bir tomondan, maylning kategorial belgilari o'rtasidagi munosabat, ikkinchi tomondan esa, zamon paradigmasi, fe'ning shaxs-soni va so'z shakli strukturasi tipologik xarakterga ega bo'ladi. Tahlilning o'zi esa izoformizm nazariyasiga borib taqaladi. Bunda lisoniy tizimlarning ichki strukturaviy o'xshashliklarini o'rganish asosiy o'rinni egallaydi. Ammo sathlararo izomorfizm muammosi turli sathlarga tegishli birliklar faoliyati modellari o'rtasida to'liq moslikni aniqlash bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu nazariya botiniy va zohiriy strukturaning munosabatlari, bir sathga tegishli birliklarning tillararo mosligi, universalialar, qardosh yoki qardosh bo'lmagan tillar guruhlarning umumiy strukturaviy yaqinligi kabi masalalar tadqiqida qo'llaniladi (Hill 1998: 10-11).

Morfologik qatlamning tipologik xususiyatlarini quyida ingliz, ozarbayjon, turk va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqamiz:

Causative constructions

Ingliz tili:

Ali made Hasan eat the soup.

Turk tili:

Ali Hasan-a çorba-yı ye-dir-di.

Ozarbayjon tili:

Əli Həsən-ə şurba-nı ye-dir-di.

O'zbek tili:

Ali Hasan-ga sho'rva-(ni) ich-ir-di.

Possession (Egalik kategoriyasi)

Ingliz tili	Ozarbayjon	Turk tili	O'zbek tili
My book Ali's book	(Men-im) Kitabım Əli-nin kitab-ı	(Ben-im) Kitab-ım Ali-nin kitab-ı	(Men-ing kitob- im). Ali- ning kitob- i .
I saw Ali's book.	Əli-nin kitab-ın-ı gördüm.	Ali-nin kitab-ın-ı gördüm.	Ali- ning kitob- i-ni ko'rdim.
I looked at Ali's book.	Əli-nin kitab-ın-a baxdım.	Ali-nin kitab-ın-a baktım.	Ali- ning kitob- i-ga qaradım.
There are pictures in Ali's book.	Əli-nin kitab-ın-da şəkillər var.	Ali-nin kitab-ın-da resimler var.	Ali- ning kitob- i-da rasmlar bor.
I took this page from Ali's book.	Bu səhifə-ni Əli-nin kitab-ın-dan götürdüm.	Bu sayfa-yı Ali-nin kitab-ın-dan aldım	Bu sahifani Ali- ning kitob- i-dan oldim.
The pictures of Ali's book are very nice.	Əlinin kitab-ın-ın şəkillər-i çox gözəl(dir).	Ali-nin kitab-ın-ın resimler-i çok güzel(dir).	Ali- ning kitob- i-ning rasmlar- i juda chiroyli(dir).
The colors of the pictures of Ali's book are very nice.	Əli-nin kitab-ın-ın şəkillər-in-in rənglər-i çox gözəl(dir).	Ali-nin kitab-ın-ın resimler-in-in renkler-i çok güzel(dir).	Ali- ning kitob- i-ning rasmlar- i-ning ranglar- i juda chiroyli(dir).

Kelishiklar	Ingliz tili	Turk tili	Ozarbayjon tili	O'zbek tili
Nominative	Ali came home.	Ali eve geldi.	Əli evə gəldi.	Ali uyga keldi.
Accusative	Ali read the book.	-(y)I Ali kitab-ı okudu.	Əli kitab-ı oxudu.	-ni Ali kitob-ni o'qidi.
Dative	Ali read Ayşe the letter.	-(y)A Ali Ayşe-ye	Əli Aişə-yə kitabı	-ga (-ka-qa) Ali Oysha-ga

	Ali went to the universtiy.	mektubu okudu. Ali üniversite-ye gitti.	oxudu. Əli universitet-ə getdi.	xatni o'qib berdi. Ali Universitet-ga ketdi.
Locative	Ali is sleeping at home.	-DA Ali ev-de uyuyor/ yatıyor/yatmaktadır	Əli ev-də yatır. Əli evdə yatmaqdadır.	-da Ali uy-da uxlayapti/yotibdi.
Ablative	Ali went to the university from home.	-Dan Ali ev-den üniversite-ye gitti.	Əli ev-dən universitet-ə getdi.	-dan Ali uy-dan universitet-ga ketdi.
Genitive	Ali's father went home.	-(n)In Ali-nin baba-sı eve gitti.	Əli-nin ata-sı evə getdi.	Ali-ning otasi uyga ketdi.
Clitic particle	I went with car. We went with train.	-(y)lA Cff. /ile/ Araba-yla gittim. Tren-le gittik.	Manşın-la getdim. Qatar-la getdik.	-da Avtobus-da ketdim. Poyezd-da ketdik.
Postposition	The bird was killed by Hasan. Ali is younger than Hasan.	/tarafından/ Kuş Hasan tarafından öldürüldü. /daha/ Ali Hasan-dan daha genç(dir). Ali Hasan-dan genç(tir)	Quş Həsən tərəfindən öldürüldü. Əli Həsən-dən cəvan(dir). Əli Həsəndən cavanraq(dir) (gənc).	/tomonidan/ Qush Hasan tomonidan o'ldirildi. Ali Hasan-dan yoshroq(dir). Ali Hasan-dan yosh(dir).

Nominalizations (Relative Clauses)

Ingliz tili	Ozərbaycan tili	Türk tili	O'zbek tili
I know the man who wrote this book.	Bu kitab-ı yaz- an kişini tanırım.	Bu kitab-ı yaz- an kişiyi biliyorum/tanırım.	Bu kitob- ni yoz- gan odam- ni taniyman.
I would like to make use of the experiences of the person who wrote this book.	Bu kitab-ı yaz- an kişinin təcrübə-sin-dən istifadə etmək \faydalanmaq istərdim.	Bu kitab-ı yaz- an-ın tecrübe-sin-den faydalanmak isterdim.	Bu kitob- ni yoz- gan odam- ning tajriba- si-dan foydalanish- ni xohlardim.
I got on the bus which goes to the store.	Magazin-ə\ dükkan-a ged- ən avtobus-a mindim.	Dükkan-a gid- en otobüs-e bindim.	Magazin- ga /do'kon- ga bor- adigan avtobus-ga chiqdim.
I will get on the bus which will come at 5 o'clock.	Saat 5-də gəl- ən avtobus-a minəcəyəm.	Saat 5'de gel- ecek (ol- an) otobüs-e bineceğim.	Soat 5.00 da kel- adigan avtobus- ga chiqaman.
The book that I read is very good.	(Menim) Oxu- duğ -um kitab çox yaxşıdır.	(Ben-im) oku- duğ -um kitap çok güzel.	Men o'qi- gan kitob juda yaxshi.

The bus -which I got on did not go to the store.	(Menim) Min- diy -im maşın dükkan-a getmədi.	(Ben-im) bin- diğ -im otobüs dükkan-a gitmedi.	Men chiq- qan avtobus do‘kon- ga bormadi.
They told me that Hasan went to the store.	Həsən-in dükkan-a get- diy -in-i mənə dedilər.	(Onlar) Hasan-ın dükkan-a git- tiğ -in-i bana söyledilər.	Ular menga Hasan- ning do‘kon- ga ket- gan-i-ni aytishdi.
I did not know that you were at home.	(Men) sen-in ev-də ol- duğ -un-u bilmirdim.	(Ben) sen-in ev-de ol- duğ -un-u bilmiyordum.	(Men) sening uy- da ekan- ligingni bilmadim.
The film which we are going to see is very funny.	Gör- əcəy -imiz film çox gülməli(dir).	(Bizim) gör- eceğ -imiz film çok komik.	Biz ko‘r- adigan kino juda kulgili.
Ali felt sorry about what he read.	Əli oxu- duğ -un-a narahat oldu\ üzüldü.	Ali oku- duğ -un-a üzüldü. (Ambigious. This sentence also means: Ali was sorry that he read.)	Ali o‘qi- gan-i-ga xafa bo‘ldi.
I learnt that Ayşe, who saw Ali reading the book which he bought from New York, was very happy.	Əli-nin Nu Yorkdan al- dığ -ı kitab-ı oxu- duğ -un-u gör-en Ayşə-nin çox sevin- diğ -in-i öyrəndim.	Ali-nin New York-tan satın al- dığ -ı kitab-ı oku- duğ -un-u gör-en Ayşə-nin çox sevin- diğ -in-i öğrendim.	Ali- ning New York- dan sotib ol- gan kitob- ni o‘qi- gan-i-ni ko‘rgan Oyshaning juda xursand bo‘l- gan-i-ni eshitdim.

11.2. Otdan ot yasovchi qo‘shimchalar

Turkiy tillarda -turuk / -duruk // mo‘g‘ul tilida -durga // tungus-manjur tillarida -turga // koreys tilida -tori qo‘shimchasi. Turkiy tillarda -turuk// -duruk (-türük // -dürük, -tirik // dirik, -tirik // -dirik, -derek) keng tarqalgan so‘z yasovchi affikslardan biri hisoblanadi. Mazkur qo‘shimcha ko‘pincha somatik so‘zlarga birikib, quyidagi semantik guruhlarni vujudga keltiradi:

1) Kiyim-kechak va ularga yordamchi buyum (akseksuar) nomlarini ifodalaydi: *bojunturuq// mojunturuk* “yoqa, sharf” < *bojun// mojun* “bo‘yin”; *saqalturuq* “qalpoq tushib ketmasligi uchun jag‘ tagidan o‘tkazilib qo‘yiladigan bog‘ich” < *saqal* “soqol”; *eğindirik* “nakidka” < *eğın* “egin”; *gözündürük* “yuz uchun yopqich” < “ko‘z”; *közildirik* “ko‘zoynak” < “ko‘z”; *tabandirik* “yog‘ingarchilikda kiyiladigan ayollarning yog‘och oyoq kiyimi” < *taban* “oyoq kiftining orqa ost qismi”;

2) Ot abzali va uning qismlari nomini ifodalaydi: *ömüldürük* “egarni tortib turish uchun otning ko‘kragidan o‘tkazilgan abzal” < *öm* “o‘mrov”; *kömüldürük* “o‘mildiriq” < *köm* “egarga qo‘yiladigan kigiz”; *burunduruk* “tishlang‘ich otlar uchun burundiq” < *burun* “burun”; *kekildirik* “yuganning ko‘ndalang peshanabog‘i” < *kekil* “otning peshana yoli”; *töbeldirik* “yuganning ko‘ndalang peshanabog‘i” < *töbe* “boshning tepa qismi”; *közüldürük* “yuganda hurkovich ot ko‘zini panalaydigan to‘sqich” < *köz* “ko‘z”; *tüşelderek* “ko‘krakpech” < *tüş* “to‘sh”;

3) Ro‘zg‘or buyumlari nomini ifodalaydi: *kaşildirik* “qoshiqlarni solish uchun devorga o‘rnatilgan moslama” < *kaşik* “qoshiq”, *täbälderek* “to‘qish dastgohining tepkisi” < *täb-* “tepmoq”. -turuk // -duruk affiksi fonetik jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, u o‘zakka birikishidan oldin ko‘pincha // va /n/ undoshlarini orttiradi: *kömüldürük* < *köm* + -(ü)l + -dürük; *gözündürük* < *göz* + -(ü)n + -dürük.

Turkiy tillardagi *-turuk // -duruq* affiksining etimologiyasi xususida turli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, V. Bang uni *tur-* “turmoq” fe’liga bog’lagan. V. Bangning ushbu talqini oltoyshunoslikka oid keyingi tadqiqotlarda ham davom ettirilgan. G.I. Ramstedt turkiy tillardagi *-turuq // -duruq* qo’shimchasini mo’g’ul tilidagi *-durga* affiksi bilan birlashtirgan. Masalan, turkiy tillarda *kömüldürük*, mo’g’ul tilida *kömüldürge* “o’ mildiriq”. Keyinroq C.H. Muratov mazkur guruhga tungus-manjur tillaridagi *-turga // -čurga* affiksini ham kiritgan: *kapturga // kapčurga* “tamaki xalta” < *kap* “qop”. Qayd qilingan guruhga koreys tilidagi *-tori* qo’shimchasini ham ilova qilish maqsadga muvofiq bo’ladi. Qiyoslang: koreys tilida *moktori* “sharf” < *mok* “bo’yin” + *-tori*; yoqut tilida *mojturuq* “mo’yna sharf” < *moj* “bo’yin” + *-turuq*.

Ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan barcha misollarda “o’raladigan, bog’lanadigan, taqiladigan narsa” semasi mavjud. Shunga ko’ra, *-turuq // -duruq* affiksini dastlab “bog’ich” ma’nosida qo’llanilgan mustaqil so’z bo’lgan va u proto-turk tilidagi **tur-* “o’ramoq”, “bog’lamoq” fe’lidan rivojlangan deyish mumkin. Mazkur o’zak oltoy tillarida quyidagicha uchraydi: qad. turk. *tür-*, esk. turk. *tür-*, esk. o’zb. ad. *tür-*, tur. *dür-*, tat. *tör-*, o’zb. *turmak-la-*, uyg’. *tü(r)-*, turkm. *düjr*, xak. *tür-*, oyr. *tür-*, yoq. *tür-*, tuv. *dür-*, tof. *dür-*, qirg’. *tür-*, qoz. *tür-*, no’g’. *tür-*, boshq. *tör-*, gag. *dür-*, qqal. *tür-* “o’ramoq, shimarmoq, qaytarmoq”; mo’g’. yoz. yod. *dörsüji-*, xalx. *dörsij-*, qalm. *dörsē-* “qayishmoq, junjikmoq, burishmoq”; qad. yap. *tutum-*, eski yapon tilida *tütüm-*, Tokio dial. *tsutsüm-*, Kioto dial. *tsütsüm-*, Kagoshima dial. *tsütsüm-* “burilmoq, bukilmoq” (EDAL <http://starling.rinet.ru>), kor. *turi-* “o’ramoq”, “chulg’amoq”, “burkanmoq” (KRS 129) ma’nolarini ifodalaydi.

Aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, turkiy tillardagi *-turuk // -duruq*, mo’g’ul tilidagi *-durga*, tungus-manjur tillarida *-turga* va koreys tilida *-tori* affiksi umumoltoycha **türi-* “o’ramoq” o’zagidan shakllangan.

Turkiy tillarda *-lik/-liq/ -lig/ -liğ // tungus-manjur tillarida *-ruk* qo’shimchasi.* Turkiy tillarda *-lik // -liq // -lig // -liğ* eng sarmahsul polisemantik so’z yasovchi affiks hisoblanadi. Mazkur affiksning tarkibi haqida turkiyshunoslikka oid qator tadqiqotlarda fikr-mulohazalar bildirilgan. *-lik // -liq // -lig // -liğ* affiksi kiyim-kechak nomlari yasashda faol ishtirok etadi. Jumladan, somatik so’zlarga birikib, kiyim nomi yasaydi: *arxaliğ, arkalik* “ustki kiyimning bir turi” < *arka* “orqa”; *başlik* “bosh kiyimi” < *baş* “bosh”; *tepelik* “bezakli bosh kiyim” < *tepe* “boshning yuqori qismi”; *eliklik* “qo’lqop” < *elik* “qo’l”. Suyuq moddalarni ifodalovchi so’zlarga qo’shib, kiyim nomi hosil qiladi: *jāgliк* “ro’mol, dastro’mol” < **jāg* “yog’”; *jamurluk* “yomg’irpo’sh” < *jamur* “yomg’ir”. Idish ma’nosini ifodalaydi: *tuzliq* “tuzdon” < *tuz* “tuz”; turk tilida *čajdanlik* “choynak” < *čaj* “choy” (xitoycha) + *-dan* (fors-tojikcha idish oti yasovchi affiks) + *-lik*.

G.I. Ramstedt turkiy tillardagi *-lik // -liq // -lig // -liğ* affiksini tungus-manjur tillaridagi *-ruk* bilan birlashtirgan: *turukaruk* “tuzdon” < *turuka* “tuz” (qiyoslang: *tuzliq*); *seleruk* “eski temir buyumlar saqlanadigan sandiq yoki qop” < *sele* “temir”; *kalaruk* “qozon uchun sumka” < *kala* “qozon”.

Turkiy tillardagi *-lak // -lek* affiksi *-lik // -liq // -lig // -liğ* qo’shimchasining fonetik variantlaridan biri sanaladi. Mazkur ko’rsatkich ham kiyim-kechak nomlarini yasashda unumdorligi bilan xarakterlanadi: *kōñlak* “ko’ylak” < **kōñ* “qo’y terisi”; *kāpelax* “ko’ylak uchun mato” < *kāpe* “jundan to’qilgan dag’al mato”.

Tahlilga tortilgan *-lik // -liq // -lig // -liğ* affiksining fonetik variantlaridan yana biri *-nak // -nek // -nik // -nik* ko’rsatkichidir. Kiyim-kechak va bezak buyumlari nomlarining tarkibida ko’proq kuzatiladi: *kasnak* “ayollarning ro’mol ostidan taqadigan toji” < *kas* “gardish”; *kebenek* “kigizdan qilingan cho’ponlarning kiyimi” < *kebe* “kigiz”, “dag’al mato” < *kebe* “qo’y juni” < **kebe* “qo’y” + *-nek*; gagauz tilida *e:linnik* “kelin ko’ylak” < *e:lin* “kelin”.

Turkiy tillarda *-(V)k/ -(V)q/ -(V)g // mo’g’ul tilida *-(V)g/ -(V)ğ/ -ga (-qa) // tungus-manjur tillarida *-k, -ki // koreys tilida *-ki* qo’shimchasi.*** Ot, sifat va taqlidiy so’zlardan ot yasovchi affiks. Uy-ro’zg’or buyumlari nomlarining tarkibida keladi: *kōñek* “teridan tayyorlangan idish” < **kōñ* “teri” < “qo’y terisi” < “qo’y”.

Kiyim-kechak va ularning qismlari nomlarini yasashda faol ishtirok etadi: *balāk* “shim, ishtonning pochasi” < “to’piq”, “oyoq yuzi” < *bal* “oyoq”; *jelāk* “engsiz kalta kamzul, nimcha” <

jel “el”; *sarik* “choriq” < *sari* “teri”; *sačak* “gajim, popuk”, “gajimli, popukli ro‘mol” < *sač* “soch”.

Turkiy tillarda *-(V)k// -(V)q// -(V)g* tungus-manjur tillaridagi ot o‘zakdan ot yasovchi arxaiklashgan *-(V)k* affiksi bilan parallelizmni yuzaga chiqaradi: *helik* “metall quti, metall sumka” < *hel* “metall, temir”; *hilmek// hiltik* “chaqmoqtosh, pilik uchun xaltacha” < *hilte* “pilik”.

Hozirgi zamon tungus-manjur tillarida kammahsul bo‘lgan *-ki* affiksi qo‘llaniladi va u koreys tillaridagi *-ki* qo‘shimchasi bilan gomogen sanaladi. Chunonchi, tungus-manjur tillarida *eneki* “qin, g‘ilof” < *ene*; *udeki* “charm mahsulotlari bichiladigan taxta” < *ude*; *uneki* “ayollar belbog‘i” < *une*; koreys tilida *bosiki* “kimchi va shunga o‘xshash tuzlamalar solinadigan sopol idish” < *bos* < *bot* “loy”; *koneki* “pishgan qizil gildan yasalgan uzun, og‘zi keng idish” < *kone// kune* “chuqurcha, teshik”.

Yuqorida qayd qilingan affikslar oltoy tillarida buyum nomi yasash bilan birga, predmetning kichiklik belgisini ham ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarda *jüzük* < *jürük* “uzuk” < *jür* “bo‘g‘im”; mo‘g‘ul tilida *uğurag* “tuxum sarig‘i” < *uğur*; *domag* “afsona” < *dom* “sehr-jodu” (qarang: KW 91; Choi 103); koreys tilida *photäki* “bolalar adyoli” < *photä* “yopg‘ich”; *čabägi* “qiyqim, laxtak” < *čabä*.

Turkiy tillarda *-ga/ -ğa/ -ka/ -ke // tungus-manjur tillarida *-ka/ ke/ -ğa/ -ge // koreys tilida *-kä* kichraytish qo‘shimchasi.** Otlarning tarkibida kelib, kichraytish ma‘nosini anglatadi. Jumladan, turkiy tillarda *siričga* “shisha, tog‘ billuri, munchoq” < *sir* “sir” +-(i)č +-ğa; *qovga* “chelak” < *qov* < *kob* < **köbú* “kovak, teshik” + -ğa; *kemeke* “pechka” < *keme // kome// küme* “chuqur, o‘yiq” + *-ke*.

Turkiy tillardagi *-ka// -ke* affiksi tungus-manjur va koreys tillarida quyidagicha uchraydi: tungus-manjur tillarida *tedeke* “to‘shama” < *tede* “to‘shaladigan teri”; *kebeke* “ayollarning xaltasi” < *kebe*; koreys tilida *otukä* “tutning mevasi” < *oti* “tut”.

Turkiy tillarda *-ken/ -qan // mo‘g‘ul tilida *-ken/ -xan // tungus-manjur tillarida *-kän/ -ken/ -xan* qo‘shimchasi.** Turkiy tillardagi otlarning tarkibida *-ken// -qan* affiksi juda kam qo‘llaniladi: *čepken* “ustki kiyim” < *čep*; *qasqan* “gardish” < *qas*. Mo‘g‘ul va tungus-manjur tillarida sermahsul polisemantik affiks sanaladi. Jumladan, mo‘g‘ul tilida *süiken* “sirg‘a” < *süi*; *ulxan* “kosa” < *ul*; tungus-manjur tillari *se^xan* “sirg‘aning ilgagi” < *se^(n)* “quloq”; *komtaxan* “qopqoq, quti” < *komta*; *kurken* “reza mevalar terib solinadigan idish” < *kur*.

Mo‘g‘ul tilida *-xan* affiksi otni erkalatish-kichraytirish shaklini hosil qilishda faol ishtirok etadi: *cahaxan* “qor uchquni” < *cahan* “qor”; sonlarga qo‘shilib, chegaralov funksiyasini bajaradi: *nigexen* “bittagina”, *xoxarxan* “ikkitagina”; ayollik jinsining ko‘rsatkichi vazifasida keladi: *nojon* “knyaz”, - *nojonxon* “knyazning qizi”, *xū* “o‘g‘il” - *xūxen* “qiz”. Bu o‘rinda o‘zbek tilidagi xotin-qizlar otlariga qo‘shilib, erkalash yoki kesatish ma‘nolarini anglatadigan *-xon* affiksi bilan muqobillik hosil qiladi: *Lolaxon, Ra‘noxon*.

Turkiy tillarda *-ča // mo‘g‘ul tilida *-čai* kichraytish qo‘shimchasi.* Turkiy tillarda mahsuldor so‘z yasovchi affikslardan biri. *-ča* affiksining tarixiy taraqqiyoti haqida oltoyshunoslik va turkiyshunoslikka oid qator tadqiqotlarda fikr-mulohazalar bildirilgan. *-ča* qo‘shimchasi uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarining tarkibida kelib, kichraytish ma‘nosini bildiradi. Jumladan, *korpača* < *körpe*; *tugunča* < *tugun*; o‘zbek tilining shevalarida *qomča* “jazliq, to‘qim” < *qom* “tuyaning egari”. Kiyim va kiyim qismlarining kichik turini anglatadi: *kojlakča, tonča, jeŋča*.

Taqinchoqlarning nomida ham kichraytish ma‘nosini ifodalaydi: *sirča* “shisha, tog‘ billuri, munchoq” < *sir*. Chuvash, tatar, boshqird va no‘g‘oy tillarida *-ča* affiksining *-sa// -se* fonetik varianti kuzatiladi: chuvash tilida *alsa* “eng” < *al* “qo‘l”; *majsa* “taqinchoq” < *maj* “bo‘yin”; tatar tilida *mujansa* “munchoq” < *mujän* “bo‘yin”; *tamaksa* “munchoq” < *tamak* “tomoq”. G.I. Ramstedt turkiy tillardagi *-ča* affiksini mo‘g‘ul tilidagi *-čai* qo‘shimchasi bilan qiyoslagan: *qaragačai* “qaldirg‘och” < *qaraga*.

Turkiy tillarda *-čak/ -čaq, -čik/ -čiq/ -čuk // mo‘g‘ul tilida *-čag/ -čag, -čik // koreys tilida *-ččak* < *-čak* kichraytish qo‘shimchasi.** Kichraytirish-erkalatish vazifasida qo‘llaniladi. Turkiy tillarda *qapirčaq* “sandiqliq, tobut, savat” < *qabir// qawuz* “daraxt qobig‘i”; *qapčiq* “qopchiq, xaltacha” < *qap* “qop”; *boččuk* “kichik xumcha” < *boč* < *boj* < *bod* < *bot* “sopol, loy”; *qazančuk*

“kichkina qozon” < *qazan* “qozon”; mo‘g‘ul tilida *qayurčağ*, *qajirčağ* “kichik quti” < *qayur*// *qajir* “quti”; koreys tilida *koecčak* “quti” < *koe*.

11.3. Fe‘ldan ot yasovchi qo‘shimchalar

Turkiy tillarda -čak/-čaq // mo‘g‘ul tilida -čağ/-čeg // tungus-manjur tillarida -jak/-jek/-čak/-ček/-čok qo‘shimchasi. Turkiy tillarda -čak// -čaq affiksi, odatda, otlarning tarkibida uchrab, kichraytirish va erkalatish ma‘no ottenkalarini beradi. Biroq u fe‘l o‘zaklar bilan birga kelganda lokallik ma‘nosini ifodalaydi.

Fikrimizcha, -čak// -čaq affiksi dastlab “joy” ma‘nosini ifodalagan mustaqil so‘z bo‘lgan. Da‘vomizni tubandagi misollar bilan asoslashga harakat qilamiz: *ōčaq* < *hōčaq* < *hōtčaq* “o‘choq” < *hōt* “o‘t”, “o‘t yoqmoq” + *čaq* “joy” = “o‘t yoqadigan joy”; *burčak* “burchak” < *bur-* “burmoq” + -čak// -čaq “joy”.

G.I.Ramstedt tungus-manjur tillaridagi -jak// -jek affiksini harakat joyini ifodalishini qayd qilgan: *baldijak* “tug‘ilgan joy” < *baldi-* “tug‘ilmoq”; *bujek* “qabr” < *bu-* “o‘lmoq”; *bijek* “yashash joyi” < *bi-* “biror joyda bo‘lmoq, turmoq”. Biroq G.I.Ramstedt -jak// -jek affiksini -ja-// -je- + -k ko‘rinishida talqin qilib, -ja-// -je- ko‘rsatkichining kelib chiqishini aniq ko‘rsata olmagan. Faqat *budek* “qabr” so‘zida -je- “yotmoq” ma‘nosida saqlangan bo‘lishi mumkinligini taxmin qilgan.

O.A.Konstantinova tungus-manjur va turk tillarida -daq// -čaq qo‘shimchalari fe‘lning o‘zagiga birikib, harakat joyi va harakat nomi ma‘nolarini bildirishini yozgan: *xavalđak* “ishlaydigan joy”, “ish” < *xaval-* “ishlamoq”. Shuningdek, olimi tungus-manjur tillarida “turar joy”, “aholi yashaydigan joy”, “yozlik va qishlik uy” tushunchalarini ifodalaydigan *bičėk*, *čuyacčak*, *boločōk*, *tuyecčėk* kabi qator leksik birliklar tarkibida ham “joy” semasini tashuvchi *čāk*// *čėk*// *čōk* uzvining mavjudligini qayd qilgan.

Turkiy tillarda -gaj/-ğaj/-gāj/-qaj, -kaj // mo‘g‘ul tilida -gaj/-ğaj/-qaj/-kej // koreys tilida -kai/-kei qo‘shimchasi. Manbalarda -qaj// -ğaj affiksining asosan kichraytirish-erkalatish ma‘nosida qo‘llanishi ta‘kidlangan (masalan, o‘zbek tilida *bālajak* < *bāla*, tatar tilida *kujankaj* “quyoncha” < *kujan* “quyon”).

G.I.Ramstedt turkiy va tungus-manjur tillaridagi -qaj// -ğaj ko‘rsatkichlarini mo‘g‘ul tilining ta‘sirida shakllanganini, koreys tilidagi -kai affiksini esa kammahsul qo‘llanishini qayd qilgan. Shu bilan bir qatorda, mo‘g‘ul tilidagi -ğaj// -qaj affiksini turkiy tillardagi -ga// -qa va tungus-manjur tillaridagi -ga// -ka bilan qiyoslagan. Q.Muhamadjonov o‘zbek tilidagi va uning shevalaridagi -qaj affiksining genezisini harakatning ma‘lum bir tomonga yo‘nalishini ifodalagan *qaj-* o‘zagi bilan aloqador qilgan: *qaj+t-* “vernish”, *qaj+ir* “sogni”, *qaj+il* “povernish, otvernish”, chuvash tilida *qaj* “idti, uxodit”, qadimgi turkiy tilda *qaj-* “povorachivatsya, oborachivatsya” va hokazo. Shuningdek, mazkur affiksning mo‘g‘ul va tungus-manjur tillarida faqat sifat yasashini, o‘zbek tilida esa ot, sifat, fe‘l hamda ravish yasashini ta‘kidlagan.

Bu o‘rinda Q.Muhamadjonovning -qaj affiksini mo‘g‘ul va tungus-manjur tillarida faqat sifat yasaydi degan qarashiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Quyida berilayotgan misollar fikrimizni to‘ldirishga xizmat qiladi. Oltoy tillari maishiy leksikasining tarkibida -gaj// -ğaj// -gāj// -qaj affiksi kiyim-kechak va bezak otlarining tarkibida kuzatiladi. Masalan, tat. *jilbägäj* “oldi ochiq, tugmasi solinmagan kiyim” (Tat.RS 762, 764), boshq. *jelbägäj* “oldi ochiq, tugmasi solinmagan kiyim” (BRS 179,182), qirg‘. *jelbegej* “ikki yengini kiymasdan, ustiga tashlab olingan kiyim” (KTTS 201), o‘zb. *jelägäj*, o‘zb. shev. *jelbägäj* “ustki kiyimning yengini kiymay, yelkaga tashlash” (Ishaev 104), *delägäj* “to‘nning ustidan yoki alohida o‘zini kiyiladigan yaktak” (Jo‘raev 130) ma‘nolarida keladi. Qayd qilingan shakllar *jelbä-* “elpimoq” o‘zagi va -gāj qo‘shimchasidan yuzaga kelgan. Eski mo‘g‘ul tilida *maqalai*, *malaqaj*, *mayala*, *maqalaj*, xalx. *malgaj*, bur. *malgaj*, qalm. *maxlä:*, duns. *maGala*, dag. *malgaj*, mong. *malGei* “mo‘ynali telpak” < *maxi-* “egilmoq, bukilmoq, qayrilmoq”.

X.U.Che mo‘g‘ul tilidagi -gai// -gei affiksini koreys tilidagi -kai// -kei bilan solishtirgan: koreys tilida *pkjä* “yostiqlik” < *pje-* “boshini qo‘ymoq”; *təpkai* “ko‘rpa”, “yopqich” < *təp-* “yopmoq”. Mazkur qatorni tadqiqotimizda tahlil qilingan quyidagi koreyscha leksemalar bilan to‘ldirish mumkin: *s:akai* “paytava” < *s:a-* “o‘ramoq”; *s:ikai* “bosh kiyim” < *s:i-* < *s:i-* “boshga

kiymoq”; *norikai*, eski koreys tilida *nòrikái* “kiyimning belbog‘iga osiladigan ayollar bezagi”, “o‘yinchoq” < *nòl-* “o‘ynamoq” + *-i*.

Endi maqsadga muvofiq, *-qaj* affiksining genezisi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu o‘rinda Q.Muhamadjonovning *-qaj* affiksini harakatning ma‘lum bir tomonga yo‘nalishini ifodalagan *qaj-* o‘zagidan kelib chiqqan degan fikriga to‘liq qo‘shilamiz. Haqiqatan ham tarkibida *-qaj* uzvi kelgan so‘zlarda “qayrilmoq, bukilmoq, “egilmoq”, “bir tomonga og‘moq”, “ikkiga ayrilmoq” semalari kuzatiladi. Jumladan, o‘zbek tilining shevalarida *čalgaj* “og‘ (ko‘ylak, yaktak kabilarning qo‘ltig‘ida)”, *jačalgaj* “to‘nning ichki tomonida yoqaning tagidan etakkacha alohida qo‘yilgan avranning bir qismi”, mo‘g‘ul tilida *qačagaj* “egilgan” < *qačaji-* “egmoq, bukmoq”; *keltegej* “egri” < *kelteji-* “egmoq”; *tasurqaj* “yorilgan” < *tasura-* “yormoq”. Shuningdek, *-qaj* affiksi “bukiladigan a‘zo” tushunchasini ifodalaydigan somatik so‘zlarning tarkibida ham keladi: Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida *baqaj* “to‘piq”, mo‘g‘ul tilida *berbegei* “tuyoq usti bo‘g‘in suyagi”, *tabgaj* “oyoq yuzi (kafti)”, “hayvonlarning oyoq panjasi”.

Turkiy tillarda *-ga/ -ğa/ -kä* // mo‘g‘ul tilida *-ga/ -ğa, -ge* // tungus-manjur tillarida *-ka/ -ke* qo‘shimchasi. Turkiy tillarda *-ga// -ğal// -kä* affiksi uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarining tarkibida quyidagicha uchraydi: tatar tilida *sòskä* “cho‘mich”, chuvash tilida *äskä* “matrap” < *sòs-// äs* “botirib olmoq, suzib olmoq”.

Mazkur affiks oltoy tillarida ham uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari hosil qilishda faol qo‘llaniladi. Masalan, mo‘g‘ul tilida *tulgall/ tulya* “uch oyoqli temir o‘choq”, “tirgak” *tul-* “tayanmoq”; “tiramoq”; *xučilya* “yopinchiq” < *xuçi-* // *kuçi-* “yopmoq”; *kedürge* “ustki kiyim” < *kedür-* “kiymoq” tungus-manjur tillarida *elbuke* “o‘tov yopqichi” < *elbu-* “yopmoq, qoplamoq”; *maltika* “buklama pichoq” < *malta-* “bukmoq”.

Turkiy tillarda *-gu/-gü/ -ğu -qu* // mo‘g‘ul tilida *-gu/ -ğu* // tungus-manjur tillarida *-ku* // koreys tilida *-gu* qo‘shimchasi. Turkiy tillar maishiy leksikasini boyitishda *-gu// -gü// -ğu// -qu* affiksining ahamiyati kattadir. Binobarin, oshxona buyumlari yasashda faol qatnashadi: uyg‘ur tilida *bičğu* “pichoq” < *bič-* “bichmoq”; turk tilining shevalarida *süzgü* “teshikli chanoq”, “baliqchilarning chovlisi”, “ko‘chatlarga suv quyish uchun tunukadan yasalgan, uchida suzgichi bo‘lgan idish” < *süz-* “suzmoq, suzib olmoq”; *süsgü* “cut sog‘ilayotganda sutning ichiga iflos narsalar tushmasligi uchun qo‘llaniladigan sim suzgich” < *süz-* “suzmoq, suzib olmoq”. Kiyim-kechak otlari yasaydi: eski turkiy tilda *jaγqu* “yomg‘irpo‘sh” < *jaγ-* “yog‘moq”; *keđgü* “kiyim” < *keđ-* “kiymoq”.

Oltoy tillaridagi quyidagi affikslar bilan uyadosh qatorni hosil qiladi. Chunonchi, mo‘g‘ul tilida fe‘l o‘zakdan buyum oti yasaydi: *dēsəgu* “bo‘yra” < *deb-* “to‘shamoq, yoymoq, solmoq”. Shu bilan bir qatorda, fe‘llardan sifat ham yasaydi: *bolduğu* “semiz” < *boldu-* “semirmoq”; *qatağu* “qattiq” < *qata-* “qurimoq, qattiqlashmoq”.

Tungus-manjur tillarida *-ku* shaklida mavjud bo‘lib, uy-ro‘zg‘or buyum otlari yasashda sermahsul qo‘llaniladi: *alikhū* “kosa, patnis” < *ali-* “bermoq, siylamoq”; *elbeku* “yopqich” < *elbe-* “yopmoq, qoplamoq”; *mūliku* “chelak” < *mūue-* “suv qidirishga ketmoq”.

Turkiy tillardagi *-ğu// -gü* affiksi dastlab G.I. Ramstedt tomonidan mo‘g‘ul tilidagi *-ğu// -gü* va tungus-manjur tillaridagi *-ku* affiksiga qiyoslangan. Keyinroq X.U.Che zikr qilingan guruhga koreys tilidagi *-ki* substantiv affiksini ham daxl qilgan (*hāki* “qilish, etish” < *hā-* “qilmoq, etmoq”).

Bizningcha, qayd qilingan koreys tilidagi *-ki* substantiv affiksining o‘rniga koreys tilidagi *-gu* affiksini yuqoridagi guruhga ilova qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunonchi, koreys tilidagi *-gu* ko‘rsatkichi ro‘zg‘or buyumi otlarining tarkibida keladi: *čəlgu*, koreys tilining Pyongan shevasidagi *təlgu* “hovoncha” < *čəl* < *təl-* “kamaymoq, ozaymoq”.

Turkiy tillarda *-i/-i/-u/-ü* // mo‘g‘ul tilida *-i* // tungus-manjur tillarida *-i* // koreys tilida *-i* qo‘shimchasi. Turkiy tillarda unumsiz affiks bo‘lib, kiyim-kechak va asbob otlari tarkibida uchraydi. Masalan, esk. turk. *jaku*, olt. *jaki*, oyr. *jaqqi*, *daqqi*, tuv. *čayī*, qirg‘. shev. *jaqi*, qoz. shev. *žaqi*, boshq. *jaqi* “yomg‘irpo‘sh” < *jag-* “yog‘moq”; esk. turk. *soqu*, tur. *soku*, turkm. *soki*, o‘zb. shev. *soqi* “o‘g‘ir, keli” < **sok-* “urmoq”, “yo‘q qilmoq, yanchib tashlamoq”; esk. turk. *adri* “bug‘doy tozalaydigan asbob” < *adir-* “ajratmoq”.

Turkiy tillardagi *-i* affiksini G.I.Ramstedt va N.N.Poppe mo‘g‘ul tilidagi *-i*, tungus-manjur tillaridagi *-i*, X.U.Che koreys tilidagi *-i* qo‘shimchasi bilan qiyoslashgan. Mo‘g‘ul tilida harakat nomi yasaydi: *ajisui* “yaqinlashish” < *ajis-* “yaqinlashmoq” -*u* (bog‘lovchi unli) *-i*; *odui* “ketish” < *od-* “ketmoq”. Tungus-manjur tillarida fe‘l negizga birikib, ot yasaydi: *degi* “qush” < *deg-* “uchmoq”; *teti* “kiyim” < *tet-* “kiymoq”. Koreys tilida fe‘ldan mavhum otlar yasaydi: *hari* “shikoyat” < *har-* “shikoyat qilmoq”; *ibati* “xizmat” < *ibat-* “xizmat qilmoq”; *sari* “hayot, turmush” < *sar-* “yashamoq”.

Turkiy tillarda *-(V)k/-(V)q/-(V)g/-(V)ğ* // mo‘g‘ul tilida *-g/ -ğ* // tungus-manjur tillarida *-(V)k* qo‘shimchasi. Turkiy tillarda eng qadimgi sermahsul affikslardan biri bo‘lib, turli ma‘no funksiyalarida qo‘llaniladi. Binobarin, oshxona buyumlari nomlari yasashda faol qatnashadi: *elgek//elek* “elak” < *elge-* “elamoq”; *kalak//qalaq* “qoshiq”, “kurakcha”, “chilcho‘p” < *qala-* “bir joyga to‘plamoq”. Ish quroli ma‘nosini ifodalaydi: *kōruk* “ko‘raga, o‘choqqa havo yuboradigan garmonsimon asbob yoki temirchilik o‘chog‘i” < *kōru-* “dam bermok”. O‘rin anjomi otlarini yasaydi: *tōšek* “to‘shak” < *tōše-* < **tolē-* “to‘shamoq”; *örtük* “choyshab, o‘rin yopqichi” < *ort-* “yopmoq, qoplamoq”. Kiyim nomlarini hosil qiladi: *ičik* “ichi, astari teridan tayyorlangan kiyim” < *ič-* “ichida bo‘lmoq”, “astar bo‘lmoq”; *kūpik* “paxtali ustki kiyim” < **kup-* “shishmoq, bo‘rtmoq, do‘mbaymoq”; *börk* “qalpoq” < **boru-* “qoplamoq”, “yopmoq”. Kesish natijasida hosil qilingan yordamchi kiyim, kiyimning bo‘lagini ifodalaydi: *qijiq* “belbog‘” < *qij-* “qiymoq”; *jiriq* “izma” < *jir-* “yirmok”.

Zikr etilgan affiksning fe‘l o‘zaklaridan ot yasash bilan birga sifat hosil qilishi manbalarda qayd qilingan. Masalan, *tešik* “teshik” < *teš-* “teshmoq”; *egik* “egik” < *eg-* “egmoq” va shu kabilar. Chuvash tilida *-x* varianti kuzatiladi: *vərax* “uzoq” < *vəra-* “cho‘zilmoq”; *šivāx* “yaqin” < *šivā-* “yaqinlashmoq”.

Turkiy tillardagi *-(V)k//-(V)q//-(V)g//-(V)ğ* affiksining funksiyasini mo‘g‘ul tilida *-g// -ğ*, tungus-manjur tillarida *-(V)k* qo‘shimchasi bajaradi. Qiyoslang: mo‘g‘ul tilida *ükeg* “quti, yashik” < *üküg* “carkofag” < *ükü-* “o‘lmoq”; *qabčig* “qisqich” < *qabči-* “qismoq”; tungus-manjur tillarida: *avak* “sochiq” < *av-* “yuvinoq”; *elbek* “ov yopqichi” < *elbe-* “yopmoq, qoplamoq”, *huklek* “yotoq” < *hukle-* “uxlamoq, yotmoq”.

Turkiy tillarda *-kač/ -qač/ -geč, -kič/ -qič/ -gič/ -ğič* // tungus-manjur tillarida *-kač/ -kat, -kič* // koreys tilida *-kač* qo‘shimchasi. Fe‘l o‘zaklarga qo‘shilib, qurol, asbob oti yasaydi: *ačqač* “kalit” < *ač-* “ochmoq”; *qisqač* “qisqich” < *qis-* “qismoq”; *süzgeč//süzgič* “cuyuqliklarni turli aralashmalardan tozalovchi moslama” < *süz-* “cuzmoq, suzib olmoq”. Ushbu affiksning *-kič// -qič// -gič* singari fonetik variantlari ham keng tarqalgan: *japkič//jāpqič* “choyshab, o‘rin yopinchi” < *jap-* “yopmoq, bekitmoq”; *qirgič* “qirg‘ich” < *qir-* “qirmoq”; *qisqič* “qisqich” < *qis-* “qismoq”.

Turkiy tillardagi *-kač// -qač// -geč, -kič// -qič// -gič// -ğič* affiksi tungus-manjur tillaridagi *-kač// -kat, -kič* bilan muqobil bo‘ladi. Qiyoslang: *upkač, upkat* “butun” < *up-* “butun bo‘lmoq”; *örikič* “qarorgoh” < *örin-* “qarorgoh bo‘lmoq”.

X.U.Che turkiy tillardagi *-kač// -qač* qo‘shimchasini koreys tilidagi *-kač* (*motkäci* “yig‘ilish” < *mot-* “yig‘ilmoq”) bilan qiyoslagan. G.I.Ramstedt turkiy tillardagi *-ğaç// -gäč* va mo‘g‘ul tilidagi *-gad// -ged* affiksini turkiycha-mo‘g‘ulcha **-gad* shaklidan kelib chiqqan, degan fikrni ilgari surgan. G.I.Ramstedtning turkiy tillardagi *-ğaç* bilan mo‘g‘ul tilidagi *-gad* affiksini bir o‘zakdanligi haqidagi qarashini N.N.Poppe ham quvvatlagan.

Ko‘p hollarda mo‘g‘ul tilidagi *-üür// -üür* affiksi turkiy tillardagi *-kič// -qič// -gič// -ğič* ko‘rsatkichining funksiyasida keladi: *xavčur* “qisqich” < *xavč-* “qismoq”; *ölgüür* “ilgich” < *öl* “ilmoq”.

Turkiy tillarda *-(V)m* // mo‘g‘ul tilida *-m* // koreys tilida *-m* qo‘shimchasi. Qadimgi turkiy tilda serunum affiks bo‘lgan. Fe‘l o‘zaklariga qo‘shilib, gilam nomlarini vujudga keltiradi: *jadim* “gilam” < *jad-* “yozmoq, solmoq”; *kerim* “gilam, so‘zana” < *ker-* “kermoq”. Kiyim nomi yasaydi: *keđim* “kiyim” < *keđ-* “kiymoq”. Yordamchi kiyim nomlari yasaydi: boshqird tilida *kürim* “kiyim bog‘ichi” < *kür-* “bog‘lamoq”.

Oltoy tillaridagi quyidagi affikslar bilan gomogen sanaladi. Mo'g'ul tilida *garum* "qozon" < *garu-* "yig'ilmoq", *toqom* "to'qim" < *toqo-* "egarlamok"; koreys tilida *korim*, eski koreys tilida *korom* "tasma" < *kori-* "o'ramoq, bog'lamoq".

Turkiy tillarda -ma/ -me // tungus-manjur tillarida -ma qo'shimchasi. Fe'ldan ot yasovchi urg'uli ko'rsatkich bo'lib, quyidagi ma'nolarda keladi. Uy-jihoz otlari hosil qiladi: *tartma* "stolning, shkafning surilma yashigi" < *tart-* "tortmoq"; *surma* "surilma yashik" < *sur* "surmoq"; *japma* "choyshab, o'rin yopqichi" < *jap-* "yopmoq, bekitmoq". Kiyim-kechak nomlari yasaydi: *jalma* "yomg'irpo'sh" < *ja-* "yopmoq, bekitmoq"; *dolama* "ko'ylak, kaftan" < *dola-* "o'ramoq"; *türmä* "uzun ro'mol" < *tur-* "o'ramoq"; *čizma* "etik" < *čiz-* "tortib, cho'zib kiyimoq". Kiyimga yordamchi buyum nomlarini shakllantiradi: *čalma* < "bosh kiyimining ustidan o'raladigan mato" < *čal-* "o'rab bog'lamoq"; *kürme* "kiyim bog'ichi" < *kur-* "bog'lamoq". Fe'l o'zaklariga birikib, sifat yasaydi: *aydarma čakmân*; *aydarma etik*. Tungus-manjur tillarida -ma affiksi juda kammahsul hisoblanadi: *gorma* "bog'ich, tasmacha" < *gor* < *gur* < *gurevu-* "bog'lamoq".

Turkiy tillarda -maq/ -maq/ -māk // mo'g'ul tilida -mag/-mog // koreys tilida -mak qo'shimchasi. Fe'llarga qo'shilib, uy-ro'zg'or otlari yasaydi: *toqımaq* "uriladigan asbob", "g'alla yanchadigan asbob" < *toqı-* "urmoq". Kiyim nomlari hosil qiladi: *ičmāk* "ichi, astari teri bo'lgan kiyim" < *ič-* "ichida bo'lmoq". Kiyimlarga yordamchi buyum otlarini shakllantiradi: *kürmāk* "kiyim bog'ichi" < *kur-* "bog'lamoq".

Mo'g'ul tilida kiyimlarga yordamchi buyum otlarining tarkibida keladi: *oromog* "paytava" < *oro-* "o'ramoq". Koreys tilida kiyim nomlari yasaydi: *turumaki* "ustki kiyim" < *turu-* < *turi-* "o'ramoq", koreys tilining shevalarida *khurimäki* "palto", "chopon" < *khuri-* < *kori-* "o'ramoq, bog'lamoq".

Turkiy tillarda -(V)n // mo'g'ul tilida -n // tungus-manjur tillarida -n qo'shimcha. Fe'l o'zak-negizidan uy-ro'zg'or otlarini vujudga keltiradi: *tügün* tugun *tug-* "tugmoq"; *orun* "ko'rpa-yostiqlik majmui" < *or-* "qo'ymoq, joylashtirmoq". Kiyim-kechak nomlarini yasaydi: *čapan* "ustki kiyim" < *čap-* "ikkiga ajratmoq". Kiyimlarga yordamchi buyum otlarini hosil qiladi: *kolan* "enli, keng kamar", "belbog" < *kola-* "belbog bog'lamoq".

Oltoy tillarida maishiy leksik qatlamni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Qiyoslang: mo'g'ul tilida *oron* "o'rin, yotoq" < *oro-* "bir joyga kirmoq"; tungus-manjur tillarida *kalan* "qozon" < *kala-* "birga yig'ilmoq"; *čoman* "vino uchun chuqur qadah, jom" < *čom-* "cho'mmoq, suyuqlikka botirmoq"; *guren* "ip, bog'ich" < *gure-* < *gurevu-* "bog'lamoq".

Turkiy tillarda -(V)č/ -(V)š // mo'g'ul tilida -(V)š qo'shimchasi. Turkiy tillardagi -(V)č// -(V)š affiksi fe'l o'zaklariga birikib, oshxona buyumlari nomlarini yasashda faol qatnashadi. Chunonchi, *čömič// čömüş* "cho'mich, yog'log'i" < *čom-* "cho'mmoq, suyuqlikka botirmoq"; *qamič* "cho'mich" < *qam-* "yig'imoq, to'plamoq"; *kömäč// gömeč* "ovqat pishiriladigan sopol idish" < **kom-* "ko'mmoq"; *eğič// ejiš* "meva uzishga mo'ljallangan uchi egri asbob" < *eğ-* "egmoq".

X.U.Che turkiy tillardagi -č ko'rsatkichini mo'g'ul tilidagi -čal// -če (*bariča* "sovg'a" < *bari-* "ushlamoq"); tungus-manjur tillarida -če (*irče* "voyaga yetgan" < *ir-* "voyaga yetmoq"); koreys tilida -(V)či (*kərači* "tilanchi" < *kər-* "tilanmoq") bilan muqoyasa qilgan.

Bizningcha, yuqoridagi to'daga birlashtirilgan affikslar fonetik tarkibi va semantik-funksional vazifasi jihatidan bir-biriga mos kelmagan. Bu o'rinda turkiy tillardagi -(V)č// -(V)š affiksini mo'g'ul tilidagi -(V)š bilan, turkiy tillardagi -čal// -če affiksini esa mo'g'ul tilidagi -čal// -če, tungus-manjur tillaridagi -če va koreys tilidagi -ča bilan birlashtirish to'g'ri bo'ladi. Binobarin, S.Sidikov mo'g'ul tilidagi -(V)š qo'shimchasini (mo'g'ul tilida *xevtes* "pechka ustida yotiladigan joy" < *xevt* "yotmoq"; *toxos* "ot-arava abzali" < *tox* "egarlamok") turkiy tillardagi -(V)š bilan qiyoslagan.

Turkiy tillarda -ča/ -če // mo'g'ul tilida -ča/ -če // tungus-manjur tillarida -ča/ -če // koreys tilida -ča qo'shimchasi. Turkiy tillardagi -čal// -če affiksining otlar tarkibida kichraytirish va erkalatish vazifasida keladi. Mazkur affiks fe'l o'zakka birikkanida buyum nomini ifodalovchi otlar hosil qiladi: *čöme* "cho'mich, qoshiq" < *čöm* "cho'mmoq, suyuqlikka botirmoq". Oltoy tillarida ham ayni funksiyada qo'llaniladi. Jumladan, mo'g'ul tilida *talbiča* "raf" < *talbi* "qo'ymoq"; tungus-manjur tillarida *sovuča// souče* "cho'mich" < *soko-* "suzib olmoq"; *daqača* "choyshab, to'shama" <

daqa- “yopmoq”; *uteče* “chok, baxya” < *ute-* “qavimoq”; koreys tilida *səkča* “suzgich” < *sək:-* “aralash-tirmoq, qorishtirmoq”.

12-MAVZU TILLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (2 soat)

Reja:

1. Lug‘aviy birliklar tipologiyasi va tarjimasi
2. Frazologik birliklar tipologiyasi va tarjimasi

Tayanch so‘z va iboralar: *lug‘aviy birliklar, leksika, o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, denotativ ma‘no, konnotativ ma‘no, tag ma‘no, omonim, sinonim, antonim, paronim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, frazeologik birliklar.*

12.1. Lug‘aviy birliklar tipologiyasi va tarjimasi

Mustaqil so‘zlar ham lug‘aviy, ham grammatik ma‘no ifodalaydi; yordamchi so‘zlar esa faqat grammatik ma‘no bildiradi.

So‘zning lug‘aviy ma‘nosini leksikologiya, grammatik ma‘nosini morfologiya o‘rganadi.

Lug‘aviy ma‘no anglatuvchi til birliklari lug‘aviy birliklar deyiladi. Lug‘aviy birliklar quyidagicha: 1) so‘z; 2) ibora; 3) termin (atama); 4) qo‘shma so‘z; 5) tasviriy ifoda.

So‘zning atash ma‘nosi. So‘zlarning borliqdagi narsa-hodisalar, belgi xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirishi uning atash ma‘nosi sanaladi. Faqat mustaqil so‘zlarga atash ma‘nosiga ega bo‘ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma‘nosiga ega bo‘lgan so‘zlarga ishora qiladi.

Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar. So‘zlar bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlarga bo‘linadi. Bir ma‘nolilik hodisasi *monosemiya* deyiladi. Bir ma‘noli so‘zlar *monosemantik* so‘zlar hisoblanadi. O‘zb. *Toshkent*, turk. *Ankara*, kor. *Seoul*; ingl. *New-York*, rus. *Москва*; o‘zb. *oshpaz*, turk. *aşçı*, kor. *yorisa* ingl. *cook*; rus. *новар*; o‘zb. *odam*, turk. *adam*, kor. *saram* ingl. *man*, rus. *человек*; o‘zb. *qush*, turk. *kuş*, kor. *se*, ingl. *bird*, rus. *nmuyqa*; o‘zb. *tuya*, turk. *deva*, kor. *nakta*, ingl. *camel*, rus. *верблюд*... singari aniq bir ma‘noni ifodalash uchun qo‘llanilgan so‘zlar bir ma‘noli so‘zlar sanaladi.

Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma‘noda qo‘llanuvchi so‘zlar ko‘p ma‘noli so‘zlar deyiladi. Birdan ortiq (bir necha) ma‘nolarda keladigan so‘zlar ko‘p ma‘noli so‘zlar deyiladi. Ko‘p ma‘noli so‘zlar *polisemantik* so‘zlar deyiladi.

Ko‘p ma‘noli so‘zlarda bosh (asosiy) va ko‘chma ma‘no bo‘ladi:

O‘zbek tili	Turk tili	Koreys tili	Ingliz tili
Bosh (asosiy) va ko‘chma ma‘no (odamning ko‘zi)			
ko‘z	göz	nun	eye
Ko‘chma ma‘nolari			
teshik, bo‘shliq			
yog‘och ko‘zi		biron narsaning teshigi	kartoshka va h.k.ning teshigi
	iğnenin gözü (ignaning teshigi)		the hole in a needle (ignaning teshigi)
			a hole formed during the maturation of cheese (pishloqning teshigi)
			eshikning tirqishi

biron narsaning bo‘limlari, cho‘ntagi			
	çantanin gözü (sumkaning cho‘ntagi) masanın gözü (tortma)		
taqinchoq, bezaklar buyumlarinig toshi			
uzukning ko‘zi zirakning ko‘zi			

So‘zning o‘z ma‘no va ko‘chma ma‘nolari. So‘z ma‘nosi ko‘chishi natijasida o‘z va kochma ma‘no hosil bo‘ladi. So‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan atash ma‘nosi *o‘z ma‘no* («denotativ», «bosh», «atash» ma‘nosi) sanaladi. So‘zning nutqdagi boshqa so‘zlarga bog‘lanib hosil qilinadigan yondosh ma‘nosi *ko‘chma ma‘no* (*konnotativ ma‘no*) hisoblanadi. Masalan: *odamning qulog‘i* – o‘z ma‘noda, *qozonning qulog‘i* – ko‘chma ma‘noda.

O‘z ma‘no	Ko‘chma ma‘no
qora qalam	qora sovuq
temir idish	temir intizom
oltin uzuk	oltin kuz

So‘z ma‘nolarining kengayishi, o‘zgarishi, bir so‘zning kontekstga qarab bir necha ma‘no ifodalashi *polisemiya* deyiladi. Polisemiya ommabop va adabiy uslub uchun vosita bo‘ladi va lug‘atni ham uslubni ham boyitadi. *Ishning ko‘zini biladi, ko‘z ilg‘amas, qaro ko‘zim, ko‘z-ko‘z qilmoq, ko‘z ostiga olish, ko‘zmunchoq, ko‘zimning nuri, ko‘z boylog‘ichlar* va boshqa iboralarda *ko‘z* so‘zi turli ma‘noda qo‘llangan. *Qo‘l, til, yurak, ona, bosh* kabi so‘zlar ham ko‘p ma‘nolarni ifodalashi mumkin. Ma‘nosi ko‘chgan so‘z ikkinchi bir so‘z bilan yaxlit qo‘llansa, har ikkisinining o‘rniga bir so‘z (sinonim) qo‘yish mumkin. Masalan: *ovi yurgan* - omadli; *dili pora* - xafa.

So‘z ma‘nosi ma‘lum xususiyatlarga ko‘ra ko‘chadi. Lug‘aviy ma‘noning asosiy taraqqiyot yo‘llari (ko‘chish usullari) quyidagicha: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (vazifadoshlik), kinoya.

Metafora (grekcha «ko‘chirish»)- bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma‘lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir. *Metafora* - «o‘xshashlik» asosidagi ma‘no ko‘chishi: *oltin kuz, kumush choyshab, fan cho‘qqilari, litsey qaldirg‘ochlari. Po‘lat qilichingni ko‘rganman o‘tda. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.*

Metaforalar shirinsuxanlik tasvirini yaratish vositasi vazifasini ham bajaradi. Masalan, o‘zbek tilida shirinsuxanlikni ifodalash uchun “qo‘zichog‘im”, “bo‘talog‘im”, “asalim”, “chirog‘im”, “oppog‘im”, “jonginam”, “do‘mbog‘im”, turk tilida “şekerim”, “bitanem”, “kuzum”, “yavrum”, “hayatim”, “ruhum”, rus tilida “голубчик”, “котик”, “зайка”, “золотой” ingliz tilida “baby”, “honey”, “dove”, “frog”, “sweet heart” kabi hissiy-ta‘sirchan so‘zlardan keng foydalaniladi.

Metaforalarga juda yaqin bir vosita – o‘xshatishlar bo‘lib, ular yordamida shaxs-pradmetlar bir-biriga o‘xshatiladi, qiyos qilinadi. Unda *-dek, -day, go‘yo, yanglig‘, singari, xuddi* (va b.) kabi shakl va so‘zlardan ham foydalaniladi: *tulkiday ayyor* (o‘zbekcha), *tilki gibi* (turkcha) *хумрый как лиса* (ruscha), *as false as fox* (inglizcha), *you kathi* (koreyscha). Yoki “befahmlik, beso‘naqaylik, qo‘pollik” *ayiqday* (o‘zbekcha), *ayi gibi* (turkcha), *ko‘m kathi* (koreyscha), *как медведь* (ruscha); “kuchli, qo‘rqmas”, “mardlik, jasorat” *arslon kabi* (o‘zbekcha), *aslan gibi* (turkcha); “semirmoq”, “ko‘p ovqat yemoq” *cho‘chqaday* (o‘zbekcha), *As fat as a pig* (inglizcha), *tweji kathi* (koreyscha); “ko‘p ovqat yemoq” *molday* (o‘zbekcha), *so‘ kathi* (koreyscha); “befahm” *eshakday* (o‘zbekcha), *eşek gibi* (turkcha), *как осел* (ruscha) va h.k. etalonlar vositasida ifodalanadi.

Metonimiya grekcha «qayta nomlash» demakdir. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida biri nomining ikkinchisiga ko‘chishi metonimiya hisoblanadi. *Metonimiya* - «aloqadorlik» asosidagi ma‘no ko‘chishidir: *Qishloq chetida samovar ochildi* (samovar-choyxona); *Osmonga tikildi million juft ko‘zlar* (*ko‘z-odam*); *Fuzuliyini oldim qo‘limga*

(Fuzuliyni-kitobini). *Osmonga tikilar million juft ko'zlar.. . (U) Osmon fonarini ham yoqdi shu onda. Zal oyoqqa turdi. Auditoriya sukutda.*

Sinekdoxa grekcha «birgalikda angash» so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. *Sinekdoxa* - butunning nomi bilan qismini, qismning nomi bilan butunni atash. Masalan: *Besh qo'l barobar emas* (qo'l «- «barmoq»); *O'n qo'li hunar (qo'l →barmoq)*. *Besh qo'lini og'ziga tiqdi* (qo'l - «barmoq»); *Shu bitta tuyuq bilan olti bolani boqdim* (tuyuq- «sigir»); *Tirnoqqa zor o'tdi (tirnoq-»farzand)*. *Besh qo'l barobar emas. Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz ... faqat shul Otabekdir, deb yozdi Yusufbek Hoji.*

Vazifadoshlik (*funksiyadoshlik*) - vazifa asosida ma'no ko'chishi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chishi deyiladi: *o'q kotib, pero, qalam, qanot, chiroq* so'zlarida ham vazifaga ko'ra ma'no ko'chishi ro'y bergan.

Kinoya - qochiriq, kesatq ma'nolarida aytilgan o'zgalar «gapi», «so'zi». Kinoya bilan aytilgan so'z qo'shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so'z teskari ma'noda tushuniladi: *Muxtor «a'lochi» o'quvchi (ikkichi)*. «*Matematik*» *sinf doshinning bir nozi algebrani «Suv qilib ichmoqqa» yo'lladi. Bizni «homi» lardan himoya qilg'il, degan sharq xalqida piching - duo bor. Xo'sh janobi oliylari, qaysi sho'rlik xalq Sizning «himoyangiz»ga qolmish intizor.*

Tag ma'no. ifodalangan gapning ko'chma - tag ma'nosi ham bo'ladi. *Xotin: Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasmidi?! Er: Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan.* So'zning har bir ko'chma ma'nosi qo'shimcha uslubiy (modal) ma'no ifodalaydi.

12.2. Frazeologik birliklar tipologiyasi va tarjimasi

Frazeologizm – turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. F. I. Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir.

Asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy o'rganish natijasida frazeologizmlarni quyidagi yo'llar vositasida tarjima qilinganligini ko'rish mumkin:

- to'la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish;
- muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish;
- tasviriy usulda tarjima qilish.

Frazeologizmlarni to'la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish. Turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar.

Tarjimada to'liq ekvivalentga ega bo'lgan frazeologik birliklar deyarli hech qanday muammo tug'dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma'noga, ifoda usuli va ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Koreys va o'zbek tillarining bir oilaga mansubligi, bu tillar sohiblarining turmush sharoitlari o'xshashligi tufayli lafzlaridagi ko'pgina frazeologik birliklar bir-birlariga o'xshash bo'lib, ularning aksariyati bir xil manbalar asosida vujudga kelgan. Jumladan, koreys tilidagi *복네 좋가다 pogne chokkada* (omadi yaxshi chopdi) "ishi o'ngidan kelmoq, yurishmoq, baxti kelmoq" ma'nosida qo'llaniladi. Ayni ma'no va tasvir uchun o'zbek tilida uning *omadi kelmoq, omadi chopmoq* ekvivalentidan foydalanilish mumkin:

복녀는 얼굴이 새빨갳게 되면서 감독에게로 돌아섰다.

"가 보자."

감독은 저편으로 갔다. 복녀는 머리를 숙이고 따라갔다.

"복네 좋았구나."

뒤에서 이러한 조롱 소리가 들렸다 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자,86).

Tarjimasi:

Shunda Ponnyo o'zining ikki yuzi bir lahzada lov-lov yonganini payqadi. U nimanidir tushungandek bo'ldi.

– *Ortimdan yur, – dedi nazoratchi va chetga qarab yurib ketdi.*

Ponnyo, ikki yuzi qip-qizil, boshini xam qilib, unga ergashdi. Ortidan bir ayol quvnoq ovozda:

– *Mana, bugun kimning omadi chopdi! – deganini eshitdi* (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi.

Bir savat batat, 112).

Frazeologizmlarni muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish. Tarjima tilida aslyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o'zaro muqobillik munosabatida bo'ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo'lishi va iste'foda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etishda o'z turmush tushunchalari, urf-odatlar, milliy-falsafiy qarashlari va o'ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi.

Koreys tilida "iljaymasdan, bilinar-bilinmas kulmoq" holatini ifodalash uchun *코웃음을 하다 kousimil hada* (burnida kulmoq) iborasidan foydalaniladi. Mazkur iboraga o'zbek tilida ayni ma'noda qo'llaniladigan *miyig'ida kulmoq* (miyiq shevada mo'ylovni anglatadi) frazeologizmi muqobil bo'ladi. Biroq bu ibora tarjimonning e'tiboridan tushib qolgan va uni *kibr bilan iljayar edi* shaklida tarjima qilgan:

그 겨울도 가도 봄이 이르렀다.

그때 왕서방은 돈 백원으로 처녀 하나 마누라도 사오게 되었다.

"흥."

복녀는 다만 코웃음만 쳤다.

"복녀, 강짜하갔구만."

동네 여편네들이 이런 말을 하면 복녀는 '흥'하고 코웃음을 웃곤 하였다.

내가 강짜를 해? 그는 늘 힘있게 부인하고 하였다. 그러나 그의 마음에 생기는 검은 그림자는 어찌할 수가 없었다 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자,88).

Tarjimasi:

Qish o'tdi. Bahor keldi. Xitoy Van bir qizni yuz vonga xotinlikka sotib olmoqchi emish, degan gap tarqaldi.

Xo'sh, nima bo'пти? Ko'ramiz hali! – dedi buni eshitgan Ponnyo istehzo bilan.

Nahotki, Ponnyoning rashki kelmaydi? – deb pichirlashar edi mahalla xotinlari. – Bo'lishi mumkin emas!

Buni eshitgan Ponnyo faqat kibr bilan iljayar edi. "Him, rashk qilarmishman. Qayoqdagi bir xitoyni-ya. Hecham-da", deya xayolidan o'tkazardi u. Biroq ayni vaqtda ichidan qirindi o'tar edi (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Bir savat batat, 115).

Goho ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o'xshash bo'lib, boshqa so'zlari farq qiladi. Bunday o'zaro muqobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea-hodisa, harakat-holat, xislat-xususiyatning obrazli yoki his-hayajonli ifodasi uchun yaratilgan bo'lib, bir-birlariga to'la mos keladilar. Jumladan, koreyscha *눈에 칼을 세워가지다 nune karil sevokajida* (ko'zida pichoq turg'izmoq) frazeologik birligi "jahli chiqmoq" ma'nosini ifodalaydi va tarkibida "ko'z" komponenti ishtirok etgan *yomon ko'z bilan qaramoq* iborasiga muqobil bo'ladi:

그러나 그 집에서도 얼마 안되어 쫓겨나왔다. 복녀는 부지런히 주인집 일을 보았지만 남편의 게으름은 어찌할 수가 없었다. 만날 복녀는 눈에 칼을 세워가지고 남편을 채근하였지만 그의 게으른 버릇은 개를 줄 수는 없었다 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자,84).

Tarjimasi:

*Ijara haqini vaqtida to'lamaganlari uchun tez orada ularni bu kulbadan ham quvib chiqarishdi. Ponnyo uy egalarining hojatini chiqarish uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi, lekin ularga ijaragirlarning xo'jalik bo'yicha yordami emas, balki naqd pul kerak edi. Ponnyoning yalqov eri ijara haqini to'lashga yetarli pul ishlab topishga urinmasdi. Natijada xotin yalqov eriga **yomon ko'z bilan qarab**, unga ta'na-dashnom bera boshladi (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Bir savat batat, 110).*

Frazeologizmlarni tasviriy usulda tarjima qilish. Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida frazeologik birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'ya qolinadi.

Masalan:

칠성문 밖을 한 부락으로 삼고 그곳에 모여 있는 모든 사람들의 정업(직업, 생업)은 거지요, 부업으로는 도둑질과(자기네끼리의) 매음, 그밖에 이 세상의 모든 무섭고 더러운 죄악이 있었다. 복녀도 그 정업으로 나섰다.

그러나 열 아홉 살의 **한창 좋은 나이**의 여편네에게는 누가 밥인들 잘 줄까 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자,84).

Ushbu parchadagi **한창 좋은 나이** *hanchan cho'in nai* iborasi "ayni gullagan davr, o'ynab kuladigan yoshda" ma'nosida bo'lib, bu asarda o'zbek tiliga *yosh, kuch-quvvatga to'la* so'z birikmasi vositasida tarjima qilingan:

*Bu mahallada yashovchilarning ko'pchiligi tilanchilik qilib kun kechirardi. Bu yer o'g'rilar va tovlamachilar, fohishalar va boshqa jinoiy unsurlar makoni edi. Ponnyo ham ko'p o'ylamasdan ko'chada tilanchilik bilan shug'ullanishga qaror qildi. Ammo bu ishda omadi yurishmadi, chunki **yosh, kuch-quvvatga to'la** ayolga sadaqa berishni hech kim istamas edi (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Bir savat batat, 110).*

Xullas, turg'un birikmalarni tarjima qilish erkin birikmalarni tarjima qilishdan qat'iy farq qiladi. Ko'chma yoki obrazli turg'un birikmalar tarjimasi tarjimondan alohida e'tibor, alohida mahorat talab qiladi. Zero, iboralarning tarkibidagi komponentlar erkin birikmalarnikidan farqli o'laroq alohida ma'no kasb etmaydi. Iboralarning ma'nolari komponentlarning bir butunligidan, yaxlitligidan anglashiladi. Shuning uchun, tarjimon tarjimaga kirishishdan oldin asliyat matnidagi turg'un birikmaning ma'nosini aniq tushunib yetishi va undan so'ng iboraning to'liq ifodasini berish uchun tabiiy ekvivalentni topishi shart.

13-MAVZU

TILLARNING SINTAKTIK TIPOLOGIYASI

(2 soat)

Reja:

1. Sintaksis haqida umumiy tushuncha
2. So'z birikmasi
3. Sodda gaplar paradigmasining qiyosi

Tayanch so'z va iboralar: *sintaksis, so'z birikmasi, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, bitishuv, boshqaruv, moslashuv, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gapning emotsionallikka ko'ra turlari.*

13. 1. Sintaksis haqida umumiy tushuncha

Biz foydalanayotgan til turli birliklardan, vositalardan iborat. Ularning har biri tilda o'zining muhim vazifasini bajaradi. Tahlil qilganda til birliklari ajratiladi, aniqlanadi va izohlanadi. **Sintaksis** yunoncha *syntaxis* so'zidan olingan bo'lib, «yopishtirish», «bog'lash» demakdir. Demak, so'zlarning va gaplarning (qo'shma gap doirasida) o'zaro bog'lanish qonun-qoidalarini, ularning turlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi *sintaksis* sanaladi. Bu bo'lim gapda so'zlarning bog'lanishini –so'z birikmalarini, gap va uning tuzilishi hamda mazmuniy turlarini o'rganadi. Boshqacha aytganda, sintaksis so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limotdir. Har qanday til o'zining nutq tovushlari, so'zlari (iboralari) va qo'shimchalardagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya'ni gap qurilishida namoyon qiladi.

So'zning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmasi va gaplar hosil bo'ladi. So'z birikmalari va gaplar o'z qurilishi va ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi.

Sintaksis so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi bo'limlaridan iborat.

Teng bog'lanish va tobe bog'lanish. Bir so'zning boshqa so'zga ma'lum grammatik vositalar (grammatik qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) orqali bog'lanishi **grammatik bog'lanish** hisoblanadi. So'zlarning o'zaro grammatik bog'lanishi ikki xil:

1. Teng bog'lanish – ikki so'zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanishi: *opam va kitob, uy va tom* kabi. Bir xil gap bo'lagi vazifasida kelib, ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'luvchi bo'laklarning o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog'lanishi *teng bog'lanish* sanaladi: *Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilib... o'tirishardi.*

So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi. So'z qo'shilmalarida har bir so'z ma'no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: *opam va kitob, siz bilan biz* kabi.

So'z qo'shilmalarida so'zlar sanash ohangi (yozuvda vergul) yoki teng bog'lovchilar vositasida birikadi.

2. Tobe bog'lanish – bir so'zning (tobe so'zning) boshqa bir so'zga (hokim so'zga) bo'ysinishi orqali bog'lanishi: *opamning kitobi, uying tomi* kabi. Bir bo'lakning boshqa bo'lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo'shimchalari, ko'makchilar va so'z tartibi va ohang yordamida bog'lanishiga *tobe bog'lanish* deyiladi. Tobe bog'lanish doimo ikki qismdan iborat bo'ladi: tobe qism va hokim qism. So'roq bog'lanib kelgan qism hokim, so'roqqa javob bo'lib keluvchi qism tobe qismdir: *chiroyli (qanday?) ko'ylak, go'zal (qanday?) mamlakat; dalaga (qayerga?) bormoq.*

So'zlarning tobelanish asosida bog'lanishi so'z birikmalarini hosil qiladi va so'z birikmasi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi: *opamning kitobi, qizil gul, uya kirmoq.*

13. 2. So'z birikmasi

Tobe qismning hokim qismga kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi. Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositaning qo'shilish o'rni ikki xil bo'ladi: kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi.

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'langanda, ko'p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo'llanishi mumkin. Natijada kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi vujudga keladi. Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, ular o'rtasida ma'lum ma'no farqlanishi mavjud. Kelishik qo'shimchasi yordamida bog'langanda hokim bo'lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo'nalish nuqtasi aniq, ko'makchi yordamida bog'langanda esa noaniq bo'ladi.

Tobe bo'lak hokim bo'lakka qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'langanda ikki tomonlama bog'lanish ro'y beradi. Tobe bo'lak qaratqich kelishigi qo'shimchasini, hokim bo'lak esa egalik qo'shimchasini oladi. Bunday bog'lanishda tobe qism **qaratqich**, hokim qism **qaralmish** deb ham nomlanadi: *uzumning (qaratqich) sharbati (qaralmish).*

Agar hokim bo'lak sof fe'l bilan ifodalansa va fe'l *kimni? nimani? qayerni?* so'roqlariga javob bo'hivchi so'zni talab qilsa, tobe bo'lak tushum kelishigida qo'llanadi, hokim bo'lak egalik

qo‘shimchasini olgan ot, ba‘zan harakat nomi va sifatdosh bilan ifodalansa, lobe bo‘lak qaratqich kelishigida qo‘llanadi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka boglanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi.

So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi turkumga oid so‘z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo‘linadi: otli so‘z birikmasi, fe‘lli so‘z birikmasi.

Otli so‘z birikmasida hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar (sifat, son, ravish, taqlid so‘z) bilan ifodalanadi: *shaharning ko‘chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug‘ur-chug‘uri, o‘quvchilarning beshtasi, beqiyos o‘lka, katta qishloq.*

Fe‘lli so‘z birikmasida hokim so‘z fe‘l, uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi: *kitobni o‘qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurgan, ohista gapirmoq, ta‘sirli so‘zlab, zavq bilan o‘qimoq.*

O‘zbek tilida so‘z birikmalarining tobe so‘zi, asosan, hokim so‘zdan oldin keladi.

So‘z birikmasida so‘zlarning o‘zaro birikish usullari. Kelishik va egalik qo‘shimchalari hamda ko‘makchilar so‘z birikmalari, so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi.

So‘z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so‘zning hech qanday qo‘shimchasiz, faqat ohang va ma‘nosiga ko‘ra bog‘lanishi **bitishuv** deyiladi: *tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy.*

Tobe so‘zning hokim so‘zga *tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi* qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi **boshqaruv** deyiladi: *do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq.*

Tobe so‘zning hokim so‘zga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi yordamida, hokim so‘zning esa tobe so‘zga egalik qo‘shimchalari yordamida bog‘lanishi **moslashuv** deyiladi: *kitobning muqovasi, xonalarning kattarog‘i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz, universitet hovlisi.*

Bitishuv, moslashuv, boshqaruv usullarini tobe so‘zga qo‘shilgan kelishik shakllariga asoslanib ajratish mumkin:

1. Bosh kelishik: - (bitishuv)
2. Qaratqich kelishik: **-ning** (moslashuv)
3. Tushum kelishigi: **-ni** (boshqaruv)
4. Jo‘nalish kelishigi: **-ga** (boshqaruv)
5. O‘rin-payt kelishigi: **-da** (boshqaruv)
6. Chiqish kelishigi: **-dan** (boshqaruv)

Boshqaruv: *olmani terish, ko‘chaga chiqmoq, maktabda o‘qimoq, ishdan qaytmoq, sayr haqida suhbat.*

So‘z birikmasi va so‘z. So‘z birikmalari ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so‘z–leksik hodisa, so‘z birikmasi–sintaktik hodisadir. So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi. Masalan, *kitob* so‘zi bir narsaning umumlashgan oti bo‘lib, yolg‘iz tushunchani ifodalaydi, *o‘rtog‘imning kitobi* birikmasida esa faqat «kitob» ma‘nosining o‘zi emas, balki «o‘rtog‘imga tegishli kitob» tushunchasi ifodalanadi.

So‘z birikmasi va qo‘shma so‘z. So‘z birikmasida ham, so‘zda ham qismlar bir xildagi so‘z turkumlariga oid bo‘lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bu ularning shakliy o‘xshashligidir. Lekin so‘z birikmasidagi qismlar ma‘no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Qo‘shma so‘z ma‘nosi tarkibidagi qismlarning ma‘nosi orqali anglashiladi. So‘z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo‘shma so‘z qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yo‘qolgan bo‘ladi. So‘z birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida so‘roq berish mumkin: *kitobni* (nimani?) *o‘qimoq, uydan* (qayerdan?) *chiqmoq* kabi. Qo‘shma so‘zlarga esa yaxlit bir savol beriladi: *kungaboqar* (nima?), *kamquvvat* (qanday?).

So‘z birikmasining qismlari o‘z mustaqil so‘z urg‘usini saqlagan bo‘ladi (*uyning eshigi, xatni o‘qidim, tez yugurdi*), qo‘shma so‘z esa umumiy bir urg‘uga ega bo‘ladi (*oq ko‘ngil, bilakuzuk, Yangiqo‘rg‘on*).

Qo‘shma so‘zlarning ko‘pi tarixan so‘z birikmalari asosida yuzaga kelgan.

So‘z birikmasi va turg‘un bog‘lama. So‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi: tushuncha anglatadi, turg‘un bog‘lanma (ibora)lar esa ma‘noviy butunlik uchun birlashgan-yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma‘noni anglatadi.

Turg‘un bog‘lanma (ibora)ga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma‘no ifodalaydi. Masalan, *ko‘zini yog‘ bosgan iborasi* – «mag‘rurlangan», *yog‘ tushsa yalagudek iborasi* – «toza», *to‘nini teskari kiyib olmoq iborasi* – «qaysarlik qilmoq» ma‘nosini beradi, ammo bu ma‘nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

So‘z birikmalari zanjiri. Gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobeltangan, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir nechta hokim so‘zga aloqador bo‘lgan hollarda so‘z birikmalari zanjiri hosil bo‘ladi. So‘z birikmasidagi tobe va hokim so‘zlar orasida bir necha boshqa so‘zlar va so‘z birikmalari kelishi mumkin.

So‘z birikmasi va gap. So‘z birikmasi ham, gap ham so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So‘z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa ma‘lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllanadi.

13. 3. Sodda gaplar paradigmasining qiyosi

Sintaksis qurilishi tipologiyasi ham tillarni qiyoslab o‘rganishda ancha samarali bo‘lishi mumkin. Qiyoslash mezonlarini izlash tipologik tilshunoslik uchun dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Tillarni qiyoslash uchun etalon vazifasini o‘tay oladigan modelni yaratish universallik talablarini qoniqtiribgina qolmasdan, muhim farqlovchi belgilarni unchalik muhim bo‘lmaganlaridan chegaralashni ham ko‘zda tutadi.

Tipologik sintaksisni yaratishdagi eng katta qiyinchilik shundaki, umuman olganda, gap qiyoslashning yetarlicha aniq va qat‘iy birligi bo‘la olmaydi. Turli strukturaga ega bo‘lgan tillarda gapning hatto asosiy xususiyatlari hamda sub‘ekt va predikat munosabatlarining grammatik ifodasi tipi ham sezilarli darajada farqli bo‘lishi mumkin (Langacker 1987: 310-312).

So‘z sinflarining funksional qo‘llanilishi ushbu so‘zlar birikishi vositasida sintaktik guruhlar – so‘z birikmalari yasalishi bilan gap strukturasi bog‘liqdir. Shuning uchun ham tipologik qiyoslash uchun formal va funksional xususiyatlarga ega bo‘lgan va gapdan ko‘ra kichikroq strukturani tanlab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday qilib, turli-tuman ikki bo‘lakli strukturalarni va ularning ro‘yxatini aniqlash tilshunoslar e‘tiborini o‘ziga qaratishi lozim. Sintaktik binomlar strukturasi, turli tillarda u yoki bu tiplarning takrorlanish darajasi va ularning sintaktik kengayish imkoniyatlari yetarlicha yoritilmaganligi shubhasizdir. Shu bilan birga strukturaviy tipologiya muammolari nafaqat nazariy, balki bevosita amaliy ahamiyat kasb etadi (Langacker 1988: 80-81).

So‘z birikmalari strukturasi morfologik kategoriyalar va til lug‘at tarkibining leksik-grammatik tasnifiga asoslanib tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Shu o‘rinda tipologik tahlilda yakka faktlarni emas, balki tilning alohida hodisalari o‘zaro bog‘langan «kichik tizimlar»ni taqqoslash foydaliroq ekanligini aytmoqchimiz. Shuning uchun ham strukturaviy tadqiqotlar tildagi shakl va belgilar distributsiyasini aniqlash bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Turli tillar materiallari tahlilida mavhum o‘lcham sifatida aniqlangan sintaktik modellar har bir alohida olingan til strukturaviy xususiyatlariga nafaqat ularning strukturaviy, balki sifat-funksional belgilari asosida ham «bog‘lanishi» lozim. Bunda sifat belgisi tushunchasi katta o‘rin tutadi. Har bir muayyan tildagi morfologik va sintaktik kategoriyalar muvozanati, grammatik kategoriyalarning paradigmatic jihatdan birikkanligi, qator turli-tuman transformatsiyalar darajasi va sig‘imi tilning tipologik xususiyati haqida ahamiyatga molik material berish imkoniga egadir. Kelgusi tipologik qiyoslash uchun asos bo‘la oladigan belgilar asosida til tizimining dastlabki tavsifini amalga oshirish va, bir tomondan, tillarni tipologik qiyoslashning maqsadlari, ikkinchi tomondan, tillarni tipologik tasniflashni farqlay bilish muhim hisoblanadi.

Tasnif uchun qanday strukturaviy belgi asos qilib olinishiga qarab, dunyo tillarining bir emas, bir nechta klassifikatsiyasi berilishi mumkin (Langacker 1997:250). Masalan, nemis tili sodda gaplaridagi fe‘l-obyekt munosabatlarining strukturaviy-sintaktik, kompozision va semantik xususiyatlari predlog-ot guruhi funksiyasi bilan bog‘liq. Predlog-ot guruhi kengaytiruvchi va

kengayuvchi elementlarga bo‘linadi. Elementlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar guruh darajasida, butun guruhning funksional o‘rni esa gap darajasida aniqlanadi. Shuningdek, ushbu guruhning prepozision kengayishi uning asosiy komponentlari S1 va S2 (substantiv 1 va 2) doirasida va tegishlilik asosida amalga oshiriladigan «A» elementi ishtirokida ko‘rib chiqadi. S1 va S2 komponentlari predlog-ot guruhining tashkil qiluvchilari bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham grammatik, ham semantik jihatdan boshqa otlarga nisbatan prepozision o‘rinni egallab, ularga tobe bo‘ladi. «A» elementining mavjudligini hisobga olgan holda S1 va S2 komponentlari tegishlilik va aniqlanuvchilik holatida namoyon bo‘ladi. «A» elementi ikki ot o‘rtasida kelganda, «tartibga solish holatlari ko‘rib chiqiladi (Nusharov 1985: 4-11). Xuddi shu asosda gapning sintaktik-semantik tuzilishini ham tahlil qilish mumkin.

Umuman, sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi – morfologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Morfologiya va sintaksis bir-birini to‘ldiradi. Sintaktik kategoriyalar ko‘pincha morfologiya bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, sodda gaplar paradigmasi morfologik kategoriyalar asosida bayon qilinadi. Ba’zi til hodisalari /kelishiklar, yordamchi so‘zlar/ ham morfologiyada, ham sintaksisda o‘rganiladi. Buni quyidagi turk, o‘zbek va ingliz tillaridagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

Tense

***Past Tense* /-DI/ and /-mIʃ/**

These suffixes express both past tense and perfective aspect. They express past events which have been completed as a whole. /-mIʃ/ is also referred to as relative past tense marker.

(1) Sinemaya git-ti-m. Kinoga bor-di-m.

cinema go-past-1.person singular

‘I went/have gone to the cinema’

(2) Ali bu kitabi oku-muʃ. Ali kitobni o‘qi-bdi.

Ali this book read-evidential past

Apparently Ali read/ has read this book.

/(y)DI (copula < -idi)

Expresses past tense (examples 3 and 4), and can combine with other endings to show imperfective (incomplete, ongoing) aspect (example 5). It can also combine with /-mIʃ/, relative past marker, and can show a time prior to any reference point established by the context (example 6).

(3) Indianapolis-te-ydi-k. Indianapolis-da-ydi-k.

Indianapolis-locative-past copula-1 person plural

‘We were in Indianapolis’.

(4) Para yok-tu. Pul yo‘q edi.

Money non existent-past copula

‘There was no money’

(5) Ali Almaniya-da ʃalış-iyor-du. Ali Germaniya-da ishla-yap-gan-di.

Ali Germany-locative work-imperfective-past copula

‘Ali was working in Germany’.

(6) Ev-e gel-diğ-im-de misafirlar git-miʃ-ti. Uyga kelganimda mehmonlar ket-ish-gan-di.

Home-dat. come-participle-possessive-locative guests go-perfective-past

‘When I came home the guests had gone’.

Present Tense

In Turkish present tense is indicated most commonly by a marker for progressive aspect /-(I)yor/, and less commonly with /-mAktA/

(7) Ali banka-da çalış-ıyor. Ali bank-da ishla-y-di.

Ali bank-loc. work-pogressive

‘Ali works/is working at a bank’.

Future Tense

It is expressed by /-(y)AcAK/ but it expresses tense in relative terms rather than absolute.

(8) Bu pilav-i çok sev-ecek-sin. Bu palovni juda yoqtirib qolasan.

This pilaw-acc. much love-future-2nd person

‘You will love this pilaw’.

With nominal sentences, use auxiliary /ol-/ for copula.

(9) Yarın hava güzel ol-acak. Ertaga havo yaxshi bo‘l-a-di.

Tomorrow weather nice will be

‘Tomorrow the weather will be nice’.

/-(I)yor/ is also used for future talking about events which are fixed or scheduled.

(10) Yarın New York-a gid-iyor-uz. Ertaga Nyu-York-ka ket-a-miz.

Tomorrow New York-dat. go-progressive-1.person plural

‘Tomorrow we are going to New York’.

Aspect. Remember that Aspect expresses the temporal viewpoint from which a situation is presented. (a) IF the event is viewed from outside, as a completed whole, with both starting point and ending point visible = Perfective Aspect. (b) IF the event is viewed from inside, as being incomplete and ongoing at the time in question = Imperfective Aspect.

ALSO, Imperfective forms are used to present any situation as occurring habitually, or as a general rule or pattern. Perfective Aspect is expressed by the verbal suffixes /-DI/ and /-mİŞ/, and Imperfective Aspect is expressed by /-(I)yor/, /-mAktA/, and /-(A/I)r and the copula marker /-(y)DI/.

Perfective

(11) Geçen hafta her gün çalış-tı-m. O‘tgan hafta har kuni ishla-di-m.

Work- perfective-1SG

‘Last week I worked every day’.

(12) Her gün çalış-mış-ım. Har kuni ishla-gan-man.

Work-evidential/ Perfective – 1SG

I seem to have worked everyday.

Imperfective

A. Progressive Imperfective. Applies both in past and non-past contexts. Progressive views a specific situation as incomplete. The event is presented as ongoing or continuing, at the temporal reference point.

/-(I)yor/ /-mAktA/

(13)

a) Şimdi ne yap-ıyor-sunuz? = Hozir nima qil-yap-siz? = What are you doing now?

b) Şimdi yemek yi-yor-uz. = Hozir ovqat yi-yap-man. = Now we are eating.

(14) Bugün toplum hızla değiş-mekte-dir.= Hozir jamiyat tez o‘zgar-moqda. = Today the society is changing rapidly.

(15) Dün saat 3'de çalış-ıyor-du-m. (< çalışıyor idim) = Kecha soat 3da ishla-yot-gan-di-m.
Yesterday hour 3-loc. Work-imperfect present- past copula – 1SG
'Yesterday at 3 o'clock I was working'.

B. Habitual Imperfective. Indicates that a situation is incomplete in a different way: not at the level of any specific occurrence but in the sense that it is a part of a recurrent pattern, which is shown as ongoing at the temporal reference point. /-(I)yor/ (less formal); /-mAktA/ (intensity of the event is expressed; also formal).

(16) Ben genellikle üniversite-ye otobüs-le gid-iyor-um. = Men odatda universitet-ga avtobus-da bor-a-man.

I usually university-dat. bus-instrumental go-imperfect-1stSG
'I usually go to the university by bus.'

(17) Özbekistan genellikle pamuk ihraç et-mekte-ydi. (<etmekte idi) = O'zbekiston asosan paxta eksport qil-ar-di.

Uzbekistan mostly cotton export auxiliary-imperfect-past copula
'Uzbekistan would mostly export cotton'.

(18) O zamanlar-da buralar-da silah yap-ıl-ır-dı. (<yapılır idi)

That times-loc. here-loc. gun make-passive-aorist-past copula
'During those times guns used to be manufactured here.'

14-MAVZU CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK (2 soat)

Reja:

1. Chog'ishtirma tilshunoslikning mohiyati
2. "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tillarning chog'ishtirib o'rganilishi

Tayanch so'z va iboralar: *chog'ishtirma tilshunoslik, chog'ishtirma leksika, chog'ishtirma grammatika, chog'ishtirma tadqiqot, til darajalari, o'xshashliklar, farqlar, chog'ishtirish obykti, chet tillarini o'qitish, chog'ishtirish metodi, izohli lug'at, ko'p tilli lug'at, M.Koshg'ariy, turkiy tillar.*

14. 1. Chog'ishtirma tilshunoslikning mohiyati

Chog'ishtirma tilshunoslik dastlab asosan leksika sohasida rivojlandi. Matnlar uchun glossariylar tuzilib, qiyin so'zlar ona tiliga tarjima qilindi. Shu tariqa ona tilining so'z boyligi yangi so'zlar va ma'nolar hisobiga oshirildi. Endilikda leksikani chog'ishtirib o'rganish mumkin bo'ldi. Leksikada uchta kategoriya ajratildi: ona tilining o'z so'zlari, o'zlashma so'zlar va mumtoz tillar leksikasi. Keyinroq grammatik tizimlar sohasida chog'ishtirma tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

Chog'ishtirma tilshunoslikning obykti qarindosh yoki qarindosh emasligi va tipologik xarakteristikasiga qaramay tillarni o'rganish hisoblanadi. Chog'ishtirma tilshunoslikning maqsadi – ikki yoki bir qancha tillarni uning butun darajalari (fonologik, morfologik, sintaktik va semantik darajalari)dagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash uchun chog'ishtirib o'rganadi.

Chog'ishtirilayotgan tillardan biri ba'zan etalon til (yoki tarjimashunoslikda manba til, source language), deb ataladi. Odatda, tadqiqotchining ona tili manba til vazifasini o'taydi. U bilan chet tili (target language) chog'ishtiriladi. Mazkur tillarning o'xshash va asosan, farqli jihatlari

aniqlanadi. Chog‘ishtirish chet tilidan ona tiliga yo‘naltirilgan holda ham amalga oshirilishi mumkin. Chog‘ishtirish obyekti sifatida uchta til ham olinishi mumkin. Chog‘ishtirma tilshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosan chog‘ishtirish metodidan foydalaniladi.

Chog‘ishtirish metodi – ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarni o‘zaro qiyoslab, chog‘ishtirib o‘rganadi. Ushbu xususiyatga ko‘ra mazkur metod faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o‘rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, bir qancha tillarga oid chog‘ishtirilayotgan, taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda, tavsiflashda, tillararo o‘xshash (analogik) hodisalardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning – chog‘ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e‘tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.

Chog‘ishtirish metodi qayd etilgan o‘ziga xos jihatlariga, tomonlariga ko‘ra u muayyan bir til tabiatiga, tuzilishiga, tarkibiga xos xususiyatlarni tavsiflash uchun xizmat qiladigan tasviriy metoddan ham farq qiladi.

Tillarni chog‘ishtirish metodi asosida o‘rganish natijasida ularning fonetik va leksikografik xususiyatlari, tomonlari atroflicha yoritiladi, ma‘lum bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida qiyosga asos bo‘lgan tillarning tuzilishini, ichki tomonlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Chog‘ishtirish metodi, ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda ham keng qo‘llaniladi. Demak, mazkur metod nafaqat nazariy fikr va qoidalarni belgilash uchun, balki amaliy maqsadlar uchun ham faol xizmat qiladi. Shuningdek, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog‘ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi. XVII-XVIII asrlardayoq tillarni chog‘ishtirish orqali o‘rganish ikki tilli lug‘atlarning, barcha tillar uchun umumiy grammatikalarning yaratilishiga olib keladi.

Demak, tillarni o‘zaro chog‘ishtirish, taqqoslash har bir tildagi o‘rganilayotgan hodisalarning nafaqat o‘ziga xos jihatlarini, balki ularning umumlisoniy yoki individual lisoniy jihatlarinin aniq yoritib berish imkonini beradi.

Shu bilan birga, chog‘ishtirish metodining o‘ziga xosliklari quyidagilar bilan ham belgilanadi:

1. So‘zlarning turli-tuman qo‘shimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so‘z va qo‘shimchalarni farqlash.

2. Sheva va o‘zaro yaqin bo‘lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mos kelishlarni tavsiflash.

3. Qat‘iy belgilangan adabiy til me‘yorlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish hamda o‘rgatish metodikasini shakllantirish.

4. Rasmiy diniy til, talaffuz, imlo bilan shevalar va boshqa tillar orasidagi farqlarni ilg‘ay olish va chog‘ishtirma – bir tilda ifodalanadigan ma‘no yoki vazifani boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishi mumkinligini aniqlash ustida izlanishlar olib borish.

5. Bir tilli (izohli) va ko‘p tilli lug‘atlarni tuzish.

Shuningdek, prof. H.Ne‘matovning ma‘lumot berishicha, arab tilshunosligi yutuqlari va an‘analarida ta‘lim olgan Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Abu Hayyon, Ibn Muhanna kabi turkiyshunoslarning ham asarlarida shu tahlil usulidan foydalanishgan, shu asosda turkiy tillar tavsiflarini berishgan.

X-XIV asrlarda arab (islom) tilshunosligi doirasida shakllangan va rivojlangan eronshunoslik va mo‘g‘ulshunoslikda ham yetakchi tadqiq usuli qiyosiy-chog‘ishtirishma metod edi.

XIX-XX asrlarda turkiy xalqlar va ularning tillari rus davlati va tili bilan yaqin munosabatlarga kirishgach, turkiy va rus tillarini qiyosiy-chog‘ishtirishma o‘rganish jarayonida bu metod zamonaviy (o‘z davri) tahlil va tavsif talablari bilan mukammallashtirildi va sovet chog‘ishtirma tilshunosligida ma‘lum bir taraqqiyot bosqichini belgiladi – 1930-70-yillarda rus tilshunosligida rus va muayyan turkiy tillarni, milliy turkiyzaabon tilshunosliklarda (o‘zbek, tatar, boshqird, qozoq, ozarbayjon, chuvash v.h. tilshunosliklarida) milliy turkiy tillar va rus tili qurilishini chog‘ishtirma o‘rganish yo‘nalishlari rivojlandi.

14. 2. “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy tillarning chog‘ishtirib o‘rganilishi

Mahmud Koshg‘ariy O‘rta Osiyoning XI asrida yashab ijod etgan buyuk allomasidir. U turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va leksikologiyasiga asos soldi, fonetikasi bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar qoldirdi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy tilshunoslikning ensiklo-pediyasi hisoblangan mashhur «Devonu lug‘atit turk» («Turkiy so‘zlar devoni») asarini yaratdi. Shuningdek, shu kungacha topilmagan «Javohirun nahv fi lug‘atit turk» («Turkiy tillar sintaksisining javohirlari») nomli asarini ham yozgan.

Arab tilidan K.Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, 1928-yilda Leypsigda, Bosim Atalay tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, 1939-yilda Anqarada nashr qilingan «Devonu lug‘atit turk» asari prof. S. Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilib, 1960-1963-yillarda Toshkentda nashrdan chiqdi.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni» akad. A.N.Kononov, prof. H.Ne‘matov, prof. F. Abdullaev, prof. S.Usmonov, prof. A.Kondrashov, prof.A.Nurmonov va boshqalarning taxminicha 1072-1078; 1078-1083; 1071-1073; 1073-1074; 1076-1077-yillarda yozilgan. Xulosa bitta, asar XI asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik maydoniga kirib kelgan.

Tilni kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida, jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko‘zgu sifatida tushungan Mahmud Koshg‘ariy o‘zining mashhur «Devon»ida aynan bir davrga oid bo‘lgan turlicha turkiy tillar hodisalarini, faktlarini sinxron-qiyosiy metod asosida solishtiradi, taqqoslaydi. Chunki o‘sha davrda aynan mana shu metod arab tilshunosligida juda keng tarqalgan bo‘lib, bu arab tilining ko‘p shevali til ekanligi xususiyatidan kelib chiqadi.

«Devonu lug‘atit turk» asarida turkiy tilshunoslik tarixida birinchi marotaba turkiy til va dialektlarning tasnifi ham beriladi.

Xullas, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devon»i bilan sinxron-qiyosiy tilshunoslikka asos soldi, ayni tilshunoslikning buyuk vakili sifatida tanildi.

Mahmud Koshg‘ariy sinxron-qiyosiy metod bilan qurollangan holda turkiy qabilalarni kezib, asosiy diqqat-e‘tiborini ularning tillaridagi umumiy va farqli xususiyatlarga qaratadi. Shuningdek, u turkiy qabilalarning joylashish o‘rni haqida ham qimmatli, asosli jo‘g‘rofiy ma‘lumotlar beradiki, bu «Devon»dagi faktlarning, fikrlarning, qarashlarning ob‘ektivligini ta‘minlaydi. Aytilganlar «Devon»ning juda katta mehnat evaziga yaratilganligidan xabar beradi.

Tilshunoslikning barcha sathlari bo‘yicha qiyosiy tadqiqot ishlarini olib borgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devon»i muqaddima va lug‘at qismlaridan tashkil topadi.

«Devon»ning kirish qismida asarning tuzilishi haqida, shuningdek, Shimoliy Xitoydan tortib, butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxorogacha tarqalgan katta hududdagi urug‘lar, qabilalar va ularning tillari haqida, bu tillarning fonetik va grammatik xususiyatlari haqida ma‘lumotlar beriladi.

«Devon»ning asosiy lug‘at qismida esa 9 mingga yaqin turkiy so‘z arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida muhim fikrlar bayon qilinadi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar – so‘zlar fonetikasi – tovushlar haqida fikr yuritir ekan, tovushlarni harflardan qat‘iy farqlaydi, tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari haqida fikr yuritadi. U arab yozuvi sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini aytib, arab yozuviga yangi belgilar kiritadi. Aniqrog‘i, arab yozuvidagi 18 harfni – shu harflardan yettitasi ustiga maxsus qo‘shimcha belgi qo‘yish orqali 25 taga yetkazadi. Natijada 25 ta tovush o‘zining yozma - harf shakliga, ifodasiga ega bo‘ladi.

Alloma undosh tovushlar haqida gapirib, undoshlarning sodda va murakkab bo‘lishi, jarangli va jarangsizligi, qattiq va yumshoqligi, undoshlarning ketma-ket kelishi: katta, oppoq (geminatsiya) – kabi masalalarga to‘xtaladi. Shuningdek, u singlarizm, tovush tushishi, almashinishi, assimilyatsiya, metateza, reduksiya kabi bevosita tovushlar bilan bog‘liq fonetik jarayonlar haqida ham fikr yuritadi.

Mahmud Koshg‘ariy til va nutqning asosiy birligi bo‘lgan so‘z masalasiga leksikolog, semsiolog, leksikograf sifatida to‘xtalar ekan, bunda u asosiy diqqat-e‘tiborni tilshunoslikning eng

muhim va eng murakkab masalalaridan biri bo'lgan so'z ma'nosiga, so'zning ko'p ma'noliligiga, so'z ma'nosining ko'chishiga, so'z ma'nosining izohi kabi o'ta jiddiy masalalarga qaratadi. Ya'ni olim «Devon»da so'zning muayyan ma'no angla-tishdek eng muhim xususiyatidan kelib chiqib, so'z ma'nosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan omonimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari haqida, so'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq bo'lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik kabi ma'noning ko'chish usullari haqida, so'z ma'nosining kengayishi va torayishi haqida fikr yuritadi, turkiy tillardan qator misollar keltiradi, fikrini isbotlaydi. Masalan, «Devon»da o't so'zi omonim sifatida qayd etiladi va quyidagi omonimik ma'nolarda qo'llanilishi aytiladi. Qiyoslang: *o't-dori* (u dori tomirdi); *o't-o'simlik* (qo'y o'tni yeb tugatdi). *Erik* – eriydigan, eruvchan (masalan, yog' va boshqa eriydigan narsa); *erik* – chaqqon, yo'rg'a (masalan, chaqqon, g'ayratli odam, yo'rg'a ot).

Mahmud Koshg'ariy antonim so'zlarga ham to'xtalib, *chivgin* (to'q tutuvchi, semirtiruvchi, kuchli, masalan, ovqat) so'zining ma'no zidi – antonimi sifatida *kevgin* (to'q tutmaydigan, kuchsiz, masalan, ovqat, osh) so'zini keltiradi. Ya'ni so'zlarning biri «kuchli» (ko'p quvvatli) ma'nosini bersa, ikkinchisi «kuchsiz» (kam quvvatli) ma'nosini anglatadi.

Muallif «Devon»da sinonimik munosabatdagi so'zlar sifatida quyidagilarni qayd etadi: *ishlar*, *urag'ut*, *o'xshag'u* (xotin kishi ma'nosida); *o'pdi*, *ichdi* (ichmoq ma'nosida); *ilishdi*, *asishdi* (osmoq ma'nosida).

Mahmud Koshg'ariy metafora-o'xshashlik asosida ma'no ko'chishiga tug'moq fe'lini keltiradi. Ya'ni ushbu so'z faqat insonga nisbatan emas, balki qo'llanish vaqti jihatdan ancha keyin, tashqi o'xshashlik asosida, hayvonga nisbatan ham ishlatilishi haqida ma'lumot beradi.

U ma'no ko'chishining metonimiya usuliga to'xtalib, *bulut*, *osmon* va *og'il* so'zlarini keltiradi. Ya'ni *bulut*, *osmon* so'zlari yomg'ir ma'nosida qo'llansa, *og'il* so'zi go'ng, qiy ma'nosida ishlatilishini aytadi.

Alloma ma'noning kengayishiga *tug'moq* so'zini keltirib, bu so'z faqat odamlarga nisbatan emas, balki keyinchalik hayvonga nisbatan ham qo'llanganligini aytadi. Bundan so'zning qo'llanish qamrovi, muayyan predmet bilan bog'lanishi, uni anglatish faolligi kengayganligi ma'lum bo'ladi.

So'z ma'nosining torayishi sifatida esa *sobon* so'zini keltirib, ayni so'zning qo'shga nisbatan ham, omochga nisbatan ham - har ikkala boshqa-boshqa predmetlarga nisbatan ishlatilgani, so'ng esa faqat omochni anglatish uchun qo'llanishini tushuntiradi.

«Devon»dagi morfologiyaga oid tadqiqotlarga kelganda, asarda so'zlar, o'sha davr arab tilshunosligi an'alariga ko'ra, uch turkumga ajratiladi. Ya'ni bular ot, fe'l va yordamchi so'zlar. So'z turkumlaridan, ayniqsa, fe'l bilan bog'liq qator masalalar atroflicha o'rganiladi. Bunda u fe'l yasalishi, fe'l nisbatlari, fe'l mayllari, fe'l zamonlari masalasiga alohida e'tibor beradi, qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Xullas, Mahmud Koshg'ariy o'z davrining ulkan tilshunosi sifatida jahon tilshunosligi tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk allomadir.

15-MAVZU KONTRASTIV LINGVISTIKA (2 soat)

Reja:

1. Kontrastiv lingvistikaning tilshunoslik fanlari paradigmasida tutgan o'rni
2. Kontrastiv lingvistika va tarjimaning o'zaro munosabati

Tayanch so'z va iboralar: *kontrastiv tilshunoslik, konfrontativ lingvistika, tipologik imitatsiya, tarjima, tarjimashunoslik, xorijiy tillar, tillararo aloqa, grammatika sathi, leksika sathi, sistematik qiyoslash, kontrastiv tadqiaot, tasvirlash, qiyoslash, chog'ishtirish, tafovutli hodisalar, lisoniy model, tertium comparationis.*

15. 1. Kontrastiv lingvistikaning tilshunoslik fanlari paradigmasida tutgan o‘rni

Qiyosiy tilshunoslik negizida shakllangan kontrastiv lingvistika 1960-yillarda rivojlana boshladi. Kontrastiv lingvistika nazariy va amaliy tilshunoslikning kesishma nuqtasi hisoblanadi.

Bolgar tilshunosi Roman Bugarskining kontrastiv lingvistikaga “nazariy va amaliy maqsadlarda amalga oshiriladigan ikki yoki undan ortiq til variantlari strukturasi va qo‘llanishidagi o‘xshash va farqli jihatlarni sistematik sinxron tadqiq etadigan fan”, deb ta’rif bergan.

Kontrastiv lingvistikaning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1) tipologik imitatsiya, ya’ni bir til sistemasini tasvirlashning boshqa til sistemasida mavjud bo‘lgan tasvir asosida amalga oshirilishi;

2) tillarni qiyosiy va chog‘ishtirib o‘rganadigan ilmiy tadqiqotlarning yuza kelishi;

3) tarjima va tarjimashunoslik fanlarining rivojlanishi;

4) leksikografiyaning rivojlanishi;

5) xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi;

6) tillararo aloqalarning rivojlanishi.

“Kontrastiv lingvistika” termini bilan bir qatorda, mazkur fanni ifodalashda “qiyosiy tilshunoslik” yoki “konfrontativ lingvistika” terminlari ham qo‘llaniladi.

“Qiyosiy tilshunoslik” termini dastlabki qiyosiy tadqiqotlar boshlangan davrlarga xos bo‘lib, kontrastiv lingvistikaning bugungi kundagi zamonaviy bosqichida undan kam foydalaniladi.

“Konfrontativ lingvistika” termini “kontrastiv lingvistika” termini bilan parallel ravishda L. Zabroki tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, undan Sharqiy Yevropa tilshunosligida keng istifoda etiladi.

Kontrastiv lingvistikaning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Ikki yoki undan ortiq tillarning grammatika sathidan leksika sathigacha bo‘lgan sistematik qiyoslashni o‘z ichiga oladi.

2. Kontrastiv tadqiqot uch bosqich: tasvirlash, qiyoslash va chog‘ishtirishdan tarkib topadi. Dastlab mazkur tillardagi aniq tafovutli hodisalar tasvirlanadi. Keyin ushbu tasvir ular orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash uchun qiyoslaniladi. Vanihoyat, aniqlangan tafovutlar tillararo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muvofiqliklarni belgilash uchun qarama-qarshi qo‘yiladi. Kontrastiv lingvistikada birinchi navbatda tillar o‘rtasidagi tafovutlarga e’tibor qaratiladi.

3. Mazkur tillarning lisoniy tasvirini har qanday lisoniy model asosida amalga oshirish mumkin, biroq aynan shu model har ikkala holatda ham qo‘llanilishi kerak. Kontrastiv lingvistikada boshqa metodlar ham ishlatilishi mumkin.

4. Kontrastiv lingvistikada *tertium comparationis* (qiyoslash asosi) termini markaziy o‘rinni egallaydi, binobarin, ushbu mezondan faktik qiyoslash uchun foydalaniladi. Turli tadqiqotchilar kontrastiv tahlilning asosi sifatida ikki tilga tegishli bo‘lgan turli jihatlarni ko‘rsatishadi. Aksariyat hollarda bunday mezon sifatida ekvivalentlik, xususan, tarjima muqobilligi qo‘llaniladi.

Kontrastiv lingvistika vujudga kelishining dastlabki o‘n yilligida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi va unga ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish vositasi sifatida katta umid bilan qaraldi. Biroq 1970-yillarning oxiriga kelib, olingan natijalarning ishonchsizligi va maktabdagi har qanday chet tili o‘qituvchisining ishidan juda kam farq qilishi ma’lum bo‘lib qoldi. Kontrastiv lingvistikaga bo‘lgan qiziqish pasayib ketdi. Faqat 1990-yillarga kelib, yangi elektron vositalar, xususan, kompyuter matn korpuslarining yaratilishi bilan kontrastiv lingvistikaga yana qiziqish kuchaydi.

Katta hajmdagi avtomat matnlarning mavjudligi kontrastiv lingvistika diqqat-e’tiborini keng ma’nodagi lingvistik sistemalardan til qo‘llanishining aniq jihatlarga, shuningdek, statistik lingvistik tasvirdan dinamik tasvirga o‘tishiga olib keldi.

15. 2. Kontrastiv lingvistika va tarjimaning o‘zaro munosabati

Kontrastiv lingvistika maktabi vakillarining aksariyati yashirin yoki oshkora tarzda tillararo munosabatlarni belgilash vositasi sifatida tarjimadan foydalanishgan. Shunga qaramay, kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o‘zaro munosabati haligacha munozarali bo‘lib kelmoqda. O‘tgan davr ichida mazkur fanlar orasidagi aniq chegara belgilanmay kelindi. Xususan, Ya.I.Reskerning “Ona tiliga tarjima qilishda obyektiv qonunlarga asoslangan muvofiqliklar haqida”, deb nomlangan maqolasida birinchi marta tarjima lingvistik nazariyasining asosiy qoidalari hisoblangan ob’ektiv qonunlarga asoslangan muvofiqliklar nazariyasi shakllantirilgan edi: “Tarjimoni... barqaror lingvistik asossiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu asos til hodisalarini qiyosiy o‘rganish hamda asliyat va tarjima tili o‘rtasidagi muayyan muvofiqliklarni belgilashdan iborat bo‘lishi kerak. Leksika, frazeologiya, sintaksis va stilistika sohasidagi bunday muvofiqliklar tarjima nazariyasining lingvistik asosini tashkil etishi lozim”. Ko‘rinadiki, tillar va lisoniy hodisalarni qiyoslash tarjimaning lingvistik nazariyasi bilan deyarli bir xillik kasb etadi.

Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o‘zaro munosabatiga bunday qarash haligacha tarjimaning barcha muammolarini asliyat va tarjima tilidagi alohida leksik birliklar, morfologik kategoriyalar va sintaktik konstruksiyalarning munosabatlariga borib taqaladigan ayrim nazariyalarda o‘z aksini topmoqda. Aslida tarjima nazariyasi kontrastiv lingvistika bilan emas, balki uning bo‘limlaridan biri bilan bir xillik kasb etadi. Bu haqida L.S. Barxudarov shunday yozadi: “... shuni ta’kidlash mumkinki, tarjimaning lingvistik nazariyasi – “matnning qiyosiy lingvistikasi”dan boshqa narsa emas”.

E.Koseriuning “Kontrastiv lingvistika va tarjima: ularning o‘zaro munosabati” nomli maqolasida tillarning kontrastiv tahlili til ichki tuzilishining turli sathlarida, xususan, til me‘yori (til funksiyalarini odatiy, an’anaviy amalga oshirish), til turi (tilning ichki tuzilish tamoyillari, funksional kategoriyalarini o‘zaro munosabatlarini ko‘rib chiqish), til sistemasini (funksional oppozitsiyalar va ular bilan bog‘liq paradigmatic guruhlar) kabi sathlarda amalga oshishi mumkinligini ta’kidlanadi. E.Koseriuning fikricha, faqat til turi va til sistemasiga yo‘naltirilgan kontrastiv lingvistika tarjima uchun cheklangan qimmatga ega bo‘ladi. Buni tarjimada gap funksional kategoriyalar va funksional birliklar haqida bormasligi bilan tushuntirish mumkin. Boshqa tomondan, kontrastiv lingvistika funksional birliklar qo‘llanishini tadqiq etadigan til me‘yori sathida tarjima jarayoni kechadigan sohani qamrab oladi va u bilan bir xillik kasb etadi.

Kontrastiv lingvistika A va V tillarning funksional birliklari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tadqiq etar ekan, tarjima nazariyasini shakllantirish uchun zarurat bo‘lgan poydevorni yaratadi. Tarjima texnologiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan tarjima transformatsiyalarining aksariyati oxir oqibatda tillarni tarjima qilish jarayonida bir-biri bilan “to‘qnashadigan” funksional-struktur tafovutlarga borib taqaladi. Aksariyat holatlarda kontrastiv lingvistika ma’lumotlari va tarjima nazariyasi ma’lumotlari o‘rtasida sababiy aloqa kuzatiladi. Bunda kontrastiv lingvistika ko‘p holatlarda nima uchun tarjimada u yoki bu amal bajariladi degan savolga javob beradi.

Agar kontrastiv lingvistika A va V tillarni o‘rganishga “qiyoslanilayotgan tillar strukturasidagi birliklarning shakllari va ma’nolarini muntazam chog‘ishtirish”, nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsa, tarjima nazariyasi asos matnlar bilan bir qatorda, turli til muloqotchilari orasidagi ijtimoiy-madaniy va psixologik farqlarni, shuningdek, tarjima jarayonidagi qator ijtimoiy-madaniy va psixolingvistik determinantlarni ham e’tiborga oladi. Bunda tarjimaning lisoniy kodlar oddiy almashinuvi emas, balki boshqa madaniyat orqali matnni qabul qilishdagi moslashuv hisobga olinadi.

Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o‘zaro munosabati ikki qarama-qarshi yo‘nalish bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, mazkur fanlarning har biri o‘zicha mustaqil bo‘lsa, boshqa tomondan, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarjima nazariyasi kontrastiv lingvistika ma’lumotlariga tayangan holda tillar o‘zaro munosabatini (struktur turlar, sistemalar va me‘yoriy sathlardagi) tarjima jarayoniga ta’sirini izchil o‘rganib boradi. O‘z navbatida, tarjima ham qiyoslash asosi (tertium comparationis)ni ajratib oladigan yagona manba sifatida kontrastiv lingvistikaga bebaho xizmat ko‘rsatadi.

Aytilganlar bilan birga, tarjima nazariyasi ma'lumotlaridan keng foydalanish kontrastiv tahlil uchun yangi istiqbollarni ochadi. Jumladan, K.Xansenning fikricha, agar kontrastiv lingvistika kelajakda nafaqat til sistemalarining mavhum sathlariga, balki til uzusining aniq sathlariga ham e'tibor qaratadigan bo'lsa, u holda foydalanib kelayotgan funksional ekvivalentlik (sistemalar sathidagi ekvivalentlik) tushunchasini tarjima nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ ekvivalentlik (kommunikativ ta'siri hisobga olingan matnlar sathidagi ekvivalentlik) tushunchasi bilan to'ldirishi lozim bo'ladi¹.

Tarjima nazariyasi ham asosiy ma'lumotlar manbasi sifatida kontrastiv lingvistikaga ehtiyoj sezadi. Tillarning struktur turlari, sistemalari va me'yorlari o'rtasidagi tafovutlarda yuzaga chiqqan mazkur ma'lumotlar tarjima tahlili uchun boshlang'ich nuqta vazifasini o'taydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, kontrastiv lingvistika tarjimaga chet tillarini o'qitishdan kam e'tibor qaratmaydi.

Shunday qilib, chet tillarni o'qitishda an'anaviy metod sifatida foydalanilgan kontrastiv lingvistika bugungi kunda tarjima vositasi sifatida qo'llanishga boshladi. Kontrastiv lingvistikadan tarjima vositasi sifatida foydalanish uni asta-sekin mustaqil fanga aylantirmoqda.

16-MAVZU

KONTRASTIV LINGVISTIKANING TUSHUNCHA VA TAMOYILLARI

(6 soat)

Reja:

1. "Kongruentlik" tushunchasi
2. "Ekvivalentlik" tushunchasi
3. "Lakunarlik" tushunchasi

Tayanch so'z va iboralar: *kontrastiv tilshunoslik, konfrontativ lingvistika, tipologik imitatsiya, tarjima, tarjimashunoslik, xorijiy tillar, tillararo aloqa, grammatika sathi, leksika sathi, sistematik qiyoslash, kontrastiv tadqiqot, tasvirlash, qiyoslash, chog'ishtirish, tafovutli hodisalar, lisoniy model, tertium comparationis.*

16. 1. "Kongruentlik" tushunchasi

Qiyoslash va chog'ishtirishning boshlang'ich nuqtasi turli tillardagi lisoniy birliklarning shakli yoki ma'nosi bo'lishi mumkin. Shundan so'ng mazkur asosga ko'ra, qiyoslanilayotgan lisoniy birliklarning bir xil yoki farqli shakllari va ma'nolari aniqlanadi. Boshlang'ich nuqta *muqobillik va kongruentlik* tushunchalari bilan bog'liq bo'ladi.

Kongruentlik (lot. congruens – mutanosib, muvofiq) deganda lisoniy shakllarning aynan o'xshashligi tushuniladi. Binobarin, fonetik-fonologik sathda esk. turk. *könlek*, esk. o'zb. ad. *könlek*, *köjnek*, tur. *gömlek*, tur. shev. *gönlek*, *gönek*, *köjnäk*, *könček*, tat. *külmäk*, o'zb. *köjnak*, *kojlak*, uyg'. *köjläk*, *köjnek*, ozarb. *köjnek*, turkm. *köjnek*, turkm. shev. *gömlek*, xak. *kögenek*, shor. *künek*, oyr. *künek*, yoq. *kühküläki*, tuv. *xöjleñ*, qirg'. *köjnek*, no'g'. *köjlek*, boshq. *küldäk*, bolq. *kölek*, gag. *gölmäk*, qar. *kölmek*, qqal. *köjlek*, qo'm. *gölek* singari so'zlar (to'liq yoki qisman) kongruent bo'ladi.

Fonetik-fonologik sathdagi kongruentlik kongruent so'zlar semantikasidagi tafovutlarni inkor qilmaydi. Qiyoslang: o'zb. *zo'r*, turk *zor* (qiyin, mushkul); o'zb. *tushmoq*, turk. *düşmek* (yiqilmoq); o'zb. *karam*, kor. *Karam* (atoqli ism); rus. *bal*, turk. *bal* tat. *bal* (asal); rus. *диван*, polyak. *dywan* (gilam); rus. *булка*, bolg. *bulka* (yangi turmush qurganlar) va h.k. Tarjimashunoslikda bunday so'zlar "aldoqchi so'zlar" nomi bilan yuritiladi.

Fonetik shakli mos kelmagan lisoniy birliklar uchun kongruentlik masalasi nomlanishning strukturaviy o'xshashligi bilan baholanadi. Turli tillarda nomlanish strukturasi o'xshash bo'lgan

¹ Hansen K. Trends and problems in contrastive linguistics // Zeitschrift für Anglistik und Amerikanistik. 1985. Vol. 33, N 2. –P. 127.

soʻzlar kongruent soʻzlar hisoblanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi *bolalar bogʻchasi* va rus tilidagi *детский сад*, oʻzbek tilidagi *temir yoʻl* va rus tilidagi *железная дорога* soʻz birikmalari yoki oʻzb. *kasalxona*, turk. *hastane*, kor. *pyongwon* ... kabilar kongruent soʻzlar sanaladi. Shuningdek, oʻzb. *hisob-kitob*, turk. *hesap*, pus. *учет* (juft soʻz va sodda soʻz); oʻzb. *koʻzi pishdi*, rus. *козпел* (frazеологизм va soʻz) va h.k. kongruent soʻzlar sanaladi.

Soʻzlarning morfologik sathdagi kongruentligi xususida soʻz borganda, otlarning birlik va koʻplik sonda qoʻllanishini misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, oʻzb. *temir*, tat. *timer*, turk. *demir*, rus. *железо*, fr. *fer* yoki oʻzb. *kishilik*, *insoniyat*, tat. *kesheleklek*, rus. *человечность*, fr. *l'umanite* coʻzlari faqat birlikda ishlatiladi.

Oʻzb. *yoshlar*, tat. *yashlar*, turk. *gençler*, rus. *молодежь* kabi soʻzlar kongruent boʻla olmaydi. Chunki bu oʻrinda ruscha soʻz faqat birlikda, turkiy tillardagi soʻzlar esa koʻplikda qoʻllaniladi. Yoki oʻzb. *qaychi/qaychilar*, tat. *kaychi/kaychilar*, turk. *makas/makaslar* birlik va koʻplikda qoʻllanilgani holda, rus. *ножницы* va fr. *ciseaux* faqat koʻplikda keladi.

Soʻzlarning sintaktik sathdagi kongruentligi (eganing, yaʼni harakat subʼektining ifodalanishi nuqtai nazaridan) quyidagi gaplarda namoyon boʻladi: oʻzb. *Qiz ishlaymaydi*, tat. *Kiz eshlami*, turk. *Kız çalışmıyor*, rus. *Девочка не работает*, nem. *Das Mädchen arbeitet nicht*.

Oʻzb. *U uxlay olmayapti*, tat. *Ul yokliy almiy*, turk. *O uyuyamıyor* (soʻzma soʻz tarjiması: On ne mojet usnut), rus. *Ему не спится* gaplarida kongruentlik kuzatilmaydi. Misollardan turkiy tillardagi gaplarning ikki tarkibli, rus tilidagi gapning esa egasiz (shaxssiz) gap ekanligini koʻrish mumkin.

16.2. “Ekvivalentlik” tushunchasi

Ekvivalentlik (lot. *aequivalens* – har xil maʼnoli) deganda lisoniy birliklar maʼnolarining muqobilligi, mosligi tushuniladi. Tillararo ekvivalentlik haqida gapirilganda, qiyolanilayotgan til birliklaridagi markaziy va qoʻshimcha semantik komponentlarning mosligi nazarda tutiladi. Masalan, oʻzb. *oʻroq*, tat. *urak*, turk. *orak* soʻzlarining rus tilidagi ekvivalenti *серп* hisoblanadi. Negaki, ushbu soʻzlarning taʼriflarida aks etgan semantik komponentlari bir-biriga mos keladi:

Oʻroq – turli boshqoqli ekinlar, beda, pichan va oʻtlarni qoʻlda oʻrish uchun ishlatiladigan, beli bukik, oʻtkir tigʻli mehnat quroli.

Urak – kul belən igen ura torgan, yarti ay formasidagi teshle timer koral.

Orak – ekin biçmekta kullanan, yarım çember biçiminde yassı, ensız ve keskin metal bir biçakla, buna bađlı bir saptan oluřan ekin biçme arası.

Serp – ручное орудие для срезывания хлеба с корня, представляющее собой длинный изогнутый нож с зазубренным лезвием.

Mazkur soʻzlarning semantik komponentlarini qiyoslang: “ручное” – “qoʻlda”, “kul belən”; “орудие” – “mehnat quroli”, “koral”, “araç”; “для срезывания хлеба” – “turli boshqoqli ekinlar, beda, pichan va oʻtlarni qoʻlda oʻrish uchun”, “igen ura torgan”, “ekin biçmekta kullanan”; “с зазубренным” – “oʻtkir tigʻli”, “teshle”, “keskin”; “изогнутый” – beli bukik, yarti ay formasında”, “yarım çember biçiminde yassı”.

Odatda, ekvivalentlikning uch darajasi: toʻliq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va nolga teng ekvivalentlik turlari farqlanadi.

Toʻliq ekvivalentlik deganda semantik strukturalarning oʻxshashligi, bir xilligini namoyon qiladigan lisoniy birliklar semantik komponentlarining oʻxshashligi tushuniladi. Masalan, oʻzb. *ishchi*, tat. *eshche*, turk. *işçi*, rus. *работник*; *переименовать*, ing. *rename*; rus. *образование*, nem. *bildung*.

Lisoniy birliklarning *qisman ekvivalentligi* turli munosabatlarda, xususan, divergensiya va konvergensiya koʻrinishida namoyon boʻlishi mumkin.

Divergensiya – A tildagi biron soʻzga B tildagi birdan ortiq soʻzlarning mos kelishidir. Jumladan, turkiy tillardagi *barmoq/ barmak/ parmak* va rus tilidagi *палец* soʻziga nemis tilidagi ikki va undan ortiq birlik mos keladi: *finger* (qoʻl barmogʻi), *zehe* (oyoq barmogʻi), yoki oʻzbek tilidagi *qoʻl* soʻziga turk tilidagi *el* (qoʻlning kaft va barmoq qismlari), *kol* (yelkadan barmoq uchlarigacha boʻlgan qism), koreys tilidagi *soʻn* (qoʻlning kaft va barmoq qismlari), *pal* (yelkadan barmoq

uchlarigacha bo'lgan qism), ingliz tilidagi *hand* (qo'lning kaft va barmoq qismlari), *arm* (yelkadan barmoq uchlarigacha bo'lgan qism); o'zbek tilidagi *oyoq* so'ziga turk tilidagi *ayak* (oyoqning kafti va barmoq qismlari), *bacak* (sondan oyoq barmog'ining uchlarigacha bo'lgan qism), koreys tilidagi *bal* (oyoqning kafti va barmoq qismlari), *dari* (sondan oyoq barmog'ining uchlarigacha bo'lgan qism), ingliz tilidagi *foot* (oyoqning kafti va barmoq qismlari), *leg* (sondan oyoq barmog'ining uchlarigacha bo'lgan qism) kabi so'zlar muqobil bo'ladi.

Konvergeniya – divergensiyaning aksidir, ya'ni A tildagi ikki yoki undan ko'proq so'zga B tildagi bitta so'zning mos kelishidir. Masalan, o'zbek tilidagi uch: *ayol*, *xotin*, *xonim*, turk tilidagi uch: *bayan*, *kadın*, *hanım*, ingliz tilidagi uch: *woman*, *wife*, *missis*, rus tilidagi ikki: *женщина*, *жена* so'zlariga koreys tilidagi *yoja* va nemis tilidagi *frau* so'zlarigina muqobil bo'ladi.

Qiyoslanilayotgan tillarning birida ob'ektiv borliqdagi hodisalarning farqlarini aks ettiradigan til birliklarining mavjud bo'lmashligi divergeniya va konvergeniyaga olib keladi. Masalan, lapplar tilida (Ural tillari oilasiga mansub bo'lib, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya va qisman Rossiyada tarqalgan somiy tili) “muz” tushunchasini ifodalash uchun 20 ta, qorni ifodalash uchun esa 21 ta so'zdan foydalaniladi. Ayni paytda qator tillarda bunday farqlanish kuzatilmaydi.

Tillarda divergent va konvergent munosabatlar qo'shilib ketgan bo'lishi ham mumkin. Qiyoslang: o'zbekcha va ruscha leksemalar: o'quvchi – школьник; shogird – ученик.

Qisman ekvivalentlik lisoniy birliklarning ma'nolar hajmini qiyoslashda kuzatiladi. Masalan, turk tilidagi *kürsü* 1. “Kalabalik onunda konuşanların üzerine çıktıkları yüksekçe yer” (minbar), 2. “Bir fakültede araştırma ve öğretim birimi” (tadqiqot markazi) so'ziga o'zbek tilidagi *minbar* so'zining “Ma'ruza qilinadigan, axborot beriladigan baland kursi” ma'nosigina muqobil bo'ladi.

Ma'lum ma'noda turli ichki shaklga ega bo'lgan birliklar, ya'ni turli tillarda asoslari mos kelmagan birliklar qisman ekvivalentlikni yuzaga chiqaradi. Qiyoslang: turkiy tillardagi *ona tili* (o'zb.), *ana tele* (tat.), turk. *ana dili* (so'zma so'z tarjimasini: yazik materi) birliklari rus. *родной язык* bilan qisman ekvivalent bo'ladi. Yoki aksariyat tillardagi *kompyuter* so'zi turk tilidagi *bilgisayar* (so'zma so'z tarjimasini: ma'lumot hisoblaydigan), so'zi bilan ekvivalentlik hosil qiladi.

16.3. “Lakunarlik” tushunchasi

Uchinchi daraja *nolga teng ekvivalentlik* bo'lib, uni ekvivalentlik deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Mazkur darajani *lakunarlik* deb nomlash maqsadga muvofiqdir.

Lakunarlik hodisasini 1) A tilning lakunaviy birliklari qiyoslanilayotgan B tilda mos darajadagi ekvivalentga ega bo'lmashligi; 2) B tilning ekvivalentlik sistemasidagi nolga teng lakunalar yuzaga chiqaradi. Demak, lakunaviy birliklar bir tilga (shartli ravishda A tilga), lakuna esa boshqa tilga (shartli ravishda B tilga) tegishli bo'ladi.

“Lakuna” termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga shunday ta'rif berilgan: “Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi”¹.

Aksariyat tadqiqotchilarning tillar va madaniyatlardagi farqliliklarni tahlil qilishda “lakuna” (lot. lacuna – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy; frans. lacune – bo'shliq, bo'sh joy) terminini qo'llashadi. A.M.Proxorovning tahriri ostidagi «Sovetskiy ensiklopedicheskiy slovar» (M., 1981)da tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi lakunalar “matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy” deb izohlangan. Bunga o'xshash izohni «Slovar inostrannix slov» (M., 1984)da ham uchratish mumkin.

Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* “vakil”, *barrister* “oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat”, *solicitor* “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega”, *counsel* “yuriskonsult”, *counsellor* “maslahatchi”, *advocate* “oliy darajadagi advokat” (Velikobritaniya, 1978) kabi so'zlar ham qo'llaniladi. Mazkur ifodalarga o'zbek va rus tillaridagi faqat *advokat* so'zigina muqobil bo'la oladi.

¹ Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –P. 10.

O‘zbek tilida onaning onasiga ham otaning onasiga ham *buvi*, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham buva deyilsa, turk tilida *anneanne*, *babaanne*, koreys tilida otaning onasiga *halmoni*, otaning otasiga *haraboji*, onaning onasiga *vihalmoni*, onaning otasiga *viharaboji* deyiladi. Yoki koreys tilida *obba* “aka” ayollarning, *hyõn* “aka” erkaklarning, *onni* “opa” ayollarning, *nuna* “opa” erkaklarning nutqida ishlatiladi”¹.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida onaning onasi// otaning onasi, onaning otasi//otaning otasi kabi tushunchalar mavjud bo‘lsa-da, ularni ifodalash uchun faqat ikki so‘z: *buvi* va *buvadan* foydalaniladi. Turk va koreys tillarida esa bu tushunchalarning har biri alohida so‘zlar (*anneanne*, *babaanne*, *halmoni*, *vihalmoni*, *haraboji*, *viharaboji*) vositasida ifodalangan. Demak, mazkur so‘zlar o‘zbek tilida lakunalarni yuzaga chiqaradi.

17-MAVZU

QIYOSIY TIPOLOGIYA VA TARJIMASHUNOSLIKNING O‘ZARO MUNOSABATI

(2 soat)

Reja:

1. Qiyosiy tipologiya va tarjima
2. Qiyosiy tipologiya va tarjima jarayonining ikki bosqichi
3. Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasida yaruslararo birliklarning roli
4. Qiyosiy tipologiya va tarjimaning genetik qardoshlikka munosabati

Tayanch so‘z va iboralar: *qiyosiy tipologiya, tarjima nazariyasi, yarus, umumiy mazmun plani, ifoda plani, abstraktlash, korespondentsiyalash, analiz, sintez, til sistemalari, kategorial ma’no, kategorial forma, maxsus forma, periferial belgi, transferensiyalash, stilistik ottenka, avtomatik tarjima, badiiy tarjima, mavhumlash davri, analiz davri.*

17. 1. Qiyosiy tipologiya va tarjima

Ikki yoki undan ortiq til sistemasining o‘ziga xos xususiyatini hamda chog‘ishtirilayotgan tillar sistemalari orasidagi muvofiqlik qonunlarini aniqlash, qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining umumiy vazifasidir.

“Tarjima nazariyasi o‘z mohiyati bilan ikki til sistemasini ilmiy asosda chog‘ishtirishdan bo‘lak narsa emas”, deb yozadi prof. L.S. Bahrudarov. Demak, qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining izlanish usullari va predmetlari bir-biriga juda yaqin.

Bu umumiylik ba’zi lingvistlar J. Ketford, Hallidey, J. Ellis, Yu. Nayda va boshqalarni qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi bir butun nazariya deb hisoblashga yoki keyingisi qiyosiy lingvistikaning tarkibiy qismi degan fikrga olib keladi. Masalan, J. Ketford “tarjima nazariyasi tillar o‘rtasidagi ma’lum munosabatni o‘rganganligi sababli, u qiyosiy lingvistikaning bir shaxobchasi” desa, M.A. Hallidey “avtomatik yoki mashina tarjimasining haqiqiy vazifalaridan biri tillar sistemasini tasvirlash va chog‘ishtirishdan iborat, shu sababli ham tarjima nazariyasi **amaliy lingvistika** (applied linguistics) diskriptiv va qiyosiy lingvistika bilan chambarchas bog‘langandir”, deydi.

Til sistemalari o‘rtasidagi muvofiqliklarni topish to‘la ma’noda tarjima, degan gap emas albatta. Bu faqat muayan mazmuni bir tildan ikkinchi tilga ag‘darishda tarjimon foydalanadigan formal tomondir.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining bir-biriga o‘xshash va farq qilish mezonlariga qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasini o‘zaro yaqinlashtiradigan asosiy o‘xshashliklar quyidagilardir:

¹ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лақуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. –Б. 152-156.

- qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi umumiy mazmun planining tarkibiy qismiga asoslanadi;
- qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi bajaradigan ish jarayoni o‘xshashdir, ya’ni abstraktlash (mavhumlash)dan korespondentsiyalash (muvofiqlashuv)ga yoki analizdan sintezga o‘tadi;
- umumiy qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi ikki yoki undan ortiq til sistemalari yaruslararo birliklarining natijalariga asoslanib ish ko‘radi;
- tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar sistemalarini universal ravishda tadqiq qiladi.

Bu o‘xshashliklarni alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.


Qiyosiy tipologiya va tarjimada qiyoslash mazmun planiga asoslanib olib boriladi. Ikki yoki undan ortiq til sistemalarini mazmun yoki formaga asoslanib, chog‘ishtirish mumkin. Bu masalaga doir turli fikrlar mavjud. Ba’zilar til sistemalarini chog‘ishtirishning mazmuniga tayanib, boshqalar formaga, ya’ni yo mazmundan formaga, yoki formadan mazmunga qarab boshlashni tavsiya etadilar. Bunday turli-tuman fikrlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasiga oid tadqiq etilgan materiallarning kamligidir.

Ayrim kichik sistema yoki kategoriyalarni chog‘ishtirish jarayoning xususiyati va maqsadiga ko‘ra tadqiqotni turlicha o‘tkazish mumkin. Ammo til sistemalarini chog‘ishtirish jarayonini mazmun plani birliklaridan boshlagan maqul:

- mazmun plani har bir tilda, shuningdek, chog‘ishtirilayotgan tillarda ifoda planining turli yarusdagi sinonimik birlikliklarini umumlashtiradi;
- semantik jihatdan o‘xshash kategorial ma’no turli tillarda ifoda planining o‘xshash bo‘lmagan birliklari bilan ko‘rsatilishi mumkin;
- tanlab olingan kategoriya bir tilda maxsus forma bilan, ikkinchi tilda esa periferial belgilar yordamida ifodalanishi mumkin.

Mazmun planidagi birlikning umumlashtiruvchi ahamiyati shundaki, har bir kategorial ma’no (KM) o‘z atrofiga qator formalarni yig‘a oladi. Bularning hammasi muayyan darajada transformatsion yoki yaruslararo sinonimlardir. Masalan, bir kategorial ma’no A tilda ham, B tilda ham mustaqil ravishda bir necha kategorial forma (KF)ga mos keladi.

Shartli ravishda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ifoda birligi (a, b, c, d, e, f) birinchidan, bir til sistemasida har xil yarusli bo‘lishi mumkin, ya’ni:



Ikkinchidan, turli xil yarus birliklari orasidagi muvofiqlashuv darajasi chog'ishtirilayotgan tillarda o'zgarib turadi, ya'ni bir tilda kategorial ma'no maxsus kategoriya formasi bilan ifodalansa, boshqa tilda morfologik kategoriya bilan emas, balki boshqa yarus birliklari bilan ifoda etiladi.

Turli yarusdagi birliklarni ma'lum bir tildagi maxsus morfologik formaning mavjud emasligi hamda muayyan stilistik ottenkalarining aks etishiga ko'ra tanlanadi.

Turli yarusdagi birliklarni tanlashda ko'proq leksik-sintaktik birliklar bilan mos keladigan va leksik jihatdan bog'liq bo'lgan variantlardan foydalaniladi.

Mazmunga asoslanish, chog'ishtirishning boshlang'ich davriga xosdir. Agar o'rganayotgan til tipologiya to'plagan materiallarga ega bo'lsa, unda tadqiqotni ifoda planidan boshlash mumkin, chunki ishning ma'lum qismi haqiqatan ham tipologik tadbirning ikkinchi yarusiga taalluqlidir.

Ifoda planiga asoslanish umumlashtirish bilan emas, aksincha turli kategoriyaga taalluqli omonimik formalarga ajralishga sabab bo'lgan ma'nolar bilan bog'langandir. Masalan, inglizcha books (she bought many books; she books tickets) so'zining formasi ikki yoki uch kategorial ma'noni, ya'ni son, shaxs va zamon kategoriyalarini ifodalashi mumkin.

Mazmun planiga asoslanib, muayyan kategorial ma'no tanlanadi va uni ikki tilda mustaqil ifodalanishining asosiy formalari aniqlanadi va nihoyat moslashuv protsessi o'tkaziladi. Anashu asosda tipologularning **genetik (kelib chiqishi)** qardoshligidan qat'iy nazar til sistemalaridagi izomorflik va allomorflikni aniqlaydi. Masalan, aniqlik va noaniqlik kategoriyasi hamma tillarda mavjud. Ammo qardosh bo'lmagan tillarda geterogenlik sistemasiga bog'liq bo'lgan mazkur kategoriyaning ifoda formalari turlicha bo'ladi. Muvofiqlashuvchi formalar yaruslararo o'zgarib turishi mumkin. Ammo bu formalarning barchasi muayyan kategoriya atrofiga to'planib, yaruslararo teng bo'ladi. "Tillardan-tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so'zlashsalar ham, ammo ularning tafakkur qonunlari bir xildir"- deb yozadi G'. Salomov.

Tarjima jarayoni ham o'z xususiyatiga ko'ra qiyosiy tipologiya jarayoniga o'xshaydi, ya'ni bunda ham tarjimon boshqa biror tilda ijod etishning yangi formalarini qidiradi, chunki "tajima-o'sha ma'noning aynan o'zini saqlagan holda boshqa tilda qayta tuzish demakdir". Bu fikrni ko'p lingvistlar tasdiqlashadi. Masalan, "tarjima jarayoni biror tekstning ma'lum mazmunini bir tildan boshqa bir tilga transferensiyalash (ag'darish)dir"- deb yozadi A. Foster. J. Ellis ham bu fikrga qo'shilib, "Tarjima bir tilda bayon etilgan fikrning ikkinchi tildagi ifodasidir" deydi. L.S. Barxudarovning ta'rificha tarjima: "Bir tildagi nutq faoliyati (tekst)ni o'zgarimas mazmun planini saqlagan holda ikkinchi bir tildagi nutq faoliyati (tekst)ga aylantirish jarayonidir".

Tillarning tipologiya jihatidan yaqinligi tarjimada ma'lum darajada yengillik yaratadi:

Tipologiya jihatidan yaqinligi ortiq bo'lgan tillarda tenglik darajasi ustun;

Tipologik yaqinlik genetik yaqinlik bilan bir vaqtda yuz bersa, tarjimada qiyinchilik sodir bo'lmaydi. Masalan, bir turkiy tildan ikkinchi turkiy tilga tarjima qilishda ortiqcha qiyinchilik sezilmaydi, chunki bu tillar sistemasidagi fonetik, morfologik va leksik o'xshashliklar bir-biriga juda yaqindir.

Tarjimon tarjima qilayotgan tilga xos teng til vositalarini aniqlaydi. Ma'lum tovushlar ishtirokida ifodalanuvchi mazmun yoki fikr boshqa til formasi vositasida ifodalanadi.

Tipologik va tarjimonning birinchi navbatdagi vazifasi umumiy leksik hamda grammatik ma'noni aniqlashdan iboratdir. Tarjima **avtomatik** va **badiiy tarjimaga** bo'linadi. Odatda keyingisi "Tarjimaning oliy formasi" hisoblanib, tarjimaning barcha formalarini o'z ichiga oladi.

Avtomatikasiz tarjima qilinganida tekstda o'ziga xos o'zgarish yuz beradi.

Tarjimaning har ikkala turida ham ish jarayoni ma'lum bosqichlarga bo'linadi.

Bir tilda ma'lum vositalar bilan ifoda etilgan ma'no ikkinchi bir tilga boshqacha yo'l bilan berilishi mumkin. Masalan, ma'lum ma'no A tilda poeziya (sheriya) tili bilan bayon etilgan bo'lsa, B tildagi tarjimada bu ma'no proza bilan ifodalanishi mumkin yoki aksincha bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Bayron, Geyne, Dante, Gyote, Pushkin, Navoiy she'rlari va poemalari, Shekspir tragediyalari, Shiller dramalari ko'p tillarga proza usulida tarjima qilinganligi va Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari o'zbek tiliga proza shaklida qisqartirib tarjima qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bir tildagi ma'lum ma'no ifoda formasidan qat'iy nazar boshqa tilda, stilistika normalarini saqlagan holda, to'la ifodalanishi mumkin. "Ifoda fo'rmasini e'tiborga olib faqat tekst mazmuninigina bir tildan ikkinchi tilga ko'chirishni tarjima deyish mumkin",-deb yozadi prof. I.R. Galperin.

Demak, tarjimada umumiy ma'noga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

17.2. Qiyosiy tipologiya va tarjima jarayonining ikki bosqichi

Qiyosiy tipologiya va tarjima bajaradigan ish jarayonini ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Tipologik tadbirning bosqichlarini analiz qilishda turli metodlardan segmentatsiya, substitutsiya va ularning variantlaridan, transformatsiyadan, semantik analizning asoslaridan foydalanish mumkin.

Har qanday tipologik tadbir tadqiqot ma'lum sof nazariy, amaliy yoki metodik maqsadni ko'zda tutadi.

Har bir tipologik tadbir mavhumlash bosqichi va muvofiqlashtirish (tenglashtirish) bosqichidan iborat bo'ladi.

Tipologiya tadqiqotchilarining ko'pchiligi bu bosqichlarni analiz va sintez davri deb ham atashadi.

Tipologiyada **mavhumlash** yoki **analiz davri** har bir qiyoslanayotgan tilni alohida o'rganish bilan bog'liqdir. Mavhumlash davrida tipologiyalash protsessi sodir bo'ladi: bir yoki undan ko'proq umumiy kategoriya tanlanadi, mazmun planidagi birlik yoki birliklar aniqroq ajratiladi, ifoda planida asosiy usullar tanlanadi.

Til materialining analizi protsessida olingan dalillarga tayanib, muayyan til sistemasi haqida tasavvur hosil qilinadi. Ma'lum differentsial xususiyatlariga asoslanib, tilning sintetik, analitikligi haqida gapirish, uni muayyan til oilasiga kiritish mumkin.

Mavhumlashtirish protsesining birinchi davrida erishilgan natijalar barcha lingvistik va lingvistik bo'lmagan fanlarga bab-baravar xizmat qiladi, ya'ni zarurat tug'ilganda har qanday fan, shular jumlasidan tajima ham undan tayyor material sifatida foydalanishi mumkin.

Tipologik operatsiyaning **tenglashtirish** bosqichi olingan natijalarni sintezlashtirish va qiyoslanayotgan tillarda **relevant** muvofiqlashuv vositalarini aniqlash bilan bog'liq. Bu bosqichda tipologik forma (tipoforma)larning moslashish qonuniyatlari tiklanadi.

Qiyoslanayotgan ikki yoki undan ortiq til sistemasini mavhumlashtirish va muvofiqlashtirish operatsiyalarini o'tkazishda til strukturalarini sistemali ravishda tasvirlash va qiyoslashda juda ko'p vaqt ketmasligi uchun avtomatik, elektron hisoblash mashinasi va texnikaning boshqa turlaridan keng foydalanish mumkin.

Keying vaqtda Rossiya va chet elda avtomatik analizga bag'ishlangan ko'pgina asarlar paydo bo'lmoqda. Ikki yoki undan ortiq tillarni qiyoslashda shu asarlardan foydalanish mumkin.

Tipologik operatsiyaning turlari. Tipologik operatsiya (TO) tugallangan yoki tugallanmagan bo'lishi mumkin. Faqat bir yarusdagi til birligigina analiz qilinsa, bu tadbir tugallanmagan tipologik operatsiya deyiladi. *Ikki qardosh bo'lmagan tillar sistemalarini qiyoslash jarayoni bitta yarus bilan chegaralanmasa tugallangan tipologik operatsiya deyiladi.*

Ikki tilda relevant muvofiqlashuv usulini topishda tipoformalarni aniqlashning alohida ahamiyati bor. **Tipoforma** bu **tipologik kategoriyalarning o'lchov birligidir**. Tipoformalar tilning har xil yaruslarini tipologik analiz qilish bilan aniqlanishi mumkin. Til yarusiga ko'ra ular turlicha bo'ladi: **fonema** (fonologik yarusda), **morfema** (morfologik yarusda), **so'z birikmasi** yoki **gap** (sintaktik yarusda), **so'z** (leksik yarusda) va boshqalar.

Tipologiyada tipologik yaqinlik asosan har xil yarusdagi tipoformaning variantlarga erkin ajralmasligiga qarab aniqlanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tarjima protsessi ham bosqichlar asosida olib boriladi. Avtomatik yoki mashina tarjimasida bu bosqichlar yaqqol ajralib turadi, avtomatikasiz tarjimada esa ular alohida ajratilmasligi ham mumkin. Tarjima ustida ishlashning dastlabki bosqichini notanish **tekstni tushunish** davri yoki tarjimaga **tayyorlanish davri** deyish mumkin. Tarjimon bu bosqichda chet tildagi tekst bilan tanishadi va uni o'rganadi, analiz qiladi va keyinchalik

muvoqilashtirish uchun asosiy birliklarni aniqlaydi. Tarjima nazariyasida bu davr *analiz* yoki *ilmiy protsess* deb ataladi. Badiiy (mashinasiz) tajimada mazkur protsess fikran bajariladi.

Tarjimon badiiy tarjimaning ikkinchi bosqichida birinchi bosqichda erishilgan natijalarni ishlash bilan shug'ullanadi.

Bu davrda tarjimon tanlangan ma'noga yangi forma beradi. Bu bosqichni "sintez" yoki "badiiy" jarayon deb ham atash mumkin.

Tipologik operatsiya bilan avtomatik va mashina tarjimasi o'rtasida ma'lum aloqa bor. Avtomatik tarjimada ham ish protsessi davrlarga bo'linadi, har bir davrning ishi alohida-alohida amalga oshiriladi. "Mashina tarjimasi yuzasidan ish olib borilganda,-deb yozadi V.V. Ivanov,-ikki davrni til elementlari orasidagi lingvistik aloqani aniqlovchi qoidalar tuzishni va bu qoidalardan tarjimaning aniq algoritmi sifatid foydalanishni farq qilmoq kerak".

Tipologiya va avtomatik tarjima bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Qiyosiy tipologiya ham, avtomatik tarjima ham bajaradigan ishlari xususiyatiga ko'ra deyarli bir xildir, ya'ni avtomatik tarjima ham qiyosiy tipologiya singari tekstlarni bir tildan ikkinchi tilga avtomatik ravishda o'zgartirib, til vositalarining moslashuv qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Avtomatik tarjimaning ish protsessi davrlari ham analiz va sintez bosqichlariga, tanlash va tarjima qilish davrlariga bo'linadi. Bu bosqichlarning har biri ko'pgina operatsiyalardan iborat.

Har bir til sistemasini alohida-alohida analiz qilishning lingvistik protsessini ko'rsatib o'tish zarur. Ish protsessining birinchi bosqichi lingvistik bosqich bo'lib, qiyosiy tipologiya o'tkazadigan birinchi bosqichga o'xshash, bunda ham mavhumlash yoki tipologiyalash protsessi sodir bo'ladi. Bu bosqich bir muncha murakkab bo'lib, keying bajariladigan ishlar mana shu bosqich natijalariga asoslanib olib boriladi.

Ish jarayonining ikkinchi bosqichi lingvistik bosqichda olingan natijalarni sintezlash, keyinchalik muvoqilashtirish yoki o'zgartirishdan iboratdir. Demak, demak, tipologiya va tarjima ishining bu bosqichi ham, har birining o'ziga xos ish bajarish xususiyatiga ega bo'lishiga qaramay, bir-biriga o'xshashdir.

Tipologik analiz natijalaridan avtomatik tarjimada foydalanish mumkin, chunki tilni sistemali analiz qilmay turib, avtomatik tarjima qilib bo'lmaydi. Avtomatik tarjima uchun til sistemasini formallashtirib, ma'lum programma tuzish tilshunoslik fanining zimmasiga yuklanadi.

Hozir mamlakatimizda yaratilayotgan mashina tarjimasining algoritmlari grammatikaga asoslanadi.

Turli tillar orasidagi grammatik (konfiguratsiyalar) muvoqiliklarni aniqlash tarjima deb tushuniladi.

Biroq tipologik tadbirning ko'p dalillari avtomatik tarjima uchun yetarli bo'lmay qoladi, avtomatik tarjimaning natijalari esa (masalan, turli kodlar, formulalar, algoritmlar, tilning ayrim birliklarini simvollaruvchi hamda avtomatik tarjima uchun maxsus tayyorlangan statistik natijalar, programmalar) qiyosiy tipologiya uchun ortiqchalik qilishi ham mumkin. Avtomatik tarjima mustaqil fan bo'lib, o'zining mustaqil ish xususiyatiga, metodi va til materiallarini inventarizatsiyalash va qiyoslash sistemasiga egadir. Tipologik qiyoslash natijasida olingan ba'zi ma'lumotlarning qanchalik aniqligini mashina tarjimasi protsessida tekshirib ko'rish mumkin.

17. 3. Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasida yaruslararo birliklarning roli

Qardosh bo'lmagan tillar sistemalarining o'ziga xos geterogenligi til iyerarxiyasining barcha yaruslarida biror kategoriyaning ifodalanish vositasini aniqlashni talab etadi. **A** tilda morfologik yarus bilan ifodalanuvchi kategoriya **B** tilda sintaktik birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Morfologik yo'l bilan ifodalanuvchi ma'lum Grammatik kategoriyaning ayni bir vaqtda boshqa yarus birliklari bilan ham ifoda etilishi mumkin. Barcha yaruslardagi birliklarning ifodalanish vositalarini aniqlamay turib, turli tillardagi mazmun planining ma'lum qismini to'la qiyoslab bo'lmaydi.

Tarjima nazariyasi ham huddi shu asosda yuzaga keladi. Tarjima uchun tugallangan tipologik tadbir tomonidan aniqlangan natijalar, yaruslararo tipologik sinonimlar va transformatsion variantlar muhim ahamiyatga egadir. Qiyosiy tipologiyaning tarjima nazariyasiga yordami shundan

iboratki, u tarjimonga nominallashgan va pominallashgan turli transformatsion variantlarni yaratishga imkon beradi. Tarjimon ma'lum bir manoni birinchi tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganida tegishli birlikni qiyosiy tipologiyadan olishi mumkin. Tarjimaning til yaruslari bilan bo'lgan aloqasini ko'rsatish uchun quyidagi maxsus bo'limlarga ajratib beriladi: fonologik tarjima (phonological translation), grammatik tarjima (grammatical translation), leksik tarjima (lexical translation), grafologik tarjima (graphological translation) va boshqalar.

Agar bir tilda ma'lum kategoriya nominallashmagan fe'l formalari yoki konstruktiviyalar tordamida berilsa, ikkinchi tilda nominallashgan formalarda berilishi mumkin. Masalan: *John asked Mary to come. Jon Merining kelishini iltimos qildi.*

Tarjimani ham qiyosiy tipologiyaga o'xshab bir yoki bir necha yarusda amalga oshirish mumkin, boshqacha qilib aytganda har qanday til yarusi birligi bo'lishi mumkin. Masalan: fonema, morfema, so'z, so'z brikmasi, gap, tekst va sh.k.lar yarusidagi tarjima va boshqalar. Ammo bir yarusdagi, tarjima to'la va mukammal bo'lmaydi.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga bog'liqdir. Qiyosiy tipologiya va tarjimaning nazariy bog'liqligi shundaki, u ikki yoki undan ortiq tillar vositalarini muvofiqlashtirish qonuniyatlarini toppish va o'rganish bilan shug'ullanadi. Uning amaliy tomoni qiyoslash yoki tarjima protsessining bir xilligi deb hisoblash mumkin.

17. 4. Qiyosiy tipologiya va tarjimaning genetik qardoshlikka munosabati

Qiyosiy tipologiya va tarjima uchun qiyoslanayotgan tillarning genetik qardoshligi va qardosh emasligi unchalik ahamiyatga ega emas.

Tipologiyada qiyoslanayotgan tillar qardosh yoki qardosh bo'lmasligi mumkin. Shu prinspga asoslanib, har qanday tilni boshqa bir tilga tarjima qilish mumkin.

Tarjima uchun tillar sistemalari orasidagi tipologik yaqinlikning ahamiyati katta. Tipologik yaqinlik va uzoqlikka qarab tipologiyada ham, tarjimada ham ma'lum qulaylik va qiyinchiliklar sodir bo'ladi:

Tipologik yaqin tillarda bir yarusli ekvivalentlik darajasi ustunlik qiladi. Bu ekvivalentlikning formal tomoni qiyosiy tipologiyani to'la, tarjimani esa qisman qanoatlantiradi. Formal mos kelish tarjimaning bir tomonini tashkil etadi, chunki tarjima teksti odatda original tekstidan ko'p bo'ladi. Formal yaqinlik sof tipologik bo'lishi mumkin, ammo unda hamma ma'no o'xshashligi bo'lavermaydi. Bu o'rinda hozirgi o'zbek tili (shuningdek, boshqa turkiy tillar) sistemasini hozirgi venger tili sistemasi bilan qiyoslash mumkin. Bu ikki til formal yarusda o'xshash bo'lib, ma'no yarusida esa bir-biridan farq qiladi. Manashu formal yoki tipologik o'xshashliklarni aniqlash avtomatik tarjimaning birinchi bosqichida yuz beradi.

Tarjimada tenglik genetik qardoshlikning tipologik yaqinlik bilan birga kelishiga qarab ortib boradi. Genetik yaqin qardosh tillarda formal tipologik yaqinlik ma'no yoki material yaqinlik bilan bir vaqtda ro'y beradi. Masalan, turkiy tillarda tipologik yaqinlik genetik yaqinlik bilan birga yuz beradi. Shuning uchun ham bir qardosh tildan ikkinchisiga tarjima qilish osondir.

Sistemalari o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan tillarni tarjima qilish masalasi tipologiya va tarjima nazariyasi haqidagi ilmiy adabiyotlarda deyarli yoritilmagan.

18-MAVZU

QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING FARQLARI

(2 soat)

Reja:

1. Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi o'rtasidagi farq
2. Real va grammatik ma'no

Tayanch soʻz va iboralar: *farqlovchi xususiyatlar, tanlash erkinligi, umumlashgan (mavhum) grammatik maʼno, tanlangan umumiy konkret-predmet maʼno, muvofiqlik, asosiy til (AT), tarjima tili (TT), ijodiy ekvivalent, kategoriya, muallif uslubi, real maʼno, grammatik maʼno, tipologiyalash, grammatik inventar, leksik inventar, mavhumlashgan model, denotativ maʼno.*

18. 1. Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi oʻrtasidagi farq

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan mustaqil fanlardir. Ular oʻrtasidagi asosiy farq quyidagilardir:

- 1) tarjima nazariyasi tanlash erkinligiga ega;
- 2) qiyosiy tipologiyada umumlashgan yoki mavhum grammatik maʼno aks etsa, tarjimada esa tanlangan umumiy konkret-predmet maʼnosi aks etadi;
- 3) tanlash erkinligi badiiy tarjima uchun xos xususiyatlardan biri hisoblansa, avtomatik tarjima uchun xos xususiyat emas.

Tanlash erkinligi. Qiyosiy tipologiyani tarjima nazariyasidan farqlovchi xususiyatlaridan biri uning tanlash erkinligiga ega ekanligidir. Qiyoslanuvchi tillar sistemalarining turli-tumanligi, tarjima qilinadigan original tekstdagi fikrlarning subyektivligi va shunga oʻxshash bir qancha omillar qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi uchun maʼlum qiyinchiliklar tugʻdiradi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish yoʻllaridan biri maʼlum fikrni bir tildan ikkinchi tilga transformatsiya qilishda qoʻllaniladigan til vositalarining turli variantlarini tanlay olishdir.

Tanlash erkinligi deganda tipolog yoki tarjimonning maʼlum bir maʼnoni ifodalashida turli yarus birliklariga tegishli lingvistik birliklardan erkin foydalanishini tushunamiz.

Tanlash erkinligi:

- bir yarus birligini boshqa yarus birligi bilan almashtirish;
- tarjimaning tasviriy usulidan foydalanish;
- uslub jihatidan mos keladigan vositalarni tanlash;

Omonimiya va boshqalarni qoʻllamaslik uchun sinonimik forma va konstruksiyalarni qoʻllash usuli bilan erishiladi.

Tarjimon maʼlum axborotni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganida mazmun planiga tegishli birlikni barcha yaruslardan tanlashi mumkin. Tanlangan umumiy maʼno ikkala tilda turlicha ifodalanadi. Masalan, muvofiqliklar quyidagicha boʻlishi mumkin.

AT (asosiy til)	TT (tarjima tili)
morfema	soʻz
soʻz	morfema
soʻz	soʻz
soʻz	gap
gap	soʻz
gap	gap va hokazo

Tarjimon muvofiqlashuvning maʼlum qonuniyatlariga rioya qilgan holda “maqsadga aylanma yoʻl bilan erishishi va ijodiy ekvivalentlar yaratishi kerak”. Tanlash erkinligi suisteʼmol qilinsa, tarjima maʼnosiga taʼsir qilishi mumkin. Shuning uchun muvofiqlashuvning asosiy normasidan chetga chiqmaslik kerak. Almashtirishga haddan tashqari berilib ketish, tarjima qilinayotgan tildagi muallif uslubining buzilishiga sabab boʻladi va bu tanlash erkinligi boʻlmay, balki tarjimonning “erkinligi”ga aylanib qoladi.

Tanlash erkinligi muvofiqlashtirishda qiyosiy tipologiyaga ham xosdir. Tanlash erkinligidan qatʼiy chegaralangan normada, maʼlum yarus doirasida hamda boshqa yaruslardagi birliklarni tanlashning muayyan qonuniyatlariga boʻysunishi shart boʻlganida foydalanish lozim. Masalan, tipologik muvofiqlashtirish nuqtayi nazaridan nisbatning grammatik maʼnosi bilan umumiy maʼno ingliz tilidan oʻzbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

- feʼl negiziga nisbatning soʻz oʻzgartiruvchi morfemalarini qoʻshish bilan;

- otlashgan soʻzlar yoki nominallashgan birikmalar ishtirokida;
- nominallashmagan birikmalar ishtirokida;
- soʻz yasovchi affikslardan foydalanish yoʻli bilan (bunga maʼlum nisbat formasida ot qismi feʼldan yasalgan otlashgan birikmalar kiradi).

Muayyan kategoriya doirasida aniqlangan tipologik birliklar bor boʻlsa, qiyoslanayotgan tillardagi ekvivalent formalarni aniqlash osonlashadi. Masalan, biz koʻrsatgan birliklarni eng soʻnggisi hisoblasak, unda maxsus forma, soʻz, konstruksiya va ayrim gap bilan ifodalanadigan nisbatning majhullik, oʻzlilik, birgalilik, kauzativlik maʼnolarini faqat birliklarning shartli natijalari ishtirokida ifodalash mumkin. Bu modellardan chetga chiqish uchun tipolog emas, faqat tarjimonga ruxsat etiladi, chunki tarjimon maʼlum maʼnoni boshqa tilde toʻgʻri ifoda etishi kerak.

Idioma, frazeologiya, maqol, matal va boshqalarni tarjima qilishda tipologiya tomonidan aniqlangan muvofiqlashtirish normasidan maʼlum darajada majburiy chetga chiqishga yoʻl qoʻyilsa ham, bu chetga chiqish tipologik muvofiqlashtirishning mavjud qonunlarga zid boʻlmasligi kerak. Tarjimon tipologiya tomonidan aniqlangan normadan qanchalik chetga chiqsa, muallif uslubi shunchalik oʻz taʼsirini yoʻqotadi.

Tarjimon muallif uslubining elementlarini tushunib, bayon etadi, bunda tarjimon muvofiqlashtirishning tipologik qonuniyatlariga beixtiyor rioya qiladi, deb izohlash mumkin. Tarjima jarayonida maʼlum mazmunni tarjimon oʻzicha bayon etibgina qolmay, balki ayni bir vaqtda mazkur tekstning formal, stilistik va boshqa xususiyatlarini ham tarjima qiladi.

Tarjima nazariyasi qiyosiy tipologiyadan qayta yaratilgan tarjima tekstidagi badiiyligi va tarjimada mos kelishning ayrim hollari kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Tarjimon qayta yaratilgan tekstning badiiyligiga tipologiya asosida topilgan sistema birliklarini badiiy sayqallashtirish orqali erishadi. Tilda muvofiqliklarni aniqlash orqali sistemali yoki birlamchi muvofiqlashtirish yaratiladi, ammo u badiiy tarjima uchun yetarli emas. Tarjima qilinayotgan tekstni sistemali muvofiqlashtirish qonuniyatlariga amal qilish va bu qonuniyatlarga amal qilmaslik orqali badiiy ishlanadi. Tarjimon sistemasi muvofiqlashtirish qonuniyatlariga amal qilganida baʼzi soʻz, morfema, affiks va shunga oʻxshashlarning sinonimiyasi, turli-tumanligiga, stilistik taʼsirchanligiga asoslansa, bu qonuniyatlarga amal qilmaganida, muvofiqlikning tipologik qonuniyati boʻlmagan vositalardan foydalanadi.

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya bunday qonuniyatlarni izlash bilan shugʻullanishi kerak, chunki har qanday qatʼiyatsizlik asosida muayyan qonuniyat yotadi. L.S.Barxudarov bunday qatʼiyatsizlik hollarini va tarjima qilishda sodir boʻladigan qiyinchiliklarni ham koʻrsatib oʻtsa-da, ularni tarjima nazariyasiga kiritmaydi.

18. 2. Real va grammatik maʼno

Qiyosiy tipologiya shugʻullanadigan sistema muvofiqliklarning topilishi tarjima uchun yetarli emas, chunki “tarjimaning vazifasi boshqa tilga grammatikani emas, balki tarjima teksti mazmunini yetkazishdir”. Qiyosiy tipologiya ham, tarjima ham asoslanadigan umumiy maʼnoni tushunishda baʼzi kamchiliklar bor. Agar umumiy maʼno qiyosiy tipologiya va tarjima uchun bir xil boʻlganida, bu ikkala mustaqil fan oʻrtasida farq boʻlmasdi.

Maʼnoning ikki turi, yaʼni grammatik va leksik turi qiyosiy tipologiya va tarjima uchun umumiy boʻlgan maʼno, mazmun, kontekst va shunga oʻxshashlarda grammatik va leksik maʼno bor. Mazmun plani birligining ana shu ikki tomoniga asoslanib, qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasini bir-biridan farq qilinadi. Ikki tilda qiyoslash uchun umumiy maʼno tarzida mavhumlashgan grammatik maʼno olinadi. Qiyosiy tipologiya tipologiyalash va tahlil uchun umumiy maʼnoni asos qilib olib, uni tahlil qilish va tipologiyalash bilan shugʻullanadi. Nihoyat, tipolog bu vositalarning muvofiqlashuv birliklarini topadi. Tarjimada esa mazkur tekstdagi leksik birliklardan kelib chiqadigan konkret predmet yoki leksik maʼno qiyoslash uchun umumiy maʼno xizmatini oʻtaydi. Konkret maʼno tarjima uchun, mavhumlashgan grammatik maʼno esa qiyosiy tipologiya uchun asos boʻladi.

M. A. Hallidey leksika va grammatikaning asosiy farq qiluvchi xususiyatlari haqida quyidagilarni yozadi: “In other words there is a definable sense in which more abstraction is involved in grammar than is possible in lexis”.

Leksik birliklarning konkret va real ma'nolari yig'indisi umumiy real ma'noni, grammatik birliklarning mutlaq mavhumlashgan ma'nolari yig'indisi esa umumiy grammatik ma'noni aks ettiradi. Tarjima real ma'nodan, qiyosiy tipologiya esa grammatik ma'nodan foydalanadi. Ma'noning bu ikki tomoni o'zaro bog'liq va bir-biriga o'tuvchan bo'lib, ularning biri ikkinchisini taqozo etadi.

Qiyosiy tipologiya tilning grammatik inventariga, tarjima esa grammatik va leksik inventariga asoslanadi. Til sistemalarini aniqlovchi formal xususiyatlarni qiyoslash bilan mashina shug'ullanganda edi, bu ish tekstni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishdan ko'ra osonroq bo'lardi. Grammatik yarusda so'z munosabatini aniqlash leksik yarusdagidan ko'ra oson, chunki “leksik yarusda so'zlar o'rtasidagi aloqa faqat til sistemasi bilan emas, balki tashqi borliq tomonidan ham aniqlanadi”.

Tipolog tipologik qiyoslash orqali ikki tildagi mavhum grammatik mazmun ifodalanishining ekvivalent formalari orasidagi muvofiqlashuv qonuniyatlarini aniqlaydi. Tarjimon uchun esa muayyan ma'noni bir tildan ikkinchi tilga aylantirishida til sistemalarining mavhumlashgan modellari kerak bo'ladi. Har bir lingvistik birlik ham mavhum grammatik ma'noni, ham konkret material ma'noni ifodalagani uchun tarjimon bir yo'la har ikkalasini muvofiqlashtirishi kerak, chunki birinchisi, tipologik sistemaga asoslanadi, ikkinchisi, sof tarjima, ya'ni leksik birliklar ishtirokida anglatiladigan real ma'noning tarjimasidir. Bu real ma'noni denotativ material yoki nominativ ma'no deyish ham mumkin. L. S. Barxudarovning yozishicha, denotativ ma'no tarjimada juda muhim hisoblanadi. Shunday qilib, ma'noning ikki turi, ya'ni real leksik ma'no va mavhumlashgan grammatik ma'no bor.

Real leksik ma'no leksik birliklarning ketma-ket birikkanidagi ma'no bo'lib, mavhumlashgan grammatik ma'no grammatik elementlar va formalarining ma'nosidir. Qiyosiy tipologiya til birliklarini mavhum planda o'rganisa, tarjima uni umumiy planda o'rganadi. Qiyosiy tipologiya til sistemalarini qiyoslaydi, tarjima esa bu sistemalar birliklarini tadqiq etadi. Binobarin, real va mavhum ma'no mavjud. Leksik ma'no logik (predmet, asosiy, to'g'ri, nominativ), atash (atama) va emotsional ma'nolarni anglatadi.

Real ma'no leksik birlikka, ya'ni so'zga, mavhumlashgan grammatik ma'no esa turli grammatik birliklarga taalluqlidir. Real ma'no va mavhumlashgan grammatik ma'no bir-biriga bog'liq bo'lgani singari tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya ham o'zaro bog'liqdir. Har ikkala bog'liqlik to'la aks ettirilganidagina tarjima adekvatligi saqlanishi mumkin. Tarjima adekvatligi deganda tekstning real ma'nosini aniq bayon etish va til qoidalarini saqlab qolish tushuniladi.

Qiyoslash har bir til sistemasini mustaqil o'rganish asosida olib borilishi shart. Til sistemalarini qiyoslashda real ma'nodan farq qiladigan, mavhumlashgan formal grammatik ma'noga tayanish kerak. Real ma'noni anglatish paytida tegishli til modellari paydo bo'ladi. Qiyosiy tipologiya qo'shimcha material tarzida tarjima asaridan ham foydalanadi.

Tarjimaning asosiy maqsadi konkret ma'noni ifoda etish bo'lgani uchun bir kategoriyani boshqasi orqali ifodalaganda grammatik kategorial ma'no o'zgarishi mumkin.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-MAVZU

“QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMA LINGVISTIKASI” FANINING OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI (2 soat)

Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining *predmeti* ikki yoki bir necha qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillardagi lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash, chog'ishtirish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini o'rganishdir. Shuningdek, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik o'zaro aloqasini belgilash, bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda o'zga tildagi muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratishning yo'l va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat o'zgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratishdir.

Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining *obyekti* turli til sistemalari va nutqiy asarlardir. Asl nusxadagi matn asosida o'zga tilda boshqa bir nutqiy asar (tarjima matni) yaratiladi. Demak, qiyosiy tilshunoslik turli til oilasiga mansub lisoniy materiallar, tarjima lingvistikasi esa bir tilga mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan matnni tarjima tili qonuniyatlari asosida yangi bir matnni yaratish nazariyalari bilan shug'ullanadi.

Qiyosiy tilshunoslikning *maqsadi* qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarni sinxron va diaxron kontekstda tasvirlash; qiyosga olingan tillarning struktur-tipologik xususiyatlarini aniqlash; tillarning genetik-tipologik xarakteristikasini amalga oshirishdan iborat. Tarjima lingvistikasining *maqsadi* u yoki bu chet til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratish nazariyalarini takomillashtirishdan iboratdir. Qiyosiy tilshunoslik va tarjima lingvistikasi ana shu ikki maqsadni o'zida birlashtiradi.

Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining *vazifasi* qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillardagi leksik, grammatik, sintaktik va stilistik hodisalari o'rtasidagi o'xshash hamda farqlarni aniqlash; bu umumiy xususiyat va tafovutlarni hisobga olgan holda asl nusxaning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdagi tarjimaviy muammolarni hal qilishdan iboratdir.

Qiyosiy tilshunoslik – qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar sistemalarini diaxronik va sinxronik nuqtayi nazardan o'rganishdir. Qiyosiy tilshunoslik deganda a) qiyosiy-tarixiy tilshunoslik; b) tipologik tilshunoslik; v) chog'ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik tushuniladi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning obyekti qarindosh tillar hisoblanadi. Maqsadi – qarindosh tillar evolyutsiyasini sinxron va diaxron kontekstda tasvirlash; o'zaro qarindoshlik munosabatidagi tillar va ularning birliklari orasidagi genetik va gipotetik mosliklar va qonuniyatlar (fonetik, leksik-semantik, grammatik va h.k.)ni, til birliklarining rivojlanishini aniqlash; bobo til (prayazik) va uning rivojlanish bosqichlarini rekonstruksiya qiladi; tillar genealogik tasnifining umumiy sxemasida til oilalari va makrooilalar tarkibini belgilashdan iborat. Qiyosiy tahlilga cheklanmagan miqdorda tillar tortiladi.

Tipologik tilshunoslikning obyekti qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Tipologik tilshunoslikning maqsadi – tillar o'rtasidagi struktur o'xshashlik va farqlarni tasvirlash hamda mazkur tasvir metodologiyasini ishlab chiqish; tillarni turlariga ko'ra tasniflash; qiyosga olingan tillarning struktur-tipologik xususiyatlarini aniqlash; tillarning genetik-tipologik xarakteristikasini amalga oshirishdan iborat.

Chog'ishtirma tilshunoslikning obyekti qarindosh yoki qarindosh emasligi va tipologik xarakteristikasiga qaramay tillarni o'rganish hisoblanadi. Chog'ishtirma tilshunoslikning maqsadi – ikki yoki bir qancha tillarni uning butun darajalari (fonologik, morfologik, sintaktik va semantik darajalari)dagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash uchun chog'ishtirib o'rganadi.

Tarjima lingvistikasi. Tarjima lingvistikasining *predmeti* ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash orqali bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda o'zga tildagi muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratishning yo'l va

imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat o'zgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratishdir.

Tarjima lingvistikasining *obyekti* mavhum tarzda tasavvur qilinadigan til sistemasi emas, balki konkret nutqiy asardir (asl nusxadagi matn). Asl nusxadagi matn asosida o'zga tilda boshqa bir nutqiy asar (tarjima matni) yaratiladi. Demak, tarjima lingvistikasi bir tilga mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan matnni tarjima tili qonuniyatlari asosida yangi bir matnni yaratish bilan nazariyalari bilan shug'ullanadi.

Tarjima lingvistikasining *maqsadi* u yoki bu chet til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratish nazariyalarini takomillashtirishdan iboratdir.

Tarjima lingvistikasining *vazifasi* asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi o'xshash hamda farqlarni hisobga olgan holda asl nusxaning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdagi tarjimaviy muammolarni hal qilishdan iboratdir.

Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta filologik bilim va tegishli nazariy tayyorgarlikni talab qiladi.

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsada, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz bir necha asrlar mobaynida qabul qilingan va rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar.

Tarjima lingvistikasining ahamiyati shundan iboratki, u tarjima amaliyotida tarjimonning matn tarjimasiga "intuisiya" yo'li bilan yondashishiga yo'l qo'ymaydi. Tarjima turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi vositadir.

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-birlariga bo'ladigan ta'sir jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g'oyalar va tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima turli xalqlar madaniyati va ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etadi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omilidir.


Tarjima lingvistikasi o'z tadqiqotlarini boshqa qator an'anaviy filologik, ayniqsa, lingvistik tadqiqot metodlaridan o'rni bilan foydalangani holda ko'proq chog'ishtirma tilshunoslik metodi bilan olib boradi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batafsil tahlil qilish zaruriyati komponent tahlil metodidan foydalanishni taqozo etadi.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining predmeti va obyektini "Qanday?" grafik organayzeri vositasida tushuntiring.

"Qanday?" grafik organayzeri

Grafik organayzer talabalarda o'rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.



2-topshiriq. Mavzuni “BBB jadvali” asosida takrorlash.

“BBB jadvali” bilan mavzuni takrorlash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Nazorat uchun savollar

1. Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining predmeti nima?
2. Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining obyektini nima?
3. Qiyosiy tilshunoslikning maqsadini tushuntiring.
4. Tarjima lingvistikasining maqsadini tushuntiring.
5. Qiyosiy tilshunoslikning va tarjima lingvistikasining vazifasi nimadan iborat?
6. Qiyosiy tilshunoslikka ta’rif bering.
7. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning obyektini qanday tillar tashkil etadi?
8. Tipologik tilshunoslikning obyektini qanday tillar tashkil etadi?
9. Chog‘ishtirma tilshunoslikning obyektini qanday tillar tashkil etadi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

2-MAVZU
QADIMGI ASRLAR TILSHUNOSLIGI
(8 soat)

Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu – mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo'lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug'ullanish ilk bor Hindistonda – hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Aniqrog'i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida – sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari – Vedalar tili davrlar o'tishi bilan mamlakat aholisining so'zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Ya'ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan Vedalardagi ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug'atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so'z va jumlar ma'nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo'lgan qat'iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ldi.

Hindlar qadimiy davrda eng buyuk fonetikachi va grammatikachi sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida Yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farq-laganlar, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz to-vushlarni, tovush birikmalarini, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, cho'ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan mukammal ma'lumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida ham muayyan tushunchalar bo'lgan.

Qadimgi hindlar so'zlarning faqat ma'no tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham o'zgarishlar bo'lishini bilganlar. Shunga ko'ra ular so'zlarning tovush jihatiga alohida e'tibor berganlar. Tovush haqida, tovushlarning o'zgarishi haqida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik-artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta'siri bilan o'zgarishi (kombinator o'zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e'tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a'zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta'siridan, ya'ni tegishidan undoshlar hosil bo'lishini qayd etganlar.

Xullas, qadimgi Hindistonning tilshunoslik sohasidagi yutuqlari ulkan bo'lib, ular o'z muvaffaqiyatlari bilan jahon tilshunosligi faniga katta hissa qo'shdilar. Ularning ta'limotlari, g'oyalari yunon va arab tilshunosligiga jiddiy ta'sir qildi. Hind tilshunosligi Ovrupoga XVIII asrning o'rtalarida yetib keldi.

Qadimgi yunon tilshunosligi. Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi. Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Yunon faylasuflari til masalalarini o'rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo'nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo'nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy-falsafiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining yetakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug'ullanishga, shu yo'na-lishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo'ldi. Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo'linadi:

- 1) Falsafiy davr.
- 2) Grammatik davr.

1) Tilshunoslikning falsafiy davri. Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g'oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo'nalishlar til masalalari bilan faol shug'ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o'ta dolzarb va eng muhim muammolaridan biri so'z muammosi, so'zning tabiiy hodisami? yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo'lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafma-taraf bo'lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog'i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o'zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog'lanishda bo'lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo'ladi, «ochiladi». Aniqrog'i, suvda daraxtlar, ko'zguda o'zimiz aks etganidek har bir nom o'zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anig'i predmet bilan ularni anglatuvchi so'zlar orasidagi bog'lanish tabiat tomonidan berilgan bo'lib, bu bog'lanish tabiiy, zaruriy bog'lanish hisoblanadi.

2) Tilshunoslikning grammatik davri. Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi bo'lgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog'liq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining ta'siri natijasida yunon madaniyati, Sharq madaniyati bilan qo'shib ketib, aralash madaniyat – ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha bo'lgan III asrdan boshlab, birorta ham shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz bo'lgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilolmas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida – yunon-sharq davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 334-31y) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakillari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. Yunon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan bo'lib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari bo'sh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari grammatikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi. Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda o'z davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) ta'sir qildi.

Qadimgi Rim tilshunosligi. Qadimgi Rim filologlarining tilshunoslik faniga qo'shgan hissasi katta emas. Rim grammatikasi yunon grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga keldi. Iskandariya maktabida yaratilgan yunon tili grammatikasi qadimgi rimliklar tomonidan lotin tiliga tatbiq qilindi. Yunon tilidagi deyarli barcha grammatik terminlar lotin tiliga o'girildi. Yunon tilshunosligidagi analogiya va anomalija maktab-laridagi munozaralar ham Rim tilshunosligida davom ettirildi.

Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian va boshqalardir.

Shunday qilib, rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili haqida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo'yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo'lsa-da, ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar uchrab turadi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda

Rim grammatikasiga alohida stilistikani (uslubshunoslikni) kiritdilar. Rim grammatikachilari soʻz turkumiga undovlarni ham kiritdi. Ammo yunon tiliga xos boʻlgan artiklni chiqarib tashladilar. Chunki lotin tilida artikl yoʻq edi. Demak, lotin tili uchun ham 8 ta soʻz turkumi xos boʻlib qoldi. Rim tilshunoslari son turkumini ikkiga: tub son va tartib songa boʻlib oʻrganishdi. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud boʻlmagan ablativ (ajratish) kelishigini kiritdi va kelishiklar sonini oltitaga yetkazdi.

Xullas, antik davr tilshunoslik maktablarining ahamiyati jahon tilshunosligi nuqtai nazaridan yuksakdir. Ushbu davr Ovrupo madaniyatining beshigi boʻlib maydonga chikdi. Qadimgi yunon va Rim tilshunosliklari keyingi davr tilshunosligining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega boʻldi.

Qadimgi Xitoy tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Bizning kunlarimizgacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimiy yozma yodgorliklari eramizgacha boʻlgan XIII-XI asrlarga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qoʻy) suyaklari va toshbaqa qalqonlari boʻlib, ularda fol ochish jarayoni haqida maʼlumot beriladi. Bu qadimgi «manbalar» Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim oʻrin egallaydi.

Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy iyeroglifi muayyan soʻz sifatida, soʻzni anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan. Yaʼni Xitoy iyeroglifi logogramma hisoblangan.

Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining taʼsiri natijasida (yaʼni Xitoyga Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli) hind tilshunosligining taʼsiri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik-prosodemik hodisasi – intonatsiyaning toʻrtta turini, koʻrinishini ishlab chiqdilar.

Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (bizning eramizgacha boʻlgan 206 y. – bizning eramizning 220 y.) leksikologiya, leksikografiya, ieroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta eʼtibor berilgan. Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi Syuy Shen «Elementlar va murakkab belgilar haqida» asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunosligida shu kunlarda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII-XIX asrlarda keng quloch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi. Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan ota bola Van Nyan – Sun (1744-1832) va Van In-Chji (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi.

Xitoy tilshunoslari soʻz masalasida mustaqil soʻzlarni va yordamchi soʻzlarni farqlaganlar. Mustaqil soʻzlarni ot, sifat va feʼl turkumiga ajratganlar.

Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869-1936) boʻlib, u Xitoy tilining meyoriy va tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi.


Umuman olganda, Xitoy tilshunosligining asosiy yoʻnalishi, ayniqsa, oʻrta asrlarda fonetika (yoki fonologiya) hisoblangan. Xitoy yozuvi-ideografik yozuv boʻlib, har bir belgi soʻzga yoki oʻzakka muvofiq keladi. Fonetik jihatdan esa har bir belgi boʻgʻinga toʻgʻri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha oʻzaklar bir boʻgʻinlidir.

XVII-XVIII asrlarda Xitoyda fan-tarixiy fonetika katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bogʻlangan boʻlsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shugʻullandi.

Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining qoʻlga kiritgan muhim yutugʻi hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yoʻnalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan boʻlib, oʻz oldiga bevosita kuzatishda berilmagan tilning oʻtmish «shakli», holati bilan bogʻliq hodisalarni, faktlarni tiklash maqsadini qoʻyadi. Ayni jarayonning metodlaridan va qoʻlga kiritgan natijalari, yutuqlaridan hozirgi kunlarda ham foydalanilmoqda.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Qadimgi asrlar tilshunosligini klaster asosida tushuntiring.



2-topshiriq. O‘rganilayotgan Sharq tili bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan tilshunoslar haqida ma‘lumot bering.

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi fanining beshigi, deb aytiladi?
2. Nima uchun Vedalar tili o‘rganilgan edi?
3. Qadimgi hindlar so‘zlarining qaysi tomonlariga e‘tibor berdilar?
4. Qadimgi Yunoniston til masalalari dastavval kimlar tomonidan o‘rganilgan?
5. Yunon tilshunosligi falsafiy davrning eng muhim xususiyati nimalardan iborat edi?
6. Tilshunoslikning falsafiy davrida so‘z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari qanday g‘oyani ilgari suradilar?
7. Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida qanday davr deb yuritilgan?
8. Tilshunoslikning grammatik davrida qaysi sohalar bo‘yicha jiddiy tadqiqot ishlari olib borildi?
9. Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda Rim grammatikasiga qaysi sohani kiritdilar?
10. Qadimgi Xitoy tilshunosligining xan davrida qaysi masalalarga katta e‘tibor berilgan?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.
2. История лингвистических учений. Средневековый Восток. –М., 1981.

Mahalliy adabiyotlar:

3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

3-MAVZU

KOMPARATIVISTIK TILSHUNOSLIKNING NAZARIY ASOSLARI

(2 soat)

XVIII asrgacha til o'zgarish hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o'zgardi. Ya'ni XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o'zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog'i, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monbodd, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini qo'llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qat'iy tus oldi. Ya'ni XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig'ish, ularga e'tibor berish g'oyasidan qiyosiy-tarixiy g'oyaga-nuqtayi nazarga burilish, o'tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtayi nazarlarning o'zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo'ldi. Aniqrog'i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi aniqlansada, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o'xshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o'xshashlik sabablarini tushuntirib bera olmadi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan – bir umumiy qadimiy bobo tildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g'oyalarining ta'siri, ya'ni jonli tillarning o'tmishini o'rganishga undash g'oyasi bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o'rtasidagi o'xshashlikni ularning qarindoshligiga ko'ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi Vilyam Djons (1746-1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o'rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma'lumotlarni qat'iy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) esa o'zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining na faqat lug'at tarkibida, balki grammatik munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko'ra umumiy asosga egaligini qayd etadi.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi.

Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, qiyoslash tillarni o'rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g'oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo'ldi.

Takidlash shart, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o'rin egallashiga olib keldi. Chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g'oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'ldi.

Eslatish joizki, Mahmud Koshg'ariy, Vilyam Djons, Fridrix Shlegel kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo'lib, o'z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o'rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o'zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo'yadi.

Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o‘rganish tarixi to‘rt davrni o‘z ichiga oladi:

- 1) Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo‘lgan davr (XIX asrning birinchi choragi-1870 y).
- 2) Yosh grammatikachilar davri (1870-1890 y).
- 3) Yosh grammatikachilar davridan to F. de Sossyurning «Umumiy tilshunoslik kursi» asari va xet yozma yodgorliklarini o‘qib, ma’nosini ochib berishgacha bo‘lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o‘n yilligi).
- 4) F. de Sossyur g‘oyalaridan bizning davrimizgacha bo‘lgan davr.


Topshiriqlar

1-topshiriq. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri vositasida Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o‘rganish davrlarini tushuntiring.

“Venn diagrammasi” grafik organayzeri

Grafik organayzer talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hozil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng ikki (uch, to‘rt, besh) bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi.



Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2-topshiriq. “Mahmud Koshg‘ariyning qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlari” mavzusida taqdimot tayyorlang.

Nazorat uchun savollar

1. XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati nimadan iborat bo‘ldi?
2. Tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g‘oyasi nechanchi asrda qat’iy tus oldi?
3. XIX asrning boshlariga kelib turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar qanday xulosaga kelishdi?
4. Nemis olimi Fridrix Shlegel qaysi asarida sanskrit tilining xususiyatlari qayd etilgan?

5. Qaysi omillar tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi?
6. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida qaysi olimlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'ldi?
7. Qiyosiy-tarixiy metod o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?
8. Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish tarixi nechta davrni o'z ichiga oladi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.
2. История лингвистических учений. Средневековый Восток. –М., 1981.

Mahalliy adabiyotlar:

3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

4-MAVZU NEMIS TILSHUNOSLARI (2 soat)

Frans Bopp (1781-1867) buyuk nemis tilshunosi – sanskrit mutaxassisi, Berlin universiteti professori. U 1816-yilda «Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash» asarini yozdi.

F.Bopp qayd etilgan tillarda mavjud grammatik shakllarni – tuslanish formalarini qiyoslash asosida ushbu tillar o'rtasidagi umumiylikni, o'xshashlikni ochib berdi. U qiyoslash metodi bilan qiyoslanayotgan tillarning dastlabki holatini, ko'rinishini tiklash mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Shunga ko'ra 1816-yil to'liq ma'noda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tug'ilish-yaratilish yili deb e'tirof qilinadi.

F.Boppning kashfiyoti, yangiligi nimada? Yuqorida aytilganidek, ko'pgina olimlar V.Djons, Fr.Shlegel kabilar hind-Evropa tillari bir bobotildan kelib chiqqan, qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi, degan fikrni aytishgan.

F.Boppning xizmati shundaki, u qarindosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani qurib berdi. U fe'llarning qo'shimchalarini qiyoslab, hayratlanarli darajaga keldi. Yani, ma'lum bo'ldiki, hind-Evropa tillarida nafaqat alohida o'xshash hodisalar mavjud, balki ushbu tillarda o'zaro o'xshashlikning, o'zaro muvofiqlikning butun bir sistemasi-grammatik sistemalarning umumiyligi, o'xshashligi mavjudligi aniqlandi. F.Bopp uchun tillar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik faqat vosita edi, xolos. Maqsad esa boshqa. Ya'ni qiyoslanayotgan tillardagi grammatik shakllarning eng qadimiy, dastlabki ko'rinishini-shaklini ochib berish jarayonida bir tilga xos hodisani boshqa til faktlari yordamida yoritish, tushuntirish edi. Anig'i muayyan tilga oid shakllarni (so'z formalarini) boshqa tildagi shakllar (so'z formalari) orqali tushuntirish, izohlash edi. Ushbu nuqtayi nazar F.Bopp tadqiqotlarining yangiligidir. U shu bilan qiyosiy-tarixiy metodning asosini yaratdi.

F.Bopp 1833-1852-yillarda uch tomdan iborat bo'lgan «Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi» nomli asosiy asarini e'lon qildi. Bu asarda sanskrit tiliga asoslangan holda ayrim grammatik formalarning taraqqiyotini va ularning dastlabki manbalarini aniqlash mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

F.Bopp o'z ta'limoti, asarlari bilan o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha hind-Evropa tillarining qarindoshligini isbotlab berishga erishdi. Uning izlanishlaridan hali u davrda ochilmagan, noma'lum bo'lgan xet, toxar kabi tillargina chetda qoldi. F.Bopp tilshunoslikka hind-Evropa tillari degan terminni ham olib kirdi. U o'z tadqiqotlarida, asosan, morfologiya bilan shug'ullandi, fonetika, sintaksis-gap shakllari, qo'llanishi, gap tuzilishi kabi masalalarga e'tibor bermadi. F.Bopp

tillarning qarindoshligi masalasida ham jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ydi. Ya’ni u kichik Polineziya va janubiy Kavkaz tillarini ham asossiz ravishda hind-Evropa tillariga kiritdi.

F.Bopp bilan deyarli bir vaqtda, ammo unga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan holda hind-Evropa tillarining qiyosiy-tarixiy tadqiqi bilan daniyalik buyuk tilshunos prof. Rasmus Xristian Rask ham shug‘ullandi.

Yakob Grimm. Mashhur nemis tilshunosi Yakob Grimm (1785-1863) qiyosiy-tarixiy metod yordami bilan german tillarini tadqiq qildi. Ya.Grimmning to‘rt tomndan iborat «Nemis grammatikasi» asari tilshunoslik tarixida muhim o‘rin tutadi. U ushbu salmoqli asarida nemis tili tarixiy grammatikasini boshqa barcha german tillari bilan qiyoslagan holda beradi.

Asar 1-tomining birinchi nashri 1819-yilda, mazkur tomning butunlay, tubdan o‘zgargan ikkinchi nashri 1822-yilda chop etiladi. Ayni tomndan german tillarining tarixiy fonetikasi hamda german tillaridagi undoshlarning siljishi, «ko‘chish» qonuni o‘rin olgan. Ya’ni Ya.Grimm (R.Rask, Ya.Bredsdorflar kabi) undoshlarning siljishini isbotlab beradi. Masalan, hind-Evropa tillarining nafas tovushlari (yoki nafas bilan aytiladigan tovushlar) yoki portlovchi undoshlar *bh, dh, gh* – german tillaridagi *b, d, g* tovushlariga o‘zgargan – siljigan, ko‘chgan yoki hind-Evropa tillariga oid *b, d, g* – german tillarida *r, t, k* ga; hind-evropacha *r, t, k* – germancha *f, th, h* ga siljigan, ko‘chgan, o‘tgan. Ushbu jarayon fonetik qonunlarning tan olingan dastlabki, birinchi namunasi edi. «Nemis grammatikasi» asarining barcha tomlari 1837-yilda yakunlandi.

Ya.Grimmning «Nemis tili tarixi» asari esa 1848-yilda e‘lon qilinadi. U jamiyat tarixini o‘rganishda tilning asosiy, eng muhim manba ekanligini aytadi va tilni u yoki bu xalqning madaniy-tarixiy taraqqiyotining mahsuli deb hisoblaydi. Shunga ko‘ra Ya.Grimm «Bizning tilimiz bizning tariximizdir» degan g‘oyani ilgari suradi. Haqiqatan ham – shunday Ya.Grimm ushbu asarida «Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va mozorlarga qaraganda jonliroq guvoh bor. Bu tildir», deydi.

Ya.Grimm «Nemis lug‘ati» asarida (birinchi tomi 1854-yilda, oxirgi tomi 1960-yilda e‘lon qilindi) nemis shoiri Lyuterdan tortib Gyotegacha bo‘lgan nemis tili leksikasini qamrab olishga, ko‘rsatib berishga harakat qildi.

Topshiriqlar

1-topshiriq. “Nemis tilshunoslarining qiyosiy tilshunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini” mavzusida suhbat tashkil qilish.

“Suhbat” metodi

Mashg‘ulotda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi dialogik xarakterga ega savol-javobga asoslanuvchi ushbu metod negizini jonli muloqot tashkil etadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo‘shimcha savollar berish, talabani fikrlashga undash imkoniyatining maqjudligi bilan belgilanadi. Ta‘limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi.

2-topshiriq. F.Boppning xizmatlarini tasniflash.

Nazorat uchun savollar

1. Frans Bopp 1816-yilda qaysi asarini yozdi?
2. Frans Bopp qiyoslash metodi bilan nimalarni tiklash mumkin, degan fikrni ilgari surdi?
3. F.Boppning kashfiyoti, yangiligi nimada?
4. F.Bopp «Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi» nomli asarida qanday fikrni ilgari surdi?
5. F.Bopp tilshunoslikka qaysi termini olib kirdi?
6. F.Bopp o‘z tadqiqotlarida, asosan, qaysi soha bilan shug‘ullandi?
7. Yakob Grimm qiyosiy-tarixiy metod yordami bilan qaysi tillarni tadqiq qildi?
8. Ya.Grimmning qaysi asari tilshunoslik tarixida muhim o‘rin tutadi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.
2. История лингвистических учений. Средневековый Восток. –М., 1981.

Mahalliy adabiyotlar:

3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

5-MAVZU VILGELM FON GUMBOLDT (2 soat)

Germaniyaning eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan V.Gumboldt (1767-1835) har tomonlama bilim sohibi edi. U tilshunoslik, adabiyot nazariyasi, falsafa, davlat huquqi, siyosat va diplomatik faoliyat bilan shug'ullanadi, Berlin universitetining asoschisi hamda davlat arbobi hisoblanadi.

V.Gumboldtning til bilimi nihoyatda keng bo'lib, ulkan olim nafaqat hind-Evropa tillarini bilar, balki dunyoning boshqa tillari – bask tilidan tortib, Amerikaning kichik Polineziya va mahalliy aholisining (indeeslarning) tillari haqida ham chuqur bilimga, ma'lumotga ega edi.

V.Gumboldt asarlari, g'oyalari, konsepsiyalari bilan umumiy nazariy tilshunoslikka asos soldi. Buyuk olim tilshunoslikning, idealistik ruhda bo'lsada, qator eng muhim va murakkab muammolarini hal qilib berdi, ta'limotlar yaratdi. Shu tufayli u jahon tilshunosligining keyingi taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'lgan F.Bopp uni hurmat bilan tilga olsa, G.Shteyntal, A.Shleyxer, K.Fosler, A.Pott, G.Kursius, A.Potebnya, B.de Kurtene kabi taniqli va mashhur tilshunoslar o'zlarini uning shogirdi deb hisoblaganlar.

Agar F.Bopp umumiy, nazariy g'oyalardan, qarashlardan chetlashib, asosan, faktlar yig'ish, ularni qiyoslash, ular orasidagi munosabatlarni, bog'liqliklarni aniqlash bilan shug'ullangan bo'lsa, V.Gumboldt nazariy, falsafiy g'oyalar bilan, tilning ilmiy nazariyasini yaratish bilan mashg'ul bo'ldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtning tilshunoslikdagi ahamiyatini, o'rmini I.Kant va Gegellarning jahon falsafasi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin.

V.Gumboldtning umumiy tilshunosligini til falsafasi deb aytish mumkinki, bu falsafa eng oliy lisoniy umumlashmalarni va uzoq davrlarda ham tilshunoslik rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan xulosalarni qamrab oladi. V.Gumboldt til falsafasini tiklab, uning obro'-e'tiborini ko'tardi va ayni falsafaga butunlay yangi yo'nalish berdiki, bu yo'nalish qiyosiy-tarixiy metod bilan zich bog'langan holda, uning asosida yuzaga keldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtga bo'lgan nazariyalar bo'sh, mustahkam asosga ega bo'lmagan, shunchaki, yuzaki nazariyalar edi. V.Gumboldt esa tilning ilmiy nazariyasini, til falsafasini til hodisalariga qiyosiy-tarixiy metodni qo'llash asosida qurdi, yaratdi. Natijada uning ta'limoti, lisoniy qarashlari tilshunoslik fanining taraqqiyotiga uzoq yillar davomida samarali xizmat qildi.

V.Gumboldt 1820-yilda Berlin akademiyasida «Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o'rganish haqida» degan mavzuda ma'ruza qiladi. Ushbu mavzudagi ma'ruza uning tilga oid dastlabki tadqiqoti bo'lib, muallif unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini o'rtaga tashlaydi va uni asoslab beradi.

Shuningdek, olim ma'ruzasida qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarning tipologik qiyosiy grammatikasini yaratish tarafdori bo'lib chiqadi. U o'zigacha bo'lgan, ya'ni har bir tilning o'ziga xosligini, mustaqilligini tan olmaydigan, barcha dunyo tillarini tayyor mantiqiy jadvallarga majburan kiritishga intiluvchi deduktiv umumiy grammatikani – Por Royal grammatikasini inkor qiladi. V.Gumboldt turli tillardagi aynan bir tushunchani - fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi.

V.Gumboldt hayotining oxirgi yillarida o'zining eng muhim uch tomli «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli salmoqli asari ustida ish olib boradi. Bu asar uning vafotidan so'ng akasi A.Gumboldt tomonidan 1836-1840-yillarda nashr qilindi.

V.Gumboldtning qayd etilgan tadqiqotlarining bevosita nazariya bilan bog'liq kirish qismi nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Ishning kirish qismi «Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri» deb nomlanib, turli tillarga – 1859-yilda esa rus tiliga tarjima qilinadi. V.Gumboldt aynan mana shu asarida, ayniqsa, uning kirish qismida o'zining tilga bo'lgan nazariy-falsafiy qarashlarini mukammal bayon etadi.

U tadqiqotlarida tilga aloqa vositasi sifatida, predmetlarni anglatish vazifasini bajaruvchi sifatida baho berdi. Ayni vaqtda olim tilning murakkab o'zaro qarama-qarshi xususiyatlardan iborat ko'p jihatli hodisa ekanligini qayd etadi.

V.Gumboldt tilni mukammal o'rganishda, unga xos belgi-xususiyatlarni, boshqa hodisalar bilan aloqasini, o'ziga xosligini aniqlash va ochishda antinomiya metodini, ya'ni o'zaro zid, qarama-qarshi qo'yish usulini qo'llaydi. U ushbu usul orqali tilga xos xususiyatlarni, uning eng muhim jihatlarini bir-mabir bayon etadi. Shuningdek, til nazariyasi haqidagi mukammal ta'limotlarni, g'oyalarni yaratadiki, bu ta'limot va g'oyalar nazariy tilshunoslikning taraqqiyotida yangi-yangi qarashlarni ochishda xizmat qildi. Til va tilga yondash hodisalarning, til bilan bevosita aloqador, bog'liq jarayonlarning o'zaro dialektik munosabatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xullas, V.Gumboldtning tilni o'rganish jarayonida belgilagan, qayd etgan antinomiya – til hodisalariga dialektik zidlik asosida yondashishi jahon tilshunosligilisoniy tafak-kur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

V.Gumboldtning til antinomiya (o'zaro zidligi va bir-ligi) quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. *Ijtimoiylik (sotsiallik) va alohidalik (individuallik) antinomiya*. Ya'ni til bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, sotsial, ham alohida, individual hodisa. Til bir vaqtning o'zida ham yakka, alohida shaxsga, ham ko'p shaxsga, umumga tegishli. Tilning ijtimoiyligi jamiyat bilan, shaxslar bilan - xalq mahsuli sifatida belgilansa, tilning alohidaligi bir shaxs bilan, yakka individ bilan - ayrim shaxs mahsuli sifatida belgilanadi. Alohida shaxslar o'zlarigacha bo'lgan avlodlar, xalqlar tomo-nidan yaratilgan lisoniy mahsulotdan, «hosil»dan foydalanadi.

Demak, yuqorida aytilganlardan tildagi umumiylik va xususiylik dialektikasi, antinomiya namoyon bo'ladi.

2. *Til va tafakkur antinomiya*. Til tafakkursiz, tafakkur esa tilsiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy fa-oliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o'zaro bog'liqlikda «yashaydi», insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtda ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik munosabati – o'zaro ajralmasligi, bog'liqligi va shu bilan birga ichki zidligi, qarama-qarshiligi g'oyasi kelib chiqadi. Tilning (tovushning) moddiylik, tafakkurning esa psixik hodisaligi ma'lum bo'ladi.

Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisiz mavjud emasligida, biri, tabiiy ravishda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo'lishida; ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, «tashqi» hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy, «ichki» hodisaligida ko'rinadi. Ya'ni til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o'zaro ajralmas va ayni vaqtda o'zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

3. *Til va nutq antinomiya*. Til muayyan sistemadir, «organik butunlikdir». Shuningdek, u nutqiy faoliyatning alohida aktidir (harakatidir). Boshqacha aytganda, til nutqiy fao-liyatning alohida aktlar (harakatlar) ko'rinishidagi voqe bo'lishidir. Til ayrim nutq aktidan farq qiladi va ayni vaqtda u nutq aktida, jonli nutqda mavjud bo'ladi, yashaydi. Til - faoliyat, nutq - faoliyat mahsuli, tilning voqelanishi, namoyon bo'lishidir. Demak, til faoliyati til va nutqdan tashkil topadi. Til faoliyatida til va nutq ajratiladi, farqlanadi.V.Gumboldtning til va nutq antinomiya, ularning farqlanishi, til va nutqning dialektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotiga qo'shilgan juda katta hissa bo'ldi.

4. *Nutq va tushunish antinomiya*. Til va nutq antinomiyasiga bevosita aloqada bo'lgan ushbu dialektik bog'liqlikda, «birlikda» nutq va uni tushunish, aslida, til faoliyatining turli

shakllaridir, nutqiy faoliyatning ikki tomonidir. Ya'ni so'zlar individ nutqidagina – nutq faoliyatidagina muayyan aniqlikka, ma'noga ega bo'ladi. Nutq tashqi, bevosita ta'sir qiluvchi, moddiy faoliyat bo'lsa, nutqni tushunish esa ichki, ruhiy faoliyatdir.

5. *Til holati va taraqqiyoti antinomiya*. Tilning statikligi (turg'unligi) va dinamikligi (harakatchanligi) antinomiya. Til taraqqiyotining tugallanganligi va til taraqqiyotining to'xtovsizligi antinomiya. Til tugal tashkil topgan va ayni vaqtda doimiy rivojlanayotgan hodisa, jarayondir. Har bir avlod tilni tayyor holda oldingi avloddan qabul qiladi. Bu jihatdan til tayyor holdagi – tashkil topishiga ko'ra tugallangan hodisadir. Shuningdek, til doimo ijodiy, taraqqiyotdagi, yangilanishdagi, «o'sishdagi», yangi-yangi birliklarning, shakllarning paydo bo'lishidagi «qaynayotgan» jarayondir.

6. *Tildagi obyektivlik va subyektivlik antinomiya*. Til obyektiv, ayni vaqtda subyektivdir. Til o'zining haqiqiy «hayotini» insonlar orasida qo'llanishidagina topsada, ammo uning mavjudligi, «hayotiyliigi» alohida shaxslarga bog'liq emas. U jamiyatning aloqa quroli sifatida obyektiv mavjud. Til bir vaqtning o'zida insonga ham bog'liq, ham bog'liq emas. Bir tomondan inson tilni an'anaga ko'ra qabul qilsa, o'zlashtirsa – obyektiv ravishda, ikkinchi tomondan, uning o'zi doimo tilni yaratadi, yangidan «quradi», barpo qiladi. Har gal individ nutqida til birliklari, vositalari, til «xom ashyosi» harakatga keladi, jonlanadi – subyektiv ravishda.

7. *Fikrni obyektivlashtirish va fikrni rag'batlantirish antinomiya*. Ushbu antinomiya til tinglovchi fikrni obyektivlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi, yuzaga keltiruvchi kuch, sabab sifatida namoyon bo'ladi. Til subyektida paydo bo'lgan fikrni obyektivlashtiradi, reallashtiradi, umumga yetkazadi – ta'sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni obyektivlashtirish jarayoni fikrni o'zgalarga yetkazish imkoniyatini beradi, yaratadi. Ammo ayni vaqtda har bir nutq, har bir fikrni ifodalash sub'yektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs – tinglovchi nutqni go'yoki qaytadan o'zida yaratadi.

V.Gumboldt asarlarida tilning so'z va grammatik qoidalardan iboratligini, til birligi bo'lgan so'zning esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramz ekanligini to'g'ri qayd etadi. U har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

V.Gumboldt lisoniy ta'limotining eng muhim nuqtalaridan biri til shakli (formasi) haqidagi ta'limot yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir. V.Gumboldt ta'limotiga ko'ra til formadir (shakldir). U til formasining bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini aytadi. Shulardan biri til formasining nutq tovushlaridan tashkil topishidir. Ya'ni nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana biri til formasining sistema sifatida namoyon bo'lishidir. Ya'ni har bir til elementi, birligi boshqa elementga ko'ra mavjuddir, u bilan o'zaro bog'liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan, bog'liqligidan iboratdir.

Tilning tashqi formasi tilning materiyasi, xom-ashyosidir, uning tovush sistemasidir. Aytilganidek, nutq tovushlari tilning shaklidir. Nutq tovushlari muayyan ma'no ifodalovchi til birliklarini hosil qilishda qo'llanadigan, ishlatiladigan shaklidir¹.

Tilning ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinish, fikrni tilda obyektivlashtirish usulidir, xalq ruhining ifodasidir. V.Gumboldt tilning ikki formasi haqidagi ta'limotida ichki formani xalqning ruhi bilan bog'laydi. Ya'ni ichki forma xalq ruhining qandayligini ko'rsatadi hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt fikricha, xalqning tili uning ruhidir va xalq ruhi uning tilidir. V.Gumboldtning ichki forma haqidagi ta'limotining xatosi shunda ediki, u tilning ichki formasini (shaklini) faqat milliy ruh bilan, xalq ruhi bilan va mutlaq g'oya bilan bog'laydi. Ya'ni u tillarning milliylik xususiyatini alohida tillarning konkret tarixiy taraqqiyotiga bog'liq shart-sharoitlar bilan, xalq tarixi bilan, tilni yaratuvchi, uni o'zida tashuvchi, undan foydalanuvchilar bilan bog'liq holda tushuntirmaydi. Balki tilning ichki formasini, tillarning milliylik xususiyatini mavjud bo'lmagan,

¹ Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: History and Method. –New York: Bloomsbury Academic, 2009. –P. 232.

yetarli darajada aniqlanmagan, o'rganilmagan ruhiy ibtidoning namoyon bo'lishi bilan tushuntiradi. Aniqrog'i, V.Gumboldt nemis faylasufi I.Kant kabi ongni, ruhni alohida mavjud bo'lgan ibtido deb, biladi va uni ob'ektiv mavjud bo'lgan moddiy tabiatga bog'liq bo'lmagan hodisa deb, izohlaydi. Shu ta'limotdan kelib chiqib, u tilni ruhning butun majmuidan iborat deb, ta'riflaydi va til ruhga xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanadi, deb biladi. Uning fikricha, tilda xalqning ma'naviy qiyofasini aks ettiradigan ma'lum bir dunyoqarash ifodalanadi. Boshqa tilni o'rganish bilan go'yo dunyoqarash ham o'zgaradi. Shu fikr asosida V.Gumboldt tilning «ichki formasi» haqidagi ta'limotini yaratadi. «Ichki forma», uning fikricha, bir tomondan, xalqning ruhi qandayligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, so'z yasalishi, shakllanishi jarayonida ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt nutq tovushlarini til formasi deb, so'zning nutqda qo'llangandagi qiyofasini so'zning grammatik formasi deb, ta'riflaydi. Uning bu fikrlari hamda «ichki forma» haqidagi ta'limoti, ayni ta'limotning idealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu fikrlar umum tilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir.

Aytish mumkinki, XIX asr tilshunoslik tafakkuri, taraqqiyoti V.Gumboldtning lisoniy nazariyalari asosida taraqqiy qildi. Uning ko'pgina lingvistik g'oyalari XIX va XX asr tilshunosligining rivojiga jiddiy ta'sir qildi.

Xullas, F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm, A.Vostokovlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va bu tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot usuli bo'lgan qiyosiy-tarixiy metodga asos solgan bo'lsalar, V.Gumboldt umumiy nazariy tilshunoslik faniga, uning mustaqilligiga, til falsafasiga asos soldi.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi test topshiriqlarini javoblang:

1) Qiyosiy-tipologik tilshunoslik qaysi olimlarning tadqiqotlari natijasida yuzaga keldi?

- A. F. Bopp, R. Rask, Y. Grimm, A. Vostokov
- B. V. Gumboldt, A. Potebnya
- C. A. Shleyxer, A. Marr, F. Fortunatov
- D. A.Navoiy, M. Zamaxshariy.


2) Qiyosiy-tarixiy metodning asoschisi kim?

- A. Boduen de Kurtene
- B. A.Reformatskiy
- C. Y.Grimm
- D. A. A. Shaxmatov

2-topshiriq. “Baliq skeleti” grafik organayzeri vositasida V.fon Gumboldt ta'limotidagi til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasini tushuntiring.

“Baliq skeleti” grafik organayzeri

- talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi;
- talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorutuvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni shakllantirish ko'nikmalarini hosil qiladi.
- Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



Nazorat uchun savollar

1. V.Gumboldt qaysi sohalarda faoliyat yuritgan?
2. V.Gumboldtning qaysi tillar haqida bilimga, ma'lumotga ega bo'lgan?
3. V.Gumboldt qanday falsafani tikladi?
4. V.Gumboldt qaysi asarlarni yaratdi?
5. V.Gumboldt tilni mukammal o'rganishda qaysi metodni qo'llagan?
6. V.Gumboldt tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyani qanday izohlaydi?
7. V.Gumboldt fikricha, xalqning tiliga qanday ta'rif beradi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.
2. История лингвистических учений. Средневековый Восток. –М., 1981.

Mahalliy adabiyotlar:

3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

6-MAVZU TILLAR TASNIFI (2 soat)

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning so'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning so'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi

anchagina soʻzlar oʻzlashgan. Lekin bunday soʻzlar oʻzbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos boʻlolmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat soʻzning oʻzi asos boʻla olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning soʻz boyligida boshqa tildan kirgan soʻzlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha boʻladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy soʻzlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab oʻrganishda material boʻla olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga toʻgʻri kelmaydi.

Rus, bulgʻor, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli boʻlganligi uchun bu tillarda soʻz maʼnolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha oʻxshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni koʻrsatadiki, qardosh tillarda soʻz oʻzaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir boʻlib, ular bir oʻzak tildan kelib chiqqan. Biror soʻz yoki grammatik vositalardagi tovush oʻzgarishlari maʼlum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush toʻgʻri keladi. Masalan, oʻzbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw), tog - tau (taw)**; oʻzbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi soʻzlarning maʼnolari va grammatik qurilishi bilan bogʻliq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda baʼzi tovushlar bir-biridan ozmi-koʻpmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, soʻzlarning maʼnolari oʻzaro yaqin boʻladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bogʻliq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir oʻzak tilidan tarqalganligini va ularning oʻzaro munosabatini, soʻz maʼnolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, oʻxshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

Topshiriqlar

1-topshiriq. “Bumerang” strategiyasi asosida tillarni tasniflang.

“Bumerang” strategiyasi

Texnologiya talabalarini dars jarayonida darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, soʻzlab berish fikrlarni bayon etish, qisqa vaqt ichida koʻp bilimga ega boʻlish, oʻqituvchi tomonidan barcha talabalar faoliyatini birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U oʻqituvchiga tarqatma materiallarning talabalar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali oʻzlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini taʼminlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin.

2-topshiriq. Tillarni “jadval” grafik organayzeri vositasida bir-biriga muqoyasa qilib toʻldiring.

“Jadval” grafik organayzeri

Grafik organayzer talabalarda oʻrganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qoʻllashda talabalar mavzu mohiyatini ogʻzaki bayon yoki yozma matn koʻrinishida emas, balki asosiy gʻoya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash koʻnikmalarini oʻzlashtiradi.

№	Tillar	Muqoyasa qilish
1		
2		
3		
4		

Nazorat uchun savollar

1. Qanday tillarga qardosh tillar deyiladi?
2. Qanday tillar guruhiga til oilasi deb ataladi?
3. Qanday tillarga qardosh bo'lmagan tillar deyiladi?
4. O'zlashma so'zlar deganda qanday so'zlar tushuniladi?
5. Tillarning geneologik tasnifi deganda nimani tushunasiz?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

7-MAVZU

HIND-YEVROPA TILLARI OILASI

(2 soat)

Hind-Yevropa tillari oilasiga *hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek (yunon), alban, arman tillari* kabi til guruhlarini kiradi.

1.1. Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *hind tili, urdu tili, bengal tili, maratxi tili, panjob tili, rajastoni tili, gujarati tili*. Hind tillari guruhiga *lo'li, sindxi tillari*, shuningdek, o'lik tillardan *sanskrit, pali, prokrit* tillari ham kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo'lib, bu tilda «Mahabxarata» («Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston») hamda «Xito padasha» («Yaxshi nasihat») kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o'zining mashhur «Sanskrit grammatikasi» asarini yaratgan.

1.2. Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *fors tili, pushtu-dari tillari, kurd tili, tojik tili, osetin tili, baluchi tili*.

1.3. Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *rus tili, ukrain tili, belorus tili, bulg'or tili, serb-xorvat tillari, chex tili, slovak tili, polyak tili*. Bundan tashqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi *slavyan, polab, pomor* tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

1.4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *litva tili, latish tili*.

O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

1.5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *ingliz tili, nemis tili, daniya tili, shved tili, norveg tili, golland tili, island tili*. O'lik tillardan vesgot va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

1.6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: *fransuz tili, italyan, ispan tili, portugal tili, rumin tili, moldova tili, provansal tili, sardin tili, reto-roman tili*.

O'lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

1.7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi: *irland tili, shotland tili, breton tili, uels (valli) tili*. O'lik tillardan gal va kornoul tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

1.8. Grek (yunon) tili. O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.


1.9. Alban tili guruhi.

1.10. Arman tili guruhi.

Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari, *xett, toxar* singari o'lik tillar ham kiradi.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Hind-Yevropa tillari oilasini klaster asosida tushuntiring.



2-topshiriq. Mavzuni “BBB jadvali” asosida takrorlash.

“BBB jadvali” bilan mavzuni takrorlash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Nazorat uchun savollar

1. Hind-Yevropa tillari oilasiga qaysi til guruhlar kiradi?
2. Hindiston tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?
3. Eron tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?
4. Slavyan tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?
5. Boltiq tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?
6. German tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?
7. Roman tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?
8. Kelt tillari guruhiga qaysi tillar kiradi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

8-MAVZU OLTOY TILLARI OILASI (2 soat)

Ural-oltoy tillari nazariyasining asoschisi shved ofiseri F.I.Tabbert-Stralenberg bo'lgan. U uzoq muddat Sibirda asirlikda yashab, mahalliy xalqning hayoti va tilini o'rgangan. F.I. Stralenberg (Stralenberg, 1730) to'plagan faktik materiallari asosida ural (ugor-fin, samodiy) va oltoy (turkiy, mo'g'ul tungus-manjur) tillarining tasnifini bergan, ularning o'xshash tomonlari va qarindoshligi masalasiga e'tibor qaratgan dastlabki olim edi¹. Keyinchalik ural-oltoy tillari nazariyasi ural va oltoy tillari sohasida izlanishlar olib borgan qator tadqiqotchilar tomonidan atroflicha rivojlantirildi (Wiedemann 1838; Schott 1839, 1849; Winkler 1884, 1885; Boller 1859; Bang 1890).

Ural-oltoy tillari nazariyasining vakillari ko'proq oltoy va ural tillari strukturasi tipologik o'xshashligiga, shuningdek, grammatika va leksikadagi qator materiallarning bir xilligiga asoslanishadi. Ural-oltoy tillari nazariyasining vakillari quyidagi xususiyatlarni mazkur tillarning asosiy tipologik o'xshashligi hisoblashadi:

1. *Fonetika sohasida:* a) unli tovushlar ohangdoshligi; b) undosh tovushlar assimilyatsiyasining umumiy qonuniyati; v) jarangli undosh tovushlarning so'z o'zagida barqarorligi; g) so'zlarning bir undosh bilan boshlanishi (biroq hozirgi koreys tilida so'z boshida qo'sh undosh kelishini ham ta'kidlash joiz – Sh.U.); d) differensial leksik ma'noli singlarmonik paralellikning mavjudligi; ye) so'z birikmalarida asosiy urg'uning aniqlovchiga tushishi.

2. *Morfologiya sohasida:* a) so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi affikslar agglyutinatsiyasining ustunligi; b) predloglar o'rniga ko'makchilarning qo'llanilishi; v) artikllarning yo'qligi; g) grammatik rod kategoriyasining yo'qligi; d) egalik kategoriyasining mavjudligi; ye) qiyosiy daraja hosil qilishda chiqish kelishikli konstruksiyaning qo'llanilishi; j) boshqa tillardagi "ega bo'lmoq" fe'lli konstruksiyalarning o'rnini bosa oladigan qaratqichli konstruksiya; z) egalik qo'shimchalari olib o'zgarish; i) birlik va ko'plikdagi otlarga bir xil affikslarning birikishi; k) fe'l formalari yasovchi affikslarning ko'pligi; l) agglyutinativ so'roq yuklamasining mavjudligi; m) ko'plik tushunchasining birlik formasi bilan ham berilishi; n) kishilik va ko'rsatish olmoshlarining genetik aloqasi; o) bosh kelishik funksiyasining turli-tumanligi.

3. *Sintaksis sohasida:* a) gap va so'z birikmalarida aniqlanmish bilan to'ldirilmishning aniqlovchi va to'ldiruvchidan oldin kelishi; v) so'roq konstruksiyalarning so'roq yuklamasi vositasida shakllanishi; g) ergash gaplar o'rnida masdar, sifat-dosh va ravishdoshli obrotlarning kela olishi; d) tushum kelishigida shakllangan ob'ektning mantiqiy ajralishi; ye) material nomini anglatuvchi otlarning morfologik ko'rsatkichsiz aniqlovchi vazifasida qo'llanilishi; j) aniqlovchi funksiyasida keladigan son va sifatning o'zgarishligi.

Ural-oltoy tillarining keng ko'lamli leksikasi A.Sauvageotning *Recherches sur la vocabulaire des langues ouralo-altaïques* (Paris, 1930) nomli tadqiqotida o'rganildi. Unda fin-ugor va oltoy tillaridagi 214 ta mushtarak so'z birlashtirilib, ayrim tovushlarning tarixiy taraqqiyoti ko'rsatib berildi. Ural-oltoy tillarining sintaksisi venger tilshunosi D.R.Fokosh-Fuks tomonidan o'rganildi (Fuchs D.R. *Übereinstimmungen in der Syntax der finnisch-ugrischen und türkischen Sprachen // Finno-ugrische Forschungen.* – Helsinki, 1937. - № 24). Qayd qilingan tillarning

¹ Lyle Campbell, William J. Poser. *Language Classification: History and Method.* –New York: Bloomsbury Academic, 2009. –P. 237.

morfologik yaqinligi B.Kollinderning “La parenté linguistique et le calcul des probabilités” nomli tadqiqotida ko‘rsatib berildi.

Oltoy tillarining qarindoshlik ko‘lami Ye.D.Polivanov va G.I.Ramstedt tomonidan kengaytirilib, mazkur til oilasiga koreys va yapon tillari ham kiritildi. Xususan, Ye.D.Polivanov koreys tilini nafaqat fonetik, balki morfologik jihatdan ham oltoy tillariga tenglashtirishga uringan dastlabki olim edi (Поливанов Е.Д. К вопросу о родственных отношениях корейского и “алтайских” языков // – М.: Изд-во АН СССР, 1927. Сер. 6 - № 15 – С. 1195-1204).

Ye.D.Polivanovdan bir yil keyin G.I.Ramstedt koreys tilini boshqa oltoy tillariga aloqador qilgan “Remarks on the Korean Language” nomli maqola e‘lon qilib, unda oltoy tillaridan mo‘g‘ul va turkiy tillarning, koreys tili bilan esa tungus tilining yaqin ekanligini ilgari surdi. Keyinchalik Berlin Fanlar Akademiyasida o‘qigan “Über die Stellung des Koreanische” nomli ma‘ruzasida yuqoridagi fikrini o‘zgartirib, mo‘g‘ul tilining turkiy tillar bilan birga tungus tillariga ham yaqinligini, koreys tilining tungus tillariga yaqin bo‘lish bilan birga boshqa tarafdin turkiy tillarga ham yaqinligini ta‘kidlagan. G.I.Ramstedning shogirdi N.N.Poppe mo‘g‘ul tili bilan tungus-manjur tillari orasida koreys tiliga nisbatan ko‘proq yaqinlik mavjudligini qayd qilib, chuvash-turk-mo‘g‘ul-tungus-manjur tillari oilasini taklif qilgan (On Chuvash-Mongolian linguistic contacts // Journal of the American Oriental Society. – Baltimore, Maryland, 1977. - № XCVII, 2).

Boshqa bir tomondan oltoy tillari nazariyasining muxoliflari hisoblangan J.Kloson, G.Dyorfer, A.M.Shcherbak va A.Rona-Tashlar turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manjur tillari orasidagi ba‘zi umumfonetik qoidalarni e‘tirof etishgani holda, bu tillardagi mushtarak so‘zlarning aksariyatini o‘zlashmalar deb izohlashgan. Oltoy tillarining qarindoshligi J.Janxunen (1992) va A.Vovin (2005) kabi tadqiqotchilar tarafidan ham inkor etib kelinmoqda. Ayrim olimlar koreys va yapon tillarini oltoy til birligiga kiritishga qarshi chiqadilar. Shunga qaramay, R.A.Miller (Japanese and the Other Altaic Languages. - Chicago: University of Chicago Press, 1971) tarafidan ilgari surilgan yapon tilining oltoy tillariga qarindoshligi g‘oyasi S.A.Starostinning (Алтайская проблема и происхождение японского языка. – М.: Наука, 1991)¹ monografik tadqiqotida uzil-kesil isbotini topdi.

Oltoy tillari doirasida keng miqyosda qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, fonetika sohasi atroflicha o‘rganildi. Xususan, G.I.Ramsted, Z.Gombots, P.Pellio, A.Sovajo, V.Ya.Vladimirsov, N.N.Poppe kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida oltoy tillarining fonetik strukturasi shakllantirilib, unli va undosh tovushlarning tavsifi berildi. Keyinchalik V.I.Sinsius, G.D.Sanjeyev, P. Aalto, V.M.Illich-Svitich, T.Tekin, U.Baychura, X.U.Che, Ye.A.Xelimskiy, S.A.Starostin, A.V.Dibo singari tadqiqotchilar tarafidan oltoy tillarining unli tovushlari labial va palatal, undosh tovushlari labial, dental, apikal, palatal, lateral, guttural va initial tovushlarga tasniflanib, proto-oltoy tilining tovushlar sistemasi rekonstruksiya qilindi.

Qator tadqiqotlar oltoy tillarining qiyosiy-tarixiy morfologiyasini o‘rganishga bag‘ishlandi. Oltoy tillarining birinchi qiyosiy-tarixiy grammatikasi nemis tilshunosi V.Shott tomonidan yozildi. Oltoy tillaridagi sonlar B.Laufer, V.Shott, G.I.Ramsted, B.Munkasi, F.Kraelis, V.Kotvich, olmoshlar A.Boller, F.Muller, V.Kotvich, kelishiklar V.Bang, B.Laufer, D.Shinor, N.N.Poppe tomonidan o‘rganildi.

Oltoyshunoslikda keyingi yillarda amalga oshirilgan yirik monografik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etdi. G.I.Ramstedning “Введение в алтайское языкознание” nomli fundamental asari oltoy tillari qiyosiy grammatikasining sintetik tadqiqiga bag‘ishlandi. V.Kotvichning “Исследование по алтайским языкам” nomli tipologik tadqiqotida turkiy, mo‘g‘ul va tungus-manjur tillarining morfologiya va sintaksisidagi o‘xshash va o‘ziga xos jihatlar qayd qilinib, ushbu tillarning umumiy rivojlanish jarayonlari ko‘rsatib berildi. O.P.Sunikning tahriri ostidagi “Очерки сравнительной морфологии алтайских языков” nomli to‘plamda oltoy tillarining qiyosiy morfologiyasiga bag‘ishlangan qator maqolalar nashr qilindi. N.A.Baskakovning “Алтайская

¹ Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: History and Method. –New York: Bloomsbury Academic, 2009. –P. 235-236.

семья языков и её изучение” asarida oltoy tillarining tasnifi, oltoyshunoslikdagi yo‘nalishlar bilan birga, oltoy tillarining yaqinligi va qarindoshligini isbotlovchi morfologik materiallar keltirilgan. X.U.Chening “Türkçe ile Korecenin Karşılaştırmalı Morfolojisi” nomli dissertatsiyasida oltoy tillarining morfologiyasi qiyosiy-tarixiy planda o‘rganildi.

Oltoy tillarining qiyosiy-tarixiy leksikologiya sohasidagi dastlabki tadqiqotlar V.Shott, I.Grunsel, Ye.Kallivulis va V.I.Sinsus tarafidan amalga oshirildi. Oltoy tillarining qiyosiy leksikologiyasi va etimologiyasi sohasidagi asosiy fundamental tadqiqot G.I.Ramstedtning “Kalmückisches Wörterbuch” nomli asarida o‘z aksini topdi. So‘nggi yillarda oltoy tillarining leksikasiga bag‘ishlangan leksik-tematik guruhlar bo‘yicha alohida tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, qarindoshlik terminlari V.I.Sinsus, Sh.R.Usmanova, somatik terminlari V.D.Kolesnikova, Sh.R.Usmanova, unvon nomlari X.U.Che, hayvon va qushlarning nomlari K.A.Novikova E.F.Ishberdin, G.E.Kornilov, o‘simlik nomlari A.V.Dibo, metall nomlari V.I.Sinsus, T.G.Bugayevalarning maqolalarida o‘rganildi. A.V.Diboning “Семантическая реконструкция в алтайской этимологии. Соматические термины (Плечевой пояс)” nomli monografiyasida oltoy tillarining semantik rekonstruksiya metodi somatik leksemalar misolida ishlab chiqildi. S.A.Starostinning “Алтайская проблема и происхождение японского языка” nomli monografiyasida oltoy tillaridagi 114 ta tayanch leksema tadqiq qilinib, shulardan 81 tasining umumoltoycho o‘zakdan kelib chiqqanligi isbotlandi va yapon tilining oltoy tillari oilasiga kiritish masalasi uzil-kesil hal qilindi. S.A.Starostin, A.V.Dibo va O.A.Mudraklarning salkam yigirma yillik mashaqqatli mehnatlarining mahsuli bo‘lgan “An Etymological Dictionary of the Altaic Languages” nomli oltoy tillarining 3 jildlik ulkan etimologik lug‘atining nashr qilinishi oltoyshunoslikda katta burilish yasadi. Qiyosiy-tarixiy va rekonstruksiya metodiga asoslangan mazkur lug‘atda oltoy tillaridagi 2800 ta leksemaning etimologik tahlili berildi¹.

O‘zbek tilshunosligida oltoyshunoslik sohasidagi dastlabki tadqiqot Sh.R.Usmanovanning “Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi” (2011) nomli doktorlik dissertatsiyasida amalga oshirildi². Mazkur tadqiqotda Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika qiyosiy-tarixiy, diaxron hamda sinxron aspektlarda o‘rganilib, ularning etimologiyasi belgilangan. Maishiy so‘zlarning proto-shakllarini qayta tiklangan.

Topshiriqlar

1-topshiriq. “Jadval” grafik organayzeridan foydalanib Oltoy tillari oilasini tasniflang.

“Jadval” grafik organayzeri

Grafik organayzer talabalarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda talabalar mavzu mohiyatini og‘zaki bayon yoki yozma matn ko‘rinishida emas, balki asosiy g‘oya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Mashg‘ulotda grafik organayzerni qo‘llash bo‘yicha talabalarga quyidagi jadvallar namunasini taqdim etish mumkin:

Turkiy tillar	Mo‘g‘ul tillari	Tungus-manjur tillari	Koreys tili	Yapon tili

¹ Starostin S., Dybo A. and Mudrak O. An Etymological Dictionary of the Altaic Languages. I-III. –Leiden-Boston: Brill, 2003.

² Усманова Ш.Р. Олтой тилларидаги муштарақ маиший лексика тадқиқи. Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 2011.

2-topshiriq. Mavzuni “BBB jadvali” asosida takrorlash.

“BBB jadvali” bilan mavzuni takrorlash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Nazorat uchun savollar

1. Ural-oltoy tillari nazariyasining asoschisi kim?
2. Ural-oltoy tillari nazariyasining vakillari ko‘proq qaysi materiallarga asoslanishadi?
3. Ural-oltoy tillarining asosiy tipologik o‘xshashligi nimalarda ko‘rinadi?
4. Oltoy tillarining qarindoshlik ko‘lami qaysi olimlar tomonidan kengaytirilgan?
5. G.I.Ramstedtning qaysi asarida koreys tili boshqa oltoy tillariga aloqador qilingan?
6. Oltoy tillari nazariyasining muxoliflari qanday fikrlarni ilgari surishgan?
7. Oltoy tillarining qiyosiy-tarixiy morfologiyasi qaysi olimlar tomonidan o‘rganilgan?
8. O‘zbek tilshunosligida oltoyshunoslik sohasidagi dastlabki tadqiqot qaysi olim tomonidan amalga oshirilgan?

Xorijiy adabiyotlar:


1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.
4. Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. Монография. – Тошкент: Фан, 2010.

**9-MAVZU
AGGLYUTINATIV TILLAR
(2 soat)**

Agglyutinativ tillar (lot. *agglutinate* – ulash, yopishtirish)da so‘z o‘zgarishi va so‘z yasalishi asosan affikslarning qat’iy ketma-ketligiga ko‘ra amalga oshiriladi. Agglyutinativ tillar guruhiga oltoy tillari, fin-ugor, dravid, bantu tillari kiradi.



F.F. Fortunatov agglutinativ tillarning morfologik xususiyatini shunday ta'riflaydi: "Ayrim so'z formalariga ega bo'lgan til oilalarining aksariyatida bu formalar so'zlarda negiz va affiksning shunday ajralish vositasi orqali yasaladiki, bunda negiz yo fleksiyaga ega bo'lmaydi, yoki negizda bunday fleksiya yuz bersa ham, u so'z formasi uchun zarur narsa emas... Bunday tillarni morfologik tasniflashda, garchi noaniq ravishda bo'lsa ham, agglutinatsiyalashuvchi yoki agglutinativ, ya'ni yopishtiruvchi tillar termini bilan atash odat bo'lib qolgan. Bunda so'z formalarida negiz va affiks o'z ma'nolariga ko'ra so'zning bir-biriga yopishtirilgan ayrim qismlari sifatida kelaveradi".

Turkiy tillar, jumladan o'zbek tili affiksial morfemalari tabiatiga ko'ra agglutinativ hisoblanadi. Agglutinatsiya «ketma-ketlik», «yopishtirish» ma'nosidagi so'z bo'lib, qo'shimchalarning o'zakka ma'lum tartib va ketma-ketlikda qo'shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglutinativ tillarda so'z shakllari o'zgarimas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, *-lar* faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo'shimchanning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma'nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

Ta'kidlanganidek, turkiy tillarda (o'zbek tilida) o'zakka dastavval, so'z yasovchi qo'shimchalar (morfemalar), keyin lug'aviy shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat'iy qoida morfem tahlilda, ya'ni so'zlarni ma'noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o'rtoqlarcha, mardlarcha* so'zlari *o'rtoq-lar-cha, mard-lar-cha* ko'rinishida emas, balki *o'rtoq-larcha, mard-larcha* tarzida ma'noli qismlarga ajratiladi.

O'zbek tilidagi affiksial morfemalar o'zak morfemadan keyin qo'shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo'shimchalar o'zbek tili tabiatiga xos emas. Tilimizdagi *ser-(sersuv)*, *no-(nomard)*, *be-(begunoh)*, *ba-(badavlat)*... kabi old qo'shimchalar fors-tojik tiliga xos bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillar ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashib ketgan. Old qo'shimchalar rus-baynalmilal so'zlarida ham uchraydi.

Bu tillarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Affikslarga boy, gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun asosan ana shu qo'shimchalardan foydalaniladi.

2. Bir affiks bir grammatik ma'no ifodalaydi; shu xususiyati bilan agglyutinativ tildagi affikslar fleksiyalardan farq qiladi, qiyoslang: *nuuy yoz-yap-m-an*.

O'zbek tilidan olingan misolda *-yap* – zamon ko'rsatkichi, *-m* – shaxs ko'rsatkichi, *-an* – son ko'rsatkichidir. Rus tilida bu ko'rsatkichlar hammasi faqat birgina – *u* bilan ifoda etiladi.

3. Affikslar asosan bir xil ko'rinishga ega bo'lib, variantlari deyarli yo'q. Masalan, o'zbek tilida ko'plik faqat *-lar* qo'shilishi orqali yasaladi; kelishik qo'shimchalarining deyarli hammasi o'z ko'rinishiga ega.

4. O'zak, negiz, grammatik affikslar orasidagi chegara doim aniq, masalan: *ish – chi – lar – dan*; *dars – lik – lar – ni*.

5. Ko'pchilik agglyutinativ tillarda so'z tartibi nisbatan qat'iy. So'z tartibining buzilishi hamma vaqt ham so'zning funksiyasini o'zgarishiga olib kelmaydi; qat'iy so'z tartibi ko'proq til an'anasi bilan bog'liq. Masalan, o'zbek tilida oddiy gaplardagi so'z tartibi quyidagicha: E-T-K.

6. So'zlarga qo'shiladigan affikslar o'zakka ma'lum tartib asosida qo'shiladi.

7. Agglyutinativ tillar affikslarning o'zakdan oldin yoki keyin turishiga ko'ra old qo'shimchali (prefiks) agglyutinativ tillar va ort qo'shimchali (postfiks) agglyutinativ tillarga bo'linadi.

**Префиксал агглютинатив
тиллер**


**Постфиксал агглютинатив
тиллер**

Turkiy tillar ort qo'shimchali (postfiks) agglyutinativ tillardir. Afrikadagi suaxili prefiks tildir. Masalan, *anamataka* so'zida uchta prefiksdan keyin o'zak o'rin olgan: *a-na-m-ataka* (u buni xohlaydi).

8. Agglyutinativ tillarga singarmonizm hodisasi xosdir.

Topshiriqlar

1-topshiriq.



2-topshiriq. Guruhlarga bo'linib, quyidagi vazifani bajaring.

1-guruh uchun o'quv topshiriqlari

№	Talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
	<p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:</p> <p>1. Agglyutinativ tillarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?</p> <p>2. Agglyutinativ tillar guruhiga qaysi tillar kiradi?</p>	<p>Talabalar guruhi bilan hamkorlikda ishleng</p> <p>Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.</p>

2- guruh uchun o'quv topshiriqlari

№	Talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: 1. Agglyutinativ xususiyatga ega bo'lgan Sharq tillaridan misollar yozing. 2. O'zbek tilidan misollar yozing.	Talabalar guruhi bilan hamkorlikda ishleng Talabalar bilan o'tkaziladigan savol -javobda faol ishtirok eting.

Nazorat uchun savollar

1. Agglyutinativ tillarning asosiy xususiyatlari qanday bo'ladi?
2. Agglyutinativ tillar guruhiga qaysi tillar kiradi?
3. F.F.Fortunatov agglyutinativ tillarning morfologik xususiyatiga qanday ta'rif bergan?
4. Agglyutinativ tillardan misollar keltiring.

Xorijiy adabiyotlar:


1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova G., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. Darslik. -Toshkent: 2013.

10-MAVZU FLEKTIV TILLAR (2 soat)

Flektiv tillar (lot. *flexio* – egilmoq, bukilmoq). Flektiv tillar kategoriya ma'nolarining fleksiyalarda ifodalanishi bilan (masalan, rus tili) xarakterlanadi. Flektiv tillar tipiga hind-Yevropa va xom-som tillar oilasiga mansub bo'lgan tillar kiradi.



Bu tillarni sintetik flektiv tillar va analitik flektiv tillarga ajratiladi. Sintetik flektiv tillarga nemis, rus tillariga o‘xshagan fleksiyalarga boy tillar kiritiladi. Nutqda so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatlar asosan fleksiyalar asosida amalga oshiriladi. Analitik flektiv tillarda, garchi fleksiyalar bo‘lsa ham ularning miqdori katta emas, gapdagi so‘zlar orasidagi sintaktik munosabat ko‘proq so‘z tarkibi va yordamchi so‘zlar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun analitik tillarda so‘z tartibi qat’iy, har bir gap bo‘lagi o‘z o‘rnida turishi shart. Analitik flektiv tillarga ingliz, fransuz tillari kabilar kiradi. Bu tillarda odatda gapning egasi birinchi o‘rinda (kesimdan oldingi o‘rinda), kesim ikkinchi o‘rinda (egadan keyingi o‘rinda), agar kesim o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lsa, unda uchinchi o‘rinda (kesimdan keyin) to‘ldiruvchi turadi. Aniqlovchining o‘rnini oldindan belgilab bo‘lmaydi. U doimo ot bilan bog‘langan bo‘ladi; aniqlanmish qaerda bo‘lsa, aniqlovchi ham shu yerda bo‘ladi; u ega vazifasini bajarayotgan so‘zdan oldin ham, qo‘shma ot kesim vazifasida kelgan otdan oldin ham turishi mumkin. Hol esa ma’nosiga ko‘ra gapda turli o‘rinlarni egallab turishi mumkin. Sintetik flektiv tillarda so‘z tartibi nisbatan erkin.

Flektiv tillarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar

1. Bir fleksiya bir necha ma’noni anglatishi mumkin. Masalan, rus tilidagi *вижу-у* so‘ziga qo‘shilgan *-y* fleksiyasi bir vaqtning o‘zida shaxs, son, zamonni ko‘rsatadi.

2. Bir fleksiya bir nechta variantga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, rus tilida otlarda ko‘plik *ы, -и, -а, -я* kabi qo‘shimchalar yordamida yasaladi: *столы, стулья, дома, книги*.

3. O‘zakka va negizga fleksiya qo‘shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin: *бежать – бегу; писать – пишу*.

4. O‘zak va negiz, negiz va grammatik fleksiyalar o‘rtasidagi chegarani aniqlash ko‘p qiyinchiliklar tug‘diradi: *мыться – моюсь; пить – пью*.

5. Ichki fleksiyalarga boy. Masalan, arab tilida:

kitab – *китоб*

kutub – *китоблар*


tiktib – *у (женский род) ёзпти*


jiktib – *у (мужской род) ёзпти*

uktub – *мен ёзпман*.

Topshiriqlar

1-topshiriq.





2-topshiriq. Flektiv tillar haqida ma'lumot topib, konspekt qiling.

Nazorat uchun savollar

1. Flektiv tillarning asosiy xususiyatlari qanday bo'ladi?
2. Flektiv tillar guruhiga qaysi tillar kiradi?
3. "Flektiv" so'zining ma'nosini izohlang.
4. Flektiv tillardan misollar keltiring.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova G., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. Darslik. -Toshkent: 2013.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. - М.: Высшая школа, 1983.

11-MAVZU IHOTALANGAN TILLAR (AMORF TILLAR) (2 soat)


Ihtotalangan tillar (amorftillar). Bu tillarga asosan xitoy-tibet tillari (xitoy, tibet, tay, vietnam va boshqalar) kiradi. Ularning xususiyatlari so'zlari ko'proq bir bo'g'iniligi, affikslar, fleksiyalar yo'qligi, gapda so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish asosan so'z tartibi, yordamchi so'zlar va ohang orqali amalga oshirilishidir.

Ihtotalangan tillarda so'zlar izolyatsiyalangan, qo'shimchalarsiz ishtirok etadi. So'zlarning gapda tutgan o'rni uni qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanini ko'rsatadi. Tilshunoslik tarixida bu tillar "amorft", ya'ni "formasiz" tillar nomini olgan. Grammatik forma tillarda bir xil namoyon bo'lmaydi (agglyutinativ, flektiv o'ziga xos). Ihtotalangan tillarning formasi o'ziga xos ravishda yasaladi. Ulardagi so'zlar o'z formalarini gapdagi o'rinlar orqali ifoda etadilar yoki ohang yordamida amalga oshiradilar.

Xitoy tilida soʻz oʻzgartish qoʻshimchalarining yoʻqligini quyidagi misol yordamida koʻrsatish mumkin: *Vo syan chjao-syan* (Я хочу сфотографироваться).

Rus tilida eganing koʻplikda oʻzgarishi kesimning shaklini oʻzgarishiga olib keladi, xitoy tilida esa bunday oʻzgarish boʻlmaydi. Qiyoslang: *Мы хотим сфотографироваться. Во-мен syan chjao-syan* (men- – koʻplikni koʻrsatuvchi yordamchi soʻz).

Xitoy tilida ohanglar maʼno farqlash xususiyatiga ega boʻladi. Ayni boʻgʻin ohangga koʻra turli maʼnolarga ega boʻladi. Masalan: ㄅshuD (birinchi ohang) – kitob, ㄆshuD (ikkinchi ohang) – yetilgan, pishgan, ㄇshuD (uchinchi ohang) – sanamoq, ㄏshuD (toʻrtinchi ohang) – daraxt.



Topshiriqlar

1-topshiriq. FSMU texnologiyasi asosida xitoy va tibet tillari haqidagi fikrlaringizni bayon eting.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda oʻquv jarayonlarini bahs-munozarali oʻtkazishda qoʻllaniladi, chunki bu texnologiya oʻquvchilarning oʻz fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va boshqalarga yetkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini oʻrgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qogʻozga oʻz fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab koʻrsating

M -koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni toʻldiring

1-guruh

Fikr yoki g'oya	Xitoy tili
(F) – fikringizni bayon eting	
(S) – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) – fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Fikr yoki g'oya	Tibet tili
(F) – fikringizni bayon eting	
(S) – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) – fikringizni umumlashtiring	

2-topshiriq. Mavzuni “BBB jadvali” asosida takrorlash.

“BBB jadvali” bilan mavzuni takrorlash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Nazorat uchun savollar

1. Ihtalangan tillarning asosiy xususiyatlari qanday bo'ladi?
2. Ihtalangan tillar guruhiga qaysi tillar kiradi?
3. Xitoy tilidagi ohanglarning ma'no farqlarini izohlang.
4. Ihtalangan tillardan misollar keltiring.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova G., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. Darslik. –Toshkent: 2013.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

12-MAVZU POLISINTETIK TILLAR (2 soat)

Polisintetik (mujassamlantiruvchi) *tillar*. Bu tillarga amerikalik hindular va Rossiyadagi chukot, koryak tillari kiradi. Mazkur tillar ko‘p jihatdan hali o‘rganilmagan. Polisintetik tillarning asosiy xususiyatlari harakatning turli ob‘ektlari va holati gapning alohida bo‘laklari bilan emas (to‘ldiruvchi, hol), balki kesimni ifodalovchi fe‘l tarkibiga kirgan turli affikslar vositasida ifodalanadi. Uning tarkibiga ba‘zan ega ham kiradi. Bu tillarda so‘z tushunchasi nisbiydir. Chunki bu tillardagi so‘z tushunchasi boshqa tillardagi ayrim tovushlarga to‘g‘ri kelib, o‘zining uzil-kesil ma‘nosini faqat gap tarkibidagina kashf etadi. Bu tillardagi gaplar boshqa tillardagi so‘zga to‘g‘ri keladi. Masalan, chukotlar tilida *timingintorkin* so‘zi ruscha *Я вынимаю руки* gapi bir so‘z bilan beriladi: ты – мен, минги – руки, нто- выход, ркин– делание.

Yoki chinuk tilida (Shimoliy Amerika hindulari tili) *inialudam* “men buni unga bergani keldim”. Bu gapda d – “bermoq” fe‘lining o‘zagi, i – yaqin o‘tgan zamon, n – men, i – bu, a – unga, l – vositasiz to‘ldiruvchi, u – gapiruvchi tomonidan bajariladigan ish-harakat, am – kelmoq.

Shunday qilib, mujassamlashtiruvchi tillardagi bir so‘z-gap boshqa tillarda bir nechta so‘zlar orqali ifoda qilinadi.

Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi to‘g‘risida gap borganda hech bir til o‘z xususiyatlari bilan boshqa tilga mutloq mos kelmasligini aytib o‘tish o‘rinlidir, demak, tipologiya absolyut emas, nisbiydir. Tillar o‘zlarining ko‘proq xususiyatlari bilan u yoki bu turga mansub bo‘lishi mumkin. Har bir tilda flektiv, agglyutinativ va boshqa elementlar bo‘lishi tabiiy. Masalan, o‘zbek tili agglyutinativ til, lekin unda fleksiya uchrashi mumkin: keldik so‘zidagi –k bir vaqtning o‘zida ham shaxsni, ham sonni ko‘rsatadi. Ingliz tili analitik flektiv bo‘lsa ham shunga o‘xshagan agglyutinativ vositalari bor. Demak, tillarni u yoki bu turga kiritishda ularning qaysi xususiyatlari ko‘proqligiga asoslaniladi.


Hozirgi davr tilshunosligida tillarning morfologik tasnifiga yangicha qarashlar yuzaga kelgan. Bunda sinergetikaning qonuniyatlaridan kelib chiqilmoqda. Masalan, an’anaviy tasnif bo‘yicha o‘zbek tili agglyutinativ til hisoblanadi, ammo sinergetik qonuniyatlarga ko‘ra unda ham fleksiya xususiyatlari borligi aniqlangan. Bugungi kunda ingliz tilida agglyutinatsiya elementlari borligi kuzatilmoqda. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, dunyo tipologik jihatdan sof holdagi biror bir til yo‘q, ya’ni har bir tilda u yoki bu darajada agglyutinatsiya ham, fleksiya ham kuzatilishi mumkin. Faqat bir tilda agglyutinatsiya, bir tilda esa fleksiya yuqori darajada bo‘lishi mumkin.


Topshiriqlar

1-topshiriq. Polisintetik tillarning asosiy xususiyatlarini “Qanday?” grafik organayzeri vositasida tushuntiring.

“Qanday?” grafik organayzeri

Grafikik organayzer talabalarda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Uni qo‘llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.





2-topshiriq. Turli tillardagi polisintetik elementlarni qiyosiy tahlil qiling.

Nazorat uchun savollar

1. Polisintetik tillarning asosiy xususiyatlari qanday bo‘ladi?
2. Polisintetik tillar guruhiga qaysi tillar kiradi?
3. Sharq tillaridagi flektiv, agglyutinativ va polisintetik elementlarni izohlang.
4. Polisintetik tillardan misollar keltiring.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova G., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. Darslik. –Toshkent: 2013.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

13-MAVZU **QIYOSIY TILSHUNOSLIK METODLARI** **(4 soat)**

Qiyosiy tilshunoslikda, asosan, qiyosiy-tarixiy metod, tipologik metod va chog‘ishtirma metodlardan foydalaniladi.

Qiyosiy-tarixiy metod yoki tarixiy-genetik metod lingvistik metodlarning eng faoli va eng asosiysi hisoblanadi.

Qiyosiy-tarixiy metod – o‘zaro qarindoshlik munosabatidagi tillarning birliklarini, asosan, tovush, qo‘shimcha va so‘zlarni tarixiy jihatdan qiyoslash natijasida ularning dastlabki shaklini, qiyofasini, ma’nosini tiklaydi, ular orasidagi o‘xshashlikni aniqlaydi.

Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari hind va qator Yevropa tillari tarixan bitta asos, umumiy tildan, ya’ni bobo til (prayazik)dan ajralib chiqqan, ushbu tilning bo‘linishi, turli tomonlarga tarqalishi natijasida yuzaga kelgan, shakllangan degan g‘oyani ilgari suradilar.

Qiyosiy-tarixiy metod orqali qarindosh tillarga oid til materiallari asosida dastlab so‘zlarning talaffuzi hamda ma’nosi qanday bo‘lganligi aniqlanadi, shundan so‘ng ular qiyoslaniladi. Natijada tahlil qilinayotgan so‘zning eng qadimgi shakli (etimologik shakli) va ma’nosi (etimologik ma’nosi) haqida ma’lumot beriladi.

Qiyosiy-tarixiy metodning qo‘llanishi natijasida quyidagilar amallar bajariladi: a) qiyoslash uchun material to‘plash; b) qator qiyoslanadigan birliklarni belgilash va ularni aynan bir narsa deb hisoblash; v) fonetik o‘zgarishlarni nisbiy xronologiyasini belgilash; g) arxetip rekonstruksiyasini aniqlash (so‘z va morfemalarning eng qadimgi shakli va ma’nolarini tiklash).

Tipologik metod – turli tillar sistemalarini umumlashtirib, qiyoslab o‘rganishdir. *Tipologik metodda* o‘zaro qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar struktur jihatdan qiyosiy o‘rganilib, ularning tuzilishiga xos xususiyatlar, umumiy va farqli tomonlar aniqlanadi. Ushbu xususiyatiga ko‘ra mazkur metod faqat bir til oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy tadqiq qiluvchi, “baholovchi” qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi.

Tipologik metod qiyosiy-tarixiy metod bilan hamkorlikda ish olib boradi, uni to‘ldiradi, chuqurlashtiradi.

Tipologik metod chet tillarni ona tiliga qiyoslab o‘rganish jarayonida ushbu tillardagi fonetik, leksik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini aniqlaydi va ilmiy xulosalar chiqaradi.

Tipologik metodning mohiyati shundan iboratki, bunda tillar genetik jihatdan qaysi til oilalariga mansubligidan qat’iy nazar ular o‘z strukturalaridagi o‘xshash va farqli jihatlariga ko‘ra qiyoslaniladi, ya’ni o‘rganilayotgan, qiyosga olingan tillarning struktur-qurilish xususiyatlari aniqlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi.

“Tipologik metodning paydo bo‘lish sababi shundaki, barcha tillar tashqi jihatdan farqli bo‘lsada, ammo ichki tuzilishiga ko‘ra o‘xshashdir, ya’ni ular tuzilishi (strukturasi) asosida aynan bir xil prinsip yotadi”.

Tillarni tipologik o‘rganish maqsadini belgilashda bir qancha yondashuvlar, qarashlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Klassifikasion yondashuv – tillarga tasnifiy yondashuv, morfologik tasnif sifatida o‘zak va qo‘shimchalar o‘zaro zid holda qiyoslab o‘rganiladi.

2. Xarakterologik yondashuv – bunda qiyolanayotgan har bir tilning o‘ziga, tuzilishiga xos muhim, xarakterli xususiyatlar ma’lum bo‘ladi, aniqlanadi.

3. Belgili yondashuv – tillarga muayyan belgi-xususiyatlar (masalan, fonetik, morfologik va b.) jihatidan yondashuv bo‘lib, unda til sathlari tipologiyasi (fonetik, leksik, sintaktik tipologiya kabilar) ham kuzatiladi.

4. Ichki sistem yondashuv – bu holda muayyan tildagi muayyan hodisalar (fonetik, leksik va b.) orasidagi o‘zaro munosabatlar, aloqalar o‘rganiladi.

Tipologik metodlarning barchasini o‘z ichiga olgan lingvistik tipologiya umumiy tipologiya hisoblanadi. Umumiy tipologiya xususiy tipologik metodlar erishgan natijalarni umumlashtiradi. Dunyodagi barcha tillar sistemalari umumiy tipologik nuqtayi nazardan yagona bir strukturaning turli panxronik variantlari hisoblanadi. Shu sababli ham tipologik tillar umumiy strukturasi turli elementlari o‘rtasidagi aloqasini, umumiy qonunlarini o‘rganadi. Umumiy tipologiya barcha tillardagi umumiy tipologik qonunlarni bayon etadi, til universaliasini yaratadi, ma’lum tillar sistemalari asosida universal qonunlarni boshqa tillar sistemasiga induktiv ravishda tatbiq qiladi.

Chog‘ishtirish metodi – ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarni o‘zaro qiyoslab, chog‘ishtirib o‘rganadi. Ushbu xususiyatga ko‘ra mazkur metod faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o‘rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, bir qancha tillarga oid chog‘ishtirilayotgan, taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda, tavsiflashda, tillararo o‘xshash (analogik) hodisalardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning – chog‘ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e’tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.

Chog‘ishtirish metodi qayd etilgan o‘ziga xos jihatlarga, tomonlariga ko‘ra u muayyan bir til tabiatiga, tuzilishiga, tarkibiga xos xususiyatlarni tavsiflash uchun xizmat qiladigan tasviriy metoddan ham farq qiladi.

Tillarni chog‘ishtirish metodi asosida o‘rganish natijasida ularning fonetik va leksikografik xususiyatlari, tomonlari atroflicha yoritiladi, ma’lum bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida qiyosga asos bo‘lgan tillarning tuzilishini, ichki tomonlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Chog‘ishtirish metodi, ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda ham keng qo‘llaniladi. Demak, mazkur metod nafaqat nazariy fikr va qoidalarni belgilash uchun, balki amaliy maqsadlar uchun ham faol xizmat qiladi. Shuningdek, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog‘ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, chog'ishtirish metodining o'ziga xosliklari quyidagilar bilan ham belgilanadi:

1. So'zlarning turli-tuman qo'shimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so'z va qo'shimchalarni farqlash.

2. Sheva va o'zaro yaqin bo'lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mos kelishlarni tavsiflash.

3. Qat'iy belgilangan adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish hamda o'rgatish metodikasini shakllantirish.

4. Bir tilli (izohli) va ko'p tilli lug'atlarni tuzish.

Umuman, tilshunoslik sohasiga xos eng umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'rni beqiyosdir.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Qiyosiy tilshunoslik metodlarining farqlarini tushuntiring.

2-topshiriq.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonlarini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va boshqalarga yetkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M -ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

Fikr yoki g'oya	Qiyosiy tilshunoslik metodlarining sizning kasbingizdagi ahamiyati
(F) – fikringizni bayon eting	
(S) – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) – fikringizni umumlashtiring	

Nazorat uchun savollar

1. Qiyosiy tilshunoslikda, asosan, qaysi metodlardan foydalaniladi?
2. Qiyosiy-tarixiy metodni tushuntiring.
3. Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari qanday g'oyani ilgari suradilar?
4. Qiyosiy-tarixiy metodning qo'llanishi natijasida qanday amallar bajariladi
5. Tipologik metodga ta'rif bering.
6. Tillarni tipologik o'rganish maqsadini belgilashda qanday yondashuvlar, qarashlar mavjud?
7. Chog'ishtirish metodni izohlang.
8. Chog'ishtirish metodining o'ziga xosliklarini ko'rsating.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.


Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

14-MAVZU TIPOLOGIK TADQIQOT TURLARI (4 soat)

Tipologiya so‘zi grekcha *tipos*-tip, tur, obraz, shakl, belgi va *logos* so‘z, fan so‘zlarining qo‘shilishidan yasalgan. Tipologiya hozirgi davrda hamma fanlar uchun xosdir. Shu nuqtayi nazardan lingvistik tipologiya tushunchasi tipologik makrokategoriyaning bir qismi hisoblanadi. Tipologiya predmet yoki hodisalarning tasniflanish protsessi bilan bog‘liqligiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

- a) lingvistik tipologiya;
- b) nolingvistik tipologiya.



Lingvistik tipologiya tillar sistemalarini bir-biri bilan qiyoslash, til qonunlari va kategoriyalarini umumlashtirishni, ularni tipologik klassifikatsiyalashni o‘rganadi. Lingvistik tipologiya tillarning tipologik tasnifining muhim qonun-qoidalari va usullarini tekshiradi. Shuningdek, tipologiya lisoniy birliklarni biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish jarayonini ham tekshiradi.

XIX asrda tezlik bilan rivojlanish bosqichiga o‘tgan tipologiyaning muhim xususiyati shundaki, u turli tillar – qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar doirasida ish ko‘radi. Ushbu tillarni o‘zaro qiyosiy o‘rganadi. Shu jarayonda tipologiya qiyoslanayotgan tillarning tuzilishidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, izohlaydi.


Qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganishga va tushunishga bo‘lgan intilish tilshunoslikda alohida soha, yo‘nalish bo‘lgan lingvistik tipologiyaning maydonga kelishiga sabab bo‘ldi.

Lingvistik tipologiya tillarning genetik aloqasidan qat’iy nazar ularning struktur va funksional xususiyatlarini qiyosiy o‘rganadi. Lingvistik tipologiya – turli til oilalariga mansub tillarni o‘zaro qiyosiy tadqiq qiladi, ularning umumiy va farqli jihatlariga alohida e’tibor beradi. Lingvistik tipologiya tillar sistemalarini bir-biri bilan qiyoslaydi, til qonunlari va kategoriyalarini umumlashtiradi va ularni tipologik tasniflaydi.

Lingvistik tipologiya – tilni o‘rganishning ikki asosiy aspektidan biri bo‘lgan qiyosiy-tarixiy (genetik) aspektdan ontologik (tadqiqot predmeti xarakteristikasining mohiyatiga ko‘ra) va epistemologik (tadqiqot prinsiplari va usullarining mohiyatiga ko‘ra) farq qiladi: tipologiyada moslik tushunchasining ikki jihatli (shakl va mazmunda) bo‘lishi shart emas, unda qiyoslanilayotgan birliklar shakl yoki mazmun jihatidan cheklangan bo‘lishi mumkin.

Lingvistik tipologiyaning bu turi sof lingvistik tipologiya deyilib, ekstralingvistik tipologiyaga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ekstralingvistik tipologiya tilni mazkur tilga yaqin boshqa belgi sistemalar, masalan, semiotik, kommunikatsion va boshqa belgi sistemalar (sign, system) bilan qiyoslaydi va solishtiradi. Semistik sistema inson tili, hayvon tili, mashina “til”i sistemasi va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Tipologiyaning predmeti quyidagichadir:



Nolingvistik tipologiya lingvistikadan boshqa fanlarda ishlatiladi. Nolingvistik tipologiya masshtabi juda keng bo‘lib, geologiya, tarix, jamiyatshunoslik, botanika fanlarida san‘at va adabiyotda, muzika va umuman fanda turli predmet, hodisa va voqealarning o‘xshashliklari va farqiga ko‘ra klassifikatsiyasini o‘rganadi.

Tipologiya sohasida qilingan ishlar hali umumtipologiya miqyosida ko‘tarila olganicha yo‘q. Tipologiyani turli konkret tarmoqlarga bo‘lish asosan hozirgi davrga xosdir, chunki tipologiya haqidagi fan avval aniq va konkret bo‘lmagan. Umumiy tipologiya tillar sistemalarini umumiy kategoriyalar asosida o‘rganadi.

Topshiriqlar

1-topshiriq.

“Tushunchalar tahlili” metodi


Metodning maqsadi: mazkur metod o‘quvchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

O‘tkazish bosqichlari:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Mazkur tushunchalarning kasbingizdagi o'rnini qanday baholaysiz?
tipologiya		
lingvistik tipologiya		
nolingvistik tipologiya		
til sistemalari		
til universalialari		
tipologiyaning predmeti		

2-topshiriq. Tipologik tadqiqot turlarini klaster metodi asosida tushuntiring.



Nazorat uchun savollar

1. Tipologiya termini qaysi so'zlardan yasalgan?
2. Tipologiya predmet yoki hodisalarning tasniflanish protsessi bilan bog'liqligiga ko'ra nechchiga bo'linadi?
3. Lingvistik tipologiya nimani o'rganadi?
4. Nolingvistik tipologiya nimani o'rganadi?
5. Lingvistik tipologiyaning maydonga kelishiga nimalar sabab bo'ldi?
6. Lingvistik tipologiya tilni o'rganishning qiyosiy-tarixiy aspektidan qaysi tomonlari bilan farq qiladi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

15-MAVZU SHARQ TILLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (8 soat)

Oltoy tillarining unli tovushlari. An’anaviy oltoyshunoslikka oid tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, oltoy tillarida doimiy, bir xil unli tovushlar tizimi mavjud bo‘lib, ularning soni sakkizta, deb belgilangan. Unlilar ikki fiziologik omil: tanglay (palatal) va lab (labial) assimilyatsiyasiga ko‘ra aniqlangan. Birinchisi, alohida so‘zdagi barcha unlilarning yo orqa qatorda, yo old qatorda bo‘lishini; ikkinchisi alohida so‘zlardagi barcha unlilarning lablangan yoki lablanmagan bo‘lishini talab qilgan. Shuningdek, unlilar qisqa yoki cho‘ziqligiga ko‘ra qarama-qarshi qo‘yilgan:

orqa qator		old qator	
lablanmagan	lablangan	lablanmagan	lablangan
keng			
a	o	ä (e)	ö
tor			
ï	u	i	ü

S.A.Starostin, A.V.Dibo va O.A.Mudraklar tomonidan amalga oshirilgan proto-oltoy tili unli tovushlarining rekonstruksiyasida beshta unli: **i, *e, *u, *o, *a* va birinchi bo‘g‘inda keladigan uchta diftong: **iu, *jo, *ja* dan iborat desingarmonik holat tiklangan.

Proto-oltoy tilidagi **ja* diftongi proto-turk tilida **ja*, proto-mo‘g‘ul tilida **a*, proto-tungus-manjur tilida **ia*, proto-koreys tilida **ä*, proto-yapon tilida **a* ni ifodalaydi: p-olt. **jāgi* “yog‘”, p-turk. **jāglik* “ro‘mol, dastro‘mol” < **jāg* “yog‘”, p-t-manj. **ijaGđakta* “ayiqning yog‘i”, p-yap. **age* “qovurilgan”, “yog‘”. Proto-oltoy tilidagi **iu* diftongi proto-turk tilida **(i)ul/(i)o*, proto-mo‘g‘ul tilida **ü[ö]*, proto-tungus-manjur tilida **i*, proto-koreys tilida **i, (j) ə*, proto-yapon tilida **ə[a]* unlilarini ifodalaydi: p-olt. **iūmi* “kiyimning bir turi”, p-turk. **(i)um/(i)om* “ayollar lozimi”, p-mo‘g‘. **ümü (*ömü)* “ishton”, p-t-manj. **(x)im-* “chopon”.

Proto-oltoy tilidagi **a...o* unlisi proto-mo‘g‘ul tilida **a*, proto-tungus-manjur tilida **a*, proto-koreys tilida **a*, proto-yapon tilida **a* unlisini ifodalalar ekan, proto-turk tilida **ja* tovushini beradi: p-turk. **jag(k)u* “yomg‘irpo‘sh” < **jag-* “yog‘moq”, p-mo‘g‘. **agadar* “jala, sharros yomg‘ir”, p-t-manj. *aGaŋGa* “yomg‘irdan saqlaydigan”, *aGaŋGa sara* “soyabon” < **aga* “yomg‘ir”, p-kor. **aksu* “jala, sharros yomg‘ir”, p-yap. **aki* “kuz”.

Unlilarning desingarmonik holati. Turkiy tillardagi tovushlarni yumshoqlik va qattiqlik xususiyatiga ko‘ra ajratish fikri run yozuvlarini aniqlagan daniyalik tilshunos V. Tomsenning nomi bilan bog‘liq bo‘lib, buni S.E. Malov quyidagicha tasvirlagan: “V.Tomsen uchun ayrim harflarning boshqa harflar bilan yondosh qatorda yaqin qo‘shnichilik munosabatida bo‘la olishi, boshqalarining esa bunday munosabatda bo‘la olmasligi oydinlashadi. Bu V.Tomsenning harflarni old qator va orqa qator tovushlariga ko‘ra ikki guruhga ajratish fikriga olib keladi”.

E.A. Umarov turkiy tillarda yumshoqlik va qattiqlik xususiyatining mavjud emasligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Turkiyshunoslar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llanilgan uch yuzdan ortiq lingvistik atamalarning ma’nosini tadqiq qilmay turib, turkiy tillardagi so‘zlarni hind-Yevropa tillariga xos bo‘lgan bo‘lgan yumshoqlik va qattiqlik xususiyatiga ko‘ra transliteratsiya qila boshladilar. “Devonu lug‘otit turk”dagi uch yuzdan ortiq lingvistik

atamalarning tadqiq etilishi, turkiy tillar uchun yumshoqlik va qattiqlik xususiyatining xos emasligini, binobarin, singarmonizm hodisasining mavjud emasligini ko'rsatadi".

Sh.R.Usmanovanning "Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi" (2011) nomli doktorlik dissertatsiyasida proto-oltoy, proto-turk va qadimgi turkiy til davrlarida singarmonizm hodisasining mavjud emasligi ta'kidlangan. Misollar:

- 1) turk. *börk*, p-turk. **börk* "qalpoq", "qoplama, peshanabog", p-olt. **börk*'i "qoplamoq", "qoplama";
- 2) turk. *elek*, *äläk*, *elgek*, *ilgek*, p-turk. **ala*, "g'alvir, elak", p-olt. **älá* "elak, g'alvir", "to'r", "qafas";
- 3) turk. *etik*, *etük*, *ätük*, p-turk. **hätuk* "otda yurganda kiyiladigan, uzun qo'njli kigiz poyabzal", p-olt. **p'ät*'i "otda yurganda kiyiladigan etik", "otda yurganda kiyiladigan shim";
- 4) turk. *jüzük*, p-turk. **jürük* "uzuk", p-olt. **düri* "halqa";
- 5) turk. *kömäč* "o'choqda cho'g'ga ko'mib pishiriladigan non", p-turk. **komač* "sopol idish", p-olt. **k'o'mi* "ko'mmoq".


Unlilarning cho'ziqlik xususiyati. Oltoy tillarida unlilarning qisqalik, cho'ziqlik va juftlik (diftong) tizimi mavjud. Proto-turk tili davri unlilarning cho'ziqlik xususiyati bilan xarakterlanadi. XI asrga kelib, tarkibida cho'ziq unlilar ishtirok etgan ayrim so'zlar ikki variantda: cho'ziq va qisqa talaffuz etila boshlagan. Hozirgi turkiy tillarning aksariyatida unlilarning qisqaligini yoki proto-turk tili davriga nisbatan yanada qisqarganligini ko'rish mumkin. Unlilarning cho'ziqlik xususiyati hozirgi xalaj, yoqut va chuvash tillarida, shuningdek, oltoy, teleut hamda o'zbek dostonlarining ijrosida yaxshi saqlanib qolgan.

Cho'ziq unlilar, asosan, birinchi bo'g'inda keladi: **hätuk* "otda yurganda kiyiladigan, uzun qo'njli kigiz poyabzal"; **jäg-lak* "yolog'i, cho'mich", "tova"; **jäg-lik* "ro'mol, dastro'mol"; **jän-čik* "yonga osib yuriladigan xalta, hamyon"; **jürük* "uzuk"; **kāča* "idish"; **kāp* "qop"; **kōñ-ek* "qo'y terisidan qilingan idish"; **kōñ-lak* "qo'y terisidan tikilgan kiyim"; **kōm* "tuyaning egariga qo'yiladigan kigiz"; **tōlek* "to'shak, to'shama"; **tūr-ba* "ip, qildan to'qilgan to'r xalta"; **čēk-men* "jun matodan tikilgan, yengi uzun, yirmochli ustki kiyim".

Oltoy tillarining undosh tovushlari. Oltoy tillari qiyosiy fonetikasida undosh tovushlar assimilyatsiyasining umumiy qonuniyati; jarangli undosh tovushlarning so'z o'zagida barqaror bo'lishi; so'zlarning bir undosh bilan boshlanishi (biroq hozirgi koreys tilida so'z boshida qo'sh undosh kelishini ham ta'kidlash joiz) kabi umumiy jihatlar bilan xarakterlanadi. Oltoy tillaridagi undosh tovushlar artikulyatsion o'rniga ko'ra: labial (*p', p, b, m, w*), dental (*t', t, d, n*), apikal (*s, š, z, -r-, r'*), palatal (*č', č, ě, ě, j*), lateral (*l, l'*), velyar (*k, g, ŋ, -ŋR-*) va uvulyar (*χ, G*) tovushlar deb tasniflanadi.

Topshiriqlar

1-topshiriq.



2-topshiriq.

“BBB jadvali” bilan mavzuni takrorlash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Nazorat uchun savollar

1. Oltoy tillaridagi unli tovushlar soni nechta?
2. Oltoy tillaridagi unli tovushlarning xususiyatlari qaysi fiziologik omillarga ko'ra aniqlangan?
3. Proto-oltoy tilida qaysi diftonglar mavjud bo'lgan?
4. E.A. Umarov turkiy tillarda yumshoqlik va qattqlik xususiyatining mavjud emasligi haqida qanday fikrlarni bildirgan?
5. Sh.R.Usmanovning qaysi tadqiqotida proto-oltoy, proto-turk va qadimgi turkiy til davrlarida singlarmonizm hodisasining mavjud emasligi ta'kidlangan?
6. Oltoy tillarida unli larning qanday tizimi mavjud?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

16-MAVZU
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIKNING ASOSIY PRINSIPLARI VA
YO‘NALISHLARI
(2 soat)

Chog‘ishtirma tilshunoslik dastlab asosan leksika sohasida rivojlandi. Matnlar uchun glossariylar tuzilib, qiyin so‘zlar ona tiliga tarjima qilindi. Shu tariqa ona tilining so‘z boyligi yangi so‘zlar va ma’nolar hisobiga oshirildi. Endilikda leksikani chog‘ishtirib o‘rganish mumkin bo‘ldi. Leksikada uchta kategoriya ajratildi: ona tilining o‘z so‘zlari, o‘zlashma so‘zlar va mumtoz tillar leksikasi. Keyinroq grammatik tizimlar sohasida chog‘ishtirma tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

Chog‘ishtirma tilshunoslikning obykti qarindosh yoki qarindosh emasligi va tipologik xarakteristikasiga qaramay tillarni o‘rganish hisoblanadi. Chog‘ishtirma tilshunoslikning maqsadi – ikki yoki bir qancha tillarni uning butun darajalari (fonologik, morfologik, sintaktik va semantik darajalari)dagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash uchun chog‘ishtirib o‘rganadi.

Chog‘ishtirilayotgan tillardan biri ba‘zan etalon til (yoki tarjimashunoslikda manba til, source language), deb ataladi. Odatda, tadqiqotchining ona tili manba til vazifasini o‘taydi. U bilan chet tili (target language) chog‘ishtiriladi. Mazkur tillarning o‘xshash va asosan, farqli jihatlari aniqlanadi. Chog‘ishtirish chet tilidan ona tiliga yo‘naltirilgan holda ham amalga oshirilishi mumkin. Chog‘ishtirish obykti sifatida uchta til ham olinishi mumkin. Chog‘ishtirma tilshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosan chog‘ishtirish metodidan foydalaniladi.

Chog‘ishtirish metodi – ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarni o‘zaro qiyoslab, chog‘ishtirib o‘rganadi. Ushbu xususiyatga ko‘ra mazkur metod faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o‘rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, bir qancha tillarga oid chog‘ishtirilayotgan, taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda, tavsiflashda, tillararo o‘xshash (analogik) hodisalardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning – chog‘ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e‘tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.

Chog‘ishtirish metodi qayd etilgan o‘ziga xos jihatlariga, tomonlariga ko‘ra u muayyan bir til tabiatiga, tuzilishiga, tarkibiga xos xususiyatlarni tavsiflash uchun xizmat qiladigan tasviriy metoddan ham farq qiladi.

Tillarni chog‘ishtirish metodi asosida o‘rganish natijasida ularning fonetik va leksikografik xususiyatlari, tomonlari atroflicha yoritiladi, ma‘lum bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida qiyosga asos bo‘lgan tillarning tuzilishini, ichki tomonlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Chog‘ishtirish metodi, ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda ham keng qo‘llaniladi. Demak, mazkur metod nafaqat nazariy fikr va qoidalarni belgilash uchun, balki amaliy maqsadlar uchun ham faol xizmat qiladi. Shuningdek, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog‘ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi. XVII-XVIII asrlardayoq tillarni chog‘ishtirish orqali o‘rganish ikki tilli lug‘atlarning, barcha tillar uchun umumiy grammatikalarning yaratilishiga olib keladi.

Demak, tillarni o‘zaro chog‘ishtirish, taqqoslash har bir tildagi o‘rganilayotgan hodisalarning nafaqat o‘ziga xos jihatlarini, balki ularning umumlisoniy yoki individual lisoniy jihatlarinin aniq yoritib berish imkonini beradi.

Shu bilan birga, chog‘ishtirish metodining o‘ziga xosliklari quyidagilar bilan ham belgilanadi:

1. So‘zlarning turli-tuman qo‘shimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so‘z va qo‘shimchalarni farqlash.

2. Sheva va o‘zaro yaqin bo‘lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mos kelishlarni tavsiflash.

3. Qat'iy belgilangan adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish hamda o'rgatish metodikasini shakllantirish.

4. Rasmiy diniy til, talaffuz, imlo bilan shevalar va boshqa tillar orasidagi farqlarni ilg'ay olish va chog'ishtirma – bir tilda ifodalanadigan ma'no yoki vazifani boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishi mumkinligini aniqlash ustida izlanishlar olib borish.

5. Bir tilli (izohli) va ko'p tilli lug'atlarni tuzish.

Shuningdek, prof. H.Ne'matovning ma'lumot berishicha, arab tilshunosligi yutuqlari va an'analarida ta'lim olgan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamahshariy, Abu Hayyon, Ibn Muhanna kabi turkiyshunoslarning ham asarlarida shu tahlil usulidan foydalanishgan, shu asosda turkiy tillar tavsiflarini berishgan.

X-XIV asrlarda arab (islom) tilshunosligi doirasida shakllangan va rivojlangan eronshunoslik va mo'g'ulshunoslikda ham yetakchi tadqiq usuli qiyosiy-chog'ishtirishma metod edi.

XIX-XX asrlarda turkiy xalqlar va ularning tillari rus davlati va tili bilan yaqin munosabatlarga kirishgach, turkiy va rus tillarini qiyosiy-chog'ishtirishma o'rganish jarayonida bu metod zamonaviy (o'z davri) tahlil va tavsif talablari bilan mukammallashtirildi va sovet chog'ishtirma tilshunosligida ma'lum bir taraqqiyot bosqichini belgiladi – 1930-70-yillarda rus tilshunosligida rus va muayyan turkiy tillarni, milliy turkiyzabaon tilshunosliklarda (o'zbek, tatar, boshqird, qozoq, ozarbayjon, chuvash v.h. tilshunosliklarida) milliy turkiy tillar va rus tili qurilishini chog'ishtirma o'rganish yo'nalishlari rivojlandi.

1-topshiriq. “Jadval” grafik organayzeridan foydalanib chog'ishtirish metodining xususiyatlarini izohlang.

“Jadval” grafik organayzeri

Grafik organayzer talabalarda o'rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llashda talabalar mavzu mohiyatini og'zaki bayon yoki yozma matn ko'rinishida emas, balki asosiy g'oya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

Mashg'ulotda grafik organayzerni qo'llash bo'yicha talabalarga quyidagi jadvallar namunasini taqdim etish mumkin:

№	Chog'ishtirish metodi	Xusuiyatlari
1		
2		
3		
4		

2-topshiriq. O'zbek va o'rganilayotgan tillardagi leksik xususiyatlarni chog'ishtirma metod yordamida tahlil qiling.

Nazorat uchun savollar

1. Chog'ishtirma tilshunoslik dastlab qaysi sohada rivojlangan?
2. Chog'ishtirma tilshunoslikning obyekti nima?
3. Chog'ishtirilayotgan tillardan qaysi biri manba til vazifasini o'taydi?
4. Chog'ishtirish metodi qanday usul?
5. Chog'ishtirish metodining o'ziga xosliklari nimalar bilan belgilanadi?
6. Chog'ishtirish metod X-XIV asrlarda qaysi tilshunoslik doirasida shakllangan?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Lyle Campbell, William J. Poser. Language Classification: -New York: Bloomsbury Academic, 2009.

Mahalliy adabiyotlar:

2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.

3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

17-MAVZU KONTRASTIV LINGVISTIKA VA TARJIMA NAZARIYASI (8 soat)

Kontrastiv lingvistika maktabi vakillarining aksariyati yashirin yoki oshkora tarzda tillararo munosabatlarni belgilash vositasi sifatida tarjimadan foydalanishgan. Shunga qaramay, kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o‘zaro munosabati haligacha munozarali bo‘lib kelmoqda. O‘tgan davr ichida mazkur fanlar orasidagi aniq chegara belgilanmay kelindi. Xususan, Ya.I.Reskerning “Ona tiliga tarjima qilishda obyektiv qonunlarga asoslangan muvofiqliklar haqida”, deb nomlangan maqolasida birinchi marta tarjima lingvistik nazariyasining asosiy qoidalari hisoblangan ob’ektiv qonunlarga asoslangan muvofiqliklar nazariyasi shakllantirilgan edi: “Tarjimani... barqaror lingvistik asossiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu asos til hodisalarini qiyosiy o‘rganish hamda asliyat va tarjima tili o‘rtasidagi muayyan muvofiqliklarni belgilashdan iborat bo‘lishi kerak. Leksika, frazeologiya, sintaksis va stilistika sohasidagi bunday muvofiqliklar tarjima nazariyasining lingvistik asosini tashkil etishi lozim”. Ko‘rinadiki, tillar va lisoniy hodisalarni qiyoslash tarjimaning lingvistik nazariyasi bilan deyarli bir xillik kasb etadi.

Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o‘zaro munosabatiga bunday qarash haligacha tarjimaning barcha muammolarini asliyat va tarjima tilidagi alohida leksik birliklar, morfologik kategoriyalar va sintaktik konstruksiyalarning munosabatlariga borib taqaladigan ayrim nazariyalarda o‘z aksini topmoqda. Aslida tarjima nazariyasi kontrastiv lingvistika bilan emas, balki uning bo‘limlaridan biri bilan bir xillik kasb etadi. Bu haqida L.S. Barxudarov shunday yozadi: “... shuni ta’kidlash mumkinki, tarjimaning lingvistik nazariyasi – “matnning qiyosiy lingvistikasi”dan boshqa narsa emas”.

E.Koseriuning “Kontrastiv lingvistika va tarjima: ularning o‘zaro munosabati” nomli maqolasida tillarning kontrastiv tahlili til ichki tuzilishining turli sathlarida, xususan, til me‘yori (til funksiyalarini odatiy, an’anaviy amalga oshirish), til turi (tilning ichki tuzilish tamoyillari, funksional kategoriyalarini o‘zaro munosabatlarini ko‘rib chiqish), til sistemasini (funksional oppozitsiyalar va ular bilan bog‘liq paradigmatic guruhlar) kabi sathlarda amalga oshishi mumkinligini ta’kidlanadi. E.Koseriuning fikricha, faqat til turi va til sistemasiga yo‘naltirilgan kontrastiv lingvistika tarjima uchun cheklangan qimmatga ega bo‘ladi. Buni tarjimada gap funksional kategoriyalar va funksional birliklar haqida bormasligi bilan tushuntirish mumkin. Boshqa tomondan, kontrastiv lingvistika funksional birliklar qo‘llanishini tadqiq etadigan til me‘yori sathida tarjima jarayoni kechadigan sohani qamrab oladi va u bilan bir xillik kasb etadi.

Kontrastiv lingvistika A va V tillarning funksional birliklari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tadqiq etar ekan, tarjima nazariyasini shakllantirish uchun zarurat bo‘lgan poydevorni yaratadi. Tarjima texnologiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan tarjima transformatsiyalarining aksariyati oxir oqibatda tillarni tarjima qilish jarayonida bir-biri bilan “to‘qnashadigan” funksional-struktur tafovutlarga borib taqaladi. Aksariyat holatlarda kontrastiv lingvistika ma’lumotlari va tarjima nazariyasi ma’lumotlari o‘rtasida sababiy aloqa kuzatiladi. Bunda kontrastiv lingvistika ko‘p holatlarda nima uchun tarjimada u yoki bu amal bajariladi degan savolga javob beradi.

Agar kontrastiv lingvistika A va V tillarni o'rganishga "qiyoslanilayotgan tillar strukturasiidagi birliklarning shakllari va ma'nolarini muntazam chog'ishtirish", nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsa, tarjima nazariyasi asos matnlar bilan bir qatorda, turli til muloqotchilari orasidagi ijtimoiy-madaniy va psixologik farqlarni, shuningdek, tarjima jarayonidagi qator ijtimoiy-madaniy va psixolingvistik determinantlarni ham e'tiborga oladi. Bunda tarjimaning lisoniy kodlar oddiy almashinuvi emas, balki boshqa madaniyat orqali matnni qabul qilishdagi moslashuv hisobga olinadi.

Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o'zaro munosabati ikki qarama-qarshi yo'nalish bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, mazkur fanlarning har biri o'zicha mustaqil bo'lsa, boshqa tomondan, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarjima nazariyasi kontrastiv lingvistika ma'lumotlariga tayangan holda tillar o'zaro munosabatini (struktur turlar, sistemalar va me'yoriy sathlardagi) tarjima jarayoniga ta'sirini izchil o'rganib boradi. O'z navbatida, tarjima ham qiyoslash asosi (tertium comparationis)ni ajratib oladigan yagona manba sifatida kontrastiv lingvistikaga bebaho xizmat ko'rsatadi.

Aytilganlar bilan birga, tarjima nazariyasi ma'lumotlaridan keng foydalanish kontrastiv tahlil uchun yangi istiqbollarni ochadi. Jumladan, K.Xansenning fikricha, agar kontrastiv lingvistika kelajakda nafaqat til sistemalarining mavhum sathlariga, balki til uzusining aniq sathlariga ham e'tibor qaratadigan bo'lsa, u holda foydalanib kelayotgan funksional ekvivalentlik (sistemalar sathidagi ekvivalentlik) tushunchasini tarjima nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ ekvivalentlik (kommunikativ ta'siri hisobga olingan matnlar sathidagi ekvivalentlik) tushunchasi bilan to'ldirishi lozim bo'ladi¹.

Tarjima nazariyasi ham asosiy ma'lumotlar manbasi sifatida kontrastiv lingvistikaga ehtiyoj sezadi. Tillarning struktur turlari, sistemalari va me'yorlari o'rtasidagi tafovutlarda yuzaga chiqqan mazkur ma'lumotlar tarjima tahlili uchun boshlang'ich nuqta vazifasini o'taydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, kontrastiv lingvistika tarjimaga chet tillarini o'qitishdan kam e'tibor qaratmaydi.

Shunday qilib, chet tillarni o'qitishda an'anaviy metod sifatida foydalanilgan kontrastiv lingvistika bugungi kunda tarjima vositasi sifatida qo'llanishga boshladi. Kontrastiv lingvistikadan tarjima vositasi sifatida foydalanish uni asta-sekin mustaqil fanga aylantirmoqda.

Topshiriqlar

1-topshiriq. FSMU texnologiyasi asosida tarjima nazariyasi va kontrastiv lingvistikaning vazifalarini tushuntiring.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonlarini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va boshqalarga yetkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M -ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

¹ Hansen K. Trends and problems in contrastive linguistics // Zeitschrift für Anglistik und Amerikanistik. 1985. Vol. 33, N 2. –P. 127.

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Fikr yoki g'oya	Tarjima nazariyasining vazifalari
(F) – fikringizni bayon eting	
(S) – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) – fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Fikr yoki g'oya	Kontrastiv lingvistikaning vazifalari
(F) – fikringizni bayon eting	
(S) – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U) – fikringizni umumlashtiring	

2-topshiriq. “Bumerang” strategiyasi asosida tarjima nazariyasi va kontrastiv tilshunoslikning istiqbollarini aytib bering.

“Bumerang” strategiyasi

Texnologiya talabalarni dars jarayonida darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so'zlab berish fikrlarni bayon etish, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish, o'qituvchi tomonidan barcha talabalar faoliyatini birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o'qituvchiga tarqatma materiallarning talabalar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o'zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta'minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Kontrastiv lingvistika qanday yo'nalish?
2. E.Koseriuning “Kontrastiv lingvistika va tarjima: ularning o'zaro munosabati” nomli maqolasida tillarning kontrastiv tahlilini qaysi sathlarda amalga oshishi mumkinligini qayd etilgan?
3. Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o'zaro munosabati nimalarda ko'rinadi?
4. Kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining o'zaro munosabati qaysi qarama-qarshi yo'nalishlar bilan tavsiflanadi?
5. K.Xansen kontrastiv lingvistika va tarjima nazariyasining kelajagi haqida qanday fikr bildirgan?
6. Nima uchun tarjima nazariyasi kontrastiv lingvistikaga ehtiyoj sezadi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Байрамова Л.К. Введение в контрастивную лингвистику. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2005.
2. Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. - М.: Наука, 1981.

3. Basil Hatim and Ian Mason. Discourse and the Translator. Series editor Christopher N. Candlin. - Longman Limited, 1997.

Mahalliy adabiyotlar:

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. OTM uchun darslik. –Toshkent: 2013.

18-MAVZU TARJIMANING LINGVISTIK ASPEKTLARI

(4 soat)

“Tarjima nazariyasi o‘z mohiyati bilan ikki til sistemasini ilmiy asosda chog‘ishtirishdan bo‘lak narsa emas”, deb yozadi prof. L.S. Bahrudarov. Demak, qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining izlanish usullari va predmetlari bir-biriga juda yaqin.

Bu umumiylik ba‘zi lingvistlar J. Ketford, Hallidey, J. Ellis, Yu. Nayda va boshqalarni qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi bir butun nazariya deb hisoblashga yoki keyingisi qiyosiy lingvistikaning tarkibiy qismi degan fikrga olib keladi. Masalan, J. Ketford “tarjima nazariyasi tillar o‘rtasidagi ma‘lum munosabatni o‘rganganligi sababli, u qiyosiy lingvistikaning bir shaxobchasi” desa, M.A. Hallidey “avtomatik yoki mashina tarjimasining haqiqiy vazifalaridan biri tillar sistemasini tasvirlash va chog‘ishtirishdan iborat, shu sababli ham tarjima nazariyasi **amaliy lingvistika** (applied linguistics) diskriptiv va qiyosiy lingvistika bilan chambarchas bog‘langandir”, deydi.

Til sistemalari o‘rtasidagi muvofiqliklarni topish to‘la ma‘noda tarjima, degan gap emas albatta. Bu faqat muayan mazmuni bir tildan ikkinchi tilga ag‘darishda tarjimon foydalanadigan formal tomondir.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining bir-biriga o‘xshash va farq qilish mezonlariga qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasini o‘zaro yaqinlashtiradigan asosiy o‘xshashliklar quyidagilardir:

- qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi umumiy mazmun planining tarkibiy qismiga asoslanadi;
- qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi bajaradigan ish jarayoni o‘xshashdir, ya‘ni abstraktlash (mavhumlash)dan korespondentsiyalash (muvofiqlashuv)ga yoki analizdan sintezga o‘tadi;
- umumiy qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasi ikki yoki undan ortiq til sistemalari yaruslararo birliklarining natijalariga asoslanib ish ko‘radi;
- tarjima nazariyasi va qiyosiy tipologiya qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar sistemalarini universal ravishda tadqiq qiladi.

Ayrim kichik sistema yoki kategoriyalarni chog‘ishtirish jarayoning xususiyati va maqsadiga ko‘ra tadqiqotni turlicha o‘tkazish mumkin. Ammo til sistemalarini chog‘ishtirish jarayonini mazmun plani birliklaridan boshlagan maqul:

- mazmun plani har bir tilda, shuningdek, chog‘ishtirilayotgan tillarda ifoda planining turli yarusdagi sinonimik birlikliklarini umumlashtiradi;
- semantik jihatdan o‘xshash kategorial ma‘nolar turli tillarda ifoda planining o‘xshash bo‘lmagan birliklari bilan ko‘rsatilishi mumkin;
- tanlab olingan kategoriya bir tilda maxsus forma bilan, ikkinchi tilda esa periferial belgilar yordamida ifodalanishi mumkin.

Mazmun planidagi birlikning umumlashtiruvchi ahamiyati shundaki, har bir kategorial ma‘no (KM) o‘z atrofiga qator formalarni yig‘a oladi. Bularning hammasi muayyan darajada transformatsion yoki yaruslararo sinonimlardir. Masalan, bir kategorial ma‘no A tilda ham, B tilda ham mustaqil ravishda bir necha kategorial forma (KF)ga mos keladi.

Turli xil yarus birliklari orasidagi muvofiqlashuv darajasi chog'ishtirilayotgan tillarda o'zgarib turadi, ya'ni bir tilda kategorial ma'no maxsus kategoriya formasi bilan ifodalansa, boshqa tilda morfologik kategoriya bilan emas, balki boshqa yarus birliklari bilan ifoda etiladi.

Turli yarusdagi birliklarni ma'lum bir tildagi maxsus morfologik formaning mavjud emasligi hamda muayyan stilistik ottenkalarining aks etishiga ko'ra tanlanadi.

Turli yarusdagi birliklarni tanlashda ko'proq leksik-sintaktik birliklar bilan mos keladigan va leksik jihatdan bog'liq bo'lgan variantlardan foydalaniladi.

Mazmunga asoslanish, chog'ishtirishning boshlang'ich davriga xosdir. Agar o'rganayotgan til tipologiya to'plagan materiallarga ega bo'lsa, unda tadqiqotni ifoda planidan boshlash mumkin, chunki ishning ma'lum qismi haqiqatan ham tipologik tadbirning ikkinchi yarusiga taalluqlidir.

Ifoda planiga asoslanish umumlashtirish bilan emas, aksincha turli kategoriyaga taalluqli omonimik formalarga ajralishga sabab bo'lgan ma'nolar bilan bog'langandir. Masalan, inglizcha books (she bought many books; she books tickets) so'zining formasi ikki yoki uch kategorial ma'noni, ya'ni son, shaxs va zamon kategoriyalarini ifodalashi mumkin.

Mazmun planiga asoslanib, muayyan kategorial ma'no tanlanadi va uni ikki tilda mustaqil ifodalanishining asosiy formalari aniqlanadi va nihoyat moslashuv protsessi o'tkaziladi. Anashu asosda tipologularning **genetik (kelib chiqishi)** qardoshligidan qat'iy nazar til sistemalaridagi izomorflik va allomorflikni aniqlaydi. Masalan, aniqlik va noaniqlik kategoriyasi hamma tillarda mavjud. Ammo qardosh bo'lmagan tillarda geterogenlik sistemasiga bog'liq bo'lgan mazkur kategoriyaning ifoda formalari turlicha bo'ladi. Muvofiqlashuvchi formalar yaruslararo o'zgarib turishi mumkin. Ammo bu formalarning barchasi muayyan kategoriya atrofiga to'planib, yaruslararo teng bo'ladi. "Tillardan-tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so'zlashsalar ham, ammo ularning tafakkur qonunlari bir xildir"- deb yozadi G'. Salomov.

Tarjima jarayoni ham o'z xususiyatiga ko'ra qiyosiy tipologiya jarayoniga o'xshaydi, ya'ni bunda ham tarjimon boshqa biror tilda ijod etishning yangi formalarini qidiradi, chunki "tajima-o'sha ma'noning aynan o'zini saqlagan holda boshqa tilda qayta tuzish demakdir". Bu fikrni ko'p lingvistlar tasdiqlashadi. Masalan, "tarjima jarayoni biror tekstning ma'lum mazmunini bir tildan boshqa bir tilga transferensiyalash (ag'darish)dir"- deb yozadi A. Foster. J. Ellis ham bu fikrga qo'shilib, "Tarjima bir tilda bayon etilgan fikrning ikkinchi tildagi ifodasidir" deydi. L.S. Barxudarovning ta'rificha tarjima: "Bir tildagi nutq faoliyati (tekst)ni o'zgarimas mazmun planini saqlagan holda ikkinchi bir tildagi nutq faoliyati (tekst)ga aylantirish jarayonidir".

Tarjimon tarjima qilayotgan tilga xos teng til vositalarini aniqlaydi. Ma'lum tovushlar ishtirokida ifodalanuvchi mazmun yoki fikr boshqa til formasi vositasida ifodalanadi.

Tipologist va tarjimonning birinchi navbatdagi vazifasi umumiy leksik hamda grammatik ma'noni aniqlashdan iboratdir. Tarjima **avtomatik** va **badiiy tarjimaga** bo'linadi. Odatda keyingisi "Tarjimaning oliy formasi" hisoblanib, tarjimaning barcha formalarini o'z ichiga oladi.

Avtomatikasiz tarjima qilinganida tekstda o'ziga xos o'zgarish yuz beradi.

Tarjimaning har ikkala turida ham ish jarayoni ma'lum bosqichlarga bo'linadi.

Bir tilda ma'lum vositalar bilan ifoda etilgan ma'no ikkinchi bir tilga boshqacha yo'l bilan berilishi mumkin. Masalan, ma'lum ma'no A tilda poeziya (sheriya) tili bilan bayon etilgan bo'lsa, B tildagi tarjimada bu ma'no proza bilan ifodalanishi mumkin yoki aksincha bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Bayron, Geyne, Dante, Gyote, Pushkin, Navoiy she'rlari va poemalari, Shekspir tragediyalari, Shiller dramalari ko'p tillarga proza usulida tarjima qilinganligi va Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari o'zbek tiliga proza shaklida qisqartirib tarjima qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bir tildagi ma'lum ma'no ifoda formasidan qat'iy nazar boshqa tilda, stilistika normalarini saqlagan holda, to'la ifodalanishi mumkin. "Ifoda fo'rmasini e'tiborga olib faqat tekst mazmuninigina bir tildan ikkinchi tilga ko'chirishni tarjima deyish mumkin",-deb yozadi prof. I.R. Galperin.

Demak, tarjimada umumiy ma'noga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Qardosh bo‘lmagan tillar sistemalarining o‘ziga xos geterogenligi til iyerarxiyasining barcha yaruslarida biror kategoriyaning ifodalanish vositasini aniqlashni talab etadi. **A** tilda morfologik yarus bilan ifodalanuvchi kategoriya **B** tilda sintaktik birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Morfologik yo‘l bilan ifodalanuvchi ma’lum Grammatik kategoriyaning ayni bir vaqtda boshqa yarus birliklari bilan ham ifoda etilishi mumkin. Barcha yaruslardagi birliklarning ifodalanish vositalarini aniqlamay turib, turli tillardagi mazmun planining ma’lum qismini to‘la qiyoslab bo‘lmaydi.

Tarjima nazariyasi ham huddi shu asosda yuzaga keladi. Tarjima uchun tugallangan tipologik tadbir tomonidan aniqlangan natijalar, yaruslararo tipologik sinonimlar va transformatsion variantlar muhim ahamiyatga egadir. Qiyosiy tipologiyaning tarjima nazariyasiga yordami shundan iboratki, u tarjimonga nominallashtirilgan va pominallashtirilgan turli transformatsion variantlarni yaratishga imkon beradi. Tarjimon ma’lum bir manoni birinchi tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganida tegishli birlikni qiyosiy tipologiyadan olishi mumkin. Tarjimaning til yaruslari bilan bo‘lgan aloqasini ko‘rsatish uchun quyidagi maxsus bo‘limlarga ajratib beriladi: fonologik tarjima (phonological translation), grammatik tarjima (grammatical translation), leksik tarjima (lexical translation), grafologik tarjima (graphological translation) va boshqalar.

Agar bir tilda ma’lum kategoriya nominallashtirilmagan fe‘l formalari yoki konstruktsiyalar tordamida berilsa, ikkinchi tilda nominallashtirilgan formalarda berilishi mumkin. Masalan: *John asked Mary to come. Jon Merining kelishini iltimos qildi.*

Tarjimani ham qiyosiy tipologiyaga o‘xshab bir yoki bir necha yarusda amalga oshirish mumkin, boshqacha qilib aytganda har qanday til yarusi birligi bo‘lishi mumkin. Masalan: fonema, morfema, so‘z, so‘z brikmasi, gap, tekst va sh.k.lar yarusidagi tarjima va boshqalar. Ammo bir yarusdagi, tarjima to‘la va mukammal bo‘lmaydi.

Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga bog‘liqdir. Qiyosiy tipologiya va tarjimaning nazariy bog‘liqligi shundaki, u ikki yoki undan ortiq tillar vositalarini muvofiqlashtirish qonuniyatlarini topish va o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Uning amaliy tomoni qiyoslash yoki tarjima protsessining bir xilligi deb hisoblash mumkin.

Topshiriqlar

1-topshiriq. “Bumerang” strategiyasi asosida tarjimaning lingvistik aspektlarini izohlang.

“Bumerang” strategiyasi

Texnologiya talabalarni dars jarayonida darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so‘zlab berish fikrlarni bayon etish, qisqa vaqt ichida ko‘p bilimga ega bo‘lish, o‘qituvchi tomonidan barcha talabalar faoliyatini birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o‘qituvchiga tarqatma materiallarning talabalar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o‘zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta‘minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin.

2-topshiriq. Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining asosiy o‘xshashliklarini tushuntiring.

Nazorat uchun savollar

1. L.S. Bahrudarov tarjima nazariyasining mohiyati haqida qanday fikr bildiradi?
2. Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining asosiy o‘xshashliklari nimalardan iborat?
3. Til sistemalarini chog‘ishtirish jarayonini qaysi birliklardan boshlagan maqul?
4. Kategorial ma’no nimaga asoslanib tanlanadi?
5. Tipologist va tarjimonning birinchi navbatdagi vazifasi nimadan iborat?
6. Tarjimaning qaysi shakli “Tarjimaning oliy formasi” hisoblanadi?
7. Qiyosiy tipologiya va tarjima qaysi jihatdan bir-biriga bog‘liq hisoblanadi?

Xorijiy adabiyotlar:

1. Широкова А.В. Сопоставительная типология разноструктурных языков (фонетика, морфология). –М., 2000.
2. Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. –М.: Наука, 1988.
3. Комиссаров В.Н. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. -М., 1978.

Mahalliy adabiyotlar:

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (darslik). -Toshkent, 2013.
5. E. Ochilov. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent: ToshDSHI, 2014.
6. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

1. Qiyosiy tilshunoslik va tarjima nazariyasi
2. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari
3. Qiyosiy, chog'ishtirish va tipologik metodlar
4. Til tizimlarini qiyosiy tavsiflash prinsiplari
5. Qiyosiy tilshunoslik tarixi
6. Til oilalari
7. Hind-Yevropa tillari
8. Oltoy tillari
9. Sino-tibet tillari
10. Glottoxronologiya
11. Leksika, frazeologiya, morfologiya va sintaksisda kongruentlik
12. Leksik birliklar va tarjima
13. Qiyosiy tilshunoslik va chet tillarni o'qitish
14. A.Shleyxer va uning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tadqiqotlariga qo'shgan hissasi
15. I.A.Boduen de Kurtene va tillar tipologiyasi
16. Areal tilshunoslik
17. Tillarni o'zlashtirishda interferensiya muammolari
18. V.fon Gumboldt tadqiqotlarida qiyosiy tilshunoslik masalalari
19. V.N.Yarseva tadqiqotlarida qiyosiy tilshunoslik masalalari
20. Qiyosiy tipologik grammatikaning asosiy kategoriyalari

“Qiyosiy tilshunoslik va tarjima lingvistikasi” fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan bilimlarini mustahkamlash va tarjimaning lingvistik aspektlarining amaliy masalalarni hal qilishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referat va ilmiy doklad tayyorlaydi, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradi, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydi.

Magistrant mustaqil ishni mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda topshirishi mumkin.

1. Adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash.
2. Slaydlar tayyorlash.
3. Grafikli organayzerlar tayyorlash.
4. Misollar to'plash.
5. Lingvistik masalalar tayyorlash.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

KURS ISHI MAVZULARI

1. V. fon Gumboldt va tipologiyaning shakllanishi
2. Lingvistik tipologiya va komparativistika
3. Kontrastiv lingvistika va tarjima
4. Tipologik tadqiqotlar tarixi
5. Tillar tipologiyasida universalialarning ahamiyati
6. O'rganilayotgan til va o'zbek tili fonetik sistemasining qiyosiy tavsifi
7. O'rganilayotgan til va o'zbek tili so'z turkumlarining umumiy tavsifi
8. O'rganilayotgan til va o'zbek tilidagi fe'llarning umumiy tavsifi
9. O'rganilayotgan til va o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning umumiy tavsifi
10. O'rganilayotgan til va o'zbek tilida olmoshlar
11. O'rganilayotgan til va o'zbek tilida otlar
12. O'rganilayotgan til va o'zbek tilida sifatlar
13. O'rganilayotgan til va o'zbek tilidagi gaplarning tipologiyasi
14. O'rganilayotgan til va o'zbek tilida yordamchi so'zlar
15. O'rganilayotgan til va o'zbek tilida hisob so'zlari
16. O'rganilayotgan til va o'zbek tilidagi frazeologik birliklar tipologiyasi

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Affiks	Affix	Аффикс	Lotincha affixus – biriktirilgan, soʻzning qismi. Oʻzakka zid qoʻyiladigan, soʻz yasalishi yoki grammatik ifoda shakllanishiga xizmat qiladigan morfema. Shunga koʻra ikki turga ajraladi. Soʻz yasovchi, shakl yasovchi. Oʻzakka nisbatan joylashishiga koʻra soʻz boshida (affiks), soʻz oʻrtasida (infiks), soʻz oxirida (suffiks) keladi
Affiksal morfema	Affixed morpheme	Прикреплённая морфема	Mustaqil leksik (lugʻaviy) maʼno ifodalay olmaydigan, soʻzning leksik yoki grammatik maʼnolari shakllanishiga xizmat qiladigan qoʻshimcha morfema
Affiksatsiya	Affixation	Аффиксация	Mustaqil maʼnoli morfemaga, soʻzning oʻzak-negiziga soʻz yasovchi qoʻshimchalarni (affikslarni) qoʻshish orqali yangi soʻz yasash
Agglyutinativ tillar	Agglutinative languages	АГГЛЮТИНАТИВНЫЕ ЯЗЫКИ	Agglyutinativ tillar (lot. <i>agglutinate</i> – ulash, yopishtirish)da soʻz oʻzgarishi va soʻz yasalishi asosan affikslarning qatʼiy ketma-ketligiga koʻra amalga oshiriladi. Agglyutinativ tillar guruhiga oltoy tillari, fin-ugor, dravid, bantu tillari kiradi
Akkomidatsiya	Accommodation	АККОМОДАЦИЯ	Moslashuv degan maʼnoni bildirib, yonma-yon turgan tovushlar orasida sodir boʻladi
Allafon	Allaphoneme	АЛЛАФОН	Bitta fonemaga birlashtirilgan fonlar
Allamorf	Allamorpheme	АЛЛАМОРФ	Bir vazifani ifodalovchi, bir necha koʻrinishga ega boʻlgan morf, yaʼni morfemaning varianti
Amorf tillar	Amorph languages	АМОРФНЫЕ ЯЗЫКИ	Bu tillarga asosan xitoy-tibet tillari (xitoy, tibet, tay, vietnam va boshqalar) kiradi. Ularning xususiyatlari soʻzlari koʻproq bir boʻgʻinliligi, affikslar, fleksiyalar yoʻqligi, gapda soʻzlar orasidagi sintaktik bogʻlanish asosan soʻz tartibi, yordamchi soʻzlar va ohang orqali amalga oshirilishidir
Analitik tillar	Analitic languages	АНАЛИТИЧЕСКИЕ ЯЗЫКИ	Tillar turi. Grammatik maʼnolar (soʻzlar munosabati) shakl yasovchi affikslar yordamida emas, balki yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi va intonatsiya vositasida ifodalanadi. Ingliz, fransuz, ispan, yangi fors tillari Analitik tillar hisoblanadi. Shuningdek, Hind-Yevropa oilasidagi boshqa tillarda ham ularning alomatlar mavjud

Aniqlovchi	Attribute	Определение	Gapning ikkinchi darajali bo‘lagi. Narsa, hodisa nomiga tobelanib, uning belgisi (xususiyati, sifati)ni anglatadi
Antonim	Antonym	АНТОНИМ	O‘zaro qarama-qarshi(zid) ma’noli so‘zlar
Artikulyatsiya	Articulation	Артикуляция	Nutq tovushlarining hosil bo‘lishida nutq organlarining harakati va egallagan o‘rni
Artikulyatsiya bazasi	Articulation basis	Артикуляционная база	Nutq tovushlarini hosil qilishdagi artikulyatsiya harakatlarining yig‘indisi
Arxaizm	Archaism	Архаизм	Arxaizmlar odatda zamonaviy tilda o‘z sinonimlariga ega. Arxaizmlar anglatgan ma’no tarixiy so‘zlarga o‘xshab tilda va hayotdan chiqib ketmaydi
Assimilyatsiya	Assimilation	АССИМИЛЯЦИЯ	O‘xshashlik degan ma’noni anglatadi. Yonma-yon turgan tovushlarning o‘zaro ta’siri natijasida o‘xshashlikka uchrashi
Bo‘g‘in	Syllable	Слог	Bir nafas to‘lqinida aytiladigan tovush yoki tovushlar yig‘indisi
Dissimilyatsiya	Dissimilation	ДИССИМИЛЯЦИЯ	O‘xshamashlik degan ma’noni anglatadi. Talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlardan biri o‘zining fiziologik yoki akustik xususiyatlarini o‘zgartirishi
Ega	Subject	Подлежащее	Ega gap kesimini shakllantiruvchi [Pm] – kesimlik kategoriyasida mujassamlashgan shaxs-son (SH) ma’nosini muayyanlashtiruvchi gap kengaytiruvchisi
Epenteza	Epenthesis	Эпентеза	So‘z tarkibida yoq bo‘lgan tovushni orttirilish hodisasi
Fe‘l	Verb	Глагол	Voqea-hodisani harakiti va holatini bildiruvchi so‘z turkumi
Flektiv tillar	Inflexional languages	ФЛЕКТИВНЫЕ ЯЗЫКИ	Flektiv tillar affikslarning o‘zak bilan birikib, unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunday tillarda grammatik ma’nolar fleksiya yo‘li bilan ifodalanadi.
Fon	Phoney	Фон	Nutqning eng kichik mano anglatuvchi birligi
Fonema	Phoneme	Фонема	Tilning eng kichik mano anglatuvchi birligi
Fonetika	Phonetics	ФОНЕТИКА	Tilning tovushlar sistemasini organuvchi tilshunoslikning bir bo‘limi. Grekcha phone – tovush so‘zidan olingan
Fraza	Phrase	Фраза	Nutqning eng katta birligi
Frazeologiya	Phraseology	Фразеология	Frazeologiyada tilning lug‘at boyligidagi ko‘chma ma’noli turg‘un birlikmalar – frazemalar xususida bahs yuritiladi
Gap	Sentence	Предложение	Voqelikni va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan, ohang va mazmun jihatdan

			nisbiy tugallikka ega bo'lgan so'z yoki so'zlar bog'lanmasi
Gaplogiya	Haplology	Гапология	Ikki yonma-yon turgan tovush yoki o'xshash bog'inlardan birining tushib qolish hodisasi
Genetik tipologiya	Genetic Typology	Генетическая типология	Genetik tipologiya tillarni qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga ajratib, bir umumiy manbadan tarqalgan tillarni qarindosh tillar deb ataydi
Grafika	Graphics	Графика	Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tuzilishi
Grammatik kategoriya	Grammar category	Грамматическая категория	Asosan, morfologik kategoriyalar (МК) anglashiladi. Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum turdagi formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlikdir
Grammatik ma'no	Grammatical meaning	Грамматическое значение	So'zning u yoki bu turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, so'zning ma'lum bir grammatik shakl orqali ifodalanadigan ma'nosi
Grammatika	Grammar	Грамматика	Tilshunoslikning katta bo'limi bo'lib morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi
Hol	Modifier	Обстоятельство	Ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, sabab yoki maqsadini, uning bajariishi bilan bog'liq bo'lgan o'rin va paytni bildiruvchi gap bo'lagi
Ichki fleksiya	Inner flexion	Внутренняя флексия	Turli grammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarni o'zgartirish tushuniladi. Bu vosita Hind-Yevropa va semit tillarida ko'p qo'llaniladi
Kelishik kategoriyasi	Category of cases	Категория падежа	Otning boshqa so'z turkumiga munosabati kelishik kategoriyasi orqali ifodalanadi. Bu kategoriya borliqdagi narsa, sifat va hodisalar o'rtasidagi aloqa munosabatlarini belgilaydi. Kelishik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar ot va otlashgan so'zlarning sintaktik vazifasini ko'rsatadi
Kesim	Predicate	Сказуемое	Gapning bosh bo'laklaridan. Ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va hodisaning umumiy belgisini bildiradi
Kombinator o'zgarish	Combinative changing	Комбинаторное изменение	Nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ro'y beradigan o'zgarish
Leksik ma'no	Lexical meaning	Лексическое значение	So'zning material qismi (leksema) bildiradigan ma'no; lug'aviy ma'no
Leksika	Lexics	Лексика	Tilning lugat tarkibini o'rganadigan

			bo'limi
Leksikologiya	Lexicology	Лексикология	So'z va uning lug'aviy ma'nosi, lug'aviy ma'noning taraqqiyot yo'llari, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqidagi bo'lim
Lingvistik tipologiya	Linguistics typology		Tillar sistemalarini bir-biri bilan qiyoslash, til qonunlari va kategoriyalarini umumlashtirishni, ularni tipologik klassifikatsiyalashni o'rganadi. Lingvistik tipologiya tillarning tipologik tasnifining muhim qonun-qoidalari va usullarini tekshiradi. Shuningdek, tipologiya lisoniy birliklarni biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish jarayonini ham tekshiradi.
Ma'no	Meaning	Значение	Obyektni borliqdagi predmet yoki hodisalarning inson miyasida aks etgan tushuncha va mazmuni
Melodika	Melodic	Мелодика	Ton balandligining o'zgarishi. U asosan xitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga ega. Xitoy tilida to'rtta ton mavjud bo'lib so'zning ma'nosi shu tonlardan qaysi biri ishlatilayotganligiga ko'ra o'zgaradi
Metateza	Metathesis	Метатеза	Yonma-yon turgan tovushlarning o'rin almashishi hodisasi
Metonimiya	Metonymy	Метонимия	"Aloqadorlik" asosidagi ma'no ko'chishi
Morf	Morph	Морф	Nutqning eng kichik mano anglatuvchi birligi
Morfema	Morpheme	Морфема	Tilning eng kichik mano anglatuvchi birligi
Morfologik tipologiya	Morphological typology	Морфологическая типология	Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi - tillarni grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishiga ko'ra guruhlariga ajratish; tillarni tipologik tasniflashning bir turi. Bu tasnifga ko'ra, tillarning quyidagi turlari ajratiladi: amorf (o'zak) tillar, maye xitoy, bamana, annam, Jan. Sharqiy Osiyo mamlakatlari xalqlarining talay tillari. Bu tillarning lug'at tarkibi, asosan, bir bo'g'inli so'z o'zaklardan iborat bo'lib, ularda turlanish, tuslanish xususiyatlari yo'q. Shu bois ushbu tillarda so'z yasovchi affikslar, yordamchi so'zlar vazifasini bajaruvchi yuklamalargina mavjud
Morfologiya	Morphology	Морфология	Tilning eng kichik manoli qismini organuvchi tilshunoslikning bo'limi
Murakkablashuv	Complication	Осложнение	Avval tub so'z hisoblangan so'zlarning yasama yoki murakkab so'zlar qatoriga

			o'tib qolishi yoki bir morfemali so'zlarning ikki va undan ortiq morfemali so'zlarga o'tib qolishi
Nolingvistik tipologiya	Nonlinguistic typology	Нелингвистическая типология	Nolingvistik tipologiya lingvistikadan boshqa fanlarda ishlatiladi. Nolingvistik tipologiya masshtabi juda keng bo'lib, geologiya, tarix, jamiyatshunoslik, botanika fanlarida san'at va adabiyotda, muzika va umuman fanda turli predmet, hodisa va voqealarning o'xshashliklari va farqiga ko'ra klassifikatsiyasini o'rganadi
Nutq tovushlari	Articular sounds	Артикуляционные звуки	Nutqning eng kichik ma'no anglatmaydigan bo'lagi
Nutq organlari	Articulation organs	Артикуляционные органы	Tovushlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar
O'zak morfema	Syllabic morpheme	Слоговая морфема	So'zda albatta ishtirok etadigan, leksik (lug'aviy) ma'no ifodalay oladigan morfema
Ohang	Tone	Тон	Ohanga gap urg'usi, pauza, sur'at, ritmlar kiradi
Omonim	Homonym	Омоним	Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar
Ot	Noun	Существительное	Narsa-buyum, mavhumlik ma'nosini bildiruvchi so'zlar
Polisintetik tillar	Polysynthetic languages	Полисинтетические языки	Bu tillarga amerikalik hindular va Rossiyadagi chukot, koryak tillari kiradi. Mazkur tillar ko'p jihatdan hali o'rganilmagan. Polisintetik tillarning asosiy xususiyatlari harakatning turli obyektlari va holati gapning alohida bo'laklari bilan emas (to'ldiruvchi, hol), balki kesimni ifodalovchi fe'l tarkibiga kirgan turli affikslar vositasida ifodalanadi. Uning tarkibiga ba'zan ega ham kiradi. Bu tillarda so'z tushunchasi nisbiydir. Chunki bu tillardagi so'z tushunchasi boshqa tillardagi ayrim tovushlarga to'g'ri kelib, o'zining uzil-kesil ma'nosini faqat gap tarkibidagina kashf etadi.
Pozitsion o'zgarish	Positional changing	Позиционное изменение	Tovushlarni so'zda tutgan o'rni va urg'uni ta'siri natijasida o'zgarishga uchrashi
Qayta tuzilish	Reconstruction	Реконструкция	So'z moddiy tarkibini o'zgarishini qayta tuzilish yo'li deganda so'zdagi morfemalarning chegarasini o'zgarishi va buning natijasida yangi affiksal morfemalarni paydo bo'lishi

Qiyosiy tilshunoslik	Comparative linguistics	Сравнительная лингвистика	Qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar sistemalarini diaxronik va sinxronik nuqtayi nazardan o'rganishdir. Qiyosiy tilshunoslik deganda a) qiyosiy-tarixiy tilshunoslik; b) tipologik tilshunoslik; v) chog'ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik tushuniladi
Qiyosiy-tarixiy metod	Comparativ-historical method	Сравнительный-исторический метод	Qiyosiy-tarixiy metod – o'zaro qarindoshlik munosabatidagi tillarning birliklarini, asosan, tovush, qo'shimcha va so'zlarni tarixiy jihatdan qiyoslash natijasida ularning dastlabki shaklini, qiyofasini, ma'nosini tiklaydi, ular orasidagi o'xshashlikni aniqlaydi. Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari hind va qator Yevropa tillari tarixan bitta asos, umumiy tildan, ya'ni bobo til (prayazik)dan ajralib chiqqan, ushbu tilning bo'linishi, turli tomonlarga tarqalishi natijasida yuzaga kelgan, shakllangan degan g'oyani ilgari suradilar. Qiyosiy-tarixiy metod orqali qarindosh tillarga oid til materiallari asosida dastlab so'zlarning talaffuzi hamda ma'nosi qanday bo'lganligi aniqlanadi, shundan so'ng ular qiyoslaniladi. Natijada tahlil qilinayotgan so'zning eng qadimgi shakli (etimologik shakli) va ma'nosi (etimologik ma'nosi) haqida ma'lumot beriladi.
Ravish	Adverb	Наречие	Ish harakatning qanday tarzda, qanday vaziyatda sodir bo'layotganligini anglatadi
Reduksiya	Reduction	Редукция	Qisqarish manosini bildirib, unli tovushlarning urg'uli yoki urg'usiz holatiga tegishli hodisa
Segment elementlar	Elements of segmentation	Сегментные элементы	Tilshunoslikda nutq tovushlari segment elementlar deb ataladi
Semasiologiya	Semasiology	Семасиология	So'zlarni ma'no xususiyatini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi
Sifat	Adjective	Прилагательное	Predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. Grammatikada <i>belgi</i> so'zi keng tushunchali bo'lib, u rang, maza-ta'm, hajm, xususiyat va shu kabilarni bildiradi
Sinekdoxa	Synecdoche	Синекдоха	Butunning nomi bilan qismini atash, qismning nomini atash
Singarmonizm	Synharmonism	Сингармонизм	Tovushlar uygunlashuvi
Sinonim	Synonym	Синоним	Ma'nodosh so'zlar. Shakli har xil bo'lsa

			ham ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar
Sintaksis	Syntax	Синтаксис	So'z shakllarining gapdagi vazifalarini o'rganadi
Sintetik tillar	Synthetic languages	Синтетические языки	Sintetik tillar (yun. synthetikos - qo'shiluvchi, birikuvchi) grammatik ma'nolar (gapda so'zlarning o'zaro munosabati) shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadigan tillar. Masalan, rus va nemis tillari sintetik tillar jumlasiga kiradi
So'z	Word	Слово	Tilning eng muhim nominativ birligi, u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni nomlaydi
So'z birikmasi	Word - combination	Словосочетание	Ikki va undan ortiq mustaqil so'z grammatik va ma'no jihatdan birikib, so'z birikmasini hosil qiladi. So'z birikmasi hokim so'z va tobe so'zdan tuziladi. Tobe so'z hokim so'zni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi. Turli turkum so'zlari hokim so'z vazifasida kela oladi
So'z tartibi	Order of words	Порядок слов	Grammatik ma'no anglatishning yana bir vositasi. So'zlarning gapda ma'lum tartibda oldinma-keyin joylashtirilishi ham grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi
So'z yasalishi	Making words	Словообразование	Tilshunoslikning leksikologiya, grammatika kabi mustaqil sohalaridan biri bo'lib u yangi so'z yasalishi so'z yasash usullari va umuman, so'z yasaliş bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni o'rganadi
Soddalashuv	Simplify	Упрощение	Qo'shma yo'l bilan yasalgan negizlarni yasama negizlarga o'tish yoki qo'shma negiz bilan yasama negizni tub negizga o'tish hodisalari soddalashuvi
Son	Numeral	Числительное	Narsaning miqdorini bildirgan so'z turkumi
Son kategoriyasi	Category of number	Категория числа	Narsa va predmetlarning sonini, birlik yoki ko'pligini ko'rsatadi. Bu grammatik kategoriya birlik va ko'plikdan tashkil topgan. Ba'zi tillarda birlik va ko'plikdan tashqari juftlikni anglatuvchi ikkilik soni ham uchraydi. Son kategoriyasi faqat otga xos bo'lmay, sifat, olmosh va fe'llarda ham ifodalanishi mumkin, lekin uning grammatik ifoda usublari so'z turkumlari

			va tillarda bir xil emas
Suppletivizm	Suppletivism	СУППЛЕТИВИЗМ	Bir soʻzning grammatik shakllarini har xil soʻz oʻzaklaridan yasalishi
Suprasegment elementlar	Elements of supra segment	СУПРАСЕГМЕНТНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ	Boʻgʻin, urgʻu va ohang
Til	Language	язык	Aloqa vositasi. Jamiyatning oʻzaro aloqa tashkil etishi ehtiyojidan yuzaga kelgan hodisa
Tarjima lingvistikasi	Linguistics of translation	ЛИНГВИСТИКА ПЕРЕВОДА	Tarjima lingvistikasining predmeti ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarini qiyoslash orqali bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda oʻzga tildagi muqobil lisoniy vositalar yordamida qayta yaratishning yoʻl va imkoniyatlarini qidirib topish va shu asosda tarjima amaliyotining sifat oʻzgarishiga olib keladigan nazariy umumlashmalar yaratishdir
Til oilalari	Language families	Языковая семья	Kelib chiqishi jihatidan oʻzaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksik grammatik xususiyatlariga koʻra oʻxshash tillar majmuyi
Tillar tasnifi	Language classification	Языковая классификация	Tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi soʻzlarning paydo boʻlish manbayi, soʻz shakllari va maʼnolariga koʻra ajratish. Umumiy oʻzakli tildan kelib chiqqan tillarga qarindosh tillar deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin boʻlgan tillar guruhi til oilasi deb ataladi.
Til universalialari	Universals of language	Языковые универсалии	Til universalialari barcha tillar sistemalariga xos umumiy lingvistik kategoriyadir. Til universalialari yoki universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni oʻrganadi va deskriptiv hamda boshqa metodlarni tilning umumiy qonunlari bilan bogʻlash va tipologik umumiylikni aniqlashda qoʻllanadi. Universalizm til qonunlarinig umumlashtirilishi demakdir
Tipologik metod	Typologic method	ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД	Tipologik metod – turli tillar sistemalarini umumlashtirib, qiyoslab oʻrganishdir. Tipologik metodda oʻzaro qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillar struktur jihatdan qiyosiy oʻrganilib, ularning tuzilishiga xos xususiyatlar, umumiy va farqli tomonlar aniqlanadi.

To'ldiruvchi	Object	Дополнение	Gapning biror bir bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keluvchi gap bo'lagi
Tovush	Sound	Звук	O'pkadan kelayotgan havo oqimi nutq organlarining ishtirokida yuzaga keladi: a,b,c va h.k.
Tovushga taqlid so'zlar	Imitation sounds	Звукоподражельные слова	Tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar: tars, turs, chars, gumburgumbur. Taqlidiy so'zlar tuzilishiga ko'ra yakka, takror, juft holda bo'ladi (yalt,qars-qars, chars-churs, taka-tum-tak)
Transkripsiya	Transcripton	Транскирипция	Yozuvning nutq tovushlari talaffuzini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan sun'iy (shartli) turi; nutq bo'laklari (tovush, bo'g'in, so'z)ning tovushi sifatlarini yozuvda aniq aks ettirish usuli
Tushuncha	Conception	Понятие	Obyektni borliqdagi predmet yoki hodisalarning inson miyasida aks etgan umumiy tasavvuri
Undosh	Consonant	Согласный	O'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titrashi natijasida yuzaga kelgan tovush
Unli	Vowel	Гласный	O'pkadan kelayotgan havo oqimi to'siqqa uchramasdan hosil qilgan tovush
Universaliya	Universal	Универсалия	Dunyo tillarining deyarli barchasida uchraydigan, barchasi uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlar. Universaliyalar qiyos qilinayotgan qator tillar tuzilishiga xos lisoniy hodisalar, birliklar bilan belgilanadi. Masalan, so'zlarning bir va ko'p ma'noligi, zamon kategoriyasi, omonimlar, so'z turkumlari, unli va undosh tovushlar, terminlar, sinonimlar, urg'u, harakat va holat fe'llari kabilar.
Urg'u	Accent	Ударение	So'zlarda bo'g'inlar, gaplarda so'zlar va so'z birikmalarini ma'lum vositalar bilan boshqalaridan ajratib ko'rsatish
Yordamchi fellar	Auxiliary verbs	Вспомогательные глаголы	Yordamchi fe'llar harakat bildirmaydi (mustaqil ma'noga ega emas). Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi
Yordamchi so'zlar	Auxiliary words	Вспомогательные слова	Yordamchi so'zlar mustaqil (leksik) ma'no bildirmaydi, faqat grammatik ma'no iodalash uchun xizmat qiladi
Chog'ishtirish metodi	Comparative method	Сравнительный метод	Ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarni o'zaro qiyoslab, chog'ishtirib o'rganadi. Bir qancha tillarga oid chog'ishtirilayotgan,

			taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda, tavsiflashda, tillararo o'xshash (analogik) hodisalardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning – chog'ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e'tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.
--	--	--	---